

Nizomiy Ganjaviy

YETTI GO'ZAL



821.512.162-1

6 20

NIZOMIY GANJAVIY

YETTI GO‘ZAL

*O‘zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi*

Maxsus nashr

Bako – 2019

Kitob Ozarbayjon Respublikasining O'zbekistondagi Elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomli Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi asosida chop etildi

Loyiha rahbari:

Samir ABBOSOV
*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat Markazi rahbari*

Taqrizchilar:

Ibrohim HAQQULOVI
*Filologiya fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi
Mumtoz adabiyoti bo'limi boshlig'i*

Sona VALIYEVA
*Filologiya fanlari doktori,
Ozarbayjoning «Kaspi» Ta'lim shirkati va
«Kaspi» gazetasi asoschisi*

So'zboshi muallifi:

Rafael HUSAYNOV
*Akademik, Ozarbayjon Milliy Ilmlar
Akademiyasi Nizami Ganjaviy nomidagi
Adabiyot Muzeyining direktoru*

**Muharrir va nashrga
tayyorlovchi:**

Gulbahor ASHUROVA
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nashrga masul:

Karimulla MAMMAD-ZADE
filologiya fanlari nomzodi

Nizomiy Ganjaviy. Yetti go'zal. B: "Savad", 2019, – 496 b.

"Yetti go'zal" asliyatda "Haft paykar" – Shayx Nizomiy Ganjaviy "Xamsa" sining ta'rtinchi dostonidir. O'qirkimsiz, shoh Bahromning tug'ilishi, Yaman podshosi saroyida tarbiya topishi, zolim otasi vafot etgach, hu ham zolim bo'lgay deb saltanatni unga ravo ko'rishmagani, ammo u vorislik da'vosida qattiq tirib, podsholik tojini ikki arslon orasidan olib chiqib, taxta o'ltirgani, yetti qasr qurib, yetti iqlim podshosining qizlari, yetti shahbonudan afsonalar tinglagani, yetti muazlum shikoyatini eshitib, zolim vazirni dorga osangani, ovga chiqib, bir qulonni quvib, uning izidan g'orga kirib, g'oyib bo'lgani kabi ajoyib-g'aroyib voqealar kinolentasidek ko'z oldingizdan tizilib o'tuheradi. Buyuk Nizomiyning yuksak tafakkuri, cheksiz tasavvuri oldida bosh egasiz. Va beixtiyor uning muhorak ruhiga duoyi xayr o'qib, tarjimon mehnatiga tasannu aytasiz...

© O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat Markazi, 2019

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat A'Kivi

INV No 2023/32-4

Rafael HUSAYNOV,
*Ozarbayjon Milliy Fanlar
Akademiyasi haqiqiy a'zosi,
Nizomiy Ganjaviy nomidagi
Milliy Ozarbayjon Adabiyoti
muzeyi direktori*

Nizomiyning keksaymagan go`zallari

Har dohiy so'nmas nur demakdir va nodir zehn sohiblarini yulduzlarga qiyoslovchilar, shubhasiz, haqdirlar.

Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) bilan bugunning insonini salkam 9 asrlik vaqt ayiradi.

Bu vaqt davomida dunyoga milliardlab inson kelib-ketdi, son-sanoqsiz o'choqlar yonib-o'chdi. Tan olish kerakki, bu asrlar davomida umrini adabiyotga bag'ishlagan minglab shoirlar ham bo'lgan va ularning aksariyati zamon shamollari kabi uchib ketib, nomlari ham xotiralardan o'chgan.

O'ninchi asrdan yigirmanchi asrgacha yaratilgan arab, fors, turkiy tazkiralarda – Yaqin va O'rta Sharqning an'anaviy adabiy shaxsiyatlar ensiklopediyasi deb atash mumkin bo'lgan mingga yaqin manbalarda nomi tilga olingan adiblarning umumiy soni 1500 atrofidadir. Shuningdek, ularning hammasi ham juda mashhur emas. Eng mashhurlarni sanaydigan bo'lsak, bu raqam taxminan 100 atrofida bo'ladi. O'sha 100 donaning ichidagi dohiylar esa harmoq bilan sanagulik darajadadir.

Nizomiy Ganjaviy aynan shu eng tanlanganlardan biridir!

Nizomiy tug'ilib-o'sgan, butun hayoti o'tgan Ganjada muhtasham binolar, azamatli saroylar bo'lganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Lekin vaxt ularni ham hech bir iz qoldirmasdan o'z girdobiga tortib ketdi.

Tarix elagidan o'tib kelajakda yashash, doim barhayot qolish saodati faqatgina eng cho'qqidagi shaxslarga nasib qiladi.

Kimning chirog'i qanchalar porloq bo'lsa, uning chehrasi ham kelajakda shunchalar oydin ko'rinadi. Ba'zilarining faqat nomi, ba'zi shoirlarning esa bir yoki bir necha bayti, ba'zilarining esa alohida "Devon"lari, masnaviylar, qator-qator manzumalari yashaydi.

Lekin shunday cho'qqilar pillapoyasi borki, go'yo ular boshqa zamon qavatida mavjuddirlar. Oddiy taqvimlar, o'zgaruvchi fasllar, o'tgan yillar, kechib borayotgan asrlar ularga tegishli emasdek. Har yangi davr bilan, har kelgan yangi nasllar bilan ular zamondosh bo'la oladilar, har yangi asrda ularning eskirmas so'zi yangi zamon ruhiga mos ravishda yangraydi.

Nizomiy hali tirik vaqtida so'zining buyuk kuchiga ishonar, eng kamida bir asr keyin ham she'rlarini o'qishlariga, nomining unutilmasligiga umid qilar va shunday derdi: "100 yil keyin "Nizomiy qayerda" deb so'rasang, har bayti "Shu yerda, shu yerda" deydi". Lekin Nizomiy yashab ijod qilgan davrlardan sakkiz asr o'tib, to'qqizinchi asr ham yakunlanmoqda va uning nomi ham, she'rlari ham XII asrda qanchalar porloq bo'lgan bo'lsa, hozir ham shunday barq urmoqda. 5 masnaviydan iborat "Xamsa"si yana umrini davom ettirmoqda, ganjalik shayx masnaviylarining har biri har bayti bilan Nizomiyning tirik ekanligini tasdiqlamoqda.

Lekin Nizomiy Ganjaviy umri faqat o'zining bugungi kunda ham o'qilayotgan asarlari bilan davom etmaydi. Nizomiy adabiy maktabining son-sanoqsiz vakillarining yashayotgan meroslari ham Nizomiyning adabiy va abadiy hayot ekanligiga yana bir zamin yaratadi.

Nizomiy Ganjaviy Ozarbayjonning yuksak iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti davri bo'lgan XII asrda, asosiy markazlardan biri bo'lgan Ganja shahridagi Otabeylar davlati davrida adabiy maydonga otilgan edi. Manbalardagi ma'lumotlar va shoir asarlariga tashlangan turli nuqtayi nazarlar shuni ochiq-oydin ko'rsatadiki, Nizomiy Ganjaviy ensiklopedik zukkolikka ega, turli fan sohalari-da chuqur bilimlarga ega bo'lgan mutafakkir bo'lgan ekan.

Sharq uygʻonish davrining eng mustasno siymolaridan biri boʻlgan Nizomiyning soʻnggi ming yillikning arab, fors, turk, hind va boshqa tillarda yozib-ijod qilgan barcha shoirlari bilan qiyoslaganda, hech bir qalam sohibi oʻzidan keyingi adabiy fikr taraqqiyotiga uningchalik ijobiy taʼsir koʻrsatmaganligiga guvoh boʻlamiz.

XIII asrdan Amir Xusrav Dehlaviyning Nizomiy “Xamsa”siga javob yozganidan soʻng bu bir anʼanaga aylangan, oʻrta asrlar musulmon Sharqi adabiy tushunchasida Nizomiyning butun “Xamsa”siga yoki kamida uning beshligidagi masnaviylardan biriga loyiq nazira yoza olish oliy shoirlik imtihoni sanalgan.

Bu imtihondan oʻtganlar, yozgan naziralari adabiy muhitda olqish bilan kutib olinganlar katta adabiyotga ham hujjat olgandek boʻlar edilar.

Dunyo adabiyotida asarlariga turli xalqlar shoir va yozuvchilar orasida Nizomiyga berilgan javoblarchalik yozilgan ikkinchi ijodkor yoʻqdir.

Shuningdek, Nizomiy vafotidan biroz soʻng “Xamsa”siga javoblar faqatgina adabiyotda emas, yangi davr buyurtmasi bilan boshqa ijodkorlik sohalarida ham vujudga kelmoqdadir.

Nizomiy adabiy maktabi Sharq xalqlarining adabiyotlarida yetakchi rol oʻynash bilan birga, musiqa, rassomlik, teatr, kino, sanʼatning boshqa sohalarida ham mushohada etiladi.

Boshqa Sharq shoirlari kabi Nizomiy Ganjaviy ham ijodkorlikka lirik sheʼrlardan boshlab, “Devon” tuzsa ham, unga asl shuhratni masnaviylari, 5 poemaning birlashishidan yaralgan “Xamsa”si olib kelgan.

Birinchi masnaviysi – 1174-1175-yillarda yozgan “Maxzan ul-asror” – “Sirlar xazinasi” asari Nizomiyga buyuk shuhrat olib keldi, adabiy olamga qudratli qalam egasining kelganini namoyish etdi.

Ilk masnaviysining shuhrati yosh shoirmi ruhlantirar, adabiy-madaniy muhitning diqqat markaziga tortar va u boʻshashmasdan yangi masnaviysi ustiga ishlashni boshlardi.

Otabey Shamsiddin Muhammad Jahon Pahlavon Eldegizga (1173-1186) bag'ishlagan ikkinchi masnaviysi "Xusrav va Shirin"ni Nizomiy 1180-yilda tamomlaydi.

1188-yilda yana bir poeziya marvaridini – "Layli va Majnun" poemasini, 1197-yilda esa "Yetti go'zal" asarini yakunlaydi.

Adabiyot tarixiga doir manbalar va adabiyotshunoslik tadqiqotlari alohida poemalarning yaralishiga hukmdor buyurtmalarining sabab bo'lganini tasdiqlasa ham, beshi birgalikda butun bir kompozitsiya yaratgan masnaviylar ularning yagona g'oya atrofida, aniq bir adabiy konsepsiya atrofida birlashganini ko'rsatadi.

Xuddi Nizomiy qayerdan boshlab, qayerda bitirishini avvaldanoq bilgan va ilk poemasidan so'nggi masnaviylarigacha komil inson, mukammal jamiyat, adolatli jamiyat qurish uchun o'z modelini o'rtaga tashlaydi.

Bu ketma-ketlikda davom etgan, chuqurlashib borgan, yangi-yangi rangbaranglikka erishgan ideya-estetik tizim juda yuqoridir va hatto ana shunday qanoatga kelish mumkinki, agar Nizomiy qaysidir masnaviyida bu emas, boshqa syujetni ishlasa edi, yana "Xamsa"ning umumiy manzarasi, mafkura yo'nalishi va estetik prinsiplari o'zgarmas edi, o'sha boshqa mavzular ham umumiy tizimga xizmat qilgan bo'lardi.

Butun ijodining eng monumental asari bo'lgan "Iskandarnoma" poemasining yozilishi shoirning umrining so'nggi davrlarida yuz beradi. Masnaviyning birinchi kitobi "Sharafnoma" 1199-yilda, "Iqbolnoma" nomli ikkinchi qismi 1201-yilda yozildi.

Aynan mana shu ikki yakuniy masnaviyda ilk poemadan kelgan g'oya va tuyg'u oqimi cho'qqiga yetgan, Nizomiy, nihoyat, oliy marom va maqsadlarini tafsilotlari bilan bayon etgan.

Nizomiyning barcha dohiyona asarlari dunyo adabiyotida ko'p sonli muhlislar topganidek, bu qiziqarli va yuksak badiiy saviyali poema ham bir qancha taniqli shoirlar tomonidan o'rganilgan, kuzatib borilgan, va nihoyat, bir qator yaqin syujetli asarlar yaralishiga turtki bergan.

Nizomiy "Xamsa"sining to'rtinchi masnaviyisi, uchinchi poemasi bo'lgan "Yetti go'zal" poemasiga Yaqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida bir qancha naziralar yozganlar bor. Bu naziralar orasidan birinchisi Amir Xusrav Dehlaviyning (1253-1325) "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat") masnaviyidir. Forsiyzabon klassik adabiyoti "oltin davri"ning so'nggi dohiysi Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) jiyani Abdulla Hatifiyning (1454-1521) "Haft manzar" ("Yetti manzara"), dohiy o'zbek shoiri Alisher Navoiyning (1441-1501) "Sabbayi sayyor" ("Yetti sayyora"), ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning (1494-1556) "Haft jom" ("Yetti oyna") asarlari ushbu silsilaning faqatgina kichik qismidir.

Poemaning ta'siri G'arb adabiyotida ham yoyilgan, o'n sakkizinchi asr italyan dramaturgi Karlo Gossining (1720-1806) "Shahrizoda Turandot" nomli asarida "Yetti go'zal"dagi rus shahzodasining novellasi asosiy syujet sifatida olingan. Shu yerda qayd etib o'tish lozimki, nemis shoir Fridrix Shiller (1759-1805) ham o'sha syujetdan o'sha nomdagi asarida foydalangan.

"Haft paykar" masnaviysining sarlavhasini qanday tushunish, qanday tarjima qilish doimo bahs-munozaralarga, turli fikr-mulohazalarga sabab bo'lgan. Bu esa forschadagi "paykar" so'zining ko'p ma'noli ekanligi natijasida yuzaga kelgan. Nizomiy ijodining eng chuqur bilimdoni bo'lgan buyuk sharqshunos Yevgeniy Bertels shunday yozadi: "Biz Nizomiy poemasi nomini "Yetti go'zal" deb tarjima qilamiz, lekin asarga ayni muvaffaqiyat bilan "Yetti portret" nomini ham berishimiz mumkin edi, chunki fors so'zi bo'lgan "paykar" XII asrda bu ma'nolarning har ikkisini ifodalardi".

Lekin poemaning o'zida hech yerda asar nomining aniq qaysi ma'noda kelgani ko'rsatilmagan. Ehtimol, Nizomiy asarning nomi shusiz ham mazmunidan ayon bo'ladi deb o'ylagan. Yoki buni muayyanlashtirishni, qaysi ma'no ustida to'xtalishni o'quvchining ixtiyoriga qoldirgan.

“Xamsa”da faqat bir joyda – “Iskandarnoma” poemasida Nizomiy bosib oʻtgan umr yoʻlini, qalamidan yaralgan asarlarni eslar ekan “Haft paykar”ning ham nomini aytib oʻtgan:

*Charchoq ne hilmasdan kunduz va kecha,
“Maxzan ul-asror”ni yozdim avvalo,
Noziklik, shirinlik yigʻiboq undan,
“Xusrav-Shirin” uchun tuzdim bir doston.*

*Soʻngra boshqa yerda chodirni qurdim,
“Layli va Majnun”ning ishqini qurdim.
Bitirdim dostonni, bir nashʼa topdim,
Otimni “Haft paykar” ustiga chopdim.*

Bu yerdan koʻrinib turibdiki, “paykar” soʻzi goʻzal maʼnosidan koʻra koʻproq samo jismi maʼnosini ifodalaydi.

Fors tiliga tegishli turli izohli lugʻatlarda “paykar” soʻzining “qomat”, “obraz”, “tasvir”, “sanam”, “portret”, “goʻzal qomat” va “goʻzal” kabi maʼnolari berilmoqda. Lekin shu bilan birga izohli lugʻatlar va klassik poetik matnlarda, alohida kontekstlarda bu soʻzning badan, gavda; haykal, haykaltaroshlik obidasi; rasm, tasvir, portret, rasm asari; zohiriy koʻrinish, siymo, surat; yulduz, sayyora, samo jismi va boshqa bir qancha maʼno va taxminlarga ham duch kelinadi.

Soʻzlar bilan zargardek munosabatda boʻlgan Nizomiy masnaviyda “paykar” soʻzini, deyarli, ushbu maʼnolarning hammasida ishatgan. Sarlavhada esa, chtimol, koʻproq soʻnggi maʼno – “yulduz”, “sayyora” maʼnosini nazarda tutgan.

Bu ilk navbatda masnaviyning mazmunidan koʻrinadi.

Poemada hukmdor Bahrom (421-438) uchun dunyoning toʻrt tomonidan olib kelingan 7 mislsiz goʻzal uchun qurilgan yetti saroydan hikoya qilinadi.

Saroylar, oʻsha davrning astrologik mafkurasi boʻyicha, har birining oʻz rangi boʻlgan va har biri haftaning aniq bir kunini

mujassam qilgan yetti sayyora bag'ishlangan: Yashil saroy – oy – dushanba; Qizil saroy saroy – Mars (Marrix) – seshanba; Moviy (ko'k) saroy – Merkuriy (Utarid) – chorshanba; sandal daraxti rangida, ya'ni och jigarrang bo'lgan saroy – Yupiter (Mush-tariy) – payshanba; Oq saroy – Venera (Zuhra) – juma; Qora saroy – Saturn (Zuhal) – shanba; Sariq saroy – Quyosh – yakshanba.

Poemada "Otimni yetti paykar tomon choptirdim" deganda, albatta, shoir majoziy ma'noda o'z ilhom otini samo jismlariga, yulduzlarga qarata choptirganini nazarda tutgan. Buni asos qilib masnaviy nomini "Yetti yilduz" deb tarjima qilib balki to'g'riroq bo'lardi. Chunki bu ayni daqiqada "yetti go'zal" ma'nosini ham ifodalaydi.

Ozarbayjonda an'anaviy ravishda "Haft paykar" masnaviysi "Yetti go'zal", ruslarda esa ayni qarash bilan "Семь красавиц" deb tarjima qilinsa ham, Nizomiyga nazira yozgan bir qancha shoirlar "paykar" so'zining aynan samo jismi ma'nosini qabul qilishgan. Alisher Navoiy Nizomiy "Xamsa"sidagi poemalarga javoblar silsilasidan bo'lgan masnaviyni "Yetti sayyora", Abdurahmon Jomiy yetti poemadan iborat asarini "Haft ovrang" ("Katta Ayyiq burjining yetti sayyorasi") deb nomlagan.

Faqat Nizomiy bilan bog'liq manbalar va o'rta asrlarga tegishli "Xamsa" qo'lyozmalari poemaning boshlang'ichda berilgan asl nomining boshqa bo'lganini ko'rsatadi. Nizomiy masnaviyga "Haft paykar" sarlavhasini umrining oxirida, hamda shartli ravishda bergan. Masnaviy avvaliga bosh qahramon Bahrom sharafiga "Bahromnoma" deb nomlangan. Ya'ni bu ham Nizomiy "Xamsa"sida sobit nomlanma modelidir. Chunki boshqa masnaviyalarda ham bosh qahramonlarning nomlari sarlavhaga berilgan: "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Iskandarnoma".

Nizomiyshunoslik hali-hanuz "Haft paykar"ni kim buyurtma qilganini oxirgacha aniqlashtirmagan. Hozirgi vaziyatda qabul qilingan qanoat shundan iboratki, Nizomiy bu asarni Marag'a hokimi Aloviddin Ko'rpa Arslonning (1174-1278) so'zi bilan qalamga olgan. Masnaviy boshidagi "Kitobning yozilish sababi haqida"

faslida shoir ochiq-oydin Sulaymon uning yoniga maxsus elchi jo'natganini va shohning buyurtmasini unga yetkazganini yozadi. Sulaymon shohning iltimosiga ko'ra, istagan mavzusida misli ko'rilmagan bir asar yozib, uning nomini adabiy lashtirishi kerakligini aytgan.

Y.E.Bertels bu haqida mulohaza yuritar ekan, shoir yoniga elchi jo'natgan buyurtmachi kim ekanligiga qiziqadi.

Buning poema atalgan o'sha Aloviddin bo'lganini taxmin qilish to'g'riroq bo'lardi. Lekin qizig'i shundaki, Nizomiy bu masalaga to'xtalmagan va faqatgina Sulaymonning, ya'ni qudratli hukmdor nomini tilga olish bilan kiyofalangan.

Y.E.Bertels keyinchalik taniqli Eron olimi Said Naftsiyga tayangan holda yozadi, uning fikricha, bu yerda Ozarbayjon amirlaridan biriga ishora qilingan.

Lekin Otabeylar davri bilan bog'liq keng tadqiqotlar bor va tarixiy solnomalar ma'lum bo'lsa ham, ularning hech birida bu nomda amir ma'lum emas.

“Kitobning yozilish sabablari” fasli shunday boshlanadi:

*Shohlik dargohida sirli ishora,
Tushganda ko'zim, men birdaniga
Aylandim qanoti tarang bir qushga,
Mulki Sulaymonga uchdim to'g'riga.*

Buning ortidan shoir qalbiga tushgan bir mavzu aniqlash uchun olib borgan izlanishlardan, ko'hna solnomachilarning tarixiy asarlarini va yuzlab boshqa kitoblarni o'qiganidan so'z ochadi. Nihoyat, Abulqosim Firdavsiyning (935-1020) “Shohnoma” epopeyasini yozganida, foydalangan mavzuda to'xtalishga qaror qiladi. Lekin bu mavzuga yangi, qiziqarliroq maznun berishga urinadi.

Nizomiy yangi masnaviyning buyurtmachisiga murojaatda hech bir boli va arisi bo'lmagan oddiy mum yaratganini yuksak kamtarlik bilan bayon etadi. Endi hammasi Sulaymonning bunga

uradigan muhriга, ya'ni hukmdorning beradigan bahosiga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, agar Sulaymonga masnaviy yoqsa, demak, poema muvaffaqiyatli chiqqan, agar yoqmasa, rad qilsa, demak, asar sayoz bo'lgan.

Shoir ustiga hali hech bir ari qo'nmgan mumga ishora qilish bilan poemaning hali hech kimning ko'ziga ko'rinmaganligini aytmoqchi bo'lgan. Ilk o'quvchi aynan Sulaymon bo'ladi!

Ozarbayjon nizomiyshunosı Rustam Aliyevning farz etishicha, poemada suhbat Kichik Osiyodagi saljuq sultoni Sulaymon shohdan – Nizomiynıng yaqın do'stlik munosabati bo'lgan, 1177-yilda o'zining "Sirlar xazinasi" asarini bag'ishlagan erzinjonlik Bahromshohning qaynisidan bahs qilmoqda. Kichik Osiyo sultoni Qilich Arslonning o'g'li bo'lgan Sulaymon shoh avvaliga Qora dengizning Kichik Osiyo sohillaridagi tuproqlarning hukmdori edi, otasining 1196-yilda akasi Malikshohning o'limidan so'ng esa butun sultonlikning hukmdori bo'lgan, 1204-yilgacha saltanatni boshqargan. Sulaymonshoh poeziya oshuftasi edi, o'zi ham fors tilida she'rlar yozardi (uning bir necha she'ri bizga yetib kelgan), shoirlarga, yozuvchilarga, olimlarga homiylik qilardi. "Sirlar xazinasi" soyasida pochchasi Bahromshoh erishgan shuhrat, Nizomiynıng boshqa asarlari – "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun" poemalarining keng tarqalishi, shuningdek, o'zining poeziyada katta o'rin egallashi Sulaymonshohni Nizomiydan uning sharafiga yangi asar yozishini iltimos qilishiga turtki bo'lgan. Bahromshoh va boshqa viloyatlar hokimlari Sulaymonshohga tobe edilar va u bilan birga Armanistonga yurish qilib, 1200-yilda bu o'lkani zabt etishdi. 1202-yilda esa Gruziyaga hujum qilib, u yerda mag'lub bo'lishdi. Bahromshoh asir tushib, faqatgina katta mablag'da fida bergandan so'ng ozod bo'lgandi. Nizomiy Sulaymonshohni Makedoniyalik Iskandar bilan qiyoslaydi. Bunday muqoyasalar Nizomiyning zamondoshi, Ozarbayjon otabeylari saroy shoiri Zahiriddin Faryobiyning (1156-1201) qasidasida ham bor.

Bularning barchasi va bir qator boshqa faktlar Nizomiy poemani 1196-yilda, Sulaymonshoh Konya taxtiga o'tirib, butun Kichik Osiyoning hokimi bo'lgandan keyin hukmdor istagi bilan yozishni boshlagan degan fikr yuritishga imkon beradi.

Poemaning ilk varianti 1197-yil 31-iyulda yakunlangan, Sulaymonshohga bag'ishlangan edi. Lekin keyinchalik kimdir Sulaymon ibn Qilich Arslon madhi bilan boshlangan va tugagan fasllarni qayta ishlab, Sulaymon shoh nomini Marag'a hokimi Ko'rpa Arslon nomi bilan o'zgartirgan, bu hukmdor o'g'illari va naslini ta'riflagan bir necha baytni unga taqdim qilgan. Buni Nizomiyning o'g'li Muhammad otasining o'limidan keyin qilgan deb taxmin qilinadi, chunki poema Sulaymonshohga jo'natilsa ham, saroy ichida hech qanday aks-sadoga sabab bo'lmagan va shoir o'z poytaxti Konyadan uzoqlarda jang qilayotgan hukmdordan hech qanday mukofot olmagan.

Y.E.Bertels yozishicha: "Bu asar Yevropa sharqshunoslarini butunlay adashtirib yuborgan. Ehtimol, V. Baxer Ko'rpa Arslonning katta o'g'li nomiga duch kelgani uchun Nusratiddinga (Bishkinga) bag'ishlangan deb hisoblagan, "Yetti go'zal"ni ingliz tiliga tarjima qilgan K. Uilson esa asarning Xorazmshoh Aloviddin Takashga (1172-1200) bag'ishlanganini isbotlashga uringan. Albatta, ularning barchasi tadqiqotchilarning sifatsiz qo'lyozmalardan foydalanganliklarining natijasidir, bu qo'lyozmalarni ko'chirganlar tushunmaganliklari uchun Ko'rpa Arslon ismini yo noto'g'ri yozishgan, yoki butunlay o'zgartirib Qizil Arslon yozishgan".

Lekin qayd etish joizki, bir qo'lyozmada va toshbosma usuli bilan nashr etilgan asarlarda "Ko'rpa Arslon" va "Qizil Arslon" o'rniga "Qilich Arslon" deb yozilgan, bu esa Sulaymonshohning otasining ismidir.

Bu esa poemaning Qilich Arslonning o'g'li Sulaymonshoh iltimosi bilan yozilganligi va bu hukmdorga bag'ishlanganligi haqidagi mulohazani yana bir bor tasdiqlaydi.

Nizomiy muvofiq mavzu qidira-qidira shunday yozadi:

*U zamon izladim, tarixga kechdim,
Nozik, tarovatli dostonlar sechdim.*

Nihoyat, Sosoniylar sulolasidan bo'lgan va Bahrom Gur kabi mashhur bo'lgan V Varahrandada to'xtaydi.

Nizomiy masnaviysiga Bahrom Gurni bosh qahramon sifatida tasodifan tanlamagandi. Yevropalik tadqiqotchilarning ta'бири bilan aytganda, Bahrom qaysidir ma'noda Yaqin va O'rta Sharqning "Don Juani" edi. U muhabbat va ishq mojarolariga o'ch edi, katta haramxonasi bor edi.

Nizomiy "Haft paykar" bilan faqat jozibali manzum roman yaratmagan. Shuningdek, tuzilishi jihatdan ahamiyatli yangiliklar kiritgan. Bahrom atrofida turli go'zallarning bo'lishi shoirming masnaviysiga turli hikoyalar qo'shishiga, klassik forsiyzabon adabiyotga yangi badiiy novella janrini olib kelishga imkon berdi. Ayni vaqtda Nizomiy an'anaviy tahkiya uslubidan chetga chiqib, bu masnaviyda ilk bora va hoshiyali, asosiy syujetga yozilgan novellalar bilan birga davom etuvchi manzum roman yaratadi. Poemada jami 17 novella bor va bular asarning asosini tashkil etadi.

Shu jumladan, Bahromning hayot yo'li, kurash va istaklari Nizomiyga ideal hukmdor haqida o'z fikrlarini yana bir bor ifodalash imkonini yaratadi. Bu orqali Nizomiy o'z gumanist ta'limotini, insonparvarlik idealarini tarannum etadi. Shuningdek, shoir bularning barchasini sarguzasht janrida, xalq afsonalari, rivoyatlar shaklida, jalb etuvchi tarzda o'quvchilar qalbiga va shuuriga singdirish imkonini topadi.

Bahromshohning hayoti tarixini Nizomiygacha Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" sida aks ettirgan bo'lsa ham, Nizomiy o'z masnaviy muqaddimasida ko'rsatganidek, oldida butunlay boshqa maqsadlar qo'ygan edi. Firdavsiy turli solnomalar va qo'lyozmalardan yig'gan ma'lumotlarga tayanib, Sosoniy hukmdori Bahromning tarjimai-holini bir tarixiy shaxsiyat sifatida nazmga

tortgan bo'lsa, bu shaxsning aniq obrazini yaratgan bo'lsa, Nizomiy Bahromga tayangan holda umumlashtirilgan badiiy surat yaratishga harakat qiladi. Nizomiy hukmdor Bahromning murakkab xarakterini, bu insonning har qadamda sodir bo'lgan ma'naviy takomillashishini, shuningdek, umrining turli hodisalarini tasvirlagan holda qayta-qayta bularning barchasi asarda yozilganidek bo'lmagan, lekin bo'lishi mumkin edi deb ogohlantiradi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, bularning barchasi tarixiy ma'lumotlar bo'yicha shoirning improvizatsiyalari bo'lishi mumkinligini nazardan chetda qoldirmaslikka ishora qiladi.

Tarixdan ma'lumki, Bahrom Sosoniy hukmdori I Yazdigurdning (339-421) o'g'li edi. Xristian tarixiy manbalari Yazdigurd borasida xayrixohlik bilan gapirar ekan, dindor xochparast ekanligini ko'rsatishsa ham, real tarixiy hujjatlar bu hukmdor zolimligi, mustabidligi bilan ajralib turishini, rohiblarni, a'yonlarni ta'qib etgani va bular sababli ham unga "gunohkor" laqabi berilganini isbotlaydi.

Yazdigurd o'z hokimiyati uchun xavotirlanib, o'g'li Bahromni Erondan uzoqlashtiradi, uni o'zining vassali bo'lgan arab Nemanning yoniga jo'natadi. Shahzodani chin dildan sevgan, uni o'z o'g'li Munzirdan ayirmagan Neman Bahrom uchun Xavarnaq ("Quyoshli") nomli afsonaviy saroy qurdiradi, turli ilmlarni, harbiy san'atni o'rgatish uchun muallimlar yollaydi. Bahrom tabiatan iste'dodli, qad-qomatli va kelishgan edi. Qo'rqmas va jasurdir, juda yaxshi ot minadi, iqtidorli ovchidir, maqsadiga erishish uchun hech bir qiyinchilikdan, azobdan qo'rqmaydi, hayotni va uning lazzatlarini sevuvchi, saxovatli va xushfe'l, mukammal nutqqa ega, sevgi, muhabbat oshuftasidir. U vaqtining ko'p qismini jayron ovida o'tkazar va aynan mana shu sababli "Bahrom Gur" laqabini olgan. Ammo kuchini jayronlarni bekorga o'ldirish, yo'q qilish uchun emas, Nizomiyning ta'limotiga asoslangan holda, inson bilan tabiat orasidagi mutanosiblik garmoniya maqsadida ovlaydi. U jayronlarni tutib o'z tamg'asini urar va yana

qo'yib yuborardi. Bundan keyin hech kimning ularni tutishga yo-ki ovlashga jur'ati yetmaydi.

Poemaning birinchi novellasining mazmunini tashkil etgan hodisa ham uning boshiga aynan ovda tushadi. Ov vaqti jayron Bahromni bir g'orga olib keladi va bu yerda ajdarho bilan jang qilib uni o'ldiradi, jayronning bolasini ozod qilib, xazina topadi. Bir marta Bahrom Xavarnaq saroyining zallaridan birida dunyoning yetti iqlimidan bo'lgan yetti go'zalning rasmiga duch keladi. O'rtada esa o'z shaklini ko'radi. Buni yaxshilik alomati deb hisoblab, o'ziga kelajakda bu go'zallarning hammasini o'z saroyiga to'plashga so'z beradi.

Ovga va hayot lazozatlariga o'ch bo'lgan Bahrom, ayni vaqtda Eronda yuz bergan hodisalarni ham diqqat bilan kuzatib borar, o'z yulduzining porlashini kutardi. Bir kuni Yazdigurd o'lganidan, taxt-toj vorisi Bahromning ham otasining yo'lidan borib, xalqqa zulm qilishidan qo'rqqan eronliklar yumshoq tabiatli bir qariyani taxtga o'tqazishganidan xabar topadi.

Buni eshitgan Bahrom eronliklarga tahdidli maktub yozadi, eronliklar unga adolatsizligi va mustabidligi uchun hokimiyatdan mahrum etilganligini aytib javob yozishadi.

Voqealar rivojini bu nuqtaga yetkazgan Nizomiy Ganjaviy Bahromning tili bilan adolatli shoh haqidagi o'z tushunchalarini ifodalaydi.

Masala shundaki, qadim Eron aristokratiyasining manfaati ifodachilari Daqiqiy (XI asr), Firdavsiy va boshqalari shunday ta'lim tarafdori edilarki, faqat va faqat ilohiy qudrat tomonidan toj baxshida qilingan, iste'dod va hunar berilgan. Shoh naslidan bo'lgan maxsus odamlar hukmdor bo'la oladilar. Faqat Nizomiy bu ta'limotni butunlay inkor etadi. Davriga ko'ra bu juda demokratik bir yondashuv edi va ganjalik donishmand har bir adolatli va aqlli, zahmatkash va balog'atga yetgan odam shoh bo'lishga loyiq degan shiorni ilgari surgan.

Nizomiya ko'ra, bir maromda rivojlangan jamiyatni ana shu yo'l bilan yaratish lozimki, hukm sohiblarining yuragi pastkash ehtirolardan, ochko'zlikdan, loqaydlikdan va hokimiyat o'chligidan poklansin.

Nizomiy pok va tamannossiz muhabbatning jozibador manzaralarini va bu asosida o'z muhabbat konsepsiyasini undan avvalgi masnaviyalarda – “Xusrav va Shirin”, “Layli va Majnun”da vasf etgan. “Haft paykar”da yo'lni davom ettirib, antik va musulmon metafakirlarining mulohazalarini qayta ishlab, o'zidan avvalgilar ta'limotlaridan butunlay farq qiladigan, sifati jihatdan yangi muhabbat konsepsiyasi yaratadi. Nizomiy o'quvchilarini buyuk, muqaddas muhabbatga sig'inishga, xizmat etishga chorlaydi, chunki dunyo muhabbatdan, shuningdek, muhabbat bilan yaralgan. Bu dunyoda joziba qonuni nomli tabiat qonuni mavjud va yer yuzidagi barcha jonli va jonsiz, shuurli va shuursiz borliqlar bu qonunga tobedirlar. Bu qonun – magnit temirni o'ziga tortishiga, qahraboning somonni o'ziga tortishga majbur qilgan, musulmonni Makkaga, otashparastni otashgohga olib borgan qonunga o'xshaydi. Faqat muhabbat qonuni soyasida inson hayoti mazmunli bo'ladi, faqat uning soyasida adabiyotga qovushadi. Muhabbat toshning qalbiga yo'l topib, uni alvonlashtiradi, qiymatini ming barobarga orttiradi, chunki muhabbatning asosiy xususiyati asil qilish, billurlashtirishdir. Muhabbat – u tekkan hammani, hamma narsani yaxshilashtiradi, go'zallashtiradi, xayrxoh va baxtiyor qiladi.

Nizomiy o'z sevgi ta'limotida muhabbatning insonni yuksaltiruvchi, asillashtiruvchi bu ilohiy kuchini alohida qayd etadi.

Nizomiy taxayyulining bahrasi bo'lgan va “Haft paykar”ni bezagan novellalarning har biri emotsional kuchi, mukammalligi, xarakterlar tasvirining porloqligi jihatidan bu janrda dunyo adabiyotining eng diqqatga sazovor durdonalari bilan barobar darajaga qo'yish mumkin. Nizomiy bu novellalarda ilk bora fantastik syujetlardan ham foydalanadi, lekin ularni shunday me'yorda va aniq-tiniq qalamga oladiki, o'quvchi tasvirlangan hodisalarning

haqiqiylikiga ishona boshlaydi. Hikoyalarda insonlar bilan birga parilar, iblislar, jin-shaytonlar ham ishtirok etadi. Lekin bular personifikatsiya prizmasidan o'tkazilib, insonga aylantiriladi, shu sababli har maqomda g'ayritabiiy emas, balki hayotiy ta'sir bag'ishlaydi. Bu ertak-novellalarning ba'zilarining axloqiy xulosasi Nizomiyning asl saodatga erishish uchun inson o'zining shahvoniy hislarini, miskin chtirosolarini jilovlashni bajarishi lozimligi, o'tkinchi hislarga asir bo'lmasligi, harakatlarini aqlga, shuurga tobe ettirishi lozimligi haqidagi fikrining izohiga xizmat etadi. Hind, turk, Xorazm, slavyan shahrizodalar hikoya qilgan ertaklari aynan mana shu maqsadga xizmat qiluvchi novellalardir. Bu novellalarda ma'naviyat jihatdan kuchli bo'lgan qahramonlar saodatga erishadi, hayvoniy hislarning quli bo'lganlar esa do'zahga tushishadi.

Lekin bu novellalar ham ko'p qavatli, ham ko'p planlidir. Ularning tashigan hikmatli yukdan, axloqiy komillikka chorlovchi g'oyasidan tashqari o'rta qo'ygan bir qator muhim badiiy-etik va estetik muammolar hal qilinadi. Masalan, "Bishr va Maliha" novellasida shoir porloq bir obraz – hayotda hech narsa bilan kelisha olmaydigan, hech narsani qabul qilmaydigan takabbur nigilist obraz yaratgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, novellaning salbiy qahramoni istar-istamas ijobiy qahramondan qiziqarli va ko'zga tashlangudek bo'lgan. Bishrning isyonkor Malihadan yagona ustunligi shundaki, u dindorroq va mo'min bo'lgani uchun qalbini qurshab olgan ehtirosni bo'g'a oladi, shu sababli ham saodatga erishadi. Shu bilan birga, shoir Malihaning tili bilan ortodoksal din bilan va rasmiy tasavvuf bilan butunlay zid bo'lgan shunday ilmiy mulohazalar aytadiki, chuqurligiga va yangiligiga hayratda qolasan. Bu mulohazani ham chetga surib bo'lmaydi, balki Nizomiy Maliha obrazini aynan mana shu ideyalarni uning tili bilan yetkazishi uchun yaratgandir.

Shoir poemada ranglarning simbolikasini alohida mahorat bilan ochadi. Har bir novellani oxirgacha o'qigandan va shahri-

zodalar tanlagan u yoki bu rangning ustunligi haqidagi mulohazalari bilan tanish bo'lgandan so'ng o'quvchi ushbu mulohazalarining to'g'riligiga va ma'lum rangning narigilaridan ustunligiga ishonadi. Misol tariqasida hind shahrizodasining hikoyasiga — barcha aholisi qora kiyingan “Behushlar shahri” haqidagi hikoyaga murojaat qilish mumkin. Novella qahramoni bu baloga to'la shahar haqida qayg'uli haqiqatdan xabar topadi. Bu qahramon go'zallar go'zali Turktozning muhabbatini qozonadi, lekin keyin u shunday buyuk iltifotga loyiq emasligi ma'lum bo'ladi. O'z ehtirosini jilovlay olmagan bu qahramon shahvatini sevgilisining kanizaklari bilan so'ndiradi, tabiatning unga bergan ne'matini sarflagach, qoraga burkangan shaharga qaytadi va o'zi ham qora ko'ylak kiyadi. Shu tarzda bu rangning simvolikasini hikoyaning mazmuni ravshan ochib beradi. Bu yerda qora rang insonning qalbida olovning so'nishi, uning ruhining o'likligi, insonning o'z hayvoniy hislari oldida kuchsizligidan tug'ilgan motam bilan ifodalanadi.

Barcha novellalar shu shaklda davom etadi va ularning har biri haftaning bir kuni bilan bog'lanadi. Bobiliston astrologlarining tasavvuriga ko'ra esa haftaning har bir kuni unga homiylik qiluvchi sayyoralar bilan bog'liq.

Masnaviyalarini yozar ekan Nizomiy, odatda, ushbu mavzular bilan bog'liq mavjud tarixiy manbalarni diqqat bilan ko'zdan kechiradi, ulardan ijodiy shaklda foydalanadi. Bu “Haft paykar”gacha bo'lgan poemalarda ham bo'lgan, bu masnaviyda ham bor, “Iskandarnoma”da ham kuzatiladi. Aslida buni Nizomiyning o'zi ochiqchasiga bildiradi. Xo'sh, “Haft paykar”dagi novellalar qanday, bu syujetlar u yoki bu shaklda avvalgi manbalarda ham uchraydimi? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, “Haft paykar”dagi novellalardan oltitasi ilk bora Saljuq hukmdorlari Alp Arslonning (1063-1072) va Malikshohning (1072-1092) vaziri bo'lgan Nizom ul-Mulkning (1063-1072) mashhur “Hukmdorlarning hayoti haqida” kitobida va Muhammad G'azzoliyning (vafoti 1111-yil) “Nasihah ul-muluk” asarida berilgan.

Jami 7 ramzdir. Bu poema esa go'yo boshdan oxirigacha ramzlar zanjiridan iboratdir. Yetti go'zal – dunyoning lazzati, kayf-safo, aysh-ishrat, osudalik va ko'ngilxushliklar ramzidir. Va hukmdor Bahrom barcha qudrat va qobiliyatlariga qaramay, bu ramz – o'tkinchi dunyo lazzatlari oldida ojiz va kuchsizdir.

Bu kuchsizligini u o'zi ham idrok etadi, ham tan oladi. Lekin Nizomiyning ustaligi shundaki, Bahromni barcha botiniy tazodlari bilan taqdim etishni uddalaydi. Botinan azob chekuvchi, kamchiliklarni idrok etgan Bahrom ularga yetarlicha qarshilik ko'rsatsa ham bu illatdan xalos bo'la olmaydi. Jasur va baquvvat Bahromga arslonlar orasidan tojni olish qanchalar oson bo'lsa, bu tojni layoqat bilan boshda ushlab turish shunchalar qiyin edi.

Poemada yetti go'zaldan har birining aytgan ertagi o'zligida yakunlangan, shuningdek, yashashga haqqi bor asardir, lekin bu novellalar kompozitsiya va syujet yo'li e'tibori bilan poemaning umumiy syujeti bilan birlashib ketgan.

Novellalar, shuningdek, shoirning zulm, adolat, xiyonat, yaxshilik va yomonlik kabi umumbashariy g'oyalarining yana-da ayon ravishda ochilishi uchun munosib illyustratsiyalarga aylana-di. Bishr va Maliha, Mahan va do'sti, Yaxshilik va yomonlik haqidagi ertaklar faqatgina masnaviyni qiziqarliroq va o'qisa bo'lguvchi qilish uchun asarga qo'shilgan adabiy bezak elementi emas, aksincha, poemaning asosiy g'oya yo'li bilan bevosita aloqador bo'lgan, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan latif badiiy lavhalardir.

Poema xotimasida Bahromning yo'qolish sahnasi ham juda ibratlidir. Nizomiydan avvalroq buyuk olim va shoir Umar Xayyom Nishopuriy (1-48-1131) hayotning o'tkinchi, xayrxoh amallarning abadiy ekanligi haqiqatini yetkazish uchun Bahrom suratiga yuz tutadi. Forschada "gur" ham Bahromning ovlashni yoqtirgan va taxallusiga aylangan hayvonining nomi, ham "go'r, mozor" deganidir. Xayyom dunyoning foniyiligini bir lahza ham unutma, gur ovlagan Bahromni go'rning – qabrning qanday ovlaganini yoddan chiqarma deb o'git qiladi.

Mahmud Qoshg'ariyning (1029-1102) turk tillari tarixida xizmatlari qanchalar beqiyos bo'lsa, turk tili va turkiyzabon adabiyot bo'ynida so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning ham haqqi shunchalar kattadir.

Nizomiy Ganjaviyni turk dunyosi bilan barcha boyligi, chuqurligi va porloqligi bilan ochishda uning ganjalik ustozga javob yozgan "Xamsa"sining qanchalar ahamiyati bor bo'lsa, Nizomiy adabiy an'alarining turk tilli xalqlar adabiyotida yoyilishida ham Navoiy merosi va shaxsiyatining betakror ta'siri bo'lgan.

Tarix sinovlaridan o'tgan ushbu mislsiz an'analar natijasi shuki, Nizomiy bugun Ozarbayjonda bo'lganidek, O'zbekistonda ham aziz va suyuklidir.

Nizomiy she'rlarini Eram bog'ida, Jannat bog'ida ochilgan gullarga qiyoslagan Navoiy ganjaviy so'z tilsimchisining va uning ortidan hind bulbuli Amir Xusrav Dehlaviyning forscha yozgan masnaviylaridan fors tilida o'qib-tushunadiganlarning zavqlanishini yozgan holda muhim masalada to'xtalgan.

Buyuk vatanparvar, turklik tarafdori sifatida g'urur bilan ovozini baralla qilgan Alisher Navoiy ona tilida yozish bilan asosiy maqsadining turk insonini quvontirish, so'zning go'zalligi bilan ularni maftun etish ekanligini bildirdi.

Millatparvar, yurtsevar shoiming maromi shunda ediki, masnaviylarni forscha o'qib, so'ngra tushungan, shu sababli ham qalbdan lazzat olganlar kabi mening turkim ham bu durdonalarni o'z tilida o'qib, forsçada mutolaa qilganda ololmagan lazzatni butunligi, kengligi bilan his qilsin:

*Menkim bu taraf guzor qildim,
Bu ranjni ixtiyor qildim.
Avvalda ko`p ayladim taamul,
To ko`ngluma kirdi bu taxayyul
Kim, Ganjada ganjlar yoshurg'on,
Har ganjigakim yasadi qo`rg'on.
...Chun forsi erdi nukta shavqi,*

*Ozroq edi anda turk zavqi,
Ul til bila nazm bo'ldi malfuz,
Kim, forsni anglar o'ldi mahzuz.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,
Turk elig'a dog'i bahra bo'lg'ay.*

Nizomiyning har qit'asining, har g'azalining, har ruboiysining, har masnaviysining zamonaviy o'zbek tiliga o'girilishi mohiyati e'tibori bilan vaqtida Navoiy tutgan yo'lga sadoqat ko'rsatish, uning vasiyatiga amal qilish demakdir.

Qardosh o'zbek ellarida ozarbayjonlik Nizomiyning obidasi yuksalib, nomi necha manzilda abadiylashtirilgan. eng muhim esa Nizomiy har kuni shirin o'zbek tilida so'zlamogda.

Nizomiy "Xamsa"sining abadiy yashil budoqlaridan biri bo'lgan "Haft paykar"ning keksaymagan go'zallari fusunkor o'zbek tilining qanotlarida she'r ufqlarida yangi parvozlarini boshlaydi.

XII asrning Nizomiysi XXI asr O'zbekistonida yangidan tug'ilmogda.

"Haft paykar" so'ngsiz borliqning yangi bosqichiga qadam qo'yogda.

Ozarbayjonning ulug' shoiri eskirmas so'zi bilan o'zbek insonining fikriga, tuyg'ulariga va ruhiga yana-da yaqin, yana-da qadrdon bo'lish uchun yangi va bitmas safarini boshlaydi.

**Bismillohir Rahmonir Rahiym
Debocha**

Eyki avval sen eding mavjud.
Yo'q edi o'zingdin o'zga vujud.

Eng avval sensan, bidoyat o'zing,
Eng oxir ham sen, nihoyat o'zing.

Ey osmonni ko'tarib baland,
Yulduzlarni anjuman aylagan,

Ey ganji saxovat aylab ijod,
Jumla borliqni aylagan bunyod.

5

Sensan hama, sendin bor hama,
Sen tufayli omilkor hama.

Yo'q senga barobar, tengu qiyos,
Oqillar o'ylab, o'xshashing topmas.

Ahli nazar nazdida, ey Xudoy,
Har suratda ocharsen chiroy.

Hayot ilakim tirikdir mavjudot,
Sening vujudingdin kelur hayot.

Ey hechdin jahon yaratib, unda
Ham navobaxshu ham navozanda.

10

Noming ul ibtidoiy har nomdir,
Avval og'ozu oxiranjomdir.

Avval-avvalin hisob dasturida,
Oxir ul-oxirin ish oxirida.

Borliqsen, hama sen ila xush,
Senga qaytur, hama senga tegish.

Huzuringga etolmas rohi xayol,
Eshigingga qo'nolmas gardi zavol.

Sen tug'mading, o'zgalar tug'di to,
Sen Xudodirsen, boshqalar havo.

15 Bir andishada yo'lni ko'rsatuvchi,
Bir nuqtada ishni o'rgatuvchi.

Yetmas senga sajda kim. anga suf,
Eshigiga qulf' uza tushar qulf!

Sen berursen subhi shabafro'z,
Kunduzga qush, qushga rizqi ro'z.

Yetding oftobu oyga ato
Ikki saroparda, oqu qaro.

Kunu tun yo'ling uzra yo'lchi,
Borgohingda xizmatkor, qulluqchi.

20 Hukmingsiz yaxshi-yomon etnaslar,
O'zlaricha bir ish ravon etnaslar.

Sen yoritding odamiyda dimog'.
Aqlkim, andin nur olur charog'.

Qanchalar dono bo'lsin xirad,
Huzuringda ojizdir ul abad.

Aqlki notavondir bo'ylakim,
Bu yo'lda ne ermish xayol, vahim?

Joy – gavhar, ul tirik tandadir,
Kishi bilgaymu joyi qaydadir?

25 Gavhar ermassen, senga joy netsin,
Oshufta xayol senga nechuk yetsin?

Rahnamosen, rahnamoying yo'q,
Har joyda hozirsen, joying yo'q.

Bizdirmiz yetti gardundin zarra,
Ul yetti tashqaridin tashqarida.

Aqli kull topib har sari yo'l,
Ko'z ocholmas haybating oldida ul.

Yorug' tongdin qaro tunga qadar,
Fayzi rahmatingga hama mahtal.

30 Holdin holga solursen barchani tek,
Holdin holga solguvchi qani sendek?

Istamasang, yaxshiyu yomon bo'lmas,
Bir kimsa zotiga omon bo'lmas.

Sen berib, olursen toshdin yalang,
Otashi la'lu la'lu otashrang.

Shu jahonu osmonu afsungar,
Eshigingda joy talashgaylar.

Pardangda har kimsa naqshdir, iz,
Hama bechdir, borliq o'zing yolg'iz.

35 Yulduzdin yaxshi-yomon nechuk kelgay,
Ki yaxshi, yomon uni zabun qilgay?

Yulduzdin saodat kelsa kushod,
Munajjimdin chiqardi Kayqubod.

Bormi bir mardumi yulduzshunos,
Xazinaga eltuvchi aylab qiyos?

Ganj berarsen ularga shunchalar,
Yettidin beshni farq etolmaslar.

Har nechuk bor jahonda ilmi nujum,
Yashirin sirru asror ichra o'lim.

40 O'qidim, o'rgandim, seni topdim,
Chun seni topdimu varaq yopdim.

Hammani senga muftalo ko'rdim,
Hamma yuzda seni, ey Xudo, ko'rdim.

Sen ila tirikdir kishi joni,
Tandiringdin chiqar uning noni.

Eshigingda meni sarafroz et,
Xalq eshigidin beniyoz et.



Nonimni kimsaga etmay ravon,
O'zing ber, ey rizq baxshi jovidon!

45

Yoshlikda eshigingda turib yolg'iz,
O'zga bir eshikka burma yuz.

Ne'matimni berguvchi o'zing erding,
Men so'rmasdin uni o'zing berding.

Qaridim eshigingda, etma unut,
Qo'rqinch ayyomdir bu, qo'limdin tut.

Ne dedim, yanglishdir aytganim hama,
Sen manim, jahondir manim hama.

Men sargashtani tashvishi jahon
Dastidin qutqarding, qutqar hamon.

50

Kimga nola chekay, qo'llaguvchi sen,
Rahnamoyim o'zing, yo'llaguvchi sen.

Magar rozi nihon ko'pdir jahonda,
Sendin yashirolmas rozini banda.

Bovujudki sendin sir emas nihon,
O'zing oshkor ayla, o'zing et ayon.

Gar muyassar bo'lmas sendin g'arazim,¹
Sen ila beg'araz erur nafasim.

Murod uldirki, sendin izlay uni,
Suxan uldirki, senga so'zlay uni.

¹G'araz – bu yerda murod, matlab ma'nosida.



Xalqqa rozim aytsam, xor bo'lgum,
Senga so'ylasam, buzrugvor bo'lgum.

Ey panohdiren Nizomiy uzra,
Uni ostonangdin haydama sira.

Sarafroz ayla, qil xudovandlik,
Himmating yetib toji xursandlik.

Hisob kuni baxtin yor etgil,
Garchi darveshdir, tojdor etgil...

Hazrati Payg'ambar sallallohu alaybi vasallam madhi

Pargor xatining ibtido nuqtasi,
Yaratilish xatmi, so'nggi lahzasi,

Yetti ko'hna charx bog'ining navbari,²
Aql toji, so'z tojining gavhari,

Kim desang ul xojayi pokizaroy,
Ahmadi mursal, Rasuli Xudoy!

Payg'ambarlar shohi, unda tig'u toj,
Tig'i – shariati, toji – me'roj.

Ummiydir, lek ummatlarga moya,
Farsh uzra nuru arsh uzra soya.

Besh nog'orosi shariati dinning,³
To'rt suyanchi kurrayi zaminning.⁴

²Navbar – yangi pishgan meva.

³Besh nog'orosi shariati dinning – tavbid, namoz, ro'za, zakot, haj.

⁴To'rt suyanchi kurrayi zaminning – xulafoyi roshidin: Abubakr, Umar, Usmon, Ali

65

Barcha borliqdin o'zi edi maqsud,
Ul Muhammad, rasolati mahmud.

Avvalin gil edi Odamga nusxa,
Muhammad sof erur, boshqalar quyqa.

Osmon so'nggi bor charx urgan kuni,
So'nggi payg'ambar deb atagay uni.

Uning amru nahyi rostlikka mansub,
Nahyi munkar esa, amridir ma'ruf.

Faqirlik faxr edi unga, emas ranj,
Hadis bor faqirlik emasmu deb ganj?

70

Soyani oqartib, etarkan kunduz,
So'zga hojat bormi, quyoshdir u yuz!

Mulk uzra qoyimi ilohiy edi,
Jumla podsholarning podshohi edi.

Ko'kka sapchiganni etar edi past,
Yiqilganni suyab, cho'zar edi dast.

Asillarga aylab yaxshilik,
Razillarga etardi qarshilik.

Gar bir yoqdin etsa qabru shiddati,
Bir yoqdin etardi marhamati.

O'ksik ko'ngillarga marhamu iksir,
Tosh yuraklarga erdi shamshir.

Ularkim, qasdigap bedov shaylamish,
Qahru kiyn etib, bellami boylamish.

Oyu yil kechib, necha zoti ulug'
Huzuriga kelib etardi qulluq.

Baski, Ezid sevib, tanladi uni,
Uni deb yaratdi butkul jahonni.

Ko`zida ul mo`hri "mazog"⁵ edi,
Bu emas ravzasi, boshqa bog` edi.

80 Yetti ming yildan so`ng keldi dunyoga,
Yetti yuz ming sana bo`ysunar unga.

Surmarang to`n kiygan yuksak osmon
Uning eshigiga bosh urar har on.

To`rt sahobasikim, sodiq, vafodor,
Shariat qasrida to`rt devor.

Ofarinlar ul nuri tal`atiga,
Ofarinlar bo`lsin xilqatiga.

Chunon jondirki, har dami madad,
Yerdin osmongacha bari jasad.

85 O`sha jasadlarga jon erdi ul
Hama – taxt, Sulaymon erdi ul.

⁵ "Ma-zaqa" – Qur`oni karimning yigirma birinchi "An-najm" surasi, 17-oyatiga ishora. Tarjimasida "U yana boqmadi"... Payg`ambarimiz (sav) me`roj davomida ko`klardagi gulistonlardan kecharkan, Allohding nido keldi: "Atrofga boqma, diqqating bo`linmasin!".

Nafasi sochib mushki anvoni,
Quruq novdadin to'kib xurmoni.

Mo'jizasi tikandin rutab erdi,⁶
Xurmosi dushmanga tikan, ajab erdi.

Barmog'in sharbati-la o'qtaldi,
Oy tarvuzini ikkiga bo'ldi.

Oyniki ul oldi ilkiga,
Yulduzni ham bo'lardi ikkiga.

90 Ofarin, Haq berdi chun nuri safo,
U tanlaguvchi bo'ldi, bu Mustafo.⁷

Yog'dirsin osmon, ul charxi kabud,
Ham Alloh, ham Mustafoga durud!

Hazrati Rasulilloh sallallohi alayhi vasallam me'roji

Chun sig'madi shu jahonga toji,
Taxtin Arshga yetkazdi me'roji.

Yerni qo'ygil, osmonga bos oyoq,
Deb Jabroil hozir etdi Buroq.

Dedikim: "Fursating etdi, turgil,
Zaminni qo'y, samo sari yurgil!

95 Tangri eshigida kechir deb tunni,
Soqchi etdilar u dargohga seni.

⁶ Rutab – xurmo.

⁷ Mustafo – tanlangan.

Barq sur'atli shu Buroq sening,
Haq eshigida yotoq sening.

Xushxabarin yotoqni keltirdim,
Yetaklab, shu Buroqni keltirdim.

Uni samoga burgil, moh o'zing,
Yulduzlar sori surgil, shoh o'zing.

Olti jihatni uz yetti ildizdin,
To'qqiz ko'kni chor mixga tort keyin.

100

Sokratib o't ko'k avjidan samand,
Qudsiylarning bo'yniga sol kamand.

Atr sochguvchilar xumor senga,
Yashil to'nlilar intizor senga.

Misriy nozaninlar dag'i beqaror,
Oshiq bo'lmishlar senga Yusufvor.

Bor, senga bir nazzora etsinlar,
Turunju qo'lni pora etsinlar.

Osmonni oyog'ing ostiga ol,
Turrayi kokilingdin soya sol.

105

Tun ahliga ravshan charog' bo'l,
Toza rux bo'l, gulshani bog' bo'l.

Tun-tuning sening, vaqt-vaqti duo,
Har neki istarsen, senga ravo.

Farishtalar dargohini supur,
Arsh taxti poyida chodir qur.

Arsh ko'zini yorit qaroqdin,
Farshni parchala yiroqdin.

Toj kiygilki, tojvar bo'lding,
Yo'lga boshlakim, rahbar bo'lding.

110 Ko'tar boshingni samolarga baland,
Ikki olamni et saodatmand.

Yo'lingni chang-g'ubordin xoli qil,
Azmi dargohi loyazoli qil.

Har dargohiga yetarkan qadaming,
Ikki olamda yuksalur alaming".⁸

Jabroildin Muhammadga bu roz
Erdi chun payomi dilnavoz.


Unga aqlu hushini topshirdi,
Bas, xizmatga shay g'ulom erdi.

115 Ikki amin omonati erdi shu chog',
U devdin, bu devi mardumdin yiroq.

Ul amini Xudoy erdi sharti payom,
Bu tingladi, ne erdi sirri kalom.

Charog' erdi qorong'u tunda bul.
Yetdi jondin haq amrini qabul.

⁸ Alam – bu yerda bayroq ma'nosida.



آتش با جلاش در دوزخ
 شاه آران نو بهار شیری
 خود سوزی علی سزای
 نخواست بوی پویا بگری
 چون بر این در بستن
 آتش کمر کوی
 بر روی سپه شکست
 کوی من از کانه زنی

ز آن زمان که پدید
 گشته در آن چرخ
 پرست آرزوی تو
 باد بالای میار
 آید هر که چشم
 آهنگی زت جان
 نه تو که سزای
 همه سر با آن شمشیر

| | | | | | | | | | | | |
|---|--|---|---|---|--|--|--|---|--|--|--|
| <p> ماهی که در کله کله چشمش در آینه من و آینه ای بود یکی تو سینه ای کن می کنی گشت ای آینه ای در روز آفتاب استخوان در می گریه منند در آینه ای خار که کشید در آینه </p> | <p> کس که در آینه کار بود گشت در آینه بر آینه منم بر آینه آینه ای منم بر آینه دست ما در آینه در آینه منم بر آینه دست که در آینه یکی با آینه رفتن آینه در آینه </p> | <p> تا کسی در آینه تا در آینه آینه ای در آینه یکی در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه </p> | <p> تا کسی در آینه تا در آینه آینه ای در آینه یکی در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه آینه ای در آینه </p> | | | | | | | | |
| | | | | | | | | <p> سر کمال سینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> |
| | | | | <p> سر کمال سینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | | | | |
| <p> سر کمال سینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | <p> آینه ای در آینه در آینه ای </p> | | | | | | | | |

Bo'yniga tavq etib kamand osdi,
Bu yanglig' tavqi zar topilmasdi.

120 Sakrabon Buroq otiga mindi,
Qo'lida qamchiyu jilov erdi.

Ustida suvoriyni ko'rgach, hamon
Uchdi ul kabki ulviyxirom.⁹

To'kdi oyog'idin parri tovusiy,
Boshida oy edi taxti kovusiy.¹⁰

Chunon uchar edi, talpinardi chun,
Yo'lida par to'kardi to'rt lochin.¹¹

Har ne ko'rdi, ortda qoldirdi tamom,
Tun tepki yeb, oy chekdi lijom.

125 Vahim edi bu shitob, bu sur'at,
Chaqin edi, tig' edi bu shiddat.

Aql sur'ati – jahongirlikda,
Ruh junbushi – javonmardlikda.

Tulpori yo'lda charchab bo'ldi lang,
Qadamlari kengishmas toru tang.

Choparkan, ostida qutb xoliy edi,
Gar janubiy, magar shimoliy edi.

⁹ Kabki ulviyxirom – yuksakka parvoz etuvchi kaklik.

¹⁰ Taxti kovusiy – Kaykovus taxti.

¹¹ To'rt lochin – to'rt unsur, tuproq, havo, suv va olov.

Uchib, sayr etarkan, samokiy jadval
Ko'rsatardi goh Romeh, goh A'zal.

- 130 Muhammad, chun raqs etarkan Buroq,
Ko'k kitobida ahdardi varoq.

Jahon darvozasiga yo'l ochdi.
Necha osmon osha osmonni kechdi.

Kechdi falak uzra manzillarni bot,
Oti malak yanglig' yozmishdi qanot.

Oyga ul xati hamoiladin
Husn bosh ayladi shamoilidin.

Atorudga berdi kumush siyoq,
Otash ko'radin olib bo'yoq.

- 135 Zuhroga sochib shu'layi mahtobiy,
Yopdi ustiga burqayi siymobiy.

Yo'lining changidin, etarkan me'roj,
Qo'ndirdi quyosh boshiga zarrin toj.

Yashil kiyib chun xalifayi Shom,
Dedi: qizil kiysin endi Bahrom.¹²

Mushtariyni ko'rdi boshog'riq,
Sandal surib, tanin etdi sariq.

Qadamini o'pib ko'kda Ayvon,
Bayrog'i anbarga yo'g'rildi hamon.

¹² Bahrom – bu yerda sayyora, Mars.

140

Xiromon edi ul tun aro eldek,
Qadam bosar edi zanjirli sherdek.

Ham yo'ldoshi horib, susayib qoldi,
Ham Buroq hansirab, holidin toydi.

Borib bir joygakim etdi manzil,
Yiroqdin ko'rindi Jabroil.

Keyin kechdi mahdi Mikoildin,
Keyin joyi Suri Isrofiledin.

Ulardin chun oshib o'toldi,
Rafrafu Sidra ortda qoldi.

145

Hamrohlari qolib yarim yo'lda,
Behudlik daryosi uchradi shunda.

Qatra-qatra kechdi u daryoni,
Lahza-lahza kashf etdi ma'noni.

Azim Arsh avjiga yetishgan zamon,
Niyoz kamandidin yasadi narvon.

Arsh avjidan boshin ko'targan oni,
Xatargoh ko'rdi ul, sirri subhoni.

Hayrat ichra xatargohga etdi,
Rahshat kelib, jilovidin tutdi .

150

Yaqinlashdi g'oyat, shu asno
Muyassar bo'ldi ul vasli Xudo.

Pardani yirtibon necha ming nur,
Yuzi, ko'zlarida etdi zuhur.

Unutdi o'zni va nurga to'ldi,
Xudoni ko'rishga muyassar bo'ldi.

To ma'budini ko'rdi ul hamon,
Barcha ko'rganlarin unutdi tamom.

Dovdirib, o'zni chun berdi qo'ldin,
"Salom" yangrardi o'ngu so'ldin.

155

Balandu past, oldu ket, chapu rost
Ketib, bir jihat qolmishdi, xolos.

Olti jihat yo'qolsa, ne etsin?
Ham jahon, ham jihat nari ketsin!

Jihatga bejihatning ne ishi bor?
Jihatdin bejihat erdi oshkor.

To jihat nazarga chekmas niqob ul,
Tashvishu iztirobda qolgay dil.

Jihat diydadin chun nihon bo'lgay,
Gar bejihatni ko'rish chunon bo'lgay.

160

Nabiydin qolmishdi nafas unda,
Haqdin o'zga yo'q erdi kas unda.

Jihatki ul sig'imda chun kichik,
Bejihatni sig'dirar nechuk?

Chun Nabiy Xudoni ko'rdi tamom,
Belabu beog'iz eshitdi kalom.

Sharbati xos ichib, kiydi xil'ati xos,
Topdi Haq qurbidin baroti xalos.

Saodat chun qadah, ma'rifat soqiy,
Simirdi, bir qatra qolmadi boqiy.

165 Yuz minglarcha salom qo'lladi uni,
Samodin erga yo'lladi uni.

Har neki keltirdi, ayladi hamon
Gunohkorlar, yoru do'stlarga ehson.

Ey Nizomiy, jahonparastlik nechun?
Balandlik turganda bu patslik nechun?

Jahd ayla, mulki sarmaday topgaysen,
Asl dini muhammadiy topgaysen.

Aqlingga aqidang suyanch ersa bot,
Shariat nuridin toparsen najot.

Kitob nazmi sababi

170 Ishorat ayladi menga pinhoni
Ul saropardayi sulaymoniy.

Qanot yozdim qush kabi shodon,
Sulaymon eshigin tutgaymen makon.

Ishorat bo'ldi chun farxundahol,
Ki "Hayit shomida ko'rinur hilol.

Hiloling tun pardasi ichra
Nozik bo'lsin, kimsa ko'rmasin sira.

Ayon etsin sehr sozingni ul,
Sohirona xayol parvozingni ul.

175 May qul-qulin olovga et ulfat,
G'ulg'ula sol, olovni gurillat.

Muzlagan mumlarni erit barchasin,
Andoq yumshatgilki. ko'ngil yayrasin.

Taxting tor yo'lakdin chiqar betamah,
Cho'loq eshak minib, uni niqtama.

Yurit nofa ochar qalaming, shoir,
To saboh yellari ufursin atir.

Buyur, yel o'ynasin abir uzra,
Mushk taratsin yashil harir uzra.

180 Gar o'zingga ranju zahmat aylarsen,
Shoh ganjin ul varaqqa jamlarsen.

Ranju mashaqqat ganj keltirur,
Kishiga ganjni ranj keltirur.

To uzum boshda yig'lamas zor,
Oxirda kulgu ulashmagay zinhor.

Ustuxon ersa, ilik bo'lmasmu?
Asal bor joyga pashsha kelmasmu?

Suvsiz bulut bo'lib, chekma iztirob,
Tandiringni qizit, shimoyingni yop.

185

Ko'rsat hunaringni ertayu kech,
Go'zallar yuzidin niqobin yech!"

Bas, menga bo'ylakim talab etdi,
Sevinchim keldiyu g'amim ketdi.

Kirishdim ishgayu kitob izladim,
Kitoblardin necha ma'no ko'zladim.

Podsholar tarixi etilmish bayon,
Ko'rinardi har shoh holati ayon.

Ularni bir dono, mardi adab
Tiznishdi nazm ipiga bittalab.

190

La'l zarralar to'kilmishdi yerga,
O'shal ushoqlar ham asqotar menga.

Ularni jam etib, chekib ranju ranj,
Yaratdim bo'ylakim gavhari ganj.

Toki ulug'lar qadriga yetib,
E'zozlasinlar, mukarram tutib.

Chala aytilgan so'zga so'z qo'shdim,
Nim teshilgan durni to'la teshdim.

Ko'rdimki, har ne rost erdi, durust,
O'rniga qo'ydim bekamu ko'st.

195

Tarkim etdim bo'yla jahd aylab,
To yaralgay ziynatu naqshi ajab.

Izladim boz nomalarni chunon,
Jahon bo'ylab sochilmishdi har yon.

Ki so'zlari arabchayu dariy,
Mualliflari – Buxoriy, Tabariy.

Necha nusxalarkim, parokanda,
Ko'milmishdi durdonalar unda.

Har varaqki, jazb ayladi meni,
Olib, xaltamga soldim uni.

200

Fikrimni jamlab, chekib qalam,
Qog'ozga tushirdim ilk jumlani ham.

Aytilganni qaytarmadim atay,
Toki o'qib donolar kulmagay.

Majus dayrin bezagandek go'yo,
Yetti go'zalga berdim men oro.

Toki sakmo go'zallari bir gal
Go'zallarimga solsalar nazar.

Qilib hamoroyishu hamkorlik,
Har biriga yetsalar yorlik.

205

Ul zamonkim yetti xat yor bo'lgay,
Har biridin nuqta oshkor bo'lgay.

Naqshband o'n naqsh solib o'zdin,
Bir sarrishtani qochirmas ko'zdin.

Bir sarrishta xatdin judo bo'lur,
Barcha sarrishtalar xato bo'lur.

Kishikim rishtaga to'g'ri ketmamish,
To'g'rilikka biz qadar yetmamish.

Men musavvirmen rishtalar uzra,
Sarrishtani qo'ldin qo'ymagum sira.

210

Rishta bittadir, bordir xatari,
Sochilmasin deyman durri guhari.

Inson zoti borki, suv kechar necha,
Toki bir ichkulik suvga yetguncha.

Suv kuydilarki, u mardum bo'ldi,
Quyilgan suvlar bari gum bo'ldi.

Menki oldim suvdin durri sadaf,
Ravo ermasmi jindak obu alaf?

So'zimning chun shahdu sharbati bor,
Saxo etmasmi menga e'tibor?

215

Qichqirgum saxo deb muncha men,
Ish toledadir, men hech kimsamen.

Nisbati ularning Aqrabu Qavsiy,
Buxli Mahmudu bazli Firdavsiy.¹³

¹³ Buxl – baxillik, xasislik. Bazl – chson, saxiylik.

Asadiyga suyanch bo'ldi Bo'dalaf,
Saodatmand erdi har ikki taraf.

Men agar so'zim qiymatin aytsam,
Suvim bulutdin, durim durri Adan.

Sadaf gar bulutdin saxo ko'rgay,
Bulut ham sadafdin vafo ko'rgay.

220

Bulut gar havodin nisor aylar,
Sadaf uni durri shahvor aylar.

Bu so'z ila marhamatdir tilagim,
Shoh fayzidin madaddir tilagim.

Madad joyi borgah oldi bo'lgusi,
To'rt karra to'rt o'n olti bo'lgusi.

Jabroilman, shu jinnivor qalamim
Sahifaga shundoq chekar raqamim.

Bu fusunkim, so'zimda jonso'zdir,
To'ning yangila, fasli Navro'zdir.

225

Nihon ayla bu ishni devdin to,
Yolg'iz Sulaymon bo'lsin ogoh.

Meni andin izla, mag'zim o'shal,
Men kimman? Bir parcha teriman magar.

Faqat bir mum, uzuk muhridin yiroq,
Ham asaldin, ham aridin yiroq.

To Sulaymon uzukdin naqsh urgay,
Muhrimni xush suratga keltirgay.

Yuzi gar qizil yo qaro erur,
Naqshbandi dabiri shoh erur.

- 230 So'z ichra chun maqomga yetdim, bas,
Xolis zar bergum, qalbakimas.

Hech kimsa olmasa abirim ul.¹⁴
Kifoyat menga mushki haririm ul.

Kechmish hodisalardin shu qadar
Hech kimsa olmadi mendek samar.

Ustozlarki aytganni aytdilar,
Horib, charchadilar, yotdilar.

Biz esa ularning o'rmda qoldik,
Ulardin hikmatu nasihat oldik.

- 235 Agarchi alfozda xiyla tarsirmiz,¹⁵
Maonyda mohiri tadbirmiz.

Biz puchak po'st ko'rib uyqu,
Po'stsiz mag'zlarni oqizdik suvda.

So'z ochib so'z aro yangilikdin,
Yuz o'girmadik eskilikdin...

¹⁴ Abir – anbar.

¹⁵ Taqsirmiz – nuqsonligimiz.

Durdona yaratib qoldim benavo,
Piyolaga suv deb to'ldirdim havo.

Ul qaysi gavharki, men gavharshunos
Qiymatin baholab, aytmadim ro'y-rost.

240 Xazinalar ochib necha bir taxlit,
Ganjinalarga topmadim kalit.

Nozu ne'matlarni shaylab nuqul,
Astag'firullohga erurmen mashg'ul.

Ey Nizomiy, masihiydir daming,
Donishingdir daraxti Maryaming.

Ne xush, daraxt ostida bordirsen,
Va o'shandin baxtiyordirsen...

Podshohi sa'id Alouddin Karp Arslon haqqiga duo

Ey dil, bu xayolsozlik tokay,
Xayol ila xayolbozlik tokay?

245 Kerakdir aylab xayoldin guzarim,
Andin yiroq tutay nazarim!

Maqsadim shu pargor ichra bu gal
To'rt fasl yaratsam bahordek go'zal.

Avvalin fasl Haqqa ham,
Yaralmish uning fazlidin dunyo.

Keyin xutbayi Nabaviy, andin
Shu dunyo chiroy ochdi yangidin.

So'ngra esa – duoyi shohi jahon,
Dur sochar ul duodin dahon.

250

So'nggi fasl – nasihatomuzlik,
Tilab podshoga fathu piruzlik.

Podshoki, anga yetti iqlim
Yetar ganju davlatin taslim.

So'zi siyosatda mulk hujjati,
O'zi shohlarning shohi, oyati.

Xusravu tojbaxshu taxtnishon.
Ganj sochar toju taxtiga davron.

Mamlakat tayanchi Alouddin,
Hofizu nosiri zamonu zamin!¹⁶

255

Nomi rutbada oliy maqom,
Ravodir falakdin o'tsa mudoru.

Falak yuksak bo'lmasa, u past,
Yuksaklik hech falaksiz bo'lmas.

Shoh Karp Arslon toju taxt uzra,
Alp Arslondin afzal ko'p karra.

Mahdiydir ul, oftobi mahd,
Davlati – xatmi oxirin ahd.

¹⁶ Hofiz – himoya qiluvchi, nosir – g'olib

Rustamdir, ostida bulutdek Raxsh,
Ham buzurdir, ham buzurgiybaxsh.

260 Bulutga do'st, falakka qadrdon,
Tani sher, nomi ham Arslon.

Borliq qulfiga kalitdir ul,
Javharidin olam ayon butkul.

Andoq olamki, etib lufu karam,
Minglab javohirot sochar har dam.

Sahfi gardun – sharhidin varaq,
Mavji daryo – fayzidin araq.¹⁷

Bahru bar – tobe'in farmoni,
Bariyu bahr – ofarinxoni.

265 Buyuklikda malakka barobar,
Balandlikda falakka barodar.

Maydon aro sherlarning sheri,
Dushmanlarga o't sochar shamshiri.

Nasli Oqsunqoriy baxtiyor,
Ajdodida kamoli viqor.

Zafar bayroqdir boshi ustida
Fitna – tuproq, oyog'i ostida.

Suvi otash kabi quloch ochgay,
Tuproq'i suvga atrini sochgay.

¹⁷ Araq – bu yerda ter ma'nosida.

270

Saxovat eshigin ochib har on,
Baxsh etar gunohdin kechib, ehson.

Shoh – dengiz, chayqalib dengizvor,
Goh qahru goh karam etar oshkor.

Zaxmi tig' ila neki keltirgay,
Qamchi ishorati ila bergay.

Mushtariydir, inakonidir osmon,
Tulpori tuyog'i ostida Kayvon.

Ko'rar bo'lsang ajdaho ustida sher,
Yoki quyoshnikim, chekar shamshir.

275

Podshoga boq, jang etarmi, shikor,
Ajdahoso'zdir ul, shersavor.

Ajdaholi tug'in tutib takka,
Ajdahoni yetar tilka-tilka.

Kamonin tortib, egarkan shiddatkor,
Arslonga qabr bo'lur tayyor.

Sher ila jangda sheryuraklidir,
Shergiru ajdahobilaklidir.

Otarkan, nayzasi yiqar filni,
O'qining uchi yorar qilni.

280

Sahand tog'ida gar shikor etgay,
Bir o'q ila qashqirni qulatgay.

Sherkim qashqir holini ko'rur,
Qo'rqib, qo'l-oyoqdin ayrilur.

Shoh sheru qashqirni aylab shikor,
Etar biyobonni ohuga tor.

Qon daryosi tutib saydgohni,
Sher terisi qoplar sahroni.

Qilichin sirmasa nogahon,
Qilich zaxmi ila qochar qobon.

285

Shoshiy kamonini otganda, ko'r,
Marolga terisi qabr bo'lar, go'r.

Magar maydon uzra bossa oyoq,
Aqiq tusin olur toshu tuproq.

Magar chekar bo'lsa tig'i zahrolud.
Zamindin samoga yuksalur dud.

Shoh jangu bazmaro qozondi nom,
Jon olib, jon berar tig'u jom.

Xok tiyra tortar ro'shnoligidin,
Ko'z ravshan erur oshnoligidin.

290

Nofi mo'yqalamga o'xshar,
Yaqoda mushku etakda guhar.

La'li, guhari mushku anbardin,
Mamlakat bori muattar andin.

| | | | |
|---|--|---|--|
| شمع بر او افکند باز را به در جفت گریه سخن خیزد خواندند شاه را که او که دادند سوز است که در دلش در کجا این سپید تو ز نسای بر او ز شاد این چشم نشسته | از او که شعله از دم او بود و اندر آتش که بر او سوزید که سپید گارده و او سست شد چاکر ما نیست بر او دادند ز در بر او که در آتش می داد راه چشمت که آتش نشسته | نو که از شاه که که کشیدند شد تیشش که که کشیدند گفت که که بر او سوزید از میان او شامی چاکر با او چاکر باز کرد زلف بود تو که سنان بر او کشید | بر پست بر آن نما و تو بی تو بیست زان زده ها سوزید تیرین بیست چهل ششم کرد بیست سقر سینه ترا کشید کاغذ از دست شاه تیر کشید پسند شد سرش زده ای سوزید |
|---|--|---|--|



دست آفتاب پدید برآم

په پدید و دید تا برآم

کازین کچکون کور است

شورنگ و در میره است

سزور و دگاد زور است

کاورگرن لیستار پای



سودا بود در خلافت بود

در بزم و کین می شایر بود

در کوشه نو بد آن

بزرگ و حسن کا پوزیر

پس نگردم نه خوانی

بجز آن که تو شایسته

در کوشه نو بد آن

بزرگ و حسن کا پوزیر



Shoh toj kiyib, kulahdordir,
Osmonu zamin kulahvordir.

Jahongirligin ko'rib, hatto
Osmonu zamin xijolatda.

Buyukligi bois baland boshi,
To'rt gavhar uning to'rt bolishi.

295 Dushmani – daraxt, ildizdin uzilgan,
Eshigi oldida chormixga band.

Oftobi jamolidin chun moh,
Yuzimiz qizildir, dushman yuz qaro.

Ne ajabki, oftobi zarrin na'l
Toqqa tosh bermishu kongga la'l.

Kon gavhari haramdaridasi uning,
Gavhar koni diramxaridasi uning.

Qatrası bermish tog', dengizga qut,
Biridin dur unar, biridin yoqut.

300 Posbondir, manzili ikki saroy,¹⁸
Rahnamo anga amri Xudoy.

Yazdon fayzidin olib nuqul.
Bandalarni bahramand etgay ul.

Jahon andin olur ziynatini,
Alloh kam etmasin ne'matini.

¹⁸ Ikki saroy – ikki olam.

Umri kechsin xushnud, xujastahol,
Podsholigi hech ko'rmasin zavol.

Nazmi avlodi chun ko'kda nujum,
Tutashsin dur kabi bo'lib manzum.

305

Ikki zebo chehradin etib sha'n,
Bo'lsin yuzi quyoshdek ravshan.

Ikki malikzodayi balandsarir,
Bul jahonjo'yu ul viloyatgir,

Bul faridunsifatu donishroy,
Ul kayxusravu jahonoroy.¹⁹

Ismidin yeru ko'k erur ogoh,
Nusratuddin malik Muhammadshoh.

Nomi falakka yo'l topsin abad,
Uni hamisha desinlar Ahmad.

310

Ko'rgilki, bu xujasta ikki nom
Bir doirada tutmishlar maqom.

Ikki suratda hukmlari baham,
Ahmadiy, muhammadiy raqam.

Bir doiradin kelurlar haq,
O'rtada nechuk tafovutu farq?

Birida nusratdin ersa kalit,
Birida ul fathi falak padid.²⁰

¹⁹ Jahonoroy – jahonni bezovchi.

²⁰ Padid – oshkor, ayon.

Nusrat unga tarbiyatkorlikdin,
Falak bunga taqviyatdorlikdin.

315 Bu qurmish nusratdin uch poya baxt,
Bu tikmish falakda to'rt poya taxt.

Bo'lsin shoh ko'zi hamisha oydin
Shu ikki yulduzning shu'lasidin.

Davri mulki chun qutbi jalol,
Izmida bo'lsin janubu shimol.

Davlati mo'lu xushamal bo'lsin,
Kun osha, tun osha go'zal bo'lsin!

Tun pardasi anga niqobi ajab,
Nuri subhi muhammadiy nasab.

320 U bo'lsin saxovatda osmon,
Bu bo'lsin zamin yanglig' mehribon.

Uning nomi Xizriy sifat bo'lsin,
Buning hukmi obi hayot bo'lsin!

Maskani chun mulki sulaymoniy,
Bilqis taxtidek bo'lsin nuroniy.

Soyayi shahki, chashmadir porloq,
Gulu gulistondin bo'lmasin yiroq.

Azaliydir jahonpanohligi,
Abadiy bo'lsin podsholigi.

Yer o'pib, aytur...

- 325 Ey kulohingga kamarbasta baxt,
Jahonning jonidir sening toju taxt.

Tun posbondir eshigingda qaro,
Oy charog'ingdir qaro tun aro.

Quyoshdin tong nur olib evaz.
Rikobingda olur erkin nafas.

Shom daylamkuloh chokaring sening,
Mushkbuyi muattaring sening.

Rumiy kun ketib, kelsa zanjij tun,
Chodiringda saodat chekar un.
- 330 Boshingda sufra – osmoning,
Naqd erur unda ikki noning.²¹

Sendin yetar bo'lsa ne'mat, xullasi,
Yetti aqraboga yetar qatrasini.²²

Boq muhri nusрати ilohlikni,
Xatm etmish senga podsholikni.

Osmonkim, oftob andin asar,
Belingga boylamish moviy kamar.

²¹ Ikki noning – oy va quyosh.

²² Yetti aqrabo – yetti og'ayni yulduzlar.

Charxkim, oy taxtini zar etmish,
Taxtingni anga barobar etmish.

335 Yomg'ir suvikim, ul zilolu pok,
Sening nazdingda obi sho'rxok.

La'l shamshiring oldida safol,
Tog' shafqating o'ngida poxol.

Podsholarkim, jahonda bordirlar,
Bir parcha bulutga yordirlar.

Ilkingda bulut abri naysondir,
Boshqalar buluti zimistondir.

Sufra yozgaylar base ichib qon,
Jon olib, so'ngra bergaylar non.

340 Soya solar bo'lsang boshlarga, u dam
Kech chorlab, zud etarsen karam.

Hunar ahli qadrin kase bilgay,
Hunarnomalarni base bilgay.

Ulki aybu hunar etolmas ayru,
Hunarmand qadrini bilgaymu?

Borlig'ing dunyoga sharafdir, shon,
Senga sharaf aytur jumla jahon.

Jahonda yurtki bor, saxovatpesha,
Boshida davlating posbon hamisha.

345

Davlatu din rivoji sendin,
Farvardin yetolmay, xijil andin.

Kayoniylar oldida edi hozir
Yetti pahlavon, o'n ikki botir.

Samovot burjlari senga abad
Yetti pahlavonu o'n ikki mard.

Jumla olam tanu Eron – dil,
Bu so'zni aytarmen bexijil.

Olanga baski Erondir yurak,
Yurak tandin afzal erur beshak.

350

Fozillar o'lkasi jahon naqshidir,
Yaxshilar yig'ilgan makon yaxshidir.

Yurak – sen, bu masal hikoyating,
Mamlakat yuragi – viloyating.

Ey, sen Xizru Skandari mashhur,
Ilmu adolatingdin elga nur.

Skandar temirdin nur topmish,
Xizr obi hayot sari chopmish.

Asl gavhar siynangda sening,
Obi hayot oyingangda sening.

355

Har mamlakatni sendek shohi bor,
Allohning anga xush nigohi bor.

Baxtu iqbolingni ko'rib erlar,
Yetti kishvar baxtiyori derlar.

Beshinchi o'lka sendin obodon,
Yana yetti o'lka ham shodon.

Barchaga do'stu mehribondirsən,
Hammaga jonu jonajondirsən.

To'rt podshoda edi to'rt chiroy,
Beshingchi o'zing, asrasin Xudoy.

360

Iskandarda edi Aristotolis,
Andin o'rgandi ko'p ilmi nafis.

No'shervon shohi sipehr erdi,
Hamsuhbati Buzurgmehr erdi.

Parvizning yonida edi Borbad,
Sozu navosiga yo'q edi had.

Ul shohkim Malikshoh unga nom,
Hamdami erdi Xo'ja Nizom.

Baridin afzal afsaring bor,²³
Nizomiydek suxanvaring bor.

365

Nizomiyga baland nom sendin,
Ishiga tartibu nizom sendin.

²³ Afsar – toj.

Boshqa podsholarkim, koni gazof,²⁴
Xazina berdim deb urarlar lof.

Urug'ni sho'r yerga ekarlar,
Surmani ko'r ko'zga chekarlar.

Sho'r tuproqqa urug' sochsang agar,
Bo'lur senga pushaymonlik samar.

Andoq yerga daraxt et parvarish,
Ki bersin meva chun bog'i bihisht.

370 Bodani tuproqqa to'karkan soqiy,
Dehqon nomi qolurmi boqiy?

Bormi o'zgalarda adolating,
Ilming ila mehru saxovating?

Menki, alhaq, ayladim qiyos,
Ilm ahliga sen chorasoz.

Firibgar harfiga uchmassen,
Fannozlar firibiga uchmassen.

Bu abadiy kornoma naqshini,
Nomingga boyladim, qabul et uni.

375 Baxtiyor ulkim, topsa bir ne'mat,
Keltirgay ostonangga faqat.

²⁴ Koni gazof – yolg'oning koni.

Jahonda qolgum der bir yo'la,
Sahifa ochsam shoh nomi ila...

Asrlar o'tib asrga payvand,
Qalamın chekdi ul sipehri baland.

Yetti ming yil kechib, pishirdim taom,
Yetti ziravor-la shirin aylabon.

Pishirdim senga, oshing bo'lsin,
Nasibi ne'mating ul, no'shing bo'lsin!

380 Lazzati, totiga jonimni qo'shdim,
Tuziga sidqu iymonimni qo'shdim.

Ey, falaklar noming ila baland,
Ham falakzodu ham falakpayvand.

Nechuk uchay falakka men zamiy,²⁵
Farishtaga yetarmi odamiy?

Istadim, chekib nayshakar qalamim,
Nayshakardin yashnatay chamanim.

Shakarni yo'l ozuqasi etsam,
Ham eltib, shoh bazmiga to'ksam.

385 Gar mahram bo'lmasam unchalar,
Posbonlik etsam shohga kechalar.

²⁵ Zamiy – zaminiy, yer farzandi.

Oftobdir shohi olamtob ul,
Mening ko'zlarimda esa suv nuqul.

Oftob suvga nuri safo urgay,
Suv netib oftobga jilo urgay?

Ko'zim gar ko'ziga boqolmasdir,
Xayoliga xayolim payvastdir.

Shoh xazinasi o'xshar dengizga,
Har narsa bor, shu kitobdin o'zga.

390 Ey charx, shoh senga sursin samand,
Poygohi bo'lsin sendin baland.

Tog' chechaklari etar bulutdin no'sh,
Quduq suvin ko'rmagaylar xush.

Ekinzorkim, boshidin bulut kechgay,
Quduq suvin ul nechuk ichgay?

Menki shoh suviga tashnalab,
Boshqa suvlarga urnagum lab.

Joizmas durni kambaho etsam,
Joizdir gar shohga ravo etsam.

395 Sozim – Zuhro sozi, tinglasa uni,
Mardum yangi oy deb ko'rsatar meni.

Magar nazdingda ul mayda naqsh ermish,
Necha gullarimni el olib ketmish.

Ko'p yasha, dining bor, adolating bor,
Xudo bergan taxting, saodating bor.

Neki yaxshi erur shu davlatingga,
Noil bo'lsin doim inoyatingga.

Har neki yiroqdir inoyatingdin,
Yiroq bo'lsin sendin, viloyatingdin.

400 Toki ko'kda quyosh porlab, nur sochur,
Do'stlaring shod bo'lsin, dushmanlaring ko'r.

Dushmaning diltangu sabri adosh,
Toshiga bosh ursinu boshiga tosh.

Ziyodasen, chun umrbod bo'lsin,
Hammadin umring ziyod bo'lsin.

Davlatingga etmasin zaxmu zavol,
Rahnamoying hamisha bo'lsin iqbol.

So'z ta'rifi va pandu hikmat

Ne ermish ham yangi, ham eski sifat,
So'zdir ul, so'z ichra so'z faqat.

405 "Kun" ila yaralmish onadin, illo,
Farzand tug'ilmanish so'z kabi ra'no.

Dema, suxanvarlar bari o'lmish,
So'z atalgan dengizga g'arq bo'lmish.

Chaqirgil, har biri tark etib toshin,
Baliqdek to'lqindin ko'tarar boshin.

Suxankim, ruh kabi beayb erur,
Xozini xazinayi g'ayb erur.²⁶

O'qilmamish qissadin erur ogoh,
Bitilmamish xatni ham o'qir hatto.

410 Nazar sol, har ncki yaralmishdir,
So'zdin o'zga andin ne qolmishdir?

Odamiydin yodgor hama hol –
So'zdir ul, so'z, boshqasi shamol.

Fikr qil, nedir nabotiyu koniy,²⁷
Aqliydin toki jumla hayvoniy,

Savol ber, shu vujudin ne qolur,
Abadul abad olam ichra ul?

Har kimki o'zin anglamish, bilmish,
To abad tiriklikka yor ermiş.

415 Foniy ulkim, o'zidin ogohmas,
O'zidin ogohga o'lim bo'lmas.

Har kimki o'zni anlay olgaydir,
Ketsa-da shu jahonda qolgaydir.

Har kimki bexabar gavharidin,
Bu eshikdin kirib, chiqar naridin.

²⁶ Xozin – xazinachi.

²⁷ Nabotiy – nabototga mansub, o'simlik dunyosi.

Daricha gar g'uborsiz, bedud,
Ko'rmasa quyoshni kishi, ne sud?

Har kimki xushnud ersa dilidin,
Imorat qurgaymu o'z gilidin?

420 Gar uzru bahonaga etsa hushi,
Ayronim achchiq deb aytarmi kishi?

Insonlar gar etukdirlar tayin,
Jazri asamga egmaslar bo'yin.²⁸

Sohibi moya yiroqbin bo'lgay,
Moya kam, nazar ham chunin bo'lgay.

Badavlat tujjor chiqsa yo'lga,
Mirshab qo'yib, boqsin o'ngu so'lga.

Xo'jayi Chin ortarkan nofani,
Mushkin avaylabon, elimlar uni.

425 Hudud duch kelarkan burgutga, shu tob
Uchar barcha parradalardin shitob.

Ofatdin yiroqmas nomdorlar hama,
Xatardin yiroq bexatarlar hama.

Dono qush ham gahi izlab taom,
Qo'sh oyoqlab bo'lur asiri dom.

²⁸ Jazri asam – parishon ko'ngil ma'nosida.

Munchakim egaylar Haq omboridin,
Bir arpa kamaymas yo'qu boridin.

Dona-dona egaysen hozirda,
Dona-dona bergaysen oxirda.

430 Sham yanglig' gar toji zaring bo'lgay,
Kulgidin ko'proq yig'laring bo'lgay.

Ul baxtiyorki la'lu durdonasi ko'p,
Kulgusi kamroq bo'lgay, nolasi ko'p.

Har kimsaning ko'rinmas yori bor,
Do'sti bor uning, do'stdori bor.

Chun aqlu xiraddir do'stu yoring,
Aqlu xiraddin barcha boring.

Kim aqlu xiradga begona, yot,
Odamiysuratdir, devnihod.

435 Ham farishtakim, odamlaqab ul,
Ziyraku oqildir ne ajab ul.

Ko'rarmiz ne ersa amri azal,
Jahdu javlonimizdin ne samar?

Vale bo'sh kelma hech, mehnat qil, tirish.
Mashaqqat ortidin kelgay bihisht.

Nomard nomardligin ayon qilur,
O'zgalar haqqiga ziyon qilur.

Himmatin ko'rsatur nekandisha,
Yaxshilar yaxshilik etar pesha.

440 Shundoq yashagilki, cheksang-da firoq,
Dushmanlar ta'nasidin bo'l yiroq.

Demasinlar, boshingda ofoting,²⁹
Kulmasinlar ol deb mukofoting.

Gar qo'lingdin tutmagay bir kas,
Urib, oyog'ingni sindirmasa, bas.

Ulki yaxshiligingni etgay yod,
Yaxshidir andinki, g'amingdin shod.

Gushnalar oldida non yema, yigit,
Yesang, ularni ham taklif et.

445 Pulingni sanama xasis oldida,
Mufliis ajdahoga aylanur unda.

Navro'z shamollari esganda g'uv-huv,
Charog'ingni yoqma ularga o'tru.

Odamiyga emish ermas alaf,
Ziyrakligi crur bunga sabab.

Ul odamiydin kim sharaf izlar,
Gar ikki ko'zi o't-alaf izlar.

Jahd ayla, xalqingga ne'mat ber,
Xulqing-la jahonga ziynat ber.

²⁹ Ofot – ofatlar.

450

Gul kabi xulqu xo'ying xush bo'lsin,
Jahonda atru bo'ying xush bo'lsin.

Eshitdingmi, hakim ne demish ul:
"Yaxshi uxlagan yaxshi tush ko'rur".

Kim tug'ilmish past xulqu tiynatda,
O'lganda ham ketar shu qabohatda.

Tug'ilgan ersa xushxo'ylik ila,
Jon bergay ham xushro'ylik ila.

Qattiq berma noning, dunyoyi dag'al,
Sendeklarni o'ldirdi qanchalar.

455

Tuproqqa ziynat chikor bo'lgay,
Tuproq farzandi xoksor bo'lgay.

Gar desalarki ul donishi pok
Odamiydin kelur, odamiy – xok,

Ayt, gulob guldanu gul tikondin,
No'sh mo'hradanu mo'hra ilondin.

Sa'y et, makru firibga yurma,
Ajdaho komida chodir qurma.

Ajdaho senga do'st bo'lgaymi inagar?
Ajdaho odamiyni eb-yamlar.

460

It degan garchi muraqqa'po'sh,³⁰
Itligin etgaymu faromush?

Do'stlarki, kiynu firoq etgaylar,
Dushman ila ittifoq etgaylar.

Pashsha gar shakarga o'ltirur.
Muqarrarki oqni qaro qilur.

Yo'l to'sarlardin aylabon hazar,
Chor bandingni uzganig afzal.

Har qaydakim din ahlidir past,
Yusuflar bo'ri, zohidlar mast.

465

Ikki yo'l senga, yurarsen jon asrab,
Yomonlik aylab yo yomonni qo'llab.

Xoshalillah, Xudoga bandalar
Bu zanjirni oyoqqa ilmaslar.

Kirishmaslar do'zaxni qalovga,
Neftu talq to'kmaslar olovga.

Tur, fitnani bosqilash ila
Farmonga bo'ysunaylik bir yo'la.

Zig'ircha zarni deb qachongacha xorlik,
Yetti qulfu to'rt bandga duchorlik?

³⁰ Muraqqa' – quroq to'n.

470

Lolani ko'r, holi aftodadir, zabun,
Yel sovurmish xunolud qalb uchun.

Diramsizda diram ne qilsin, jo'ra,
Yel aylanmas atrofidin sira.

Bulutdek boshingda tutma ganjingni,
Quyoshdek oyoq ostida tut uni.

Zaminki bulutdin tarovat olur,
Sen o'pganda tuproq zarga aylanur.

Quyoshga soch bir hovuch zarring hamon,
Quyosh gavhariga tosh otgil chunon.

475

Zar ila ko'z ravshan etmaging g'alat,
Jahon ko'zini ravshan etgay xirad.

Zar degan ikki harf, tutashmas, hay,
Bu parokandadin g'ururing tokay?

Ko'ngilni zarga qorma, ey banda,
Zar yanglig' bo'lursen parokanda.

Kishi sariqqa duchor bo'lsa tani,
Ko'k kiyimga chirmagaylar ani.³¹

Har taroziki, mudom zar o'lchar,
Bo'lgaydir ul toshbo'ronga duchor.

³¹ O'tmishda tabiblar sariq kasalga chalinganlarga ko'k kiyim kiydirishgan.

480

Yiqqan molingdin bong qachongacha?
Halolu haromdin dong qachongacha?

Bir o'g'ri tushib, o'marsa agarda,
Talangan tirik, o'g'irlagan murda.

Zarni sarf etsang, bo'lur ayshu tarab,
Asrasang, vahmu uqubatga sabab.

Ulki o'zni vahimdin o'ldirgay,
Zirparastlik qabohatga qorgay.

Nodonlikka boq, toshni deb magar,
Do'st ila do'st etar jangu jadal.

485

Yaxshidir ul baloni tark qilsang,
Ranju vahimadin xalos bo'lsang.

Jahon devxonadir, ayla shitob,
Dev singari bo'lma xonaxarob.

Dev xonasi ul devxona erur,
Garchi ayvoni xusravona erur.

Tokay shu xizmati jahon etgaysen,
Zar yig'ib, tuproqqa nihon etgaysen?

Uch hammoling huzuringda tayyor,
To'rt xodiming etar seni abgor.³²

³² Uch hammol – hayvonot, o'simliklar va ma'danlar. To'rt xodim – tuproq, havo, suv va olov.

490

Tuproq'u el senga muxtalifdir,
Tuproq bealf, el bealifdir.³³

Tikondin, ul xurmodin ayrilur,
Andin kabob sixi etsa bo'lur.

Qoringa qul bo'lganlarga magar
Tutmoch bargi gul bargidin afzal.

Nafsing boshiga shamshiring chek,
Izzat topgaysen durdonadek.

Taroqning ming tishi bor, ul sabab
Minglarcha soqolni qo'yar tarab.

495

Bitta no'shdoriga etguningcha zor,
Ming bitta zaharni yutishing darkor.

Qassob do'konidir bu, ey inson,
Jigar qoning yutib, toparsen non.

Jigaring yuz pora bo'lib balkim,
Bir burda charviga etar ilking.

Bir yo'g'on bo'yinning istagi deb, bas,
Yuz mingta bo'yinga berilgay shikast.

Birining oyog'i ostida ganj,
Biri ushog'i deb chekar ranj.

³³ Arab alifbosida xok (tuproq), bod (el) alif bilan yoziladi. Alifning bir ma'nosi ulfat, muhabbat demak. Alifsiz xok – ulfatsiz, muhabbatsiz tuproq. "Bod" so'zidan alif olinsa "bad" (yomon)ga aylanadi.

500

Gar murodga etolmasa kishi,
Ul muroddin bemurodlik yaxshi.

Murodiga kech etsa gar odam,
Mujda berki, cho'zilgay umri ham.

Yaxshidir kishiga kech yetsa kom,
Ish tamomida umr tamom.

La'l tug'ilib, yetishgay kech magar,
Lola bir lahzada o'tar-ketar.

Tokay bir sham kabi yashnatib yuzni,
Jilva aylarsanu yoqarsen o'zni.

505

Oyoq-qo'ling bo'shatgil tugundin,
Boshingni chiqar safol xumdin.

Yetti ildizli shu og'ochni ag'dar,
To'rt mixli taqani tuyoqdin qo'por.

Bo'r'yo-la yopilmish choh uzra
Toshu bur'yodek o'lik kechma.

Kulib-kulib chaqmoqdek jon bergin,
Jon berish afzaldir tanumandlikdin.

Gar muridsen, o'zligingni tani,
Yo'lga tush, to pir desinlar seni.

510

Ba'zi muridlardek bemurod bo'lma,
Tavakkalda kame'tiqod bo'lma.

Yuz mushkul tugunni echarm, ammo,
Qishloq egasimen, qishloqdin ayro.

Yo'l usti gar kirar bo'lsa mehmon,
Kim uning oldiga yozar dasturxon?

Aql anglar uni, ne so'zlarmen,
Ishoratdin ayon ne izlarmen.

Shikoyatini yo'qlikdanmas, biling,
Shikoyatim borliqdandir mening.

515 Turkligim xushlamas habashlar,
Shirin mastavamni ichmas ular.

Bir paytlar tok navdamda nuqul
Uzum yedim, g'o'r edim, dumbul.

Yetildim, chun sharbatga to'ldim,
Arilar nishiga nishona bo'ldim.

Gar mayni to'ksalar, tuproq bo'lur nam,
Tuproqqa teng bo'lur uzum qadri ham.

Ne derdim, totmayin hali totimni,
Turg'un suv qo'ydilar otimni.

520 Suvni derlar gar elitsa uyqu,
Chashmayi zar bo'lgay, na chashmayi suv.

Bu yanglish gap, turg'un suv – kumush,
Muz bunga o'zi guvohlik bermish.

Kumush o'zgadir ul, zar o'zgacha,
Tafovut quyoshdin oygacha.

“Sim”ni “yoy”siz yozar bo'lsang, inon
O'zgarur “mis”ga aylanur hamon.

Zarnigordir temirim surati,
Kumushdandir so'zimning ziynati.

525

Birovlar zar kiyib yumushga,
Temirni sotarlar kumushga.

Voy ul zargarchakim, ersa mudom
Zarining qiymati kumushdin kam.

Bu jinoyat meni ezar behad.
Hunardanmas, baxtdin kelur davlat.

Sarrofki, zarrin erdi sufrasi,
Bugun sufrasida yo'q arpasi.

Ulki ajratolmas paxtadin bo'zni,
Arqon ko'rar ko'kka tikkanda ko'zni.

530

Atlasu shohiga ombori to'liq,
Sandig'ida diram, dinori liq-liq.

Bo'yladir gavharu kumushning ishi,
Ammo kamaydimiinson tashvishi?

Boshni vayronada qashirmiz tokay?
Quyoshni qumg'onda tashirmiz tokay?

Har kimning ovozi kelur dahlizdin,
Ne bo'lgay, bir ovoz yangrasa bizdin?

Mendek bu qissani aytganlar necha,
Aytib, so'ng uyquga ketganlar necha.

535 Vojib o'ldiki, ishga tushgaymen,
Yo'qki, uyquga qovushgaymen.

Yo'lchi yo'lda yeb-ichmog'i darkor,
Qo'rqinch joydin zud kechmog'i darkor.

Tushdim yo'lga ulovsiz shu nafas.
Yayov yurishga lek ko'zim etmas.

Ul damki safardin xabar kelmish,
Maskanim eshikdin nari ermish.

Tobakay bo'yla bexabardirsen?
Ko'z yumib, bunda rohat aylarsen?

540 Bir yo'la ko'zdanam faromush bo'l,
Mahrami roz bo'l, xomush bo'l.

Anglakim, ne bilding, bilgaysen,
G'alatdir yoki g'alat qilgaysen.

Filni qo'y, yo'lingni sel yuvmish,
Charx fili necha xandagin o'ymish.

Avval kelganing yo'lga bir boq,
Ne erdi holing, endi qandoq?

Kelguvchi hamon o'shal sen erding,
Qo'sh fil uzra ne keltirding?³⁴

545 Dengizu tog'din bo'yningda yuk,³⁵
Ko'k bilan o'yinga tushgaysen nechuk?

Kech yukingdin, uni el olsin,
O'zing qolginu bir ulov qolsin.

Jahonning bir zarra yukin olmayin,
Yo'lga tush, manzilga boraver keyin.

Ko'ngilni uz o'shal bisotu raxtdin,
To birovlar yiqmaguncha taxtdin.

Ochilgan gullar ham yashnab, barq urib,
Hasad g'uboridin to'kilar qurib.

550 Gul kabi men ham ufor sochdim,
Har erda hasad tokenidin qochdim.

Kiydim ustimga darvesh hirqasin,
To hasad o'tidin meni asrasin.

Bu qo'rqinch yo'llarda o'lguncha har chog'
Jonni asramoqning iloji shundoq.

Bu ko'hna rabotdin kecharkin manzil,
Falakka degilki, bilganingni qil!

³⁴ Qo'sh fil – kecha va kunduz.

³⁵ Dengizdan dur, tog'dan gavhar olib, o'zingga ortgansan...

Tokay, ey Nizomiy, sen dunyoga band,
Turgil, ovozingni ko'targil baland!

555 Jon berib hazrati ahadiyga sen,
Etgil saodati abadiyga sen.

Dunyo darsin o'qi bir shogirdsimon,
Ustozlaring o'rgandilar chunon.

Ilmni rahbari amal etdilar,
Koinotning mushkulin hal etdilar.

Har kim o'z uyin supurib, ufladi,
Uyqusi yetarkan, yotdi, uxladi...

O'g'lim Muhammadga nasihat

Nasihatim eshit, jonim o'g'il,
Men uxlarman endi, sen uyg'oq bo'l.

560 Chun guli bog'i sarmadiy senda,
Muhri nomi muhammadiy senda.

Muhammad bo'lding, chu ma'sudiy,
Yangrat bongi ko'si mahmudiy.³⁶

Yaxshi noming bo'lsin yor senga,
Balanddin yetarsen balandga.

Men unda to shahriband bo'lgum,
Balandligingdin sarbaland bo'lgum.

³⁶ Ko'si mahmudiy – Mahmud nog'orasi.

Suhbat izla bori neknomlik,
Yaxshilik kelgay, saranjomlik.

565 Ulfating tanla atru bo'ylardin,
Yaxshidir behudago'ylardin.

Bir kimsaning ersa malomati,
Yuz kimsaga etgay kasofati.

Ehtiyotsiz qush tusharkan qo'lga,
Yuzta qushni etaklaydi to'rga.

Bir hoji zar yo'qotdi, ul sabab
Yuz qorinni yordilar, ajab.

Bu yo'lda uxlama keksalardek,
Zolimlardin etagingni chek.

570 Teskari qurilgan bu saroyga sen
Xotindek aldanib qolmagil, ersen.

Boqma otingga, ulki tulpordir,
Yo'lga boq, yo'l nechuk dushvordir.

Oq shunqordek ucharkan manzildin,
Quyoshdek ko'zni uzmagil yo'ldin.

Xullas, yo'l-ov yo'li, xatarlidir,
Osmonning kamoni doim o'qlidir.

Temiring garchi temirdir, nafis,
Yo'l toshlidir, tosh esa mag'notis.

575

Ulov ko'targuncha ort yuqingni,
Yo'llarda to tushirmagay uni.

Ikki rangli davron bu, unutma,
Kengish tut ko'ngilni, tor tutma.

Tugun borkim, kalitdir pinhonlik,
Mushkulot bor, zimnida osonlik.

Ey baso tushkim, noxushu dilgir,
Uni dilxushlikka yo'yar ta'bir.

Joningga qadalsa paykoni g'am,
Sabr qalqoning bor, ber chidam.

580

Ahdingni Xudoying-la mahkam tut,
Ko'ngilni boshqalardin beg'am tut.

Haq ila ahdingga vafo etgaysen,
Har ne murodingga etgaysen.

Yaxshilik gavharingni sev jondin,
Ulki badguhardir, qoch andin.

Badguhar kimsaga vafo qilmas,
Xiyonat etishda xato qilmas.

Gohida gar muruvvat etgaydir,
Unutma, asliga tortgaydir.

585

Chayonki, qazo badguhar etmish,
Nish urmoqlikni hunar etmish.

Hunar o'rgan, hunarmand bo'lgaysen,
Eshik ochib, bahramand bo'lgaysen.

Har kimki charchamas o'zganishdin,
Suvdin dur, la'l undirar toshdin.

Ulki o'rganishdin or aylagay,
O'rganmas, ilmni xor aylagay.

Ey baso sohibi idroku hush,
Yalqovlikdin bo'ldi safolfurush.

590 Ey baso ko'rdilki, olib ta'lim,
Qozidir, izmida etti iqlim.

Tozikim. ovda aylar jahdu jidol,
Ta'lim tufayli tutgani halol.

It donish ila sarishta bo'lgay,
Odamiy zora farishta bo'lgay.

O'zingni Xizrdek anglagil har zum,
Zora obi hayot ichgaysen, o'g'lim.

Obi hayot deganing bir yo'la,
Jon aql iladir, aql jon ila.

595 Jon – charog'diru aql – ravg'anidir,³⁷
Aql – jondiru jon uning tanidir.

³⁷ Ravg'an - yog'

Aqlu jondir atoyi ahadiy,
Jonu aqldir hayoti abadiy.

Ikkisidin muddao bir demak,
Borar joying Bir bo'lur beshak.

Ikkidin to birga yetmaguncha sen,
Hech kimga demakim, hech kimsen.

Birga etishdingmi, mardona tur,
Har ikki dunyoning qanshariga ur!

600 Uchdin kech, ul daliilsiz. naqaviy,³⁸
Ikkidin ham kechgilki, ul sanaviy.³⁹

Bir rishtaning uchin tut mahkam,
Uchni bir et, ikkiga ber barham.

Solisi salosadin qutqar jon,⁴⁰
Vahdatingni osmonga elt hamon.

Ikkidin kechib, fasona izlama,
Birmi topgach bahona izlama.

Yetsang shu poyaga, bas bo'lgay,
O'zga har neki bor, havas bo'lgay.

605 Yoshlik, salomatlik bo'lsa hamdam,
Har ne murodingga etarsen, bolam!

³⁸ Naqaviy – kuchli emas, zaif.

³⁹ Sanaviy – majusiy, ikkiga. ya'ni, Yazdon va Ahrimanga ishonuvchi.

⁴⁰ Solisi salosa – nasroniylar sig'inadigan uchlik: ota tangri, o'g'il Iso va Bibi Maryam.

Shikast etsa sihisarvingga,
Topilarmu mo'miyo senga?

Umring bog'ida avji gulbahor,
Yo'l bos, to oyoqda quvvat bor.

Din yo'lida belga kamar boyla,
Qomatingni sarvi baland ayla.

Mening og'ochim to'kdi yaproq,
Lolam sarg'aydi, bunafsham oq.

610 Meni charchatdi xastatanlik,
Kulahdorligu kamarbandlik.

Xizmatimni halol ado etdim.
Boq endi, ne marraga etdim?

Tirikchilik etdi meni tutsoq,
Ro'zgor rasmi mudom shundoq.

Saniq erdi boshdin paru bolim⁴¹
Yiqildim, endi ne kechar holim?

Tiniq yuz erdi bizning Ahmadjon.
Netay, chechak chiqardi nogahon...

615 Garchi soya solur tab'imga xatar,
Soyabonim boshim uzra hunar.

⁴¹ Paru bolim – qanotim.

Ko'rdim ne-ne insonlarni men.
Oldimda do'st, ortimda dushman.

Do'stlarim bor vale necha xom,
Bas, kimga bosh egib, beray salom?

Garchi yigitlikdin bo'ldim judo,
Hamon jonimda ul hirsu havo.

Tan keksayib borarkan qaltirab,
Orzu-havas oshar ekan, ajab.

620 Ayt, birgina mendami chun tashvish,
Yo barchaning boshidami bu ish?

Ey davo etguvchi dilimni,
Har kimsa o'pmasin gilimni.

Tiyralik tokay? Ro'shnolik qil,
Sindirding belim. mo'miyolik qil.

Andinkim xotirim parishondir,
Oson et, senga bu osondir!

Bo'ynimda ipim yo'q, xasu nokasta
Kimsaning yukidin etmagum xasta.

625 Bir burda nonimga qanoatim bor,
O'z uyimda shohdek halovatim bor.

Sarvarlik yaxshidir, gar yorim bo'lgay,
Sarparastlik ila ne korim bo'lgay?⁴²

⁴² Sarparastlik – xizmatkorlik.

Sher buyuklik maqomiga etgay,
Sarparastlikni ul rad etgay.

Birovga sufradin non bersa kishi,
Birov uyida qand egandin yaxshi.

Subhidam xanjarin chekib, sochdi nur,
Tokay uxlagaysen, Nizomiyo, tur!

630 Ranjima dostoning uza etsa ranj,
Jahon ahliga och yana koni ganj.

Bahrom dostoni ibtidosi

Gavharshunosi gavharxonayi roz
Jahonga ganji gavharin ochdi boz.

Ki osmonda tarozu bor tutosh,
Bir pallada guhar, bir pallada tosh.⁴³

O'shal tarozidin dunyo sarbasar,
Goh boshga tosh otar, gohida guhar.

Shohlar nasliga chun asar bo'lgay,
Farzandi tosh yo guhar bo'lgay.

635 Gohida gavhardin tosh erur hosil,
Goh qahrabo rangdin la'l mahsul.

Gavharu toshdek bo'ldi nisbati nomi,
Tosh Yazdigurdu gavhar Bahrom.

⁴³ Guhar – gavhar.

U urdi, bu siyladi, ne ajab,
Tosh guharli, tikanlidir rutab.⁴⁴

Kimning poyin ul sindirib erdi,
Bu lutf ayladi, mo`miyo berdi.

Yuz ochib yorug` subhi bahromiy,
Qaro tun bila ketdi badnomiy.

640 Falak ko`rasiga o`t qalab har gal,
Oyu kundin ogoh munajjimlar,

O`lchab osmoniy tarozuda,
Yaxlit kumush izladilar shunda.

Kumushmas, quyma-quyma zar keldi,
Dengizdin dur, toshdin guhar keldi.

Edi toleida piruzlik,
Buyuklik ila olamafruzlik.

Tolei Hutu Mushtariy Hutda.
Zuhro unda, chun la`l yoqutda.

645 Oy Sarvdayu Tir ostida Javzo,
Mirrix etib Asad uzra paydo.

Zuhalning quvvatga to`lib tani,
Haydamish Dalvdin dushmanni.

⁴⁴ Rutab – xurmo.

Zanab dag'i Zuhalga yuz burmish,
Quyosh kelib Hamalga o'ltirmish.

Har yulduz chun shahodati ila,
Birjis baxtu saodati ila.

Ajab tole' edi, aytildi nom.
Iqbol bo'lib tug'ildi Bahrom.

650 Otasi Yazdigurd ko'rib iqbolin,
Xom edi, pishirdi xayolin.

Bildiki, jahonda zulm ila bedod,
Urug'idin yaxshi ko'karmas avlod.

Yigirma yildirki, shudir omadi,
Necha farzand ko'rdi, tirik qolmadi.

Munajjimlar ko'kka ko'z tikib nuqul,
Shunday bir qarorga keldilar oxir:

Shahzoda kishvari Ajamni qo'ysin,
Parvarish topgali Arabga borsin.

655 Balki iqbol topar ul tarafdin,
Ugdagi shukuhu sharafdin.

Garchi el ichida masal bor magar:
"O'lka shoh ilkidin davlat topar..."

Ota rozi bo'ldi bu tadbirga,
O'g'lini Arabga jo'naturga.

Tilab Suhaldek o'g'liga baxt,
Yaman viloyatida qurdi taxt.

Farzandini topshirdi Nu'monga,
Lolani ul bog'u bo'stonga.

660 Bu yaproqdin to baimkoniy,
Etishtirsin lolayi nu'moniy.

Xusrav urf-odatin unga arz etsin.
Shohlik odobini o'rgatsin...

Nu'mon shahzodani qasriga eltdi,
Uni oydek suyib, navozish etdi.

Dengizdin ham mashhur chashmani tek
Asrab-avayladi ko'zu qoshidek.

Oradan to'rt yilcha vaqt kechdi, zamon,
Qulon o'sib, bo'ldi yosh arslon.

665 Shoh Nu'mon o'g'lini chaqirib bir kun,
Dedi: yuragimda tashvish bor, tugun.

Bu havo quruqdir, qizg'in bu tuproq,
Shahzoda nozikdir, dili yumshoq.

Parvarishgoh kerak unga shu taxlit,
Ko'ksi baland bo'lsin osmon yanglig'.

Qanot yozib, osmon gashtini sursin,
Shimol shamollariunga ufursin.

Latif havolar ichra joy aylasin,
Uyqu, oromin jonfazoi aylasin.

- 670 Pok gavhari ziyon ko'rmasin zotan,
Quruq tuproqdanu namchil havodan.

Simnor ta'rifi va Xavarnaq qasrining qurilgani

Joy tanlamak uchun boylab kamar,
Munzir yo'lga tushdi otasi rahbar.

Manzil izladilar so'lim, xushhavo,
Bag'ri keng, ko'kragi baland bir ma'vo.

Topildi nihoyat andoq bir chaman,
O'lkada yo'q edi unga o'xshagan.

Ustalar topildi mohir, bilimdon,
Yeng shimarib ishga tushdilar hamon.

- 675 Agarchi etdilar jahdu jadal ul.
Bajargan ishlari bo'lmadi ma'qul.

Nu'monga nogahon etishdi xabar,
Sen istagan kimsa, yetuk, mo'tabar.

Mashhur me'mor borkim, o'zi ahli Rum,
Istasa, bir zumda toshni etar mum.

Chobuku zabardastu shirinkor,
Som naslidandir, nomi Simnor.

Barchaga manzurdur san'ati,
Dunyoga taralgan shuhrati.

680

Binolar qurmish Misru Shomda,
Har biri o'zga bir maqomda.

Rumiylardir xizmatkori uning,
Chiniylar chin xaridori uning.

Binokordir, bino etar bunyod,
Necha ming naqqoshga o'zi ustod.

Uningdek bir san'atkor qani?
Rasad otib, o'lchar samolarni.

Nazari o'ngida osmon kitobi,
Falakni quchgay usturlobi.

685

Bamisoli Balinosi Rum,
Rasad boylaru ochar tilsim.

Ogohdir shu olam sipehridin,
Oyning afsuniyu quyosh sehridin.

San'atida namoyondir qudrat,
Bundoq libosni ul tikar faqat.

Balchiqdin ko'tarur gunbazi toqni,
Yulduzdin yondirur doim chiroqni".

Nu'mon bo'lib uning talabgori,
Ko'nglini isitdi nori simnori.

690

Odam yubordiyu oldirdi uni,
Hovuchiga to'kdi rumiy oltinni.

Nu'mon huzurida hozir bo'lgan on,
Rag'batin chun oshirdi Nu'mon.

Ish boshlandi, bas, sidqu jondin,
G'ayrat Simnordanu himmat Nu'mondin.

Butun sharoitin muhapyyo etdi,
Usto ne istadi, shu onda etdi.

Bo'lib har daqiqa temir, toshga duch,
Besh yil sarf ayladi imoratga kuch.

695 Oltin qo'ldin berib mehru harorat,
Ganju toshdin tikdi kumush imorat.

Ko'shki oyga qadar bo'y cho'zmishdi to,
Qiblagohi hama oq ila qaro.

Ishi zebu zar erdi boriy,
Rang noriyu naqsh simnoriy.

Falakdin etardi lahza-lahza noz,
To'qqiz ko'k boshida etardi parvoz.

Husn qutbi edi janub, shimolning,
"Tanglusho"si edi yuz ming xayolning.⁴⁵

700 Charchagan ko'rsa. charchog'i ketardi,
Naqshi tashnalarni serob etardi.

⁴⁵ "Tanglusho" – Lushoning kitobi. Lusho – Bobul munajjimi Tavkr Bobuliyning forsiy nomi. Uning quyosh va yulduzlar harakatiga bag'ishlangan kitobi noyob naqshlar ila bezatilib, SHarqda go'zallik timsoli sanalgan.

Quyosh sochar bo'lsa u ziyinatga nur,
Jannatda ko'zini yumar edi hur.

Ichkarisi bihishtdek osoyish,
Tashqarisi falakdek oroyish.

Shifti sut-shirachdin munavvar edi,
Misoli oynadek yarqirar edi.

Bir kecha-kunduzda ajib ohangda,
Kelindek tovlanar edi uch rangda.

705 Uch rangda tovlanar edi yorug'lik,
Oqligu ko'kligu sariqlik.

Subhidam ko'k kabi arzaqpo'sh,⁴⁶
Ustiga chekardi lojuvardni xush.

Quyosh ko'kka chiqib, sochganda yallug',
Chehrasin quyoshdek etardi sariq.

Quyosh bulut ichra tutganda xilvat,
Oq bulutdek edi unda latofat.

Magar yakrang esa, mo''tadil havo,
Goho oqarardi, qorayardi goh.

710 Simnor munchakim amal ayladi,
Istalganidin ham go'zal ayladi.

⁴⁶ Ma'lumot yo'q.

Osmondanam o'tardi ravnaqi,
Quyoshni to'sardi Xavarnaqi.

Nu'mon berdi unga ko'p ne'mat,
Tasavvurga sig'masdi ul sarvat.

Tuyalarga ortib sanoch-sanoq zar,
Qimmatlarga mushk, durru gavhar.

Haqqini oshirib, ziyoda berdi,
Chaqirsa, yana kelsin, derdi.

715 Ko'mimi ayasang otashdin,
Sixkabobing xom qolur andin.

Berguvchi qo'l gar ofati diram,
Hojibul bobi dargahi karam.⁴⁷

Binokor bu navozishni ko'rdi,
Eshitdi, ne go'zal va'dalar erdi.

Dedi: "Chun va'dalarki berdi shoh,
Ulardin avvalroq bo'lsaydim ogoh.

Tarxini boshqacha chizardim unda,
Naqshini o'zgacha tizardim unda.

720 Bu ishda ziyoda chekar edim ranj,
Shohimdin ziyoda olar edim ganj.

⁴⁷ Saxovat dargohining posboni.

Ko'shk tiklardim, yo'q andozasi,
Olamga ketardi ovozasini".

Nu'mon so'rdi: "Olsang yana simu zar,
Bundan-da yaxshiroq qurgaysen magar?"

Simnor dedi: "Xohish etsang boz,
Bino qurgum jahonda beqiyos.

Bunda uch rang esa, unda yuz rang,
U yoqutdin esa, bu tosh zarang.

725 Bunda bir gunbazdir, gardunnamoy,
Unda yetti gunbaz ochar chiroy".

Bu so'zlar andoqkim yoqdi Nu'monni,
O't oldi muruvvat, mehr xirmoni.

Podsho yondiruvchi o't erur andoq,
Ul otashdin yiroq turgan yaxshiroq.

Uning otashida gul bordir, guhar,
Yana tikan bordir gulga barobar.

Uzum novdasidek chirmashar nuqul,
Yiroq turguvchiga chirmashmagay ul.

730 Chirmashsa, yuz mehr izhor etar,
Keyin toptar, yuz karra xor etar.

Dedi: "Buni qo'ysam o'z holiga chun,
Andoq qasr qurar o'zgalar uchun.

Mening shuhratimni erga urur
Va o'z nomasin ham qaro qilur".

Buyurdi, tuting deb giribonidin,
Elting, tashlang, dedi, qasr tomidin.

Ko'ring endi, uni qon ichar tuproq
Tepadin tubanga itqitdi qandoq!

735

Qasr qurdi nusxa olib falakdin,
Bir zumda yiqildi o'sha yuksakdin.

Olov yoqqan edi, nasib etdi dud,
Tomga asta chiqib, qulab tushdi zud.

Yiqilmog'idin edi ul bexabar,
Yuz gaz etib qurarmidi magar?

Agar o'z qabridin bo'lsaydi ogoh,
Oshirmasdi uni uch gazdin aslo.

Qurgil taxtpoyangni yuksak u qadar,
Yiqilsang banogoh, ko'rmagil zarar.

740

Qasr Nu'mon nomin etdi baland,
Hattoki oyga ham tashladi kamand.

Xok joduyi mutlaq sanab zotini,
Xalq "Rabbul Xavarnaq" qo'ydi otini.

Xavarnaq ta'rifi va Nu'monning g'oyib bo'lgani

Xavarnaq bo'lib chun farri Bahromiy,
Bo'stoni erdikim, diloromi.

Osmon qiblayi zamin derdi,
Yaralgandin bahori Chin derdi.

Kelishardi eshitganlar uni,
Yuz minglarcha odam, ko'rgani.

745 Har kim ko'rsa ofarin aytibon,
Ostonasin supurgaydi hamon.

Xavarnaq vasfida yangrab galma-gal,
To'qildi necha bir baytu g'azallar.

Adaniy erdi gar durafshonlikda,
Yamaniy bo'ldi chun nurafshonlikda.

Shuhratidin Yaman bezandi ortiq,
Jahonda lramdek qozondi dovruq.

Qasming chiroyi ochildi chindan,
Bahrom kirib, uni etganda maskan.

750 Qasr tomi uzra kezganda Bahrom,
Quvonchidin Zuhro no'sh etardi jom.

Ajab qasr erdi gardunoroy,
Ichkarida quyosh, tashqarida oy.

Ichkarisi quyoshdek jilvagar,
Tashqarisi oy kabi shu'lavar.

Sarin yellar esib boshida har on,
Ufurmasdi sira bodi xazon.

To'rt go'shasin ko'rdi shahzoda shu dam,
Bihishtdek bog' edi, kengish va ko'rkam.

755

Bir tarafda oqar nahri Firof,
Suvi shirin edi chun obi hayot.

Bir tarafda tutash yashil bo'ston,
Qishloq edi, sutu qaymoqqa makon.

Bog'u bo'ston orti yaylov. maysazor,
Nafasidin ufurardi ufor.

Nu'mon tomdin boqib o'ru qirga
O'ltirardi Bahrom-la birga.

Har yon bihishtdek erdi rangin,
Qirmizi lola, yashil ekin.

760

Tutash chaman erdi to'rt atrofi,
Kakligu tustovuq sayrgohi.

Dedi: "Mundoq ma'vo yana qayda ul?
Mundoq joyda faqat shodlanur ko'ngil".

Nu'monning vaziri shunda hamnafas.
Donishmand er edi, haqiqatparast.

Dedi: "Bu ma'voyu mulkingdin magar
Tingrini bilganing ko'p marta afzal.

Xabar topsang o'shal ma'rifatdin,
Ko'ngil uzarding bu rangu suratdin".

765

Bu so'zlardin yog'ib olovlar seli,
Yumshoq tortdi hamon Nu'monning dili.

Falak etti qal'a bunyod etmish, bas,
Manjaniq tosh otib, unga etolmas..

Nu'mon tomdin tushib shu on, tutdi er,
Biyobon sari yuzlandi misli sher.

Davlatu sarvatin tark etdi, yohu,
Dinu dunyo sira qovushgaymu?

Kechdi Sulaymoniy taxtidin shu on,
Bo'ldi xalq ko'zidin paridek nihon.

770

Bir kimsa ko'rmadi uni xonasida,
Kayxusrav ataldi zamonasida.⁴⁸

Garchi Munzir base etdi shitob,
Hotifi davlatdin bo'lmadi javob.

Keyin otasining motamin tutdi,
Necha kun g'am chekib qayg'uga botdi.

Qayg'u, alam ichra chekdi oh,
Tutuni xonasin etdi qaro.

⁴⁸ Eron shohi Kayxusrav shon-shuhratining avj pallasida dahshatli qor bo'ronga uchrab, g'oyib bo'lgan edi.

775

Toju taxtdin kechib bo'lmadi butkul,
Toju taxtga bo'ldi o'zi mashg'ul.

Zulmga chek qo'ydi, adolat etdi,
Saltanat jilovin qo'lida tutdi.

Izga tushdi idorayi davlat.
Mamnun bo'lib yubordi shoh xil'at.

Bahromni ko'rardi Munzir aziz,
Atosidek, balki undan-da munis.

O'g'li bor edi, Nu'mon unga nom,
Emukdoshdi Nu'monga Bahrom.

Tengdosh ediyu emukdosh yana,
Bahrom andin ayrilmasdi sira.

780

Bir taxtadin ikkisi harf o'qir,
Bir bazmda sochardilar dur.

Oftobu nur yanglig' har mahal
Ayrilmasdi, birga cdi ular.

Shahzoda shu qasrda xushvaqt
Bir necha yil topdi tarbiyat.

O'rganishga baland unda roy,
Aqli edi ilmga rahnamoy.

Toziyu forsiyu yunoniy
O'rgatmishdi mug'i dabistoniy.⁴⁹

⁴⁹ Dabiston – dabiliriston, maktab.

785

Munzir, sohibi mahoratu mehr,
Ustod edi, ustodi ilmi sipehr.

Yetti yulduzu o'n ikki burj,
Sirrigha har oqshom erdi duch.

Xati handasaga amal aylab,
Minglab "Majasti"ni hal aylab,

Charxi osmonni o'rganuvchi edi,
Qarich-qarich o'lchaguvchi edi.

Necha mushkul nihoniy asror
Borki. ogoh edi, xabardor.

790

Shahzodaga boqarkan har vaqt,
Ko'rdi unda ilmga rag'bat.

Anga mehribonlik ko'rsatdi,
Osmon ilmuni o'rgatdi.

Har asrorkim nihoniy edi,
Zaminiy yo osmoniy edi,

Uning ko'z o'ngida marjondek terdi,
Baridin birma-bir saboq berdi.

Baridin bahramand bo'lib Bahrom,
Ilmu donishli bo'ldi tamom.

795

Ishga solib zichu usturlob,
Koinot yuzidin chekdi niqob.

Falak sahnini kezib kechdi,
Necha mushkulotdin tugun echdi.

So'ylab, tinglamoqqa bo'ldi mohir,
Siloh san'atiga etdi oxir.

Chavgon o'ynar esa maydonda shovvoz,
Qoyil edi sipehri chavgonboz.

O'shal poyadan-da yuksaldi, o'zdi,
Qashqir bo'ynin. sher panjasin uzdi.

800 Subh shamshiri sinib zarbidin har gal,
Uning oyog'iga tashlardi sipar.⁵⁰

Toshni toshga shundoq tikardiki, bas,
Andoq tikilmagay shohiyu atlas.

Kamonidin o'q uzsa har oni,
Nishon uzra urardi nishonni.

Tig' chekarkan, qoyatosh zarang
Suvga aylanardi, vale otashrang.

Arpa donasini gar olsa nishon,
Yetardi paykoni halqasimon.

805 Nayzasi sher bo'g'zin teshguvchi edi.
Tig'i ganj cshigin ochguvchi cdi.

⁵⁰ Sipar – qalqon.

O'q otsa, otguvchi yo'qdi u yanglig',
Bir tola tukni ham urardi aniq.

Uzoq-yaqin unga birdek erur,
Soya qutulmasdi, qutulmasdi nur.

Toleyi yor edi har ne orzuda,
Otgani o'qi ketmasdi behuda.

Sheryurak botirlar e'zoz etib,
Atashardi uni arslon deb.

810 Gohida yo'lbarsga hujum qilardi,
Gohi qoplon ila o'yin qilardi.

Yaman ahli qayda jam erdilar,
Uni najmul yamaniy derdilar.⁵¹

Bahrom ov qilib, qulonlarga tang'a bosgani

Bahromning yulduzi etib bahromlik,
Yaman adimini tark etdi xomlik.⁵²

Munzir yuzi yondi quvonchdin yal-yal,
Adim Suhayldin topgandek sayqal.

Nu'monu Munzir mahliyo anga,
Ul birodar, bul ato anga.

⁵¹ Najmul yamaniy – Subayli Yaman, Yaman yulduzi.

⁵² Yaman adimi – Yamauning mashhur charmi. Afsonaga ko'ra, u Suhayl yulduzi shu'lasidan yumshoq tortib, qizg'ish jigarrang tus olarkan.

815

Atolik, birodarlik nom erdi,
Ul hamroh esa, bu g'ulom erdi.

Ul sherik erdi ilm o'rganishda,
Bu rafiq erdi majlis, o'tirishda.

Undan – ilmu fanda jonbozlik,
Bundan – merganligu chavandozlik.

Ki obro' qozondi bo'ylakim Bahrom,
Yuksaldi erdin to samolarga nom.

Ishi yolg'iz mayu shikor erdi,
Boshqa ishga bee'tibor erdi.

820

O'lardi ovda go'r, qulon deb, illo,
O'lik go'rdin kechib ketarmi aslo?

Har joyda kamondin o'q uzar edi,
O'qi go'r ko'zida go'r qazir edi.

Ajab bir tulpori bor edi so'ngra,
Yugurganda yel, yurganda yo'rg'a.

Choparkan, ul qanot chiqarardi, bas,
Qadami gardunga berardi shikast.

Uchardi ellarga berib ko'ksini,
Quyoshdin to'p olar, oydin kursini.

825

Falak javloniga etolmas edi,
Shamol andin o'zib o'tolmas edi.

Dumi – yuz chirmashgan ilon siyog'i,
Yuz go'rga go'r qazir edi tuyog'i.

Shoh shikor etgali chiqqanda har gal
Boshqa bedovlarga solmasdi nazar.

Har gal tulpor surib, chopganda maydon,
Changu to'zonlarda qolardi qulon.

Necha bir bedovlar ortda qolardi,
Yo'llarda qulonlar charchab, qolardi.

830 Goho ishdan bezib, etmoq uchun ov,
Shoh uchqur otiga solardi jilov.

Tulpori taqasi zarbidin yakkash,
Sahroda naqsh uza tushar edi naqsh.

Semiz, yiriklarini ovlab oldin,
Tepa yasar edi qulon, maroldin.

Tuyoqlar ostida titragan sahro
Ohularga mozor bo'lardi go'yo.

Shoh dashtu sahroda ot surib nuqul,
Sur'atiga osmon etolmasdi ul.

835 Qulochkashlab har gal kamand otardi,
Minglab qulonlarni tirik tutardi.

O'shal qulonlarki etilmishdi band,
Oyog'ida yoki bo'ynida kamand.

Garchi semizlikda bo'lsa ham a'lo,
To'rt yoshdin pastini so'ymasdi aslo.

Qulon emas ersa to'rt yoshli tamom,
Aylamishdi uning qonini harom.

Sag'risiga nomin bosardi dog'lab,
Biyobon begi bo'l, derdi ardoqlab.

840 Har kimsa tutarkan dog'dor qulonni,
Minglar orasidin tamg'ali jonni,

Shohning tamg'asini ko'rib har safar,
Yetkazmasdi unga ziyon yo zarar.

Tamg'ani o'pard i ovchi sarnigun,
Oyog'idin darhol echardi tugun...

Shoh tamg'asi ila siylamish bizni,
Qo'y, shodon suraylik tulporimizni.

Qulon izlamagil bu dashtu tog'din,
Dog'lanib, qutulmish so'ng o'sha dog'din.

845 Bormi go'rxonada chumoli dag'i,
Ki zolim dastidin bo'lmasa dog'i?

Bahrom bir o'q bilan sher va qulonni qulatgani

Gavjum edi bir kun sahroyi Yaman,
Jam bo'lib ahli ul diyoru daman.

Shohki, endi Bahromi go'r nomi,
Taslim edi unga falak Bahromi.

Ov ovlamoq bo'ldi uchqur otida,
Munzir oldidayu Nu'mon ortida.

Shohning sha'nu shukuhiga shu on
Boqib, barcha asir edi, hayron.

850 Nogahon yiroqda qo'zg'alib tikka,
Bir to'zon yuksalib, bosh urdi ko'kka.

O'shal yoqqa surdi tulporin shu dam,
Bahromi shahriyor shamoldek ildam.

Ko'rdi, sher tirmashib qulon ustiga,
Olmoqchi bo'lardi uni ostiga.

Shoh o'qdondin o'tkir paykonin oldi,
Uchiga ko'z tashlab, kamonga soldi.

Bir zum chamalagach uzoq-yovuqni,
Ipni tarang tortib uchirdi o'qni.

855 Mo'ljal sheru qulon erdi, etdi o'q,
Ajab, har ikkisin teshib o'tdi o'q.

Ikkisi tuproqqa qorishdi hamon,
Shundoq o'q oldida bormi bir qalqon!

Sheru go'r yiqilib, bo'lmishdi halok,
O'q tuproq ko'ksini aylamishdi chok.

Shoh erdin sug'urib oldi paykonni,
Qo'lida zalvorli, egma kamoni.

Arablarki andoq zarbni koʻrdilar,
Tasanno Ajam shohiga, derdilar.

860 Har kim koʻrdi buni, oʻmidin qoʻpdi,
Kelib, shahriyoming qoʻlini oʻpdi.

Shohi sherzoʻr debon ataldi andin,
Bahromi goʻr debon ataldi andin.

Shaharga qaytdilar dovruq solaroq,
Sheru goʻr qissasi yoyildi yiroq.

Munzir amr ayladi mulozimlarga.
Naqqoshlarni toping, dedi ularga.

Xavamaqqa zarrin naqsh chekdilar,
Surati goʻru sher – zeru zabar.

865 Shohki andoq bir oʻq otmishdi,
Oʻqi ovni teshib, erga botmishdi.

Naqqosh chizgan edi ajib bir narsa,
Tirik deb oʻylardi koʻrgan har kimsa.

Derdi: “Tahsin, shahriyori javon,
Etmish andoq kirdikori jahon!”

Bahrom ajdahoni oʻldirib, xazina topgani

Kun edi bihishtdek safoli kun,
May simirdi Bahrom, lolagun.

Qadahlar boʻshatib chun basma-bas,
Yurdi sahro sari soʻng sarmast.

870

Qulon ovlamoqqa otdi kamand,
Ovladi necha shiddat bilan.

Qutulmadi yo`lda uchragan qulon,
Sahroni qopladi andin ustuxon.

Bir urg'ochi qulon qolmishdi, hayhot,
Keldi, ko'kka ko'tardi faryod.

Vujudi ruhoniy xayol erdi,
Toza ro'yu shirin visol erdi.

Orqasi taram-taram simu zar,
Qorin osti dag'i shiru shakar.

875

Xatti mushkin boshdin dumigacha,
Oyoqlarida xol edi necha.

Bo'ynida bo'yinbog' – zunnori,
Yuzida chun niqobi gulnori.

Go`zal edi o'zga qulonlardin,
Dashtaro jumla husni jonlardin.

Giyoh erkan, yig'ardi otash yolg'iz,
Darvesh libosida edi gulyuz.

Boldiri g'oziylar o'qiga qiyos,
Quloqlari naq xanjari olmos.

880

Kengish bir siynasi, qo'yni bor edi,
Tikka cho'ziq, mavzun bo'yni bor edi.

Atlasdek terisi yiltirab har dam,
Qora kamar edi belida ko'rkam.

Semiz biqin, qon to'la gardan,
Bu aqiqdin edi, u esa durdan.

Qizg'ish harir erdi go'yo tanida,
Qizil qondin tasma gardanida.

Dumi bilan quvardi pashshani,
Tuyog'i-la qashirdi bo'ynini.

885 Bahromni ko'rdiyu qochdi qulon,
Uning ortidin tushdi Bahrom.

Qulon qochar edi, chopag'on edi,
Uni quvgan ovchi arslon edi,

Erta tongdin qaro shomgacha to,
Qulon qochdi, sher quvdi raso.

Bahrom jilov tortmadi bir qur,
Nechuk tortsin, oldinda erdi go'r!

Go'r qochardi, Go'rxon surardi ot,
Go'ru Gurxon, yo'q erdi o'zga zot.

890 Yetdi bir g'orga go'r yo'l so'nggida,
Odamzod oyog'i etmamish unga.

Sayyod etisharkan saydiga nogoh,
Ko'rди, g'or og'zida yotar ajdaho.

Tani tog' qalashgan tog' edi, zalvor,
Ovni yamlamoqqa hamisha tayyor.

Nafasi o't-olov purkar edi chun,
Olovdin burqirab uchardi tutun.

Daraxt edi, ammo mevasiz, bebarg,
Borlig'i o'limdin berardi darak.

895 Og'zi xuddi dahoni g'or edi.
Yeb-to'yimas yuxo degancha bor edi.

Qulon bolasini yutib shu onda,
Kuch yig'ib yotardi tani darmonda.

Shoh qaddin rostladi baloni ko'rib,
Ajdaho bo'ldi ajdahoni ko'rib.

Qulon g'ami yoqdi ko'nglini andoq,
Beliga qo'l, uzangiga oyoq.

Tirab, o'yga toldi, ne tadbir tutay,
Bu qo'rqinch baloni nechuk daf etay?

900 Ayon bo'ldi anga, qulon chindanam
Ajdahodin ko'rmishdi ko'p sitam.

Shohni boshlab keldi, ko'rsin deb,
Sitamgarga jazo bersin deb.

Dedi: qo'rqsam ajdahodin gar,
Malomatga qolurmen muqarrar.

Sitamgar ul jazosini olsin,
Ahd ayladim, ne bo'lsin, bo'lsin!

Shunday deb o'qondin o'q oldi,
Uni egma kamoniga soldi.

905 Nishonga oldi ajdahoni shoh,
Ko'zini katta ochdi ajdaho.

Uchdi o'qlar ajdaho tomon,
Sanchildi ikki ko'ziga hamon.

Dunyo bo'ldi ajdahoga tang,
Shoh tushdi maydonga, boshladi jang.

Nayza urdi tomog'iga o'tkir,
Sher qulonga chun panja urgaydir!

Olti qirra nayza qonga botdi,
Ajdahoning tomog'ini yirtdi.

910 Ajdaho bo'kirdi sakrab necha qur,
Kesilgan daraxtdek quladi oxir.

Shoh qo'qrmadi ajdar solsa-da chovut,
Tog'ning shovqinidin qo'rqarmi bulut!

Tig' sirmadi, boshsiz qoldi ahriman,
Yaxshidir boshidin ajrasa dushman!

Boshdin dumigacha ajdarni yordi,
Qulon bola edi qornida, ko'rdi.



Shunda angladi shoh, qulon bilasos,
Ajdahodin andoq olmishdi qasos.

915 Shoh shukrona aytdi Haqqa yolborib,
Chunki ajdahoga kelmishdi g'olib.

Istadi jilovni ortiga bursa,
Shikorgohga tag'in otini sursa.

Ammo shu daqiqa etishdi qulon,
Kirib g'orga, bo'ldi ko'zdin nihon.

Shoh uni tutmoqni yana o'yladi,
G'orga kirmoqqa chun azm ayladi.

Kirdi ichkariga chekib ranj,
Ganj kabi chaqnadi topib koni ganj.

920 Necha xum liq to'la la'l edi porloq,
Parilardek mardum ko'zidin yiroq.

Go'rni quvib, ganjga etdi Go'rxon,
Ganjxonadin chiqib qochdi qulon.

Shoh bo'ylakim xazinaga etdi,
Ajdahoni g'ordin nari eltdi.

Otlanib, ko'z soldi har yoqqa,
Yo'l izladi ortiga qaytmoqqa.

Necha sipoh, necha xosu a'yon
Shohni izlab, kezardilar har yon.

925

Shohni ko'rib, bo'ldilar xushhol,
Atrofida saf chekdilar darhol.

Shoh buyurdi, kamarband shotirlar,
Yovqur botirlaru bahodirlar.

Hamon o'shal g'orga kirgaylar,
Xazinani tashib chiqargaylar...

Uch yuz tuya ganjina ortibon,
Bo'ldilar so'ngra yo'lga ravon.

Shoh shu yanglig' go'r dodiga etdi,
Ajdahoni asiri go'r etdi.⁵³

930

Chekib andoq necha zahmatu ranj,
Ham salomat qoldi, ham topdi ganj.

Xavarnaq qasriga qaytdi boz,
Ganjpardoz aylab, etdi no'shu noz.

O'n norg'il tevaadin tuzib karvon,
Shoh Munzirga ganj etdi armug'on.

Yana o'n teva Munzir o'g'liga ham
Xazina yo'lladi ul muhtasham.

Tarqatdi arkonu amaldoriga,
Parvo aylamadi hisobdoriga.

935

Xullas, necha xazinalar ochdi,

⁵³ Go'r – birinchi misrada qulon, ikkinchi misrada qabr ma'nosida.

Bir qo'li olarkan, bir qo'li sochdi.

Munzir dedi: "Naqshband kelsin,
Qasr devoriga naqsh solsin".

Naqshband keldi, naqshini tizdi.
Surati shohu ajdaho chizdi.

Keyin har ne qildi shoh Bahrom,
Barin Xavarnaqqa naqsh etdi rassom.

Bahrom Xavarnaq qasrida yetti go'zal suratini ko'rgani

Shikorgohdin qaytib ganj bilan,
Xavarnaqni kezardi shoh xursand.

940 Xavarnaqni kezib, sayr etib yurdi,
Eshigi qulflog'liq bir hujra ko'rdi.

Shoh bu yoqqa qo'ymamishdi qadam,
Chun a'yonu amaldorlar ham.

So'rdi: "Ne boisdin qulf osiq bunda,
Qorovuli bormi, kaliti kimda?"

Qorovuli kelib, kalit uzatdi,
Shoh ichkari kirib, hayratga botdi.

Hujra emasdi ul, xazinayi ganj,
Shoh bo'ldi boqib javohirsanj.⁵⁴

⁵⁴ Javohirsanj – gavhar donalarni qiyoslab baholovchi

945

Qoldi hayrat aro ko'rib naqshin,
Hech erdi yuz nigorxonayi Chin.

Har naqshida ajib san'at edi,
Nur edi, jilo edi. tal'at edi.

Yetti parisiymo chekilmishdi xub,
Har biri bir o'lkaga mansub.

Hind podshosining qizi Favrak,
Husn bobida oy erdi, malak.

Hoqon qizi erdi so'ng Yag'monoz,
Fitnayi lu'bati Chhinu Taroz.

950

Xorazmshoh qizi ul Nozpari,
Xirom aylarda jannat kaptari.

Saqlabshohning qizi Nasrinno'sh,
Turki chinitirozu Rumiypo'sh.

Mag'ribshohning qizi ul Ozaryun,
Oydek chehrasidin yorishardi kun.

Rum qaysarin qizi Humoyunroy,
O'zi humoyunu ham nomi Humoy.

Kisroning qizi, nasli Kaykovus,
Ismi Dursatu o'zi tovus.

955

Bir davraga tizib, etti parizod
Suratin devorga chizmishdi ustod.

Har birida ayricha zebolik,
Nozaninligu dilrabolik.

Eng o`rtada bir surat erdi, bas,
Ular po`st ersalar, bul erdi mag`z.

Bir yigit, beoda zarrin kamari,
Nurafshon erdi yuzi, qamari.

Sihisarv singari boshin ko`tarmish,
Tojdin to kamari siymin, kumush.

960 Go`zallar mehr ila termulib unga.
Ko`z tikib, oh chekib, dil berib unga.

Noz-ishvada ziyoda erdilar,
Xizmatiga omoda erdilar.

Siymovu paykarin etib tasvir,
"Bu – Bahrom go`r deb yozmishdi dabir.

Ki andoqdir hukmi etti axtar,
Bu jahongir jahonga amr etar.

Yetti iqlimdin yetti shahzodani
Olgay, andoqkim gulu gulzodani.

965 Demakim, bu urug`ni biz ekdik,
Yulduzing amr etdi, raqam chekdik.

Ne dermiz istiqbol bahridin,
So`z bizdin, adosi Tangridin".

Shoh Bahrom chun o'qib bu kalom,
Falak fusuniga lol qoldi tamom.

Go'zallarkim, erdilar lolagul,
Xayolini band etdi butkul.

Bir yon modalaru bir yon norg'ul nar.
Sher yigitu yetti paripaykar.

970

Nechun rag'batini fuzun etmasin?
Ko'ngil taqozosin nechun etmasin?

Garchi bu kornoma urmishdi yo'ldin,
Shoh Bahrom shod edi g'oyat ko'ngildin.

Bu narsa qarorin ustuvor etdi,
Ertagi kunidin umidvor etdi.

Mard agar mardona kor aylar,
Har ne uni umidvor aylar.

Shoh o'shal hujrani tark etdi,
Kalitin qorovulga tutdi.

975

Dedi: "Eshitsamki, biror kimsa
Bu hujra eshigin ochar bo'lsa,

Qonini to'kib, ado qilgum,
Boshidin tanidin judo qilgum".

Mingba'd er-ayol yo o'zgalar
Bu hujra sori solmadi nazar.

Shoh may ichib, bo'larkan mast,
Shu xonani etar edi havas.

Eshik ochib, ichkariga kirib,
Xo'rsinardi go'zallarni ko'rib.

980 Suv bo'yida yurardi tashnalab,
Uyquga cho'mardi umid aylab.

Ko'z ochsa, dardi shikor erdi,
Qaytsa, shu xona g'amgusor erdi...

Bahrom otasi vafotidan xabar topgani

Bir kuni Yazdigurdga kimsalar,
Yetkazdilar o'g'lidin xabar.

Ki "Sherbachcha shergir bo'lmish,
Sher navqiron, bo'ri pir bo'lmish.

It sherga hech barobarmi bo'lur?
Sher ajdahoni ado qilur.

985 Devni asir etar otsa kamand,
Tog'ni talqon qilur sursa samand.

Olmosi temirni harir etgay,
Tig'i qoyatoshni xamir etgay".

Shoh dili bu xabardin qolib g'ashda.
O'z zavolin ko'rdi bu otashda.

Bu xabardin joniga xavf uqdi,
Sher olovdin qo'rqqan kabi qo'rqdi.

Nazaridin yiroq tutdi magar,
Garchi benur noqis bo'lgay nazar.

990

Bahrom ersa shikor aylab havas,
Goh suvoriy erdi, goh bodaparast.

Shikoru may ila band edi har on,
Yamanda Suhayl edi, charog'on.

Yaman shohining mehriga yo'qdi chek.
Hukmi ravon erdi samo hukmidek.

Shoh tan berib ilmu adolatiga,
Hokim aylamishdi viloyatiga.

Bermishdi behisob gavharu tig',
Istasa, jonini tutmasdi darig'.

995

Har necha zarur ersa gavharu ganj,
Olardi shohdin betashvishu ranj.

Ko'rib Yaman shohdin chun inoyatin,
Yod etmasdi mulku viloyatin.

Davr davron surib, aylanarkan,
Yangi o'yin ko'rsatdi charxi baland.

Yazdigurd toju taxtidin to'ymishdi,
Ishi baland poyadin pastga tushdi.

Bobolardin meros toju tuxtini ul
Endi boshqalarga qoldirdi butkul.

1000

Shohsiz qolgach toju taxt ongoh,
Anjuman tuzdilar shahru sipoh.

Ki najodin kimsa raho etmasin,
Xizmati moru ajdaho etmasin.

O'g'li Bahrom garchi sarbaland erdi,
Donishu tig' ila zo'rmand erdi,

Jinoyat aylamishdi ko'p padari,
Shu bois ko'rinmadi hunari.

Dedilar: "Ul sari nazar etmang,
Otasi vafotin xabar etmang.

1005

Ki ul sahroyidir, arabparvar,
Ajam mulkiga xizmatmi aylar?

Arablarga berib viloyatu ganj,
Forsiylarga etar uqubatu ranj..."

Kimsa istamasdi, u bo'lsa shoh,
Shoh bo'lgay vale istasa Xudo.

Xiradmand bir cholni tanladilar,
Ismi shohjahon ayladilar.

Garchi nasli tojdorlardin emas,
Gavhari shahriyorlardin emas,

1010

Boshiga yoqut toj qo'ndirdilar,
Beliga yetti ko'z kamar sirdilar.

Eshitdi bu xabarni shoh Bahrom,
Boshi uzra qoraydi ko'k tamom.

Bildiki, davron ixtilof etmish,
Ishi butkul teskari ketmish.

Taxtu tojidin ketmish padari,
Topilmamish nasli toj kiygali.

Toju taxtni bir begona olmish,
Jahonda yangi fitna qo'zg'almish.

1015 Avvaliga ota motamin tutdi,
Ko'k kiyib, bosh egib, g'am yutdi.

Der edi: "Qo'zg'alib misli sher,
G'animplarga urgaymen shamshir.

Ular boshiga chun ajal etgum,
Tig' sirmab, jangu jadal etgum".

Yana derdi: "Nechuk yomonlik etay,
Yaxshisi, mehribonlik etay.

Garchi croniylar xato qildilar,
Qahru g'azabimni ravo qildilar.

1020 Qahru kiyn bo'lmasin ne taxlit,
Yumshoqlik yaxshidir, yumshoqlik kalit.

Garchi xor etdilar sha'nimni manim,
Ular yaylovimda yurgan qo'ylarim.

Garchi yunglaridir to'shak, yopinchiq,
Mening o'tlog'imda yotarlar tinchib.

Mayliga, etsalar bugun jaholat,
Ertaga bo'lurlar mendin xijolat.

Xijolat chekadi xiyonatdin mard,
Yaxshimas, ustiga yana ortsang dard.

1025 Xijolat chekkanni yana etsang xor,
Zulm bo'lib, isming bo'lgay zulmkor.

Aqlsizlik etib adashdilar, bas,
Etgaymen aql ila podshoparast.

Ovchi sabr-toqat etmasa gar,
Otgan o'qi nishonni yonlab o'tar".

Bahrom Eronga qo'shin tortgani

Bas qil, ey joduyi suxanpayvand,
Kechmish so'zin dersan qachongachan?

Gul kabi o'zingdin tarat ufor,
Nafasing atroso, beg'ubor.

1030 Ahdu paymon etdim men atay,
Kim bilan? Ulki ahdidida turgay.

Kimsaki buni fasona etmish,
Biz uyg'oq, ul uyquga ketmish.

Men molimni avlo etmagum,
Yomon ishdir bu, aslo etmagum.

Kuch boricha navro'z havasiman,
Tikarkan, eski-tuski tikmasman.

So'z-guhar socharda shartim bor,
Aytilgan so'zni aylamam takror.

1035 Lek yo'l bitta, ganjxona bittadir,
O'q ikkiyu nishona bittadir.

Gar kecholmasam qaytariq so'zdin,
San'atim atlas yaratur bo'zdin.

Ikki naqqosh so'z kimyosi-la chun
Bergaylar eski naqshlarga husn.

Biri misni etmish siymi xos⁵⁵
Biri uni zar aylamish, xolos.

Ko'rdingki, mis kumushdir hamon,
Uning zar bo'lmagiga etma gumon.

So'z avvali

1040 Baland taxtni etgan zarnigor
Yana ayladi ziynatin oshkor.

Ki Bahromi go'r bo'ldi ogoh
Bir begonaga qolmish kuloh.

Kayoniy tojin etgali talab,
G'azabga yo'l berdi belin boylab.

⁵⁵ Siymi xos – sof kumush.

Nu'monu Munzirdin etishdi yorlik,
To talab aylasin jahondorlik.

Ganj ortig'i-la etishdi tortiq,
Gavhar dag'i erdi andin ortiq.

1045 Jam bo'ldi lashkar jasorat oyin,
Kiynavar o'rtandi, olovlandi kiyn.

Yamandin Adanga qadar shu taxlit
Safga tizilmishdi yuz mingta otliq.

Bari sovut kiygan azamat, botir,
Harbu zarbga tashna jangchi bahodir.

Har biri misoli sher edi yo'lda,
Shamshiri hamisha shay edi qo'lda.

Yurho-yur boshlandi, yo'lga tushdi shoh,
Chang-to'zon yuksaldi samolarga to.

1050 Karnaylar o'kirib, dovullar gum-gum,
Na'rasi jonlarga solardi vahim.

Nog'oralar yangrab, berardi ovoz,
Nog'orachilarda shiddat, ehtiros.

Tog'u sahro tushib junbushga chunon,
Yetti qat osmonga yetishdi suron.

Chigirtkadek bosdi erni lashkar,
Yuraklarda do'zax o'ti magar.

Hama Bahromshohga erdi taraf,
Yurdilar Yamandin Ajamga qarab.

1055

Xabar topdi taxtgeri jahon,
Ki o'zga ajdaho ochmish dahon.

Yetishmish zaminga osmondin mayl,
Bosh ko'tarmish Yamandin Suhayl.

Narra sher qahr ila panja ochib, bas,
Dushmanni mahv aylarga etmish qasd.

Taxt olib, boshiga toj kiymoqchidir,
Fitna, mojaroga chek qo'ymoqchidir...

Ahli sipoh, akobiru a'yon
Shoh eshigiga keldilar hamon.

1060

Majlis tuzib, chandon so'z qotdilar,
Sarkashlikni bir chetga otdilar.

Oxir-oqibat etdilar qaror,
Ki Bahromga noma yozish darkor.

Aql buyurganin xatga chekdilar,
Po'stidin ayirmay urug' ekdilar.

Nomada kotibi suxanpardoz
So'z aro sharhi hol etdi daroz.

Noma bitdi, uni buklab shu on.
Yo'l oldilar Bahromshoh tomon.

1065

Yetib, so'ngra arz etdilar zud
Yangi shohga salomu durud.

Hojiblar iltifot etib izhor,
Ko'rsatdilar izzatu e'tibor.

Nihoyat Bahromshoh izn berdi,
Kelganlar ichkari kirsin, dedi.

Iskari kirdilar qo'rquv aro,
Shoh sha'niga aytib madhu sano.

Elchiboshi nomani avval o'pib,
Topshirdi so'ng ta'zim bajo etib.

1070

Buzib noma muhrin dabir, a'yon,
O'qidi shohu shahriyorga hamon.

Eron podshosining Bahromgo'rga maktubi

Avvalboshda edi nomi Xudoy,
Gumrohlarga tayanchu rahnamoy.

Jahonda har balandu past andin,
Borligu yo'qlik-da, bas, andin.

Odamiydin jumla jonu jonvar,
Yuksak samolardin baland tog' qadar.

Barini, ko'rsatib muruvvatu jud,⁵⁶
Uning qudrati ayladi mavjud.

⁵⁶ Ma'lumot yo'q.

1075

Borliqning joni Ul. payvandi,
Undan o'zga yo'q Xudovandi.

Yaratgani – Uning tugun ochgani,
Ofarin, ne qutlug' mehr sochgani!

Uning hukmidadir zaminu zamon,
Uni ham, buni ham tutguvchi omon...

Yaratganga aytib shukru sanolar,
Shoh sha'niga etib xayri duolar,

Deyilmishdi so'ngra salomu durud,
"Ey ko'kka talpingan sor burgut,

1080

Ham malakfarru ham malikzoda,
Ko'rsatding mardumga mardlik ziyoda!

Menki bir banda, Kisro menga nom,
Har nechuk g'arazdin yiroqmen tamom.

Ham hunarmandsen, ham jahondida,
Jahon nazdida chun pisandida.

Hunarmandligingdin kelur menga baxt,
Behunar kimsaga qayda toju taxt?

Sarbalandmen, menda toju sarir,⁵⁷
Sarbaland hech bo'lgaymu baqir?

⁵⁷ Sarir – taxt.

1085

Garchi yurt shohimen, hukmfarmosi,
Pariyu odamiylar peshvosi,

Shohligimdin xushnud emasmen ortiq,
Ki asaldir bu zaharga qorishiq.

Davlatu sarvatim bor edi andoq,
Baxt yulduzim mudom boshimda porloq,

Bugun shohman garchi, emasmen xursand,
Bexatar emasdir masnadi baland.

Netay, eroniylar holimga qo'ymay,
Zorligu zo'rlik-la paydar-pay.

1090

Meni yurtga podsho etdilar,
Yelkamga zalvorli yukni ortdilar.

Qoldi shu mamlakat ishi menga. bas,
Posbonlik erur bu, podsholik emas.

Olam ahli aro masal bor, durust,
Orzu dushmandiru olam do'st.

Sen bu olamdin naridirsən,
O'zga olam shohi, sarvaridirsən.

Senga qulon kabob xushdir faqat,
Minglab taomlarda yo'q muncha lazzat.

1095

Rubob navosiyu bir yutum boda
Zavqidin yaxshiroq ne bor dunyoda?

Shikoru may crur tek tashvishing,
Jahonning g'alvasi-la ne ishing?

Kuning maishatda o'tar shu yanglig',
Mamlakat tashvishu g'amidin forig'.

Shikoru sharobdin emassen ayru,
Gahi ayshu ishrat, gohida uyqu.

Meni sen demakim, osudadirmen,
Chekib xalq dardini, ranjidadirmen.

1100

Gahi do'stlar anduhidir pesham,
Gahi dushman xuruji andisham.

Bugun yana boshimdadir manim,
Toju taxt deb senga tig' urmagim.

Ey jahon uzra yulduzing porloq,
Tashvishdanu fitnadin yiroq.

Koshki men ham shu ko'yda bo'lsaydim,
Tashvishlardan osuda bo'lsaydim.

Ulfatlar birla ishrat aylardim,
Mayu soz birla jonni siylardim.

1105

Demasmen, sen bexabar shohsen,
Dinu davlat ishidin ogohsen.

Mulku mamlakatga sohib o'zing,
Podsholikka munosib o'zing.

Ammo otang kirdikori uchun
Toju taxtdin yiroq tushding bugun.

U xalqiga zulm etmishdi,
Xor etib, qaqshatmishdi.

Andin mardum shikoyat qildilar,
Qilmishlarin jinoyat bildilar.

1110 Baski javr etdi ul, xunrezlik,
Gahi qahr aylab, gahi tezlik.

Kimsa bu naslga tahsin demas,
Bu urug'ni tuprog'iga ekmas.

Istamaslar shohliging sening,
Yaxshi bo'lurdi ortga qaytganing.

Ot sursang, olovga bo'lursen duchor,
Jang qilsang, bizda ham qilich, nayza bor.

Istasang, men ganjinadin nihon
Istagancha ganj etay ehson.

1115 Ehtiyoj tug'ilsa kuni yo tuni,
Asqotadi. xarj aylarsen uni.

Etmagay mendin hech zamon
Maishatingga zarracha ziyon.

Shoh bo'lib, xizimatingda turgaymen,
Amru farmoningda yurgaymen.

Xalq to'ysa mendin, shu erur azmim,
Saltanat bo'lur senga taslim".

Bahrom croniylarga javob bergani

Bas, noma o'qilib bitdi tamom,
G'azabidin o't oldi Bahrom.

1120

Basdi qahrini yuz mashaqqat ila,
Aqlga yo'l ochdi ma'rifat ila.

Yonib, jo'sharkan yetmadi shitob,
Andisha yetgach, ayladi javob.

Ki "Mirzolarki so'zni tizmishlar,
Tingladim, har neki yozmishlar.

Garchi kotib so'zida shira oz,
Nasihatgo'yga etgum e'tiroz.

Ulki aytilmish yuksak poyadin,
Men yuzni burarmidim andin?

1125

Tuprog'u zarni men teng tutgum,
Yetti iqlimga chun amr etgum.

Bobolardin qolgan mulkimni, illo,
Berib qo'yarmidim boshqaga aslo?

Otam etgan bo'lsa zulmu sitam gar,
Men Xudodo'stman, xiradparvar.

Farq etgay hamisha mag'zu po'st,
Xudodo'stdin ul xudoyido'st.

Men gunoh etmadim, ma'zurmen,
Yo'qki otam aybiga ma'sulmen.

1130

Otam boshqa men boshqa bir lunar,
Gar otam tosh esa, men gavhar.

Subhi ravshan tun bag'ridin kelgay,
La'li, gavhar toshdin tug'ilgay.

Otamdin sizga chun zulm etmish,
Tangri sizni undan xalos etmish.

Yomonlik aylab ul yomon uxlar,
Marhum ortidin yomon gapirmaslar.

Har yerdaki aql erur hamdam,
Yomonu yomonlikdin urmas dam.

1135

Pastgavhar bo'lsa kim, ko'r hamon,
Aytgani yomon, eshitgani yomon.

Ma'zur tuting otam jinoyatin,
Bilmasdim uning qabohatin.

Magar so'rmasalar yo'lim hozir,
Ul gunohga so'rmoqchiydim uzr.

Avval g'ofil edim, uxloq men,
Endi g'ofil emas, uyg'oq men.

Muqbilga iqboli yor magar,
Uxloqligi vaqtinchalik bo'lar.

1140

Yaxshidir tin olib uyquda,
Ko'zlarim ochilsa vaqtida.

Garchi uyqu eltmish meni qattiq,
Boshim uzra baxtim edi yoniq.

Bedor baxtim etdi menga yorlik.
Uyg'ondim, ishim endi bedorlik.

Yaxshilikka hamon yuzim burdim,
Ko'ngilni g'aflatdin yiroq ko'rdim.

Etmasmen bexudligu xudkomlik,
Pishdim bugun, nechun etay xomlik?

1145 Yaxshilarga bo'lay nazarnavoz,
Maslahatlarga chiqay peshvoz.

Birovning aybini ayon etmam,
Ta'mayi molu qasdi jon etmam.

Kechmish gunohing aylamam yod,
Zamona zaylidin bo'lurmen shod.

Sizga yetgum, ulki yetilgaydir,
Sizdan yegum, ulki yeyilgaydir.

Kimsaning mulkiga solmam raxna,
Dushman molidandir menga xazina.

1150 Eshigimdin kirar yaxshilar bari,
Yomonni etgaymen ko'zdin nari.

Yaxshidin o'zgaga nazar solmam,
Yomonlardin yomon saboq olmam.

Shohlikka makrni qo'shmagum aslo,
Xudodin etarmen sharmu hayo.

Molu mulku ahli ayol hama
Omonatdir menga chun qo'y, rama.⁵⁸

Men tortib olmasmen birov nonin,
Noniga non qo'shgaymen aning.

1155 Orzu devi yo'ldin urolmas aslo,
Orzuni gunohga etgaymen guvoh.

Tangri nazarida har neki yomon,
Men unga ko'z solmam hech qachon".

Shoh azmi royini andoq gapirdi,
Mo'tabar bir mo'bad o'rnidan turdi.

Dedi: "Bizga fazli Xudovandsen,
Ham xiradbaxshu ham xiradmandsen.

Har ne deding, pok edi, beg'ash,
Aql ko'ngillarga etdi naqsh.

1160 Boshlarga ziynatsen, barchaga sarvar,
Cho'ponsen shu suruvga, rahbar.

Tojdorlik yarashur yigit yoshingda,
Toj bizimdir, ammo sening boshingda.

Go'shtosp "Zand" in o'qir kim sendin o'zga,
Kayonlar avlodi kim sendin o'zga?

⁵⁸ Rama – suruv.

Baxmaniylar, dorolar nasli,
Sendin o'zga yana kim asli?

Sensan ul Siyomak davomdori,
Ardasheri Bobak yodgori.

1165 Qayumarsning taxtu tojidin to
Kelur nishbating shohdin shoh.

Mulk sening, o'zga ixtiyor yo'q,
Jahonda sendek tojdor yo'q.

Mo'badlar, yoshdiru keksa-pir
Bu so'zda hammamiz hamfikir.

Ammo biz bandayi qaroliqmiz,
Ahdu paymon ila bog'liqmiz.

Ki taxtda o'ltirgan kimsa ila
Ahdu ont etganmiz bir yo'la.

1170 Kech tojingdin debon buyurmasmiz,
Eshigidin yuzni o'girmasmiz.

Ul ahdu paymonni buzmoqlik uchun
Hujjat kerak bo'lsa undanam ustun.

Toki yuz bermasin xijolatpazlik,
Ishimizda bo'lsin to'g'rilik, rostlik".

Shoh Bahrom eshitdi mo'badni shu tob,
Javob berdi unga, munosib javob!

Dedi: "Uzr Sizdin ravo bo'lmagay,
Oqil uldirki, bevafo bo'lmagay.

1175 Ul muxolifki, taxtdadir bugun,
Siz uchun pir, go'dakdir men uchun.

Tojinni boshidin olurmen chunon,
Bir tola mo'yiga yetkazmam ziyon.

Baski menga mansub erur shohlik,
Ravomas madero, uzsohlik.

Shohmanu shahzoda to Jamshid shoh,
Mulki merosim hama oqu qaro.

Toju taxt olatdir. shohlikmas,
Olat yo bo'lur, yo bo'lmas.

1180 Har kimki tojdoru taxtnishin,
Toji osmondir, taxti – zamin.

Taxti Jamshidu toji Afridun,
Ulardin bir narsa qolmishmi bugun?

Har kimsaki shohi zamon erdi,
O'ziga munosib toju taxt qurdi.

Men dag'i toju taxt sari borgum,
Muqarrar, uni tig' chekib olgum.

Merosimni olmish bir g'addor.
O'rgimchakka makon bo'lmish g'or.

1185

G'or sari yursa ajdaho, ul vaqt
O'rgimchakdin so'rarmidi ruxsat?

Chumoli bo'lurmu Jabroilga teng,
Pashsha qachon bo'lmish poyi pilga teng?

Qulon qichqirmasin qanchalar qattiq,
Arslon hayqirsa, jim qolar, sokit.

Quyosh qarshisida chun burji hamal,
Ne emish yuz chiroq yoqsa ham o'shal?

Men birovlar uyida yutsam qon,
Uyim ersa o'zgalarga makon?

1190

Dushmanim emishi shahdu shakar,
Menga emish bo'lsa xuni jigar?

Jigarqon yutgandin yaxshidir o'shal
Bo'yningga tig' botsa, tanningga xanjar.

Hama mulki Ajam xazonam mening,
Arabda qolmish xayli xonam mening.

Gahi Munzir yuborgaydir xonin,⁵⁹
Gahi Nu'mon fido etar jonin.

Mol berganim bugun kulahdordir,
Non berganim o'shal gunahkordir.

1195

Men sheri jayon esam qoyim,
Tulkiga berarmidim joyim?

⁵⁹ Xon – bu yerda dasturxon ma'nosida.

Kaydirmen, olurmu muxolif toj,
Berurlar kayzodaga xiroj.

Kayoniylar joyi sazoyi kayon,
Kayoniyga tegish joyi kayon.

Shohga joiz tuzsa lashkari jang,
Yakka otliqdin chiqmagay chang.

Piri mug'on qo'ysa jomi bodani,
Yosh mug'onga darhol tutarlar ani.

1200

Bilingkim, har neki so'zlarmen,
Faqat rostlik, halollik ko'zlarmen.

Niyatimda rostu yaxshilik nuqul,
Yo'qki xudbinligu sarkashlik ul.

Mo'tabardir maylu royingiz menga,
Muhtaram rozi-rizoyingiz menga.

Dedingiz, bizga hujjat zarur,
Ortidin ahdu paymon bo'lur.

Hujjat uldirki, ikki yovuz sher
Orasiga tushsin mardona er.

1205

Erta tong ikki sher g'urrandani olib,
Qorni och, ko'zi qon darrandani olib,

Sherdor keltirsin maydonga to,
Atrofin devordek o'rasin sipoh.

Shohlar toji qo'yilsin o'rtaga,
Ikki sher posbon bo'lsin anga.

Tojni kim o'rtadin ololsa gar,
Mulki Ajamga podsho o'shal!"

So'z aytildi, erdi ul sidqi roz,
Suxankim, dilraboyu dilnavoz.

1210

Yozdirdi shoh nomaga, muhr urdi,
So'ngra sharhu bayonin ham berdi.

Tarafdorlariga topshirdi keyin,
Elting, dedi. xaloyiq bilsin!

Shohparastlar shoh mardligin anglab,
Shohning shirin so'zlarin tinglab,

Qaytdilar uy-uyga shu fursati,
Xayollarda edi shoh surati.

Dedilar barcha: "Shoh Bahrom ul,
Malikgavharu malaknom ul.

1215

Ne emish unga chun dam urmoq,
Quyoshni loy-balchiqqa qormoq?

Sherdirkim, jahonni dovlar,
O'q uzib, ajdahoni ovlar.

Sher panjasin yozib, etsa itob,
Zarbiga arslon berolmas tob.

Qudrat-la toju taxtini olur,
Oldida podsholar lol qolur.

Yaxshisi, qo'zg'amang g'azabin,
G'azabi olmasin alanga tag'in.

1220 Sher oldidin olmoqchidir toj,
Aslida bunga yo'q ehtiyoj.

Ammo sher hujjatdir, dalil, illo,
Bo'ri, tulkilarni etmoqqa ogoh".

Dargoh sari yurdilar keyin,
So'yladilar shohga shoh shartin.

Nomani o'qib, arz etdilar,
Ne derkin deb so'ngra so'z kutdilar.

Piri taxtnishinu tojparast,
Taxtdin tushib, tojni qo'ydi, bas.

1225 Dedi: "Shu toju taxtdin men bezor,
Nainki unga jon etsam nisor.

Ikki sherga yem bo'lgandin o'shal
Toju taxtsiz tirikligim afzal.

Oqil yigit mardi maydon o'lur,
Yemishin sher og'zidin olur.

Mamlakat vorisi, valiahd, bas,
Bahromshohdin o'zga kishi ermas.

Mulk vorisiga saltanat ravo,
Keksa shohdin yosh hukmdor avlo.

1230 Shohlikdin voz kechishga hozirmen,
Shoh emas, shohparastdirmen”.

Ulug’lar unga berdilar javob:
“Ey podshohi aziz, oliyjanob!

Sening-la boylagan shartimiz,
Oqilona edi, ahdi tamiz.

O’ltirding taxtga amrimiz birla,
Amrimiz ila taxtni tark ayla.

Sherdan toj olishlik o’yinmas zinhor,
Tiyra tun o’yinlar etar oshkor.

1235 Uning shartini biz bajo qilarmiz,
Ikki sher o’rtasiga toj qo’yarmiz.

Magar qo’rqsa, sariri oj sening,⁶⁰
O’ldirilsa, yana toj sening.

Magar sher oldidin sher olgay ul,
Mamlakatdin xiroj olgay ul.

Loyiqi taxtu ofarin bo’lgay,
Shohi dilkashu muattarin bo’lgay”.

⁶⁰ Sariri oj – fil suyagidan yasalgan taxt.

Xullas, shu bo'ldi oxirda qaror,
Shart o'shal shart, o'zgarimas, ustuvor.

1240 Erta tongdin azmi qaror etgay,
Shoh arslonni shikor etgay.

Bahrom ikki arslon orasidan toj olgani

Ertasi kun subhi zarrintoj
Zarrin kursi qo'ydi va taxti oj.

Davlatmandlar, kazo-kazolar,
Mansabdorlar, hukmfarmonlar.

Arabdin to Ajam savor bo'ldilar,
Maydon atrofida qator bo'ldilar.

Ikki odamxo'r arslonni
Maydonga qo'ydilar hamoni.

1245 Bir-biriga tashlanib yovuzlar,
Go'yo Bahromgo'rga go'r qazdilar.

Olisharkan ikki sheri xunxor,
Keltirib, toj qo'ydi o'rtaga sherdor.

Zarrin toj ikki arslonaro
Ajdaho og'zida oy edi go'yo.

Tos jaranglar, oy chiqar shunda,
Tos bo'm-bo'shmas, qilich bor unda.⁶¹

⁶¹ Oy tutilganda xalqning tos, chelak chalib ko'chaga chiqishiga ishora.

Ikki sher ikki ajdar yanglig‘,
Dumlarin yerga urib qattiq.

1250 Dardilar: “Tojni bizdin kim olur,
Tojni ikki yovuzdin kim olur?!”

Bexabar erdilar ul qilichdordin,
Shergiru ajdahoshikordin.

Maydonda ikki sheri azim,
Gird-aylana xaloyiqda vahim.

Fatvo bo‘ldiki, sheryurak Bahrom
Sherlar sari etsin ilk xirom.

Ola bilsa, zarrin toj aning,
Zarrin to‘nu taxti oj aning.

1255 Yo‘qsa, taxt havosin tark etsin,
Qaytib, kelgan yurtiga kelsin...

Shoh Bahrom qaytmadi qarordin,
Tikka chiqib keldi dasht, changalzordin.

Mushkul edi topmoq dashtaro yerni,
Ki qormagan bo‘lsa tuproqqa sherni.

To‘lmishdi yigirma ikki yoshiga,
Tig‘ chekmishdi yuzlab arslon boshiga.

Yuzlab sherki andin zabun erdi,
Shu ikki sher zabun bo‘lmasmi endi?

1260

Etagin kamarga bar urdi to,
Sher ustiga sherdek tashlandi shoh.

Hayqirdi sherlarga, suron soldi,
Tojni ikki sher oldidin oldi.

Chun sherlar ko'rdilar sherligin,
Botirligi, maydonda erligin,

Hamla qildilar sapchib hamon.
Panjalar xanjaru tig' cdi dandon.

Sohibi toj ila jang aylamoqqa,
Jahongir holini tang aylamoqqa.

1265

Shoh esa beomon qilichin soldi,
Boshlarini oyoq ostiga oldi.

Tishlar, panjalarga bermadi omad.
Toj olib, o'zi ham qoldi salomat.

Boshiga toj kiyib, taxtga o'ltirdi,
Baxti chehrasida namoyon erdi.

Xullas, g'olib kelib ul ikki sherga,
Tulkilarni taxtdin qulatdi yerga.

Bahrom otasi o'rniga taxtga o'ltirgani

Pok niyati, ko'ngil oqligi sabab,
Shohlik nasib etdi unga, ne ajab.

1270

Munajjim fol ochib, kunni sayladi,
Taxtga o'ltirmog'in tayin ayladi.

Asad edi, toju taxtga madadkor,
Iqbol sobitu toleyi poydor.

Quyosh o'z avjida yonardi baland,
Atorud qironda anga payvand.

Zuhro Sarv ilayu Mushtariy-la Qavs,
Ikkisidin manzil chun bog'i firdavs.

Oltinchida Bahrom, o'ninchida Oy,
Jom ila tig' edi majlisga chiroy.⁶²

1275 Kayvon qo'li erdi tarozusanj,
Osmondin yergacha sochardi ganj.

Kun edi bo'ylakim muborakfol,
O'tirdi taxtga shohi xushiqbol.

Sochildi munchakim gavharu dur,
Ko'ngillarga alardin to'ldi nur.

Davlatmandlar saxo aylab shior,
Ganj uza ganj etdilar nisor.

Ulki avval taxt uzra shoh edi,
Izmida davlatu sipoh edi.

1280 Ko'rib Bahromning shon-shuhratini,
Shukuhi, yuksak saltanatini,

⁶² Bahrom (Mars)ning oltinchi, Oyning o'ninchi bujda bo'lishi ayshu ishrat va jangu jadalga ishoradir.

Dedi, uni tabrik aylabon,
Shohi ofoqu shahriyori jahon.

Mo'badlar shohi jahon dedilar,
Podsholar ichra xudoygon dedilar.⁶³

Bo'ylakim har kimsa oshkoru nihon,
Ehtiromin etdi shohga ayon.

Shoh yana sarbaland bo'lib andin,
Sarbalandligi o'tdi osmondin.

1285 Xutbayi adolatga og'iz ochdi,
So'zidin duru guhar sochdi.

Bahromshohning adolat xutbasi

“Xudoga derman cheksiz ofarin,
Xudoshunosga ham yuz ofarin!

Yuz o'girmam ne'mati Haqdin, hay,
Shukr etgum, nechun shukr etmay?

Ikki sher og'zidin toj oldim, bas,
Xudodandir bu, qilichdanmas.

Nasib etdi taxti toji baland,
Amallar aylagum xudoypisand.⁶⁴

⁶³ Xudoygon – eng buyuk podsho.

⁶⁴ Xudoypisand – Xudoga xush keluvchi.

1290

Andoq etgum, Xudoyim yor esa,
Mendin ozor chekmagay bir kimsa.

Ey ahli arkonim, sa'y aylang,
Hamisha to'g'ri yo'l tanlang.

Gar to'g'rilik shior etgaysiz,
To'g'rilikdin najotga etgaysiz.

O'ng quloqni tutmasangiz qo'lda,
Chap quloqlar paydo bo'lur unda.

Yotgaymen necha kun olib tin,
So'ng ochgum adlu insof eshigin.

1295

Yelkamga fariza tushmish bot,
Zulmga zulm etgum, dodga dod.⁶⁵

To osuda aylansin samo,
Marhumlarni yorlaqasin Xudo.

Oqu qaro ichra topgan vujud⁶⁶
Tiriklarga – mendin lutfu umid.

Ishimda nola, faryod o'lmagay,
Ki mendin shod emas, shod o'lmagay..."

Shoh andoq ko'nglin etdi oshkor,
Tinglaganlar shukur dedi bisyor.

⁶⁵Dod – bu yerda adolat ma'nosida.

⁶⁶Oqu qaro – kuni tunli dunyo.

1300

O'ltirib taxt uza bir-ikki soat,
Keyin qo'zg'aldiyu mayl etdi xilvat.

Adolati birla yashnab jumla yurt,
Xalq rozi erdiyu Xudo xushnud.

Anjuman tutdi buzurgvorlar ila,
Ustuvor bo'ldi ustuvorlar ila...

Bahromshohning nechuk podsholik etgani

Bahromshohdin o'shal toju taxt
Burkandi shon-sharafga g'oyat.

Yetti ko'zli zar kamar taqdi,
Yetti poya taxtda maqom tutdi.

1305

Chiniy qalpoq kiyib boshiga ul,
Rumiy to'n egnida yashnab gul-gul.

Yaxshiligiga Rum berardi boj,
Ko'rkamligiga Chin to'lar xiroj.

To'rt bolish qo'ymishdi chun Jamshid,
Besh karra bongi yuksalib to xurshid.

Insofni jahonga yetkazdi,
Adolatni osmonga yetkazdi.

Mazlumlarga etdi madadkorlik,
Sitamkorlarga sitamkorlik.

1310

G'am qulfiga andin kalit keldi,
Umidsizlarga umid keldi.

Olam ishi topdi bahru navo,
Nafaslarga urildi xush havo.

Qisir sigirlar ham tug'ib alhol,
Ariqlarda to'lib oqdi zilol.

Mevadin egildi daraxt zoti,
Diramning oshdi qadri-qiymati.

Tuzaldi shu jahon ishi andin,
Riyokorlik ketdi jahondin.

1315 Chun malikzodalar kezib har taraf,
Topdilar shukuhidin sharaf.

Tadbirkorlar yig'ib molu davlat,
To'kdilar eshigiga sarvat.

Qal'adorlar xazina keltirdilar,
Qal'a kalitin topshirdilar.

Necha farmonlar yozildi bot,
Necha jonlarga etdi najot.

Har kimni davlati soyasida
Siy'ladi qadru qiymati poyasida.

1320 Beravnaqlar ishi rivoj topdi,
Ketganlar o'z diyoriga qaytdi.

Bo'ri qo'yga solmas bo'ldi kulfat,
Lochin bo'ldi kabutarga ulfat.

Fitna, igʻvolarning yoʻlini toʻsidi,
Tajovuzkorlarning qoʻlini kesdi.

Dushmanning sindirdi oyogʻini,
Doʻstu yorga ochdi quchogʻini.

Shafqat ila etdi jahondorlik,
Etmadi mardumozorlik.

1325 Dushmanning boshini kesarkan shitob,
Bir yoʻla kesardi bermasdin azob.

Odamiyga jazo berganda har bor,
Oʻldirmak afzaldir bermasdin ozor.

Odamiylik yetib odamga nuqul,
Bir kimsani nonsiz qoldirmadi ul.

Koʻrdi, shu mulki kechayu kunduz⁶⁷
Keltirur gʻubori gʻam yolgʻiz.

Ishratu ishvaning yoʻlin tutdi,
Ayshini ishva birla xush etdi.

1330 Mulki beqarordin topmadi tayanch,
Ishq mulkini etdi oʻziga suyanch.

Ish haftada bir kun tayin qildi,
Olti kun ishq ila oʻyin qildi.

⁶⁷Mulki kechayu kunduz – dunyo.

Kimda oshiqlik nishoni yo'q,
Ishqi yo'q uning, joni yo'q.

Ishq bo'ldi umrining xulosasi,
Oshiqlar – ulfati fazandasi.

Kori-bori chun osmon erdi,
Amri-farmonida jahon erdi.

1335 Jahonni shod, xurram tutardi ul,
Adl aylab, shodlik kutardi ul.

Ganj oqardi eshigiga ravon,
Qilichu qamchiga bermasdi imkon.

Mulki chiroy ochib, yashnar edi,
U quyoshdek qadam tashlar edi.

Mol-bisotdin yetib insonlar g'urur,
Demadilar Xudoga shukur.

Shukri Haqni dildin ayirdilar,
Mehru shafqatni yerga qordilar.

1340 Ul qachonkim maxluqoti Xudo
Shukri ne'mat etmasa ado,

Haq ularga dunyoni tor aylar,
Mehnat, mashaqqatga duchor aylar.

**Qahatchilik yuz berganda Bahromning xalqqa mehru
muruvvat ko'rsatgani**

Bir yil qurg'oqchilik yuz berib ortiq,
Qahatchilik keldi dunyoga qattiq.

Raiyat ahvoli og'ir, tang edi,
Odamlar mol kabi o't-alaf edi.

Ocharchilik yozdi qulochini keng,
Non bahosi bo'ldi tilloga teng...

1345 Bahromshohga yetkazdilar xabar,
Ki yuz berdi falokat munchalar.

Odamlar bo'ridek, yoshu kekxa
Gahi odam yerlar, gahi o'laksa.

Shoh ko'rdikim, xalq ahvoli yomon,
Omborlar eshigin lang ochdi hamon.

Yo'lladi har shaharga noma,
Buyurdi, zaxira borki har nima,

O'shandin ayamay elga sochsinlar,
Omborlar eshigin xalqqa ochsinlar.

1350 Davlatmandlar sotib olishsin, lekin
Yo'qsillarga tarqatilsin tekin.

Qolar bo'lsa zaxiradin bir oz,
Qushlarga ham eting nazru niyoz...

Har kimsa olardi boridin,
Davlatning zaxira omboridin.

Tuyalarga ortib don-g'allani,
Xorijlardin tashirdilar ani.

Shoh jahd aylab sochar edi ganj,
Derdi: xalq chekmasin alam, ranj.

1355

Bu mashaqqat ayyomidir, tang,
Xalq o'lnasin, saxovat aylang...

To'rt yilcha yuz berib mashaqqat,
Xalq non edi xazinadin faqat.

Bahrom shu yo'sin kayolik topdi,⁶⁸
Rahm ayladi, podsholik topdi.

Xalq bo'ldi bo'yla qayg'udin xalos,
Ochlikdin o'ldi bir kishi. xolos.

Shoh sho'rlikka o'rtandi, g'am chekdi,
Bechoraga qayg'urdi. alam chekdi.

1360

Qayg'u ichra Xudoga yuzlandi,
Aybiga uzrin aytib, bo'zlandi.

Dedi: "Ey rizqbaxshu jonparast,
Rizq bergaysen boshqalardek emas.

⁶⁸Kayolik – buyuklik.

Ilohiy qudrating-la har dam
Kamni ko'p qilursen, ko'pni kam.

Qancha sa'y etmayin kuni yo tuni,
To'ydirolmam dashtda bir ohuni.

Sen fazlingdin kecha va kunduz
Baxsh etarsen xalqqa rizqi ro'z.

1365 Bir odamiy ochlikdin unda
O'ldi, mening aybim yo'q bunda.

Sababki, xabarim aydin yo'q edi,
Bas, o'ldi, xabardin ne samar endi?"

Shu so'zni aytarkan tazarrusoz,
Yetishdi g'oyibdin bir ovoz:

"Ey haqqa xush kelib pok niyating,
Qutuldi ochlikdin mamlakating.

Sen birov yig'laganda kulmading,
Birov o'lganda xursand bo'lmading.

1370 Toleyingga hukmimiz shulkim,
To'rt yilcha yurtingda bo'lmagay o'lim!"

Aytdilar keksa-yosh pok ravish,
To'rt yilcha bu yurtida o'lim bo'lmamish.

Baxtlidir shoh, elni bahravar etsa,
Yurtidin o'limni badar etsa.

Har kimki tug'ildi, jahonda yashab,
Mol-bisotga etsa, ne ajab.

Xaloyiq jahonda ko'paydi andoq,
Imoratsiz qolmadi dashtu tog'.

1375

Eshitdim, Isfahondin toki Ray,
Uy uyga tutashdi zanjirday.

Ko'r kishi istasa gar, shul marom
Raydin to isfahon borar tomma-tom.

Gar bu so'z senga jilla ravshanmas,
Uni roviydin so'r, mendanmas.

Ne'matxo'rlar ko'p edi behad,
Lekin ortiq edi ulardin ne'mat.

Mardum tog'u dashtda osuda ruh,
Ishrat aylar edi guruh-guruh.

1380

Cho'zilmishdi ikki farsangga saf,
Qo'llarda rubob erdi, changu daf.⁶⁹

Har joyda bor edi may havza,
Har joyda majlisu maykosa.

Har kimsa may olib, tig' sotmishdi,
Zar to'n kiyib, sovutin otmishdi.

⁶⁹Daf – doyra, childirma.

Xalq silohdin kechib xushu xushnud,
Qilichu qalqonni etdi unut.

Har kimsada edi bargi ishratsoz,
Aysh aylardi to'kib ne'matu noz.

1385 Shoh baxsh etib yo'qsilga mol-bisot,
U baxtidin, jahon andin shod.

Har kimsaga berib yumush-korin,
Aysh etgali ro'zi bozorin,

Kunni ikki bo'lishni etdi shart,
Yarmida ish, yarmida aysh-ishrat.

Yetti yil chekmadi xalq qayg'u, g'am.
Ketdi yurtdin yetmish yillik alam.

Olti ming ustodi dostonsoz,
Mutribu raqqosu qo'g'irchoqboz.

1390 Jam bo'lishdi kelib tog'u tosh osha,
Har ko'cha-guzarda bo'ldi tomosha.

Shoxdin shoxga qo'nib qush bo'ldilar,
Xalqni xushnud etib, xush bo'ldilar.

Erdi zamona toleyida Savr,
Sohibi Zuhro, Zuhro – sohibi davr.

Bundoq davrda g'am ado bo'lgay,
Ki unda Zuhro kadxudo bo'lgay.⁷⁰

⁷⁰Kadxudo – bu yerda uy bekasi ma'nosida.

Bahrom va uning kanizagi dostoni

Shoh bir kuni etdi ovga havas,
Togʻ, biyobon kezdi, balandu past.

1395

Ot surib, sahroga yoʻl oldi,
Qulon quvladi, kamand soldi.

Mushtariy Qavsda tutmishdi joy,
Shoh qavsi boʻldi mushtariypaymoy.⁷¹

Navkarlar dashtda javlon urib,
Qulonlar toʻdasin shohga surib,

Shoh bir chetda turib sherdek hushyor,
Ostida oʻynoqlardi boʻz tulpor.

Moʻljalga olarkan uzoq-yovuqni,
Kamonga ketma-ket qadardi oʻqni.

1400

Oʻtgan oʻqi uchib chaqindek har on,
Goh oʻt yoqardi, goh yiqardi qulon.

Et hoziru hozir bodayi nob,
Oʻt kerak endi etgali kabob.

Qulonlar qonini toʻkib paykon,
Oʻt yoqardi shu boisdin hamon.

Oʻtgan oʻqi qulonni oʻldirib,
Pishgirardi otashda kuydirib.

⁷¹SHohning qavsi (kamoni) Mushtariyni nishonga oldi.

Duch kelgan oviga omon bermasdi,
Hatto qo'zg'alishga imkon bermasdi.

1405 Yonida bir kanizak misli oy,
Hamroh edi sochib oydek chiroy.

Nomi Fitna, kon erdi fitnaga,
U shohga oshiq, shoh oshiq anga.

Gulchehra erdi, navbahor andom
Chamanda sabodek aylardi xirom.

Asalga moy qo'shilgandek laziz,
Poluda halvodek shirin, nafas.

Xonanda erdi, xushovoz sanam,
Sozanda erdiyu raqqosa ham.

1410 Nola cheksa, tushib ta'sirga,
Qushlar ko'kdin tushardi yerga.

Shikor chog'i ichib bodayi no'sh,
Shohga xush navolar etardi xonish.

Soz sadoda, paykonda olov,
Bu soz chalar, u ovlardi ov.

Qulonlar chiqib nogoh, shul zahot
Shoh ular ustiga surdi ot.

Qulon yeldeki ucharkan, shu oni
Shoh qo'liga oldi kamonni.

1415

So'ng o'qni joyladi kamonga,
Uchar ovni oldi nishonga.

O'q uchdi, mo'ljalga etdi hamon,
Yiqildi, tuproqqa qorishdi qulon.

Har daqiqqa Bahrom surib samand,
Goh o'ldirar, goh solardi kamand.

Kanizak makru noz etdi to,
Aytmadi shohga madhu sano.

Shoh bir soat sabr etdi bunga,
Uzoqdin bir qulon ko'rindi shunda.

1420

Dedi: "Ey qiyiq ko'z totorm, bugun
Ovimizni ko'zga ilmading nechun?"

Ovimizki, aylarmiz erta-kech,
Qiyiq ko'zlaringga tashlanarmi hech?"

Qulon kelayotir, aytgil, ne qilay,
Boshidanmi yoki oyog'idin ilay?"

Go'zal etdi yana ishva zuhur,
Ayol edi, ayolda lof bo'lur.

Dedi: "Qaniydi boshini egsang,
Egib, uni oyog'iga tiksang".

1425

Shoh angladi, nozlanur go'zal,
Yetdi uning aytganiga amal.

Kamonga joylab tosh otdi,
Tosh qulonning qulog'iga botdi.

Qulog'iga eltib tuyog'in qulon,
Chiqarmoqchi bo'ldi toshni hamon.

Shoh shu damda tag'in o'q otdi,
Tuyog'ini qulog'iga chatdi.

So'ng yuzlanib kanizakka dedi:
"San'atimga qoyilmisan endi?"

1430 Dedi: "Mashqin olgansan, shahriyor,
Mashqini olganga emas dushvor.

Kishi mashqin olsa, mohir bo'lur,
Har ne mushkulni ham ado qilur.

Qulon tuyog'iga o'q urganing, bas,
Mashqingdandir, qudratingdin emas".

Shohga qattiq botdi bu so'zlar albat,
Boltaning tig'iga duch keldi daraxt.

Ko'ngli parivashdin chekib ozor,
Qahru g'azabin etdi oshkor.

1435 Podsholar g'azabga minganda har dam,
Qon to'kurlar tarqaguncha alam.

Ot uchirib ohuni quvgaylar,
Iti tiriklayin so'ygaylar.

Dedi: "Omon qo'ysam, sitezagar ul,
O'ldirsam, ish yana battar bo'lur.

Ayolni o'ldirmak er ishimas,
Ayol ayoldirki, er kishimas".

Sarhangi bor edi, sohibqilich,
Sherdek vajohati, bo'ridek qo'rqinch.

1440 Chaqirdi, dedikim, hamon etgaysen,
Ul kaniz ishini ado etgaysen.

Dargohimizda fitna ul faqat,
Fitnani kes, deydi aqlu xirad...

Shohning farmoniga sarhang unadi,
Parivashni olib uyga jo'nadi.

Shaylandi qilichin sug'urib qindan,
Qiz boshini judo etmoqqa tandin.

Ko'zidin yosh to'kib sanam shashqator,
Dedikim, bu ishni etmagil zinhor.

1445 Do'st bo'lib dushmanning ishini qilma,
Begunoh qonimni bo'yningga olma.

Munisi xosi shahriyor o'zim,
Kanizaklar aro nigor o'zim.

Har gal sharob ichib, etsa shikor,
Men erdim shohga dilbaru dildor.

Men gustohlik qildim, o'jarlik ham,
Shayton yo'ldin ozdirdi ul dam.

Shoh g'azabdin qildi chun itob,
Sen uni etmoqqa etma shitob.

1450 Kutgil sabru tahammul aylabon,
O'ldirdim deb so'ylagil yolg'on.

Shunda ham shoh shod ersa, mamnun,
O'ldir, qonim haloling bo'lsin!

O'limimga afsus cheksa magar,
Tushmagan tanu joningga xatar.

Qutularmiz xavf-xatardin birga,
Sarvisuman yiqilmagay yerga.

Kun kelur, unutmashmen seni,
Olursen xizimatingga haqqingni.

1455 Aytib shu so'zni marjonin yechdi-da,
Yetti pora la'l qo'ydi oldiga...

Har biri iqlimga xiroj erdi,
Ummon bisoti unga hech erdi.

Bu tadbirni sarhang xushlabon,
Qon to'kishdin o'zni tiydi shu on.

Dedi: "Zinhor kimliging so'ylama,
Shahriyor nomin zikr aylama.

Degil, shu uyda xizmatkormen,
Tashvish chekma, yoningda bormen.

1460

Baxting yor bo'lib, qo'llasin,
Toparmen bu ishning chorasin".

Xullas, etdilar ahdu paymon,
Unga ham, bunga ham etmas ziyon.

Hafta kechdi, qarargohda nogoh
Sarhangdin sanamni surishtirdi shoh.

Dedi: "Nasibi ajdaho etdim,
Ko'z yoshlarin xunbaho etdim".

Shohning ko'zlariga qalqdi nam,
Sarhang ko'ngli tortdi xotirjam.

1465

Uning mulki edi bir qishloq,
Obod edi, mardum ko'zidin yiroq.

Unda roslamishdi ko'shki baland,
Bo'ylashardi ul osmon bilan.

Oltmish zina ravoqi manzari,
Tepasida ayvoni mahzari.

O'sha maskan bo'ldi joyi kaniz,
Azizga berilgay joyi aziz.

Ikki kun so'ng sigiri tug'di,
Nozik nihol buzoqcha erdi.

1470

Parivash har kuni toliqmay yo'lda,
O'sha buzoqchani ko'tarib qo'lda.

Poya-poya bosib yuksak zinani,
Ko'shki ayvoniga eltardi uni.

Quyosh bahor fasli buzoq tashirmish.
Buzoqcha tashigan oyni kim ko'rmish?

Kunlar o'tar ekan, pari gulandom
Buzoqni tashishda aylardi davom.

Qaytmadi hech ahdu qaroridin,
Odati, urfi ustuvoridin.

1475

Xullas, o'sha buzoqcha biloxir,
Olti yashar buqa bo'ldi, og'ir.

Hamon uni, toliqmay yo'lda,
Tashir edi ko'tarib qo'lda.

Hozir edi har kuni tashishga,
Odat aylamishdi bu ishga.

Buqaning vazni ortib har zamon,
Qizning quvvati ham ortardi chunon.

**Kanizak shohni mehmonga chaqirishni sarhangga
maslahat bergani**

Bir kun ul parivash diltang
O'ltirarkan, yonida sarhang.

1480 Qulog'idin to'rt gavhar olib,
Har birini quyoshga solib,

Dedi: "Ol bularni, zud sotgil,
Har neki borini xarj etgil.

Qo'y-qo'zi ol, sharbatu gulob,
Nuqlu ne'mat ila sham'u sharob.

Majlis oro qil chun ravzai hur,
Sharobu kabobi jonga huzur.

Shoh shikor etarkan, chetda kezmagil.
Rikobidin qo'lingni uzmagil.

1485 Xizmat aylab, jonpazirlik qil,
Yonidin ayrilma, jilovgirlik qil.

Shoh Bahromning xush tabiati bor,
Nozik mijozi, pok tiynati bor.

Ko'nar taklifingga niyozmandliging
Ko'rarkan, yuragi yumshaydi uning.

Men bu ko'shk aro, chun xushmanzar,
Anga goh sut bergum, goh asal.

Magar shu tadbir sudmand bo'lur,

Ishimiz o'nglanib, baland bo'lur.

1490 Sarhang la'l poralardin burdi yuz,
Bisotida la'l erdi necha yuz.

Bordi, ganjinasidin oldi la'l,
Omoda yetdi so'ngra galma-gal.

Dasturxonda ne'matlarni andoq
Qush, baliq birla qo'yu qo'zichoq.

Guli rayhon sochdi yana ancha,
Ichkuliklar tizdi yana qancha,

Bazm asbobin shay etib tamom,
Kutdi, qachon chiqar shikorga Bahrom.

Sarhang Bahromshohni mehmon etgani

1495 Shoh Bahrom bir kuni qo'yib taxt,
Ov 'tgali surdi sahroga raxt.

Bir ohuni quvib, ta'qib etdi,
Ohuni ko'r, uni qayon eltdi.

Bir qishloqqa yetdiki, ul sarhang
Imorat qurmishdi baland ohang.

Bir go'sha erdikim, baland poya.
Sabza uzra sabza, boshida soya.

So'rdi shoh, bu chaman mavlosi kim?
Bu yerning sohibi, dchxudosi kim?

1500

Sarhang erdi yonida, ahli rikob,
Eshitgach podshodin chun xitob,

Yer o'pib, ayladi arzu niyoz,
Dedi: "Ey shahriyori bandanavoz!

Bu qishloq menga ehsoning sening,
Muruvvat aylab, bergoning sening.

Shoh agar joyimiz pisand aylar,
Bandasi boshini baland aylar.

Betakalluf rasmu odati birlan,
Sunnati royi saodati birlan.

1505

Qadam bossa xushlab darchayi tang,
Sarbalandi jahon bo'lur sarhxang.

Shohimning lutfidin bo'lib masrur,
Qurgan shu ko'shkim ko'kka yuksalur.

Bog'u bo'stondir aylana-girdi,
Xuld mavloyu ravza shogirdi.

Shoh boda simirsa kechami, kunduz,
Xoki poyin o'par unda yulduz.

Shoh atri ko'shkimizni to'ldirgay,
Pashsha asal, ho'kiz sut bergay".

1510

Shoh ko'rdi sadoqat sarhangda,
So'zlari samimiydi juda.

Dedi: "Mayli, tadoriging ko'r sen,
Shikordin qaytaboq kirgaymen".

Shahanshoh qaytdi ul so'lim joyga,
Chodiri yuksalmishdi oyga.

Mezbon tanlab asl matohlarin,
Rumiy atlasu Chin kimxolarin,

Turfa gilamlarni poyandoz etib,
Nuri ko'zu ko'ngilni quvnatib,

1515 To'shadi tulpori poyiga hazor,
Shoh boshiga gavhar etdi nisor.

Oltmish zina bosib shoh hamon,
Bo'ldi yuksak gunbaz ostida mehmon.

Tarhi eslatardi Xavarnaqni,
Ayvoni ul charxi azraqni.⁷²

Mezbon kelib chun xizmatin etdi,
Shohga nozu ne'matin tutdi.

Gulobu sharbatdin so'ng shahriyor,
Ayshu bazm etdi ixtiyor.

1520 Shoh ikki-uch qadah ichib alhol,
Atrofga nazar tashladi xushhol.

⁷² Charxi azraq – moviy osmon.

Dedi: "Ey mezboni zarrin ko'shk,
Manzilingni to'ldirmish atru mushk.

Oltmish zinali ko'shkdir bu baland,
Go'yo osmonga tashlamish kamand.

Yoshing oltmishdin o'tarkan, keyin
Chiqib, tushmaging bo'lmasmi qiyin?

Mezbon dedi: "Shohim umri boqiy,
Kavsar anga bodayu hur soqiy!

1525 Men erkak zinalami bittalab,
Bosib, charchamayman, desam. yo'q ajab.

Ammo bul ajabki oy yuzli bir qiz,
Niholdek nozigu shohidek nafis.

Buqani ko'tarib har kuni atay,
Shu yerga keltirib o't-o'lan bergay.

Kattakon buqani ko'tarib ul dast,
Oltmishta zinani bosib charchamas.

Buqa ul buqadir, naq fil singari,
O'zini tortolmas yuz qadam nari.

1530 Tangriga qasamki, bu yurtida bir kas
Buqani bu yanglig' ko'tara bilmas.

Bir ayol buqani ko'tarib nuqul,
Balandga chiqolsa, ajabmasmi bul?"

Sarhang hikoyasin aytib tugatdi,
Shahanshoh eshitib, hayratga botdi.

Dedi: "Bu ish qandoq bo'lishi mumkin?
Balki bir jodudir, sehru fusun.

O'z ko'zim-la uni ko'rmaguncha to,
Bu so'zga ishongim kelmaydi aslo".

1535 Mezbon shu zahoti o'rmidan turdi,
Zinalarni bosib, pastga yugurdi.

Buqa ko'targuvchi qizga ul hamon
So'yladi, ne bo'ldi, ne kechdi gumon.

Parivash barini turardi ko'rib,
O'zini bu ishga shaylamishdi xub.

Chiniylarning zebu zevarin taqdi,
Xumor ko'zlaridin olovlar yoqdi.

Yuzlariga surdi mushku ufor,
G'amzasin ayladi maftunkor.

1540 Ko'zlariga surdi surmayi noz.,
Noziga sehru itob qo'shdi bir oz.

Sarviga rangi arg'uvoniy berdi,
Lolaga qaddi xizroniy berdi.

Dur taqdi ul sarvi siyminga,
Oy boyladi iqdi Parvinga.

Tojianbar qo'ndirdi elkasiga.
Tavqi g'abg'ab chekdi so'ng chekkasiga.

Zanjiy zulfu xoli hindurang
Shul aroda shior ayladi jang.

1545 Farqiga so'ng durri xushob chekdi,
Oyga yulduzdin niqob chekdi.

Quloqlariga taqdi gavhar to,
Soldi ishq bozoriga savdo.

Oy yuzga solib niqobi kofuriy,
Yosumanga boylab guli suriy.⁷³

O'n to'rt kunlik oy, ul sarvinoz
Yetti rangdin berdi o'ziga pardo.

So'ng buqa oldiga bordi to'lin oy,
Ki ho'kiz burjida oy topgay chiroy.

1550 Uni dast ko'tardi yelkasiga qiz,
Qarang, qanday gavhar topmishdi ho'kiz.

Poya-poya bosib tomga yetdi,
Xuddi taxtpoyayi Bahromga yetdi.

Buqa ko'tarmishdi navnihol yelka,
Sher buqani ko'rib, qo'zg'oldi tikka.

⁷³ Ma'lumot yo'q.

Hayrat ichra boqdi parivashga shoh,
Kanizakni tanimadi ammo.

Parivash buqani qo'yib yerga,
Nozli nigoh otdi shahanshoh sherga.

1555 Dediki, men kuchimni shayladim,
Buqani senga peshkash ayladim.

Jahonda bormi pahlavon, hay,
Ki uni ko'tarib pastga tushirgay?"

Shoh dedi: "Yo'q, kuchingdin emas,
Mashqingdin kelmish senga bu dars.

Yillar bo'yi qilib sabru toqat,
Buqa ko'tarmoqni etgansen odat.

To hanuz senga bu maylu havasdir,
Buqa ko'tarmog'ing mushkul emasdir".

1560 Tavozi ayladi sarvi gulandom,
Duo aylab, so'ngra so'z ochdi, kalom.

Dediki, "Ey shohim, ajabmasmi,
Buqada mashq qulonda bo'lmasmi?"

Men buqani ko'targaymen, illo,
Buni mashqsiz etolmasdim aslo.

Nechun sen qulonni qulatsang otib,
Bu mashq mahsuli deb bo'lmagay aytib?"

Shoh turki sanamni tanidi hamon,
O'zini hindudek otdi ul tomon.

1565 Yechib niqobini yuzdin, ko'rdi ul,
Ko'zidin to'kardi qatra-qatra dur.

Uzr so'rdi bosib bag'riga boshin,
Gul hamon to'kardi alam ko'z yoshin.

O'zgalardin yetib xonani xilvat,
Parichehra ila ayladi suhbat.

Dedi: "Bo'lmish senga bu xona zindon,
Men uzr so'rayman bunga ming chandon.

Xudbinlik gulxanin yoqdim o'shanda,
Sen sog'sen, men esam kuydim olovda".

1570 Ko'rdi, xona xoliy, suhbat bermalol,
Fitnani yoniga o'tqizdi darhol.

Fitna o'ltirdiyu so'z ochdi ongoh,
Dedi: "Ey fitnaga nishon bo'lgan shoh!

Ey hijroni ila meni o'ldirgan,
So'ng visoli ila jon ato qilgan!

G'aming soldi mening yuragimga dog',
Munchalik alamni ko'tarolmas tog'.

Ishqing o'rta, yoqdi mening jonimni,
Qul qildi olovda xonumonimni.

1575

Sen u dam qulonga kamon chekding,
Oyog'ini qulog'iga tikding.

Yetti qavat zamin ko'rib, tong qoldi,
Osmon ham qo'lingdin bo'salar oldi.

Men o'shanda tahammul ayladim,
Yomon ko'zdin shohni avayladim.

Bir kimsani madh etsalar bisyor,
Yomon ko'zdin uning nasibi bor.

Dunyo mehrin tark etmasin, dedim,
Falak bir to'hmat ortmasin, dedim..."

1580

Bu so'zlar shohga xush kelib chunon,
Dilu jonin yetdi anga qurbon.

Dedi: "Haqqoki, rost so'ylading,
Menga mehru sadoqat aylading.

Mehrlar ko'rsatib chun avvalida,
Uzrlar aytding ish oxirida.

Ey shu gavharga ming ofarin,
Ko'rsatur andoq fazlu hunarin!

Toshga aylanardi bugavhar, gulrang.
Gar himoya etmasaydi sarhang".

1585

Chaqirdi sarhangni, xushdil etdi,
Qo'lini bo'yniga hamoyil etdi.⁷⁴

⁷⁴ Ya'ni, bo'ynidan quchoqladi

Necha bir noyob tuhfasin berdi,
Bir durdonaga mingtasin berdi.

Lutfu inoyatin tutmadi kam,
Baxsh ayladi Ray mulkini ham.

Qaytdi shaharga shodu shodona,
Tuzdi keyin unda bazmi shohona.

Mo`badlarga maslahat soldi,
Parivashni nikohiga oldi.

1590 So`ng yetdi yori-la ishrati roz,
Necha yil arozin kechdi daroz.

Chin hoqoni Bahromshoh ustiga lashkar tortgani

Oyu yillar yeta berdi davom.
Nom qozondi shahanshoh deb Bahrom.

Buzurgvorlar dili quvvatga to`ldi,
Odillar obro`li, izzatli bo`ldi.

Olchoqlar pastlashib, tubanga ketdi,
Qaro suv ularni, ko`ring, ne etdi...⁷⁵

Piri buzurg edi Nirsi nom,
Bahrom birodari ila hamnom.

1595 Qat`iy so`zli, ilmu hikmatga yor,
Dunyo ishlaridin xabardor.

⁷⁵ Qaro suv – to`fon ma`nosida.

Ajdod anga shohi Doro erdi,
Bu sirmas, ko'pga oshkoro erdi.

Bahrom andin turolmasdi ayro,
Chun rafiq erdi ul, rahnamo.

Uch o'g'li bor edi, asl najod,
Har biri bir hunarda ustod.

Atosi ul birinchi farzand
Otini qo'ymishdi Zarovand.

1600 Shoh uning qadriga yetmishdi,
Mo'badlar mo'badi etmishdi.

Serandishayu yo'l-yo'riqshunos,
Porsolig'iga yo'q edi qiyos.

Boshqasi boz a'yon edi mas'ul,
Yo'llarda boj o'ndirish-la mashg'ul.

Shoh ko'rdi, ul sohib qalam erdi,
Yurit hukmingni deb Ajam berdi.

Uchinchisi ishi – shahru sipoh,
Noibi xos aylamishdi shoh.

1605 Shoh ularga amal raho aylab,
Omillar amalga vafo aylab.

O'zi mayxo'rlik etib har tun,
Omillar zir yugurib nafsi-chun

Atrofida aylanardi base,
Talanardi davlatning g'aznasi.

Bu savdolar dunyoga bo'ldi fosh,
G'iybatu mishmishlar ketdi tutosh.

Har kimsa derdi: mast bo'lib Bahrom,
Dinga dinor olmish, shamshirga jom.

1610

Ulfatlar-la aysh etib doimo,
Ichgani bodayu hosili havo.

Har kimda tamah uyg'onib endi,
Men hukmdor bo'lgaymen, derdi.

Shunda Chin xoni qo'zg'alib hamon,
Lashkar tortdi mulki Ajam tomon.

Lashkar dema uni, otash edi,
Uch yuz ming kamonkash edi.

Shoh noiblaridin aylab qahr,
Talab qildi Movarounnahr.

1615

Jayxundin jadal kechib o'tdi,
Xurosonda qiyomat qo'pdi.

Bahromga bu xabar etdi bot,
Lashkariga yo'q erdi e'timod.

Aysh-ishratda kechib kunlari,
Jang qilishga bormasdi qo'llari.

Sarkardalarda ham o'zga erdi til,
Shahanshoh-la emasdilar yakdil.

Xiyonat qilishga shay erdilar,
Molu mulk g'amini erdilar.

1620

Har biri bitishib yeng uchi,
Hoqonga yo'llamishdi elchi.

Ki "Bandayi adoyingdirmiz,
Yo'lga tush, xoki poyingdirmiz.

Shohi olam o'zing, etgil xirom,
Shohlikni eplay olmadi Bahrom.

Istasang, boshiga etgaymiz,
Amr aylasang, asir etgaymiz".

Kotibki, yozmishdi bu nomani,
Shahanshohga yetkazdi ani.

1625

Shoh eroniylardin yuz burdi,
Yurti noiblarga topshirdi.

Yashirindi ko'zdin, nihon bo'ldi,
Bu holda jang etish mahol erdi.

Ovoza tarqaldi: shohi jahon
Kechib saltanatdin bo'ldi nihon.

Jang qilishga qodirmas lashkari,
Shu boisdan qochdi, ketdi nari.

Chu hoqonga xabar etishdi,
Ki taxtidin shahanshoh kechdi,

1630 Senga toju kamardin kuldi baxt,
Kel, seningdir endi toju taxt...

Xoni xonon eshitdi bu payom,
Ki ko'rinmas bo'ldi shoh Bahrom.

Qo'l chekdi jangu jabhadin shitob,
Mashg'ulot etdi soz, bodayi nob.

Dushmanga beparvo, may ichib nuqul,
Nojoiz ishlarga haris edi ul.⁷⁶

Kimki dushmaniga bepisand bo'lgay,
Dushmani uning ustidin kulgay.

1635 Shoh Bahrom ovga mashg'ul erdi chun,
Xabarchilar yuborib har kun.

Chin lashkaridin xabar izlar edi,
Xabarchilar kelib, so'zlar edi.

Ki hoqon beparvo, bermalol,
Ayni muddao erdi bu hol.

Garchi atrofida lashkari xos
Uch yuz suvoriy erdi, xolos.

⁷⁶ Haris – o'ch, mukkasidin ketgan.

Lekin har biri sohibi jang,
Yerda ajdahoyu suvda nahang.

1640 Hama yakdil chu nori yuz dona,
Garchi yuz donaga bir xona.

Shoh g'aninga huqqasozlik qildi,
Mo'hra yashirib, mo'hrabozlik qildi.

Olov yoqib, dushmanga dud berdi,
Quyondek uxlatib, zarba zud berdi.

Nishonin oldi ul nishonasidin,
Chun ogoh edi fasonasidin.

Yov ustiga nogoh shabexun urdi,
Gardini yetti ko'kka yetkurdi.

1645 Qilich sirmab qorong'u tun aro,
Yov ko'ziga tunni etdi qaro.

Tiyra tunda milt etmasdi charog',
Qanot yozmishdi olam uzra zog'.

Go'yoki yuz minglab zanjiyi mast
Yugurardi har yon, qo'lida olmos.

Mardum zanjiylarning vahmidin asti
Ko'z ochib, bir narsa ko'rolmasdi.

Ko'ngli ravshan, ustida ko'k ko'ylak,
Boshi qirlangan xum edi falak.

1650

Anbarin tun aro yetib komi,
Bahrom jang qilardi, bahromiy.

Chiniy jangchilarga har lahza
Qilich sirmab, sanchardi nayza.

Har kimgaki o'q otar edi,
O'qi tanni teshib o'tar edi.

Qoyani tars yozguvchi o'qi
Dushmanning ko'ziga solardi uyqu.

Yaro paydo esa, o'q emas paydo,
O'q ko'rinsa, ko'rinmasdi yaro.

1655

Hama hayronu lol so'zsiz edi,
O'q yarosizu yaro o'qsiz edi!

Shoh oldiga dushman bir farsang
Yaqin kelolmasdi, holi tang.

U bulutdek kezdi ot o'ynatib,
Tog'ni sahro, sahroni tog' etib.

Har qadamda o'q otdi, urdi tig',
Yer ko'pchidi qondin xamir yanglig'.

Har kimsaga yetarkan paykoni,
Yiqildi tani, tark etdi joni.

1660

Subh oftobdin tig' urdi, olmos,
Oftob emasdi, erdi qonli tos.

Xunu tossiz tig' nechun bo'lgay?
G'ar qayda tig'u tomdir, xun bo'lgay.

Qon to'ldirdi dashtni, tog'u toshni,
Qon oqizdi unda necha boshni.

Munchakim tig' urdi, bosh kesdi,
Zuhro vahmidin zahrasin qusdi.

O'qilondek uchardi o'q har yon,
Qo'rqinch bo'lur uchsa gar o'q ilon.

1665 Bahrom tig' sirmab, otardi o'q,
Otgan o'qi yorardi qilni qirq.

Qilich ursa, boshin etib tilka,
Yovni beligacha yorardi tikka.

Yonidin urarkan shiddatga to'lib,
Tanni tashlar edi ikkiga bo'lib.

Shamshiri andog'u nayzasi mundoq,
Dahshati jonlarga solardi titroq.

Bahrom jang qilardi qo'rqinch, beomon,
Chin lashkari behad qirildi chunon.

1670 Oqibat maydonga orqa o'girdi,
Otining boshini ortiga burdi.

Shoh lashkari erdi chun otashlik,
Turk lashkari etdi sustkashlik.

Shoh zafar nishonasin ko'rdi,
Ta'qib aylab, yovga tig' urdi.

Olmos qilichidin sochar ekan o't,
Shoh shamol erdiyu g'anim bulut.

Hayqirardi sipohiga mag'rur:
"Zafar biznikidir, yovni ur!

1675 Ta'zirin beraylik shamshirdin,
To qadami o'chsin bu yerdin!"

Otlari sber, qo'llarda ajdar,⁷⁷
Dushmanni yer tishlatardilar.

Qancha lashkar majruh, bag'ri chok,
Tuproqqa qorishib bo'ldi halok.

O'ng qanot quladi, so'l qanot qochdi,
Dushmanning qalbiga Bahrom yo'l ochdi.⁷⁸

Qilichin sirmadi, nayzasin otdi,
Dushmanning qalbini kesdi, qiyratdi.

1680 Panja urdi yovga qaro sherlar,
Qalqonlar teshildi, sindi shamshirlar.

O'q ucharkan. erdi Bevarasb ilon,
Suvoriy yiqilib, ot erdi sarson.

⁷⁷ Ajdar – bu yerda nayza ma'nosida.

⁷⁸ Dushmanning qalbi – qo'shinning markazi.

G'anim qochdi, Bahrom tig'din o't yoqib,
To Jayxunga qadar etdi ta'qib.

Shoh oldi munchakim gavharu ganj,
Hisobiga yetmay dabir chekdi ranj.

Zafar quchib qaytdi shahriga boz,
Bo'ldi raiyatga raiyatsoz.

1685 Shonu shavkat ila egalladi taxt,
Taraldi dunyoga andin sulhu baxt.

Yer o'pib, barcha boshini egdi,
Zafar quchding, shohim, ofarin, dedi.

Pahlaviyxonu porsifarhang
Madh etdilar necha jaranglatib chang.

Arab shoirlari chu durri xushob,
She'r aytdilar yangratib rubob.

Shohi farhangdonu she'rshunos
Saxovat ayladi elga beqiyos.

1690 Yetdi molu g'animatdin hamon
Otashkadaga ming tuya ehson.

Kulohlarga yoqut, ctaklarga dur
To'kib, mo'badlarni ayladi masrur.

Ulug' xazinadin yetib olmadi,
Nasiba olmagan darvesh qolmadi.

Shoh Bahrom sarkardalarni koyigani

Toleyidek muborak erdi kun,
Shoh Bahrom taxtiga o'ltirdi mamnun.

Har qayda shohu shahriyor edi,
Hukmdoru tojdor edi.

1695 Shoh taxti poyiga kelib xushhol,
Saf chekdilar oyu yulduz misol.

Shoh qilichdek til birlan hamon,
Dedi: "Ey miru botiru pahlavon!

Lashkar sulhu jang uchundir hama,
Yo'qsa, tosh nimayu odamiy nima?

Sizlardin kim edi, maydonga tushib,
Jasoratda ko'rsatdi unda urushib?

Men sizni ko'rmadim harbu zarbada,
Ayting, ko'rindingiz qaysi jabhada?

1700 Sizlardin keldi andoq kirdikor,
Ki uni etmamishdir bir ag'yor.

Tig'i shamshiringiz, zarbingiz bilan
Tuproqqa qorishdi qaysi bir dushman?

Orangizda bormi olg'a bosolgan,
G'animni qulatib, asirga olgan?

Biringiz deysizki, Eraj naslimen,
Biringiz – Orashning zabardastimen.

Oz emasdir Gevu Rustam degan nom,
Xuzabr nasabli yo zoti Zarg'om.

1705 Ammo maydonda bir botir ko'rmadim,
Qilich sirmagan bahodir ko'rmadim.

G'ariba budirki, xosu avom
Derlar: "Afsus, uyqudadir Bahrom.

May ichar, aylamas dunyoni yod,
Bo'yla shohdin kishi bo'lgaymu shod?"

May ichsam gar, ichmasmen chunon,
Ki unut etgaymen mulki jahon.

Bir hovuz may ichsam, qadah sunsa hur,
Shamshirim yonimda mudom shay erur.

1710 Bag'rimda chaqin bor bulut yanglig',
Bir qo'limda qadah, bir qo'limda tig'.

May ichib, agarda ishrat qilurmen,
Olmos qilichni ham ishga solurmen.

Uxlasam, quyondek hushyormen ul dam.
Dushmanim ko'rarmen u uyquda ham.

Kulguyu mastligim erur majhul,⁷⁹
Sher kulgusi, fil mastligi ul,

⁷⁹ Majhul – tushunish.

Sher kulib-kulib ham qon to'kar,
Mast fil qo'rqinch emasmi magar?

1715

Nodonlar mastu bexabar bo'lgay,
Hushyorlarga maydin samar bo'lgay.

Ul kishikim aqli qosir emas,
May ichar, ammo mast bo'lmas.

May ichsam, toji qaysarim netgaymen.
Oyog'im ostiga uni otgaymen.

May ichsam, himmatim oshib har qalay,
To'karmen dushmanim boshiga may.

Meni anglarmisiz, ayo, do'stu yor,
Samo yulduzlari turgaymu bekor?

1720

Men magar uyqudadirmen yoki mast,
Uyg'oq baxtim ko'kda sayr etib, tinmas.

Men mast uyquda ham yo'riq tuzdim,
Boq, hoqon uyqusin nechuk buzdim?

Itidir ul, eshikda turib har tun,
Uxlamas, uvlagaydir qo'rquvdin.

Ajdaho g'orida uxlar kan sokin.
Narra sher yoniga kelolmas yaqin..."

Bahrom so'zin aytib, tugatdi butkul,
A'yonlar chehrasi ochildi gul-gul.

1725

Boshlarni yerga qo'ydilar hama,
Aytilgan so'zni suydilar hama.

Dedilar: "Ne deding kamarbandlarga,
Hikmatdir, saboqdir xiradmandlarga.

Barini ganji jonu tan ayladik,
Aziz etib, quloqlarga joyladik.

Tangri qo'ymish boshingga toj qadab,
Xalqning sa'y etgani – shunchaki gap!

Necha sarvar sarvarlik etdilar,
Senga go'yo barobarlik etdilar.

1730

Hech biri sendek tojvar bo'lmadi,
Ulusga shohi rahbar bo'lmadi.

Unchakim lutf etdi bizga shoh,
Ko'rmamish jahonda oqu qaro.

Devni boylab, ajdarni o'ldirding,
Karkidonna yengib, filni kuydirding.

Ovlaganing ohuyu qulon har dam,
Domu dad o'qingga nishon har dam.⁸⁰

Sendin o'zga kim sendek ov olgay,
Qulonning bo'yniga kamand solgay?

⁸⁰ Domu dad – o'txo'r va yirtqich hayvonlar

1735

Goh qoplon xolini nishon etgaysen,
Goh nahang tishini ushatgaysen.

Goh hindu qoshiga solursen chin,
Goh hindu sipohi-la olursen CHin.

Goh Fag'furdin toj talabing,
Goh Qaysardin xiroj talabing.

Garchi ko'plar arslon yiqdilar,
Mavh etib, tuproqqa tiqdilar.

Sen uch yuz botiring ila etding,
Uch yuz ming yovni tor-mor etding.

1740

O'tdi podsholar jahon bo'ylab,
Mehr ko'rsatib, g'azab aylab.

Har hukmdorki qozondi nom,
Suyandi lashkar soniga tamom.

Bir necha mard-la engdi yog'uni,
Bahromdin o'zga kim etmish buni?

Necha ming podshoki ko'rdi jahon,
Barchasi bir tomon, Bahrom bir tomon.

Barchasidin afzal Bahrom shoh,
U jahonda yagonadir, tanho.

1745

Dushmanga otilsa, olur jonin,
Qo'ymagay, yiqar xonu monin.

Toshni poralash o'qiga o'ng,
Tosh pora qum bo'lib sochilgay so'ng.

Qay bir ko'ngilda ersa unga kek,
Zamona eritar uni shamdek.

Gar tiyilmasa munaqashdin,⁸¹
Qon hidi anqiydi o'shal boshdin.

Mastligi – nishoni hushyorlik,
Uyqusi – kiroyi bedorlik.

1750 Ul zamonki shoh ermish mayparast,
Shoh may ichar, bo'lur g'animlar mast.

Shohdir ul donolar donosi,
Har ishning omilu tavonosi.

Zamona omilkori shohdir, bas,
Birovning aqliga muhtoj emas.

To falak ostidadir jahon,
Uning hukmida bo'lsin osmon.

Zamin bo'lsin panohi soyasida,
Falak bo'lsin taxti poyasida”.

1755 Ulug'larki andoq so'z ochdilar,
Yoqutga kahrabo sochdilar.

⁸¹ Munaqash, munaqasha – bahsu janjal.

Shoh Nu'mon shunda o'rmidin turdi,
Shoh sha'niga ofarin yog'dirdi.

Dedi: "Shoh taxti har joyga yetgay,
Yerda bo'lsa hamki oyga yetgay.

Odamiy bormidir, shoh boshida ul
Kulohi to'g'ri yo o'g'ri deb aytur?

Ezid qo'ndirmish boshingga toj,
Boshingdin ketmasin baxtu quvonch.

1760 Bizki ul mavloyi borgohingmiz,
Sarvari soyayi kulohingmiz.

Har neki bizda ersa molu mulk,
O'zing sohibdiren, o'zing molik.

Arabdin to Ajam maydoning,
Bosh egarmiz, yurit farmoning.

Necha muddat qilib shoh izzatin,
Eshigida etarmen xizmatin.

Dargohida qadri azim topdim,
Yo'lida yo'l ozug'im topdim.

1765 Shohga bugun uzr aytarmen,
Izn bersa, uyimga qaytarmen.

Yo'l ranjiddin yozib charchog'im,
Shoh buyursa, qaytarmen tag'in.

Gar izn bermasa, qolib shuncha,
Xizmatin etarmen o'lguncha.

Shoh buyurdi: "Keltiring gavharu ganj,
Xazinador bo'lsin javohirsanj.

Berilsin tuhfayi sultoniyy,
Misriyu mag'ribiyu ummoniy".

1770

Xazinadorlar keltirib hazor,
Hovuch-hovuch etdilar nisor.

Xarvor-xarvor zaru mushk tag'in,
Qullar, kanizlardin qanchasin.

Qimmatbaho to'nlarki, zarchaman,
Keltirib ehson etdilar xursand.

Arabnajod, porsiparvard otlar,
Daryo kechib, tog' oshuvchi zotlar.

Hindiy tig'u sovuti dovudiy,
Kemani surdilar to Judiy.⁸²

1775

La'lu dur to'kdilar beqiyos,
Qiymatin bilgay gavharshunos.

Yana gavhar qadalgan toj berdi,
Shushtar qabosidin necha erdi.

⁸² Judiy – Nuh payg'ambar kemasi qo'ngan tog'. In'om-ehson xirmoni Judiy tog'i qadar yuksaldi, deyilmoqchi.

Bo'yla boylik-bisot aylab tutash,
Yamandin to Adanni etdi baxsh.

Shuncha ne'mat ila shoh Nu'mon
Ketdi Oy oldidan yulduzsimon...

Shoh Bahrom yetti iqlim shohlarining qizlarini so'ragani

Shoh bo'ldi nishotu nozga mashg'ul,
Xayru saxovatdin charchamishdi ul.

1780 Necha mushkulotni hal etdi,
Rohatu farog'atga etdi.

O'tirdi, joniga yetib orom,
G'anim mag'lub edi, ilkida jom.

Esladi hadisi ul ustod,
Ta'rifi etilmishdi avval yod.

Bir hujrada naqsh yetti paykardin,
Malohat erdi yetti kishvardin.

Go'zallarki, husniga oy payrov,
Mehri shoh ko'nglida yoqdi olov.

1785 Ko'rasi olovda haftjo'sh erdi,⁸³
Kimyosi Bahrom ilkiga kirdi.

Birinchi qiz erdi kayonnajod,
Otasi, shoh etmishdi vafot.

⁸³ Yetti ma'dan qotishmasidan hosil bo'ladigan qattiq metall.

Ayamadi ganj paripaykardin,
Gavhar topdi shoh o'shal gavhardin.

So'ng hoqonga sovchi jo'natdi,
Mehr ko'rsatdi tahdid etdi.

Qizini so'rdi ganju toj istab,
Yana yetti yillik xiroj istab.

1790

Hoqondin etdi ul zebo sanam,
Yana xiroju ganji gavhar ham.

So'ng Bahromshoh Rumba ot soldi,
Yoqib, yeru samoga o't soldi.

Qaysar qo'rquv ichra yutdi nafas,
Qizini uzatib, uzr so'rdi, bas.

Yo'lladi so'ng Mag'ribshohga chopar,
Zari mag'ribiyu toj birla o'shal

Qizini yubordi badastur,
Qarang, shohdin ne keldi tadbir!

1795

So'ng shahanshoh tark etib bo'ston,
Yo'l oldi qayda deb mulki Hinduston.

Roy qizin tadbir-la rom aylab,
Kiritdi qo'lga chtirom aylab.

Xorazmga yubordi so'ng elchi,
Shoh qizin talab etdi borguvchi.

So'ng saqlab shohga noma qo'ndirdi.
Qatra suvdek dilrabosini so'rdi.

Yubordi qizlarin yetti iqlim,
Yetti go'zal, chun yetti durri yatim,⁸⁴

1800

Keldilar, shoh shodlikka burdi yuz,
Surdi yigitlik gashtin kecha-kunduz.

Shoh Bahrom qishda bazm etgani va yetti gunbaz tiklagani

Subh ko'rsatib nurdin nishonasin,
Osmon ochdi keng peshonasin.

Farruxu ravshanu jahonafruz
Kun edi jahonda o'shal kunduz.

Shoh Bahrom majlisi safo tuzdi,
Davraga xiradmandlarni o'tqizdi.

Xonasi ravza gulguni erdi,
Kun – qishning avvalin kuni erdi.

1805

Bog'u bo'ston uyquga ketmishdi.
Bog'bon bisotin eltmishdi.

Bulbulning o'rmini olmishdi zog',
O'g'rilar makoni bo'lmishdi bog'.

⁸⁴ Durri yatim – yirik, qimmatbaho dur.

Zog' degan hindunasab bo'lgay,
O'g'rilik etsa, ne ajab bo'lgay?

Zog' erdiyu bog' bulbulsiz edi,
Ham koni tikan erdi, ham gulsiz edi.

Naqqoshi shamol tunda tadbir etmish,
Suv mavjini halqa-halqa zanjir etmish.

1810 Qish suvdin harorat ko'tarmish butkul.
Suvni tig', tig'ni suv etmishdi ul.

Suvchi ilkida o'q, tahdid aylar,
Muzni teshar va chashmani boylar.

Sut qaynab go'yo panir bo'lmish,
Qon suratda zamharir bo'lmish.

Qoqum mo'ynasin yopinmish tog',
Sanjobga burkanmish ko'k beadog'.

Bo'rilar turishar poyloqda pisib,
Ohular ustiga borishar bosib.

1815 Ranglari uniqqan maysa, giyoh
Bosh egib, ibodat etishar go'yo.

Jahon bo'yalmish oq-qora rangiga,
La'l otash joylaydi tosh bag'riga.

Gulob deb ko'raga qamalmish gul,
Boshiga hikmatdin suvalmish gil.

Suv oynasi sovuqda muzlabon,
Taxta-taxta kumush erdi hamon.

Qahramtonda tosh qasri yarqirab,
To'rt faslga makon erdi, ajab.

1820 Atru ufor taralib damodam,
Mo'tadil bo'lmishdi sovuq yel ham.

Mevalaru gulgun sharobi no'sh.
Miyaga oromdi, ko'ngilga xush.

Olovda o'rtanib sandalu ud,
Tutuni hindudek etardi sujud.⁸⁵

Otashkim, andin nishoti ko'ngil,
Zardushtiy o'tidek qip-qizil.

Qondir ul, o't bo'lib kelmish chunon,
Yo qonga belangan ipak hamon.

1825 Findiqqa rang bermishdir unnobi,
Shingarf tusin olmishdir siymobi.

Olmadir, ko'nglidin judo bo'lmish,
O'miga anor donalar ermiş.

Kahrabodir, qirlanmish shu tob,
Oftobdir, mushkdin kiymish niqob.

⁸⁵ Sujud – sajdalar.

Zulmatdir, unga taomdir nur,
Loladir, o'stirmish sochida hur.

Turkdir, rumiy nasli, nasabi,
Qurratul ayn hinduvona laqabi.⁸⁶

1830 Mash'ali Yunusu charog'i Kalim,
Bazmi Isoyu bog'i Ibrohim.

Ko'mir poralarkim, mushkinrang,
Olov tegrasin tutmish ahli Zang.

Ul qarorangu bu aqiq visol,
Zulmat aro yoqut koni misol.

Gavhari bermish diydalarga qut,
Qizilu sorig'u ko'k chun yoqut

Uchquni kelinchak zevaridir,
Tutuni boshida anbaridir.

1835 Kelinchak xonasidir ul, zarkor,
Bir taraf ud rang u bir taraf gulnor.

Xona devoriga tutilmish harir,
Kakligu durroj erdi hozir.

Olov tepasida jilvayi xos,
Par yozib, kabutardi raqqos.

⁸⁶ Birinchi satrda oq yuzli Anado'li turklari, ikkinchi satrda VII asrda Eron dan Hindistonga qochgan zardushtiyar nazarda tutilmoqda. Zardushtiyar olovni qurratul-ayn, ko'z nuri deb atashgan.

Sariq shu'la uzra tutun, qaro,
Ganji zar uzra go'yo ajdaho.

Do'zaxligi, behishtligi mashhur,
Do'zax – haroratdin, bihisht – koni nur.

1840

Do'zaxiy – ahli karvoni kunisht,⁸⁷
Ravzaiy – ahli bo'stoni bihisht.

Zardusht "Zand"i nag'masoz anga,
Mug' – parvonayu xirqaboz anga.

Muzlagan suvni critar yakkash,
Ey darig', nomi nechun otash!

Xona yam-yashil sarv rayhonidin,
Boda gulrangdir tazarv qonidin.

Bodakim qadahga quyilmishdi ul,
Quruq suv erdi, otash erdi ho'l.

1845

Qulonko'zlar ichib ul sharobdin,
Yeyishardi qulon kabobdin.

Shoh Bahrom ul do'stu yori ila,
May ichardi jahondorlik ila.

Mayu nuqlu navoyu yor qancha,
Maygusoru g'amgusor qancha.

⁸⁷ Kunisht – yahudiylar ibodatxonasi.

Gulchehrayu shakarxandalar gul-gul,
Ul tirik olovda pishdilar butkul.

Kayflar oshib, dimog'lar chog' bo'lib,
Ko'ngillar mum kabi yumshoq bo'lib,

1850 Oqillar ayshga uyqash aylabon,
Etdilar nozik nuqtalar bayon.

Har dono kam emas yo ortiq,
So'z aytardi qadriga muvofiq.

So'z zanjiri chun davom etdi.
So'z gali suxanvarga yetdi.

Dedi: "Andoq maqomdadir shoh,
Basakdin bizga tashlar nigoh.

Bu yanglig' shohni ahli jahon
Ko'rmamish hech oshkoru nihon.

1855 Borimizdir – farri torakidin,
Baxtimiz – poyi muborakidin.

Borligu sog'likka emindir ul,
Yovni yengmoqlikka emindir ul.

Sog'ligu tinchligu oshu non,
Shu uchovlon kerak, boshqasi yolg'on.

Ustingda kiyim bo'lsa, hafsala zo'r,
Ne hojat insonga o'shal zarru dur?

Ko'nglimiz to'qki, sendek shohimiz bor,
Sen borsanki, panohimiz bor.

1860 Koshkiydi, chorasi topilsaydi,
Yomon ko'zlar yiroq bo'lsaydi.

Gardishi axtaru xiromi sipchr
Ko'rsatsaydi mudom bizga mehr.

Toleyimiz baxtga ters yurmasaydi,
Shodligimiz g'amga yuz burmasaydi.

Yillar o'tsa hamki shohimiz shod
Yashasa, aylasa ayshu nishot.

Hamisha iqtido etsak anga,
Jonimizni fido etsak anga!"

1865 Suxanvar so'zini ayladi yakun,
Ahli majlis tinglab bo'ldilar mamnun.

Qishni unuttirdi yoniq so'zlar,
Chehralar yorishdi, chaqnadi ko'zlar.

Majlisda bor edi mardi ozoda,
Oliyjanob erdi, aslzoda.

Ismi Shida, yuzi quyoshdek ravshan,⁸⁸
Har oqu qarodin yasardi gulshan.

⁸⁸ Shida, shid, xurshid – porloq ma'nosida.

Ustod edi ul, zamon rassomi,
Muhandislikda chiqmish nomi.

1870

Tabobatu handasayu nujum
Kaftida erdi chun mo'hrayi mum.

Mohir edi ul binokorlikda,
Naqshband suratorolikda.

Kilku teshasin ishlatsa bot,
Moniy yig'lar, kuyar edi Farhod.

Shogird tushib, xiradga yor erdi,
Ilk ustod anga Simnor erdi.

Xavarnaqda bo'lib ishga mashg'ul,
Ustodiga ko'mak etnishdi ul.

1875

Bazmaro shohni ul xush ko'rdi,
Tilida suv, qalbida otash ko'rdi.

Yer o'pib, etdi izzat, ehtirom
O'ltirib, so'ngra boshladi kalom.

Dedi: "Shohim amr etsalar agar,
Yomon ko'zlarni etgaymen badar.

Osmon sirdonimen, yulduzshunos,
Falak asroridin voqifmen bir oz.

Me'mori benazirmen ochunda,
San'atning sir-sanoati menda.

1880

Nisbatin olurmen ko'kdin faqat,
Yetmagay shohga bir aziyat.

Shohim ul binoda yasharkan, bas,
Yulduzlardin qo'rquv, hadik bilmas.

Qachonki ul makonga shoh etgay,
Yerga osmondek hukm etgay.

Shu yo'sin men xizmat aylab shior,
Yetti gunbaz ko'targum chun hisor.⁸⁹

Har gunbaz rangidir yagona,
Oldida tuproqdir yuz sanamxona.

1885

Shohning yetti go'zal yori bor,
Har go'zalning ayru diyori bor.

Har diyorda o'zgacha ruknu asos,
Yetsa bo'lgay yetti yulduzga qiyos.

Samovot pardasin etib pora,
Har kuni ko'ringay bir sayyora.

Shoh dag'i yulduzdek yo'riq tutsin,
Bir gunbazda ayshu nishot etsin.

O'shal gunbaz rangida to'n kiyib,
Ichsin yori birlan may quyib.

⁸⁹ Hisor – qal'a, qo'rg'on.

1890

Agar shu so'zga shoh amal etgay,
O'zini shohi mo'tabar etgay.

Kechar umrini komronlikda,
Ishratu rohatu omonlikda".

Shoh dedi: "Bas, bo'yla tadbir etdim,
Uyimni zar, eshigin temir etdim.

Oqibat uldirki, o'lgaymen,
Bu imoratni nechun qilgaymen?

Dedingki , bir gunbaz etarmen bunyod,
Zebu ziynat berib, aylagum obod.

1895

Hoyu havas uyi ersa u joyda,
Buyuk bunyodkorning manzili qayda?

Dedi so'ng: "Yo'q-yo'q, xato aytdim,
Tingrining manzilin so'rab-ketdim?

Ko'rish gar ravomas tal'atin,
Har joyda etarsen ibodatin".

Shu so'zni shod aytib, jim qoldi shoh,
Yuragi havasdin jo'sh urdi nogoh.

Ko'zlari o'ngida edi shu mahal
Simnor tasvir etgan yetti go'zal.

1900

Ul go'shada erdi yetti iqlim,
Chiroyidin yetti durri yatim.

Me'mor so'zin tinglab shohi jahon,
O'yga toldi, sarhisob aylabon.

Javob bermoqqa yetmadi shitob,
Bir necha muddat bermadi javob.

Ammo arodin necha kun o'tib,
Me'morni chorladi, qaror etib.

Har neki so'rdi usto, so'yladi.
Barini unga hozir ayladi.

1905

Zar berdi, nozu ne'mat berdi ul,
Ol ko'targaningcha, derdi ul.

Ganj darig' tutmadi rassomdin,
Bahramand bo'ldi ul Bahromdin.

Keyin navbat munajjimga yetdi,
Xayrli kunni ul tayin etdi.

Shidaga iqboldin etib irshod⁹⁰
Ajoyib yetti gunbaz ayladi bunyod.

Ikki yilda bunyod etdi chun ravza,
Bihishtdin farq etolmasdi kimsa.

1910

Tikladi yetti gunbazi guhar,
Gunbazchi ko'rsatdi andoq hunar.

⁹⁰ Irshod – rahbarlik, rahnamolik.

Har gunbaz ayricha ko`rinur ko`zga,
Avval aytilgandek ziynati o`zga.

Shoh kelib sayr ayladi, aylandi,
Har gunbazga kerakdin boylandi.

Gunbazga termulib, esladi shu on,
Simnorga jabr etmishdi Nu`mon.

Buyuk san`atkorni halok etgani
Ta`na, dashnomlarga ko`mmishdi ani.

1915

Shidani shod etmakka shoh Bahrom
Ayladi Bobak shahrini in`om.

Dedi: "Nu`mon agar xato etmish,
Uqubat aylamish, jaf o`tmish.

Mening adlim uning tavonidir,
Nu`mon shohning uzr so`rgonidir.

Dunyoning ishlari chunon ermish,
Kimga naf, kimga ul ziyon ermish.

Birov tashnalikdin kabob o`lur,
Birov cho`kib, g`ariqi ob o`lur.

1920

Hama hayronu lol qolib yaksar,
Sukutdin o`zga chora topmaslar".

Yetti gunbaz ta'rifi

Shoh Bahromkim, Kaykubodkuloh,
Yetkazdi tojini oyga to.

Besutun ko'tardi quruq yerdin,
Farhodning etgani hech bo'ldi andin.

Chunon Besutunki, yetti sutun,
Yetti gunbaz ko'kka bo'y cho'zdi uzun.

Devori havoga yuksalib baland,
Bo'ldi oxiri falakpayvand.

1925

Yetti gunbaz shu devor ichra
Tiklandi, o'ylakim yetti sayyora.

Har gunbaz rangini sitorashunos
Ayladi sitora mizojiga mos.

Gunbazki, shaklda naq Kayvon edi,
Qora rangida mushk pinhon edi.

Gunbazki, erdi ramzi Mushtariy,
Sandaliy rangdin erdi zevari.

Gunbazki, Mirrix erdi unga nom,
Qirmizi gavhardin erdi tamom.

1930

Gunbazki, ul Quyoshga payvasta,
Sariq erdi, zar ila orasta.

Gunbazki, ul Zuhrodek porloq,
Zuhro chehrasidek edi oppoq.

Gunbazki, Atorud unga homiy,
Firuzarang erdi, to`q moviy.

Gunbazki, timsol erdi unga Oy,
Shoh baxtidin erdi yashil chiroy.

Har birida o`zga rangu tus,
Yetti gunbaz misli yetti yulduz.

1935

Yetti kishvar olib zimmasiga,
Yetti qiz jo`natdi shoh ravzasiga.

Har qiz o`z ra`yicha xona bezatdi,
Rangini gunbazga hamohang etdi.

Har kuni ul shohi farruxbaxt
Bir qasr sahniga tikar edi taxt.

Avval sayr etardi saroy ichra
Va majlisi sharob tuzardi so`ngra.

Har qaydakim sharob icharkan,
Joma-to`n kiyardi qasrga monand.

1940

O`ltirardi pari pardozlanib,
Shohga shirin boqib, nozlanib.

Shohning ko`nglin nechuk olay derdi,
Ko`ngliga nechuk o`t solay derdi.

Sirli afsonalar so`ylardi atay,
Ki shohning shavqini qo`zg`otgay.

Devor ko'tarsa-da samolarga to,
Amal oldida chorasiz qoldi shoh.

Ey Nizomiy, kech bu gulshandin,
Gul debon tikon terding andin.

1945 Besh kunlik dunyoda chun tutib maqom,
Ko'r, oqibat ne bo'ldi Bahrom!

**Shoh Bahrom shanba kuni qora gunbazda taxtga o'ltirgani
va birinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani**

Shoh boda icharkan, entikdi,
Yetti parivashga ko'zin tikdi.

Shanba kuni etib tamannosi,
Chodir qurdi timqora abbosiy.

Erdi gunbazaroy g'oliyafom,⁹¹
Kirib, hind sanamga berdi salom.

Shomgacha nishoti bazm etdi,
Ud yoqdi atru ufor taratdi.

1950 Shom cho'kib, tun yorilib nogoh,
Oq harirga sochdi mushki qaro.

Shoh istadi ul kashmirik sanam
Ufursin anga atru bo'y shu dam.

⁹¹ G'oliyafom – g'oliyarang, qora tusli.

To lab ochib ul shakar sochsin,
Shirin so'z ila ko'ngil ochsin.

Fasona so'y lasin etib orzuga,
Mastni moyil etsin uyquga.

Ohuyi turkiy so'z, hindiyzod
Mushk nofasidin tugun etdi bot.

1955 Dedi: "Shohning besh bongi bergay to
Oyning to'rt bolishi uzra sado!"⁹²

To jahon boricha omon bo'lsin,
Jonlar borki, anga qurbon bo'lsin!

Etsin har neki aylasa niyat,
Davlatidin ketmasin davlat!

Duosin tugatib, bosh egib yana,
So'yladi Bahromshohga afsona.

Afsona

Bosh egib hayoli, jim qoldi lahza,
So'z kim, eshitmamishdi bir kimsa,

1960 Labidin uchdi so'ng, ajab edi,
Bir ayo l din eshitmishdim, dedi.

⁹² Besh bong – shoh saroyi oldida har kuni besh karra nog'ora, karnay chalinishi. To'rt bolish – to'rt unsur, go'yo oy ularga yastanib dam olarmish

Bihisht saroyimiz xonimlaridin
Biri edi, oqila, nozanin.

Har oy kelar edi bir karra,
Ustiga yopinib qaro chodra.

Undar so'ramishlar: "Qaro kiyim
Boisi nimadir, qo'rquvmi, vahim?"

Yaxshimasmi qo'ysang bu oroni,
Oqqa ilishtirsang qaroni?

1965 Qarolik boisin bayon etgil,
Ma'nosini anglat, ayon etgil".

Kadbonu rostin izhor aylamish,
Qaro harir asrorin so'ylamish.

So'ylamasam, qo'ymassiz magar,
So'ylasam, demish, eting bovar.

Falon shohning kanizagi erdim,
Roziman andin, yaxshilik ko'rdim.

Vafot etdi, shoh edi botadbir,
Zamonida do'st edi qo'y, qashqir.

1970 Ko'p jabru jafu tuymishdi ul,
Shu boisdin qaro kiymishdi ul.

Falak iqbolin oshkor qilmishdi,
Qaropo'shlar shohi atalmishdi.

Avval kiyimlari erdi ne tariyq,
Goh qizil kiyardi, goh sariq.

Mehmondo'st erdi bog'u chamanda,
Qizil guldek mudom labida xanda.

Mehmonxonasi muhayyo erdi,
Shuhrati toki Surayyo erdi.

1975

Sufrada nozu ne'mati bisyor,
Xodimlari xizmatga tayyor.

Har kim kelsa, chehra ochib xush,
Etishardi lutfu navozish.

Sufra yozib, taom tortishardi,
Mehmondo'stlik ko'rsatishardi.

Shoh derdi so'ngra, ol hikoyatdin.
G'urbatdin ayt, derdi, viloyatdin.

Musofir aylardi istagan ado,
Qissa so'ylar edi, tinglardi shoh.

1980

Shoh umri shu zaylda kechdi,
O'zgarmadi shu xilda kechdi.

Bir zamon ne bo'ldi, ko'rinmay qoldi,
Simurg' qushi kabi ko'zdin yo'qoldi.

Aroding necha kun o'tdi, alqissa,
Anqodek ko'rmadi bir kimsa.

Nogahon ko'rsatdi inoyatin baxt,
Qaytdi tojdor yana, egalladi taxt.

Qaboyu kulohu kuylagani ul
Boshdin-oyoq qaro kiymishdi butkul.

1985 Keyin o'lgunicha oqdin tiyindi,
Musibat ko'rmayin qaro kiyindi.

Obi hayot erdi zulmatda chun,
Bir kishi so'rmadi: qarolik nechun?

Bir necha xizmat-la barobar
Ko'rsatardim shohga navozishlar.

Oyog'in tizzamga qo'yib shu on,
Shikoyat aylardi falakdin chunon.

Ki, ko'rgil osmon qayon etdi.
Men shohga qanchalar jabr etdi.

1990 Iram bo'stonidin ayirdi meni,
Qalam qarosiga qayirdi meni.

Bir kishi so'rmadi, judolik ne?
Kumush taningda bu qarolik ne?

Shunda men shohdin uni so'rdim,
Bosh qo'yib, poyida yuzim surdim.

Dedim: "Ey shohlar ichra ogohi,
Jahondorlar ichra jahon shohi!

Kimda jur'atki, bo'yla yo'l tutsin,
Senga savol berib, javob kutsin.

1995

Ogohsen, sinoatga yor et,
Lutf ayla, bizni xabardor et".

Hukmdorim menga mehr sochdi,
So'yladi, asror sandig'in ochdi.

Dedi: "Men shoh, sohibi davlat
Mehmonnavozlik ayladim odat.

Har qachon yaxshi yo yomon ko'rdim.
Sufra yozdim anga, sarguzasht so'rdim.

Bir kuni keldi bir g'arib gado,
Kafshu dastoru to'ni qaro.

2000

Yeb-ichirdim, mehmon ayladim,
Yana simu zar ehson ayladim.

Dedim: "Qo'y, so'rmagil, yur bexabar,
Kishi Simurg'din topgaymu xabar?

Dedim: "Qo'y, bahona etma, bu sirdin
Ogoh et, xabar ber Qirvonu qirdin".⁹³

Dedi: "Bu g'aribning uzrin qabul qil,
Bu simi birovg'a aytilmas deb bil.

⁹³ Xabar ber Qirvonu qirdin – gapir, maqsadga ko'ch ma'nosida. Qirvon – yettinchi asrda hozirgi Tunisda qurilgan qadimiy shahar.

2005

Kishi asroriga yetar, shubhasiz,
O'zi shu qaroni kiyganda yolg'iz".

Yolvorib so'radim dilu jondin,
Men Iroqdin keldim, u Xurosondin.

Shuncha yolborganim ta'sir etmadi,
Bilganin aytmadi, tasvir etmadi.

Lek yumshadi intizorligim ko'rib,
Uyaldi beqarorligim ko'rib.

Dedi: "Chin mulkida shahar bordir,
Bihisht yanglig' ajab ma'vodir.

2010

Demishlar uni Shahri behushlar,
Ta'ziyaxonayi qaropo'shlar.

Xalqi oydek go'zaldir, orasta,
Bari ipak, qaro atlasda.

Har kim unda boda no'sh etar,
Qaroligi qarono'sh etar.

Qismatidin kimsaga hissa ul,
O'qilmagan ajab qissa ul.

Gar boshimni kessang-da hamon,
Bundan ortiq so'z aytmagim gumon".

2015

Dedi, ketmoqqa azm ayladi,
Orzuyim yo'lini boyladi.

Bu doston soldi dilga ishtiyoq,
Dostonchi erdi lek mendin yiroq.

Qissachi ketdi, qissa nopaydo,
Qo'rqdim, men ham bo'lurnen deb shaydo.

Qissani so'rab, necha surish qildim,
Piyodadek har yon yurish qildim.

Har gal yo'limni farzin etdi band.
Ki qal'aga otolmadi kamand.

2020 Etdim andishaga sabrim davo,
Lek ko'nglim taskin topmadi aslo.

So'rdim, surishtirdim oshkoru nihon,
Ammo uchramadi bilguvchi inson.

Oxir toju taxtni raho etdim,
Qarindoshimni podsho etdim.

Tugdim necha to'n, javohiru ganj,
To yo'limdin ko'targay deb ranj.

Har joyda ul shahar nomin so'rdim,
Etdim oxir anga, kirib ko'rdim.

2025 Orasta erdi chun bog'i Iram,
Har manzil oldida mushkdin alam.⁹⁴

⁹⁴ Alam – bu yerda bayroq ma'nosida. Ya'ni, har uy oldida qora bayroq tikilgan edi.

Garchi oq erdi, sutdek paykari,
Qaro liboslarga burkanmish bari.

Bir manzilga qo'nib, yechdim tugun,
Bor edi bisotimda necha to'n.

Bir yil surishtirdim, so'rab ahvol,
Bir kimsa etmadi arzi hol.

Ko'z solib, o'rganib har bobni,
Uchratdim yaxshi bir qassobni.

2030

Ochiq yuzu latif erdi basti,
Yomonlikdin sira so'z ochmasdi.

Yaxshi inson edi, ko'zladim,
Oshno bo'lmoqqa yo'l izladim.

O'zimga hamsuhbat ayladim oxir,
Pul berdim, mol berdim, durru javohir.

Himmatimni ayamadim andin,
Saxovat ayladim har narsadin.

Kun sayin ziyoda aylab qadrini,
Temir erdi, zarrin etdim uni.

Ko'nglini ovladim andoq bir yo'la,
Gahi harir bilan, goh atlas ila.

Zar sochdim, qassobning hamyoni to'ldi,
U menga qurbonlik ho'kizi bo'ldi.

Baxsh etdim unchakim anga ganju ganj,
Men uchun oqibat chekmoq bo'ldi ranj.

Bir kuni uyiga da'vat ayladi,
Mehmondo'stlik etdi, raso siyladi.

Sufra yozib, taom keltirdi avval,
Xizmatin ayladi to'kis, mukammal.

2040 Sufrasida ne'mat imkondin ortiq,
Har necha ortiq ersa, ondin ortiq.

Tanovul aylabon, suhbat qurdik,
Suhbat jilovini har tomon burdik.

Qachonki yig'di mezbon sufrani,
Anvoyi tuhfaga g'arq etdi meni.

Berganlarimdin ham ziyoda etib,
Qarshimda o'ltirdi uzrini aytib.

Dedi: "Berding muncha gavharu ganj,
Hisobiga etolmas gavharsanj."⁹⁵

2045 Menku farzandimen qanoatning,
Boisi nedir bu saxovatning?

Na muncha ehsoni xudovandlik?
Ayt menga, ctay kamarbandlik.

⁹⁵ Gavharsanj – gavharshunos.

Bir jonim bor, magar ming bo'lsa ham,
Fido etmoqqa hozirmen shu dam.

Dedim: "Ey xoja, g'ulomlik nechun?
Ishingni pishiq qil, xomlik nechun?"

Asl inson nazdida bu tortiq
Qiymati toshga teng, emas ortiq".

2050 Xizmatkorimni da'vat ayladim,
Ko'z uchidin ishorat ayladim.

Bisotimdin ochib xazinayi xos,
Keltirdi necha naqdina, xolos.

Berdim, qo'limda omoda edi,⁹⁶
Avvalgidan ham ziyoda edi.

Qassob ogohmasdi bu ishimdin,
Xijolat bo'ldi ul navozishimdin.

Dedi: "Sendin qarzdor edim chun,
Yana qarzdor etganing nechun?"

2055 Yana shuncha saxovat aylading,
Xijolatmen, ne chora aylayin?"

Gar qaytargan esam ganjingni,
Behudaga qaytarmadim uni.

⁹⁶ Omoda – tayyor.

Uni qaytardimki, bo'ylakim gauj
Kelmas kishiga bezahmatu ranj.

Zarga zar qo'shding, yoqutga yoqut,
Men xijolat bo'ldim, sen xushnud.

Hojating ersa, menga ayt hamon,
Yo'qsa, berganlaringni ol tamom!

2060 Ogoh bo'lib chun do'stu yorligidin,
Umid ayladim madadkorligidin.

Unga arzu hikoyatim aytdim,
Shohligimu viloyatim aytdim.

Nechun tark etib toju taxtimni,
Bu tomonga surdim otimni.

Bilmoqchiman, bu shahar ahli butun,
Hayot zavqidin yiroqdirlar nechun?

Ne uchun g'am chekib, kuygaylar,
Bemusibat qaro kiygaylar?

2065 Qassob eshitdi chun, o'yga toldi,
Bo'ri quvgan qo'y bo'ldi-qoldi.

Bosh egib, jim qoldi bir muddat,
Yuzida aks etardi xijolat.

So'ng dedi: "Savolingda yo'q savob,
Ne bo'lsa ham bergaymen javob".

Tun sochdi kofur ustiga anbar,
Qorong'ulikka chulg'andi shahar.

Dedi: "Tur, vaqt etdi, hamroh bo'l,
O'zing ko'rgil, o'zing ogoh bo'l.

2070 Yur, seni voqifi asror etay,
Ko'rinmas ul suratni ko'rsatay".

Shuni aytib, chiqdi ul tashqari,
Rahnamo bo'ldi, boshladi nari.

U oldinda, men ortda shu lahza,
Atrofdagi ko'rinmasdi bir kimsa.

Paridek ilgari boshladi,
Bir vayrona sari boshladi.

Etdik, ul erdi manzili xarob,
Paridek yuzlarga tortdik niqob.

2075 Arqonga boylanmish savat erdi,
Oldi ul, qoshimga keltirdi.

Pargorga boylanmishdi ul arqon,
Atrofida ajdahodek ilon.

Dedi: "Bir dam savatga o'ltirgil,
Ne emish osmonu zamin, ko'rgil.

Bilarsen shunda, kimsa xomushdir,
Ne boisdin chun qaropo'shdir?

Har neki yaxshi-yomon erdi nihon,
Shu savatdin bo'lgay senga ayon".

2080

Boqdim savatga, chun xoli ko'rib,
Tushdim, tin oldim lahza o'ltirib.

Tanim ul savatda navolandi,
Savatim qush bo'ldi, havolandi.

Tilsim edi magar, ko'tardi tikka,
Aylana-aylana yuksalдим ko'kka.

Arqonchi tortar erdi haddin ortiq,
Yopishib olgandim men unga qattiq.

Go'yoki sham' edim nozik shu on,
Bo'ynimni kesgudek edi arqon.

2085

Bir tutqundek edim, dilpora,
Bo'ynimdin tushmasdi arqon sira.

Arqondin cheksam-da og'riq, alam,
U jonim rishtasi erdi shu dam.

Minora ko'rindi baland, raso,
Boqqanning boshidin tushar kuloh.

Minoraga kelib savatim tushdi,
Qo'limdin sirg'alib, arqonim uchdi.

Tark etdi chun meni keltirib magar,
Dodu faryod chekdim, bari besamar.

2090

Yeru ko'kni ko'zim o'ngida ko'rdim,
O'zimni osmon qo'ynida ko'rdim.

Bu ahvoldin og'zimga keldi jon,
Ko'zim xiralashdi, holim yomon.

Na ko'kka boqishga bordir qudratim.
Na yerga boqishga yetar jur'atim.

Ko'zni yumdim, qo'rquv yutdi meni,
Ojizlikka taslim etdi meni.

Qarg'adim ul fasonamni hamon,
Sog'inib xeshu xonamni hamon.

2095

Chekib pushaymonlik ila oh-voh,
Xudo derdim, Xudo derdim, Xudo!

Shunda minoraga nogahondin,
Bir qush kelib qo'ndi, bilmam qayondin.

Qush dema, erdi ul monandi tog',
Boqib, yuragimga tushdi titroq.

Ko'zim yumib, ochib, necha boqdim,
Yiqilmagay minora deb qo'rqdim.

Qanotlari misli daraxt erdi,
Oyoqlari poyayi taxt erdi.

2100

Sutun erdi tumshug'i, minqori,
Og'zi go'yo Besutunning g'ori.

Tinmay qashinardi, parin titardi,
O'zini bir qadar pardozi etardi.

Qashinarkan, pari birlan birga
Mushk nofasi to'kildirdi erga.

Har gal qanotini silkib ochardi,
Inju to'la sadaf sochardi.

Men qanoti ostida yotmishdim,
Go'yoki bir suvga botmishdim.

2105 Dedim: "Oyog'idin tutsam ani,
Bir o'ljadek olib ketar meni.

Magar qolsam, bu erda ko'p xatar,
Ofatim zeru mehnatim zabar.

Qassob nechun menga chunon etdi,
Jafo aylab, holim yomon etdi?

Na g'araz erdiki, boshlab yo'lim,
Oqibat bu yanglig' qayirdi qo'lim?

Istagi magar javohirim erdi,
Ul sababdinmi o'limga topshirdi?

2110 Yaxshisi, qushning oyog'idin tutay,
Bu erdin jonimni xalos etay".

Shu mahal xo'roz qichqirig'i etdi,
Jonu jonzot uyquni tark etdi.

Qush ko'ngli boz samoga boylandi,
Qanot silkib, uchmoqqa shaylandi.

Men ham bo'sh kelmadim, jadal etdim,
Yo Xudo! – deb oyog'idi tutdim.

Qush oyog'in yig'ib, qanot ochdi,
Ko'tardi meni ul, ko'kka uchdi.

2115 Uchdi tongdin to tushga qadar,
Men yo'lchi, ul musofirparvar.

Quyosh sochdi mehr nurini to,
Boshimiz uzra suzdi samo.

So'ngra qush pastga inmoq istadi,
Bir ko'lankaga qo'nmoq istadi.

Asta-asta o'zni pastga oldi,
Yergacha bir nayza bo'yi qoldi.

Ko'rdim, zamin sabza erdi, harir,
Mushkin erdi, gulob erdi, abir.⁹⁷

2120 Qushni men yurakdin duo etdim.
Yo Xudo! – deb o'zni erga otdim.

Yiqildim beshikastu bezihim,
Yumshoq gulu giyoh uzra shu dam.

⁹⁷ Abir – xushbo'y modda.

Bir soatcha yotdim shu ahvolda,
Yomon o'y-andisha xayolda.

Yotib, bir muncha hordig'im yozdim,
Shukr etib, o'zimni xush sezdim.

Ko'z soldim oldu ortimga hamon,
Nechuk joy deb bu ja'voyu makon.

2125

Ravza ko'rdim eru osmon aro,
Odamiy qadami etmamish aslo.

Minglarcha gul ochilib, yashnoq,
Sabzalar uyg'og'u suv uxloq.

Har gul bo'yanmishdi bir rangga,
Taralmishdi ufori farsangga.

Sunbul zulfi halqa-halqa kamand,
Qaranfulni qo'ymasdi bag'ridan.⁹⁸

Gul dudog'ini suman kesmish,
Arg'uvon tilini chaman kesmish.

2130

Gard kofuru tuproq anbar edi,
Qum oltinu tosh gavhar edi.

Chashmalar oqardi misli gulob.
Mavjida aqiqu durri xushob.

⁹⁸ Qaranful – qalampir-munchoq, gvozdika.

Ko'k chashma edi yashil sabza aro,
Rang olmishdi go'yo andin samo.

Baliqlar suv ichra suzishar ko'rkam,
Misli siymob ichra kumush diram.

Atrofi tog' edi zumurrad rang,
O'rmoni – sarvu chinoru zarang.

2135 Tutash yoqut edi tog' toshi,
Og'ochlarning qizildin qumoshi.

Har joyda o'sardi udu sandal,
Alardin el edi muattar.

Huru pari go'yo tutmishdi makon,
Bihishtdin keltirib guli payhon.

Iram dilorom deb bermishdi nom.
Minu derdi charxi minufom.⁹⁹

Men ko'rib qarshimda chun ma'vo,
Sevindim ganj topgandek go'yo.

2140 Kezarkan hayrat ichra har yonni,
O'qirdim alhamdulillahni.

Sayr etib pastu balandda bir oz,
Chamanlar ko'rdim necha dilnavoz.

⁹⁹ Minu – jannat ma'nosida. Minufom – shishadek moviy.

Sarxil mevalardin uzib, yedim,
Ne`mati haqqiga shukron dedim.

Oxir joy tanlab chamanda tek,
Sarv ostida yotdim sarvi ozoddek.

To tungacha ul go`sha qarorim edi,
Orom olmoqqa ixtiyorim edi.

2145 Ozroq erdimu andak uxlardim,
Shukur deb rohatda uflardim.

Tun kelib, o`zga bir chiroy ochdi,
Qaroni yo`qotdi, qirmizi sochdi.

Shafaq tog` boshiga shu`lasin soldi,
Zuhro ko`kda yolg`iz yaltirab qoldi.

Yel esdi, yo`llarni qopladi g`ubor,
Go`yo esgan kabi nasimi bahor.

Bulut keldi, bulut, abri nayson,
Sabzalar uzra sochdi dur, marjon.

2150 Yo`llar supurildi, suvlar sepildi,
Hama yo`l butlardin butkada bo`ldi.

Ko`rdim, yiroqdin minglarcha hur
Men tomonga jadal ot surib kelur.

Bir jahon ul nigori nuroniy,
Ruhparvar, chun guli rayhoniy.

Har go'zal erdi chun toza bahor,
Qo'llarida tutib naqshi nigor.

Lablari la'l edi, lolayi bo'ston,
Hasad etardi qandi Xuziston.

2155 Kaftu cho'ntaklarda hovuch-hovuch zar,
Bo'yin, quloqlarda injuyu gavhar.

Qo'llarda sham' edi, shohona,
Tegrasida na dud, na parvona.

Kelishardi bari ra'nolik ila,
Necha nozu tamannolik ila.

Ko'tarmishdi boshda necha mahvash,
Bihisht taxtu farshidek taxtu farsh.¹⁰⁰

Gilam yozib, anga taxt qurdilar,
Sabru qarorimni sovurdilar.

2160 Oradin o'tmadi ko'p zamon,
Go'yoki oy yerga tushdi hamon.

Yiroqdin ko'rindi quyosh masrur,
Osmonni g'arq ayladi nur.

Atrofin o'ramish huri, pari,
Tongotarda yulduzlar singari.

¹⁰⁰ Farsh – gilam, palos ma'nosida.

Ul sarv erdi, kanizaklar chaman,
Ul qizil gul, boshqalar suman.

Har shakarlab ilkida sham yonar,
Na xush ko'shilsa gar sham'u shakar!

2165 Sarvi sumanga to'ldi bog' hama,
Tunni kun ayladi charog' hama.

Keldi ul bonuyi humoyunbaxt,
Bir kelinchakdek maskan tutdi taxt.

O'ngu so'l olam osuda erdi,
Chun o'ltirdi, qiyomat yuz berdi.

O'ltirib, bo'yla bir nafas kechdi,
Niqob ochdi yuzdin, etik echdi.

Bir shohdek chiqib keldi so'ngra,
Rumu Zang lashkari o'ngu so'lda.

2170 Rumiyo zangiy erdi ikki rang,
Jang etarda Rumu bazm etarda Zang.

Yomon ko'zlar yiroq bo'lsin hurdin,
Hama tuproqdin erdi, ul nurdin.

Gul kabi so'ngra bosh egib turdi,
Chiroyidin jahonga o't urdi.

Chu kechdi bir nafas, ko'tardi bosh,
Dedi mahramga, ul edi yondosh.

Ki, "Ko'rinur menga, shu atrofda, bas,
Nomahram kimsa bor, xokiyparast.

2175

Atrofni kez, ko'z sol yaqin-yiroqqa,
Har kimki uchrasa, keltir bu yoqqa".

Ul parizod shu zamon turdi,
Atrofni aylandi, charx urdi.

Meni ko'rib, bir zum hayratda qotdi,
Qo'l cho'zdiyu qo'limdin tutdi.

Dedi: "Turgil, boraylik tezroq,
Amr etdi bonular bonusu shundoq".

Men turdim labbay deb oyoqqa shunda,
Bunday iltifotga chanqoqdim juda.

2180

Qarg'adek ul tovus tomon ketdim,
Ul parivash dargohiga etdim.

Jonim diydori ishtiyoqida,
Yiqildim, yer o'pdim oyog'ida.

Istadim, poyida o'ltirsam,
Taxti oyog'iga bosh ursam.

Dedi: "Turgil, u joy – joyingmas,
Qulluq aylamak sazoyingmas.

Mening oldimda etnagil g'alat,
Mehmonning joyi to'rdadir faqat.

2185

Mehmonki, yaxshidir, xushdir nazari,
Yuzida aks etar husni, hunari.

Taxtga chiq, ey mehmon, yaxshidir zero,
Oy ila yonma-yon o'ltirsa Zuhro".

Dedim: "Ey bonuyi farishta axloq,
Mendek bir bandaga so`ylama mundoq.

Bilqis taxti bo'lmas devlarga makon,
U taxtning egasi yolg'iz Sulaymon.

Men o'shal devdirman, biyobonlik,
Bas, netib etgaymen sulaymonlik?"

2190

Dedi: "Yetar, bahona aylama,
Fusun etma, afsona so`ylama.

Bu hama joy hukmingdadir sening,
O'ring mudom yonimdadir mening.

Ogahi sirri nihonim bo'l,
Bahra ol, mehribonim bo'l".

Dedim: "Soyang erumen, ey ganjim,
Tuproqdir taxting poyida tojim".

Dedi: "Ne xushdir bu guftoring,
Kun kelur, bo'lurmen dildoring.

2195

Mehmonimsen, ey lafzi laziz,
Mehmonni mudom tutarlar aziz".

Qul bo'lmagin lozim erdi, ko'rdim,
Qul bo'lib, oyoqda tik turdim.

Qo'limdin tutib bir xodim hamon.
Meni o'tqizdi taxtga shu zamon.

Chun taxtga o'ltirib, otdim nigoh,
Oy ko'rdim yuzida, bo'ldim mahliyo.

O'shal oy xushzabonlik ayladi,
Lutf etdi, mehribonlik ayladi.

2200 Buyurdi: zud sufra keltiring,
Uni nozu ne'matga to'ldiring...

Keltirib yozdilar menga sufra,
Yegulik, ichkulik turfa-turfa.

Sufra firuzadin, kosasi yoqut,
Ko'zga quvonch erdiyu jonga qut.

Xayoldin kecharkan biror taom,
Oshpaz hozir etardi hamon.

Ko'nglim yayradi bu farog'atdin,
Issiq taomlaru sovuq sharbatdin.

2205 Mutrib keldi, qadah sundi soqiy,
Mavj urdi davrada mayi boqiy.

Har xonanda aytib tarona,
Sochardi sozidin duru durdona.

Doyra raqsga ochib maydon,
Qo'llaru oyoqlarga kirdi jon.

Shamlarni boshlarga qo'ndirib.
Turdilar o'rtada misli sham bo'lib.

Charchadilar yer tepib tinmayin,
Qadahlarga qo'l cho'zdilar keyin.

2210 Soqiy qadah tutdi paydar-pay,
Ko'tardi sharmu hayoni may.

Ishqu boda asir yetib jonga,
Men dag'i tushdim ul maydonga.

Ul shakarlab edi menga damsoz,
Etmadi bu ishimga e'tiroz.

Ko'rdim, yetardi ul royi xush.
Oyog'iga bosh qo'ydim sarxush.

O'pdim oyog'ini surib yuz,
O'pma derdi, o'pardim ustma-ust.

2215 Umid qushi qo'nib butoqqa hamon.
Suhbat uchun ochildi maydon.

Mayu bo'sadin men mastu ado,
Ming jonim bo'lsa ham etardim fido.

Dedim: "Ko'ngilga xush koming sening,
Ey nozanin, nedir noming sening?"

Dedi: "Men turki nozaninandom,
Nozanin Turkinozdir menga nom".

Dedim: "Ko'ngillar ersa tutash,
Ismlar bo'lur andoq adash.

2220 Noming ul Turkinozdir, ne ajab,
Ajabki, Turktoz menga laqab.

Kel, turkvor ot suvrib dashtga,
Hindularni otaylik otashga.

Jonga darmon mayi mug'ona qilib,
Nuqli may no'shi oshiqona qilib,

Achchiq mayni ichaylik shirin, hay,
Taom sufradayu qo'للarda may".

Bildim, nozlanib chun atir gul,
Oramizni yaqin etmoqchi ul.

2225 G'amzasi derdi: keldi fursating,
Bo'sh kelma, ol qo'lga davlating.

Kulgusi derdi: keldi fursating,
Bo'sa ol, yor firoq yetguvchidir.

Bo'sa talab etdim, omoda erdi,
Bir dedim, ming bittasin berdi.

Mastdek qolmadi qarorim,
Yor qo'lda, ketdi ixtiyorim.

Qaynadi, jo'sh urdi tanimda qon,
Nido chekdi shunda ofati jon.

2230 Dedi: "Bo'saga qanoat qil,
Bu oqshom bo'yla sabru toqat qil.

Bundan oshar esa, ravo ermas,
Yaxshidir do'stki, bevafo ermas.

To mastu sarmastsen, oshuftahol,
Yor zulfin o'ynat, bo'sa ol.

Haddin oshib, hadga etolmassen,
Hirsing jilovin tutolmassen.

Kanizlarim borki, husn mohi,
Ushshoq shomining sahargohi.

2235 Qay birin xushlasang, ishorat et,
Qondir istagingni, rohat et.

Amr ayla, keltiray ra'nosini,
Sarvqad, gulyuz, ko'zi shahlosini.

To xizmatingga belni boylasin,
Tuningni charog'on aylasin.

Dilbarlik yetsin senga, dildorlik.
Kelindek kuyovga parastdorlik.¹⁰¹

¹⁰¹ Parastdorlik – mehribonlik.

Olovingni pasaytirsin sanam,
Suv qolsin bizning ariqqa ham.

2240

Ertasi gar istarsen boshqa gul,
Buyur, xizmatingga hozir ul.

Har kecha bir guhar bergaymen,
Qay biri ko'ngling xush etar, bergaymen".

So'zikim chun oxiriga yetdi,
Munis boqib, mehribonlik yetdi.

Kanizlariga soldi xush nazar,
Birisi ko'ngliga yoqdi magar.

Chaqirdi, menga ro'baro' aylab,
Ol, dedi, berdim senga saylab.

2245

O'shal oy qo'limdin tutdi hamon,
Men boqib husniga edim hayron.

Yuzi gul, la'li shakkarin erdi,
Ajab bir sho'xu nozanin erdi.

Men ortda yurib, u oldinda,
Zulfu hindu xoliga edim banda.

To yetishdik xobgoh xonaga ul,
U tislandi, berdi menga yo'l.

Qasrda xos xona erdi, kirdim,
Ko'z tashlab, zebu ziynatin ko'rdim.

2250

Bir chekkada to'shak erdi baland,
Atrofida pardayi parand.¹⁰²

Shamlar har yonda parpiroq yulduz,
Har narsa yoqutsozu anbarso'z.

Bolishga bosh qo'yib, yotdik to'shakka,
Jon jonga qovushdi, yurak yurakka.

Edi qo'ynimda chun xirmani gul,
Nozigu muattaru oqu qizil.

Muhrlangan sadafdi tashqaridin,
Muhrini oldim uning gavharidin.

2255

Tonggacha nozlanib sho'xu dilbarim,
Mushku anbarga to'ldi bistarim.¹⁰³

Saharlab qush kabi o'rnidan turdi,
Issiq suv tadorigin ko'rdi.

G'uslga suv hozirladi iliq,
Gavhardek qizilu zardek sariq.

Gul suvidin badanimni yuvdim,
O'zimni gul kabi tiniq tuydim.

Tashqariga chiqib ko'rdim shu onda,
Necha yulduz edi osmonda.

¹⁰² Parand – harir.

¹⁰³ Bistar – to'shak.

2260

Keyin bir xoli go'sha sayladim,
Yaratganga shukrona ayladim.

Qasr ahli, bor sarvqomati
Ketdilar, bir kimsa qolmadi.

Maysazor, chashma bo'yida ongoh,
Za'far guldek o'zim qoldim tanho.

May xumori azobini tortdim,
Quruq tuproqqa bosh qo'yib yotdim.

Yotdim tongdin shomgacha osuda,
Baxt bedor erdiyu jon uyquda.

2265

Tun ohusi mushk nofasin ochdi,
Samo sadaf bo'lib guhar sochdi.

Bosh ko'tardim, uyqudin turdim,
Suv bo'yiga borib, o'ltirdim.

Bulut birlan yel keldi beqaror,
Dur sepdiyu sochdi atru ufor.

Yel supurar, bulut to'kardi,
U suman, bu binafsha ekardi.

Maysazor uzra anbarin parda,
Gul suvi oqardi ariqlarda.

2270

Go'zallar kelishdi yana ishratsoz,
Osmon bo'ldi boz qo'g'irchoqboz.

Taxt keltirdilar taxtayi zardın,
Taxt yopinçig'i durru gavhardın.

Taxt poyasin ko'tardilar baland,
Ustiga parda tortdilar, parand.

Bazm yasatdilar chun sultoniy,
Zaru zevari erdi nuroniy.

Jahonda qiyomat qo'pdi to'satdin,
Jamoat kelardi chapu rostdin.

2275 O'rtada kelardi ul guli ra'no,
Oshiqlar boshiga solib savdo.

Chiqib taxt uzra qaror topdi,
Taxt andin rangi navbahor topdi.

Buyurdi, har taraf chopgaylar,
Ki men musofirni topgaylar.

Bordim, taxtga o'tqazib yana,
Etdi avvalgidek rasmu tantana.

Yana avvalgidek sufra, taom,
Avvalgidek izzatu ehtiram.

2280 Ko'ngillarni zavqu surur quchdi,
Har kim istagancha edi, ichdi.

Changu rud navozish ayladi,
Xonandalar xonish ayladi.

Soqiy may quyib, uzatib necha,
Ishq bezorin qizitdi ancha.

Yetdi boshga nishoti sarmastlik,
Ishqu boda etishdi hamdastlik.

Turkinoz rahm oshkoro etdi,
Quliga mehru madoro etdi.

2285

Rag'bati bor edi, silab-siypasam,
Zulfin o'ynab, labini tishlasam.

Ishorat ayladi kanizlarga ul.
Bizni xoli qo'ydilar butkul.

Men erdimu yor erdi shul zamon,
Ko'pirdi, miyamga urdi qon.

Qo'l cho'zdim zulfiga, kamarbandiga.
Tortdim parivashni bag'rimga.

Dedi: "Hoy, beqarorlik etma,
Ahdu paymonimiz unutma.

2290

Qanoat aylasang shakkaru qandga,
Muyassar bo'lgusi bo'salar senga.

Kishi qanoat birla shod bo'lur,
Oqibat muhtashamnihod bo'lur.

Orzuga yetmakka oshiqsa faqat,
Faqirlikka tushgay ul oqibat".

Yolbordim: "Chorasin et, dilbarim,
Bardoshim bitdi, qolmadi sabrim.

Zulfi zanjiring tundeq qaro,
O'sha zanjiringga men muftalo!

2295

Eshikka zanjir sol, jonim haloki
Jununim boshimdin oshmasin toki".

Tun oxirga etib, saboh ochdi yuz,
Bahsimiz oxirga yetmadi hanuz.

Dedim: "Jonni sendin tutmasmen darig',
Mana, senga boshim, mana, senga tig'!

O'jarlikdin muddao ne ul?
Bulut yig'lamasa, kulgaymu gul?

Suvdin esang, men izlaguvchi suv,
Tuproq esang, suvmen, qo'lingni yuv.

2300

Tashnaga gul berding, oshnadir,
Suv bergil ungakim, tashnadir.

Suv bermasang, mayli, baqoying bo'lsin,
Suvim sadqayi xoki poying bo'lsin!

Xokiyki ul suvga parvona erdi,
Chanqadi, shu azobda jon berdi.

Xokiyini o'rtama tashnalik ila,
Tashnaga qatradin navozish ayla.

O'ylakim bir xurmo tuproqqa tushmish,
Igna harir matoh o'rtasin teshmish.

2305 Shundan ortiq esa ish, turgaymen,
Orzuni tuproqqa qorgaymen.

Qush kelib qo'ngayu uchgay shitob,
Na six kuygay bunda, na kabob".

Dedi: "Ko'ngling shod et, tutmagil g'ashda,
Shabdez na'lini qo'y, tursin otashda.

Bir kecha kechsang shu xayoldin, netar,
Sham'i jovidondin shu'lalar etar.

Chashmani qatraga alishma hamon,
Bu nishdir joningga, u no'shdir tamom.

2310 Eshikni tambala, keyin bilgaysen,
Bir yil shodu xurram kulgaysen.

Bo'sa olginu sochlarim sila,
Kanizaklar ila nard o'yna.

Bog'ing bor, bas, yuzingni burmagil,
Qushing bor, qush sutin surmagil.

Komi dil bor, komronlik ham,
Xiyonat sori qo'ymagil qadam.

Sabru bardosh ila murodingga yet,
Kechagi kun yetgan amalingga yet.

2315

Bu poyadinki qachon tushgaymen,
Kech bo'lsa ham qo'lingga tushgaymen.

Baliqni hovuzda tutarsen shu on,
Oyni ovlamog'ing emas oson".

Ko'rdim, osonlikcha kechmas o'yin.
O'zni bosiq, sipo tutdim keyin.

Labidin shakkardek bo'salar so'rdim,
Ro'zani ochmoqni orqaga surdim.

Noz etsa, may ichib, rohat aylabon,
Kutardim sabru toqat aylabon.

2320

Ammo bitdi yana toqatu tob,
Rag'batim oshirdi bo'sayu sharob.

Ko'rdi bu holimni turkidilkashim,
Lovullab yonganin tanda otashim.

Buyurdi bir sarvi sanamga ul,
Borgil, dedi, buning otashin so'ndir.

Yor erdi, alhaq, dil istaguvchi,
Har narsani mo'tadil istaguvchi.

Xushdil ulki, bo'lsa chunon yori,
Yonida chun anisu g'amxori.

2325

Bordim o'shal tunki ul odat edi.
Komi dilim yana ziyodat edi.

Tonggacha qand yedim, dilxush bo'ldim,
Ul parivash-la hamog'ush bo'ldim.

Kun kiydirdi ko'kka to'nning tozasin,
Tun qo'ldin tushirdi bo'yoq ko'zasin.

Bo'yoqlari to'kildi, qo'ldin ketdi,
Tarqalib, tunni ul tark etdi.

Istadim farahli tunim kelsa boz,
May sunsa menga tirozlik sarvinoz.

2330 Zulfini belimga kamar aylasam,
Jonimga mehrin barobar aylasam.

Gahi la'lidin shakar totsam,
Gahi gul yuzidin asal totsam.

Tun keldi, bas, bari muhayyo bo'ldi.
Masnadim ul avji Surayyo bo'ldi.

Gahi soz tinglabon, goh sipqorib may,
Tunlarim aysh ichra kechdi paydar-pay.

Tun avvalida ulfatim nur erdi,
Tun oxirida rohatim hur erdi.

2335 Kunduz bog' kezardim, kecha bihisht.
Tuproq mushkinu xona zarrin g'isht,

Erdim xushdillar diyoriga shoh,
Kunduz quyosh, kecha yonimda moh.

Har neki istadim, komimga yetdim.
Rohatda maromimga yetdim.

Gar ne'matga yetmadim shukron,
Ne'matim osha berdi chunon.

Sipqarib aysh aro bodani.
Istadim ziyoddin ziyodani.

2340 Oy samoda to'ldi o'ttizga to,
Tun jahon ustiga chekdi qaro.

Ko'k saroyidin sochib shu'la,
Oy zulfin taradi noz ila.

Shamol birla kelib bulut karvoni,
Top-toza etmishdi har yonni.

Bir sho'rish boz jahonga tushdi,
Bongi zavar falakka tutashdi.

Yana kanizaklar saf chekib qator,
Qo'llarda olmayu siynalarda nor,

2345 Keldilaru taxt o'rnatdilar,
Davra olib, sham'dek qotdilar.

Keldi ul oy, oftobnishon,
Sunbul zulfi anbarafshon.

Oldi-ortida yoniq sham'lar,
Husnu viqor ila bosib qadamlar.

Sochib necha minglab ziynatu noz,
Bazmgoh boshida o'ltirdi boz.

Mutriblar band bo'lib yana xonishga,
Parda yirtguvchilar tushdilar ishga.

2350 Soqiylar mayi arg'uvoniyrang,
Quyarkan, jo'r bo'ldi rubobu chang.

Nozaninlar shohi buyurdi shu on,
Mening harifimni toping deb hamon.

Meni izlab, yelib-yugurdilar,
Topib, ul pariga keltirdilar.

Meni ko'rgach, ul dilrabo turdi,
Yonidin joy berib, so'ng o'ltirdi.

Xizmatin etib, o'ltirdim shod,
O'tgan orzularim ayladim yod.

2355 Sufra yozdilar yana o'shal tartib,
Taomlar tortildi turfa, ajib.

Tanovul qildilar, tatib tuzni,
Jomi may ravshan etdi majlisni.

Soqiy qo'lidin qo'ymadi jomiy,
Durafshon etdi ul sadaflar komin.

Men bo'lib yana volayu mast,
Zulfini ilkimga ayladim payvast.

Devonaligim uzib yana arqon,
Meni arqonga soldi shu zamon.

2360 O'rgimchak bo'ldim go'yo shu kecha,
Arqonbozlikni o'rgandim necha.

Arpa ko'rgan eshakka o'xshardim,
Hilol ko'rgan kasal kabi erdim.

Qo'rqa-pisa, o'g'ridck topib yo'l,
Kamarbandiga uzatdim qo'l.

Silab-siypadim kumush tanini,
Kumush tan beqaror etdi meni.

Malaksiymo haroratim tuydi,
Qo'lim ustiga ul qo'lin qo'ydi.

2365 Tutib qo'limni o'pdi ul pari,
To qo'lim tortgaymen ganjdin nari.

Dedi: "Yopiq xazina bu, tegma,
Qo'ling uzun aylab, boshing egma.

Bu ganjina muhrin buzolmaysan,
Sabr qil, fursatdin o'zolmaysan.

Xurmo novdasiga itob etma,
Xurmo seningdir, shitob etma.

Boda ich, ortidin kabob kelgay,
Oyni ko'r, so'ngra oftob kelgay".

2370

Dedim: "Ey oftobi gulshanim,
Chashmayi nuru chashmi ravshanim!

Yuzing yashnar bahorda bog' yanglig',
Nechun men so'nmayin charog' yanglig'?

Tashnaga sharbatsen malohatdin,
Nechun sen totma, dersan, sharbatdin?

Yuzing osmonda oydin, anvorin,
Aql devona, chun ko'rdi pari.

Netay, tashnaligim toshirding yana,
Otashimni haddin oshirding yana.

2375

Oy tal'atiga qani sabrim?
Oftob shiddatiga chidarmidim?

Nechuk qo'l cho'zmayin, yonimdasan?
Nechuk g'am chekmayin, jonimdasan?

Zamiy ersang, men ham zamiydinmen,
Pari ersang, odamiydirmen.

Labimni tishlab, kutmagim necha?
Og'iz suvimni yutmagim necha?

Chorasin qil, qurboning ketay,
To bu kecha dil nomiga yetay.

2380

Jonim labimga yetdi shu nafas,
Bo'sa ber, ctmagil sovuq nafas.

Baxtim muruvvating-la bor bo'lur,
Baxti yor kimsa baxtiyor bo'lur.

Sen dersan: g'am yema, yoringmen,
Har ishki aylasang, nigoringmen.

Yukim og'ir kelib, bosdi yelkamni,
Yordam qo'lingni so'z, qutqar meni.

Go'zal ohudirsan, ey gulbadan,
Quyong uyqusiga meni etma band.

2385 Qo'rqaman, shu falak, bo'ri tulkiboz,
Bo'rilik, tulkilik etar og'oz.

Sher bo'lib jonimga panjasin solur,
Qoplondok oyog'i ostiga olur.

Mening orzularim faqat sening-la,
Orzularimni sen haqiqat ayla.

Orzuyim eshigin yopma manlikdin,
O'larmen bu kecha orzumandlikdin.

Ko'tar shu nozimni, shohlar ham magar
Mehmonning nozini ko'tarar har gal.

2390 Toqatim tugadi, boshqa chidam yo'q".
Dedi ul: "Qo'lingga erk berma ortiq,

Nozingni jon ila chekarmen boshdin,
Sen Xalluxdin esang, men ul Habashdin.

Men necha bor mehmon etib aziz,
Sufra yozib, taom berdim laziz.

Sen bu orzuingki, bayon etarsen,
Sabru bardosh etsang, balki yetarsen.

Tikanzor jannatga aylansa bir kun,
Men bu ishga rozi bo'lishim mumkin.

2395 Ud ufori toldin taralgan mahal,
Balki mendin kelur andoq bir amal.

So'ra mendin har neki komingni.
Qo'ygil vale xayoli xomingni.

Yuz sening, lab sening, siyna sening,
O'shal durdan bo'lak xazina sening.

Birgina shu tun emas senda,
Necha ming tunlar bor oldinda.

Taningni xom boda yoqqan ersa ul,
To'lin oydek berarmen kosagul.

2400 Toki parivash-la suhbat tuzgaysen,
Mening etagimdin qo'ling uzgaysen”

Yolg'on so'zlarini uning shu asno
Tingladim, lek amal etmadim aslo.

Sa'y etdim hayoli bo'lishga chindan,
Temirim tez edi, otashin baland.¹⁰⁴

¹⁰⁴ Tez – bu yerda o'tkir ma'nosida.

Baxtim botinimdin dedi: “Ey nodon,
Laysa qar’yat varoi Abbodon!”¹⁰⁵

Men xom banda andoq g’amlikka tushdim,
Ko’proq orzu aylab kamlikka tushdim.

2405

Dedim: “Ey muruvvat aylamas yorim,
Bir yo’la qo’limdin olgan qarorim!

Yuz minglab odamiy shu yo’lda yurdi,
Xazina ko’yida jonini berdi.

Men ersam, oyog’im ostida ganj,
Qo’lim kecharmimidim cheksam-da ranj?

Bir daqiqa o’lurmu ul mumkin,
Zulfingni qo’ysam ilkimdin?

Yo shu taxt uzra sham’imni yoq,
Yo taxtdek tanimga to’rt mixni yoq.

2410

Nat’ uzra raqs ayla qizil guldek,
Yo boshqa nat’ to’sha, qonimni to’k.”¹⁰⁶

Dilu jonimsanu hushu diydam,
Bas, nechuk etarmen sabru chidam?

Murodim ulki, ey go’zal jonon,
Jon bersamu senga, topsam jon.

¹⁰⁵ Abbodondan uzoqroq manzil yo’q (arabcha)

¹⁰⁶ Nat’ – charm to’shak, ustiga tuproq yozib, mahkumning boshini kesishgan.

Kimdir ul ganji roygon olmas,
Jon berib, so'ngra naqdi jon olmas.

Sham kabi shu kecha uzoq yongaymen,
G'amingda misli bor charog' yongaymen.

2415 Yonsam charog' kabi, tirikman, sog',
So'nsam, o'lik kabi siynamda dog'.

Quyosh yoritmasa, nechuk rang bo'lgay?
Odamiyga tiriklik tang bo'lgay!

Istagim yolg'iz kom emas, bilsang,
Bir shirin uyqudir, ravo qilsang.

Aqlim uxloq esa, ne sirdir,
Uyqu va o'lim amali birdir.

Ko'zim yuzingni chunon ko'rmish,
Andoq tush, uyquni qachon ko'rmish?

2420 Rozimen endi olsangam jonim,
Tez bo'lki, tanda qaynadi qonim!"

Tanim burkanib shu dam otashga,
Hamla qildim ul yori mahvashga.

Ganjina eshigin tutdim zud,
To la'lin etgaymen aqiqolud.

His etdi orzu otashim magar,
Yalindi, yolvordi, lek besamar.

Eshik qabzasidin qo'lim olmadim,
U muhlat so'radi, quloq solmadim.

2425 Xazina sening deb qasam ichdi bot,
"Bu kecha umid qil, ertaga murod.

Bu kecha sen umidi ganj etgil,
Erta tunda xazinaga yetgil.

Bir kecha sabr qil, umid ayla, bas,
Bir kecha degani axir yil emas".

U so'ylarkan, men misli xanjar,
Uzmoqchi bo'ldim belidin kamar.

U yolvorib hamon so'ylar edi,
Bir istagimni yuz aylar edi.

2430 Ish oxir-oqibat shunga etdi,
Qo'lim bog'-bandini bo'shatdi.

Shunda devonavorligim ko'rib,
Besabru beqarorligim ko'rib,

Dedi: "Bir lahza yum ko'zingni sen,
Xazina eshigin ochgaymen.

Ochib ul eshikni, bersam quvonch.
Bag'ringga bos meni, ko'zingni och".

Bor edi ko'nglimda umidim,
So'ziga unadim, ko'z yumdim.

2435

Arodin kechdi bir lahza zamon,
Dedi: "Och ko'zingni!" ochdim hamon.

Hamon o'ngu so'lga o'grildim.
Parini bag'ringa bosmoqchi bo'ldim.

Dedimki, yuziga sursam yuzimni,
Ammo savat ichra ko'rdim o'zimni.

Tegramda na er, na ayol erdi,
Hamdamim uvlagan shamol erdi.

Nuridin ayru soya erdim shu chog',
Turktoz edim Turkinozdin yiroq,

2440

Sutunga osig'liq, vasvasa ichra,
Harakatga keldi savat shu palla.

Kelib o'shal do'stim, sehr uchdi zud,
Savatim sutundin erga tushdi zud.

Ulki meni tashlab ketgandi qochib.
Uzru ma'zur aytdi belimdin quchib.

Dedi: "Yuz yil naql etsam-da ahvol,
Ayon bo'lmas edi haqiqati hol.

Borib ko'rding ko'zing-la, ne erdi,
Hikoyating kimga so'ylarsen endi?

2445

Men dag'i unda qiynadim, kuydim
Va ul tazallumdin qaro kiydim".

Dedim: "Ey mendek sitamdidani,
Xohishing menga chun pisanddida!

Men sitamdidani o'ksitma,
Ul qaromi mendin darig' tutma.

Bor, keltir menga ham qaro atlas",
Keltirdi tundeq qaro libos.

Qaro to'nim kiyib, qanotlandim,
Qaro tun erdi, yo'lga otlandim.

2450 Yetdim shahrimga oxiri diltang,
Qarolikdin chekib ustimga rang.

Menki ul shohi qaro to'nlig',
Qaro bulut kabi etib tundlig'.

Puxta orzulardin topdim kom,
Xom orzulardin kechdim tamom".

Chun podshohim muruvvat ayladi,
Menga andoq hikoyat so'yladi.

Kaniz edim, shoh oldida nadim¹⁰⁷
Ul xushlaganni men ham xushladim.

2455 Iskandar-la izlab obi hayot,
Kirdim, sayr etdim qaro zulmat.

¹⁰⁷ Nadim – yaqin suvhatdosh.

Oy porlaydi qaro tun aro,
Shohning chodirin chun eturlar qaro.

Hech rang qarodin yaxshiroq bo'Imas,
Qarodir baliq beli, oq bo'Imas.¹⁰⁸

Yoshlik qaro sochdin erur ravshan,
Ul qarolik bois yuz gulshan.

Qarolik ila ko'z jahon ko'rgay,
Qarolikka qachon g'ubor qo'ngay?

2460 Tun qarolikka yor bo'Imasdi,
To'lin oyga sazovor bo'Imasdi.

Yetti falak ostida yetti rang
Bo'lolmas qaro rangdek qashang".

Hind pari so'yladi, shoh Bahrom
Tingladi bu fasonani tamom.

Ofarinlar dedi go'zalga bot,
Bag'riga bosdi, so'ng uxladi shod.

**Shoh Bahrom yakshanba kuni sariq gumbazli qasrda taxtga
o'ltirgani va ikkinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinglagani**

Tun kechdi aroda, dashtu tog' endi
Tong tarozusidin zarga chulg'andi.

¹⁰⁸ Baliq beli – eng yemishli joyi.

2465

Kun yakshanba edi, shohi jahon
Quyoshdek chodirda bo'ldi nihon.

Zar jomini oldi Jamshiddek,
Zar tojini kiydi xurshiddek.

Yonida sariq guli ra'no edi,
Uzugi qoshi kaxrabo edi.

Sariq gunbaz boshida zarafshon,
Bir quvonchi yuz edi shu on.

Xurramlikda kechirdi kunni shoh,
Hamdani jomi may, sozu navo.

2470

Tun keldi, ko'zida surmayi noz,
Oshiqlarga pardayi xilvatsoz.

Shoh yuzlanib go'zalga shu palla,
Dedi: la'ling novotga juft ayla.

Istadi to navo soz aylasin,
Gunbaz aro xushovoz aylasin.

Shoh farmon aylasa, vojib erur,
Uzru bahonani ko'tarmas ul.

Lab ochdi rumiyliqo, chiniynoz,
Dedi: "Ey shohi Rumu Chinu tarz!

2475

Mamlakat jismida jondirsən,
Gulgun chamanda arg'uvondirsən.

Kimki royingni aylamas qabul,
Boshi oyoqlar ostida qolur”.

Duosin bo‘yin dilbar ayladi,
Nafasin atri majmar ayladi.¹⁰⁹

Afsona

Dedi: “Iroq shaharlari aro
Shahr erdi, shahriyori nodir shoh.

Oftob erdi, olamafro‘z ul,
Navbahor erdi, fasli navro‘z ul.

2480 Bir ajib sohibi hunar erdi,
Har nechuk ishni uddalar erdi.

Mashg‘uloti erdi hunarmandlik,
Jahondin xohishi – xursandlik.

Yulduzlardin ko‘rgandi toleini,
Xotunlardin balo kelmagani.

Uylanmagandi shu xatar bois,
Toq yashardi shu dardisar bois.

Necha muddat yashab chun tanho,
Tanholikni sevdi, xushladi shoh.

2485 Va lekin oqibat chor-nochor,
Yor izladi mehribonu g‘amxor.

¹⁰⁹ Majmar – Mushk-anbar kabi xushbo‘y narsalarni solib tutatiladigan manqal.

Kanizlar oldi necha gulyuz,
Chekdi olganiga so'ng afsus.

Har biri bir hafta o'tmay hamon,
Noxush qiliqlar ayladi ayon.

Da'vo ayladi shohga xotunlik,
Ganjinayi gavharga qorunlik.

Yashardi saroyda bir kampir,
Ablahlar ablahi, shum, mug'ombir.

2490 Har kanizki, shoh etsa xarad,
Uni maqtovlarga ko'mar edi zud.

Atardi nomini mahi tannoz,
Bonuyi Rum yoxud sham'i Tiroz.

Kanizak minardi g'urur otini,
Unutardi rasmi xizmatini.

Ey baso bul-fuzulu bedavo,
Yuqtirar jonlarga kibru havo.

Manjanaqdir. sirti zevaru zeb,
Ishi buzg'unchilik, makru firib!

2495 Suoh necha kanizak olsa-da garchand,
Biriga yetmadi baxtini payvand.

Har safar kanizga mehr ko'rsatdi,
Ko'rdi, mehrsizdir ul sanam, sotdi.

Kanizak sotishda qozondi nom,
Oqibat ulardin yuz burdi tamom.

Zohirda gar bilishardi uni,
Botinda bilmasdi birov dardini.

Izlashdin charchadi, chunki har daf'a
Bemurodlik erdi unga nasiba.

2500 Na bir ayol erdi baxtdin nasib,
Na kaniz topildi, loyiq, munosib.

Turfa tannozlarni ko'rmasam, derdi,
Istagi pokdomon jamila erdi.

Nogoh huzuriga kirib bir mahal
Xabarchisi shohga yetkazdi xabar.

Ki Chin bo'stonidin bir tujjor
Keltirmish ming pari, gulruksor.

Kanizaklarki, mahliqo, sanam,
Xullaxiyisi bor, xitoyi ham.

2505 Bari oychehra, olamafro'zdir,
Mehribondiru shirinso'zdir.

Ular orasida bor bir pari,
Tongotarda yulduz singari.

Teshilmagan durdonadir, uning
Durfurush nazdida narxi jonga teng.

Lablari yoqutdir, yoniq gavhar,
Tili achchig'u kulgusi shakkar.

Kulgusidin shakar to'ksa sanam.
Shirin etgay qaro tuproqni ham.

2510 Agarchi kulgusi ne'matdir,
Xalq uchun oshubi qiyomatdir.

Bir boqishda bo'ldim oshuftahol,
Ul yuzu zulfu xol oldida lol.

Shohim dag'i qo'rsalar, hamon,
Oshufta bo'lurlar begumon".

Shoh buyurdi, kanizlarni shu tob
Keltiring deb qasrimizga shitob.

Keltirdilar, shoh ko'rdi birma-bir,
Surishtirdi, ne bog'ning atridir?

2515 Bari oychehra, dilrabo erdi,
Vale ul pari podsho erdi.

Husnu malohati kun yanglig',
Erdi o'shal aytgandanam ortiq.

Dedi yuzlanib tujjorga shoh:
"Bu kaniz fe'lidin et ogoh.

Gar tushsa unga royu rag'batim,
Berarmen har ne narxi. qiymatin".

Chin tujjori aylab sharhu bayon,
Dedi: "Bu chindanam ofati jon.

2520

Faqat bir aybi bordir, bu go'zal
Aylamas er orzusiga amal.

Ko'rgil oydek jamolin shahriyor,
Bu husnu latofat kimda bor?

Kimki uni sotib olgay, har vaqt
Ertasi menga qaytarur albat.

Xushlamas to'shakda orzu, istakni,
Jonidin to'ydirar erkakni.

Yer magar qistasa zo'rlik aylabon,
O'ziga qasdi jon etgay hamon.

2525

Shundoq, har narsani xushlamas sanam,
Eshitdim xush emas andoq senga ham.

U shundoq, sen mundoq, shu holat ichra
O'rtada so'z qovushgaymi sira?

Bugun olar bo'lsang pul to'lab ortiq,
Ertaga qaytarib berishing aniq.

Yaxshisi, olmagil, undan ko'ngil uz.
Go'zallar bor yana misoli yulduz.

Qay biri aylasa dilingni xushnud,
Uni haramingga jo'natarmen zud".

2530

Shoh ko'rdi necha bir oy chehralarni,
Ko'ngli xushlamadi lekin ularni.

O'shal jon ofati, pari, gulandom,
Asir aylamishdi ko'nglini tamom.

Tang qoldi ne qilarin bilmay,
Bu mushkulga ne chora qilgay?

Ko'ngil uzolmasdi qizdin shahriyor,
Sotib olay desa, andoq aybi bor.

Oqibat ishq ustun keldi, ko'ring,
Podsholik ko'ziga qum sepdi uning.

2535

Qiz poyiga kumush zanjir soldi, bas,
Kumush berib, oldi kumush gunbaz.

Bir orzu eshigiga qulf urdi,
Ilonni o'ldirib, jonni qutqardi.

Haramda yasharkan pari nigor,
Topdi haram sahnida e'tibor.

G'unchadek mehribon erdi, nafis,
Suratda jahldor, siyratda munis.

Shahvat eshigini bekitib mahkam,
Boshqa xizmatlarga shay edi har dam.

2540

Ashyolarni qo'yib joy-joyiga ul,
Saroyni orasta ayladi butkul.

Shoh mahliyo boqsa bo'yi-bastiga,
Soyadek tushardi oyoq ostiga.

Keldi dam solmoqqa ajuza kampir,
Xomni pishirmoqqa, dedi, men hozir.

Qiz bong urib shunda siltadi uni:
"Nega kanizak deb atarsen meni?"

Shoh bu e'tirozdin xulosa qildi,
O'zga kanizaklar dardini bildi.

2545 Ajuzani uydin ayladi badar,
Afsungarga ko'rsatdi andoq hunar.

Shoh nazdida yana qiz bo'ldi aziz,
Shoh qul anga, sohibi erdi kaniz.

Hiylalar etsa-da ul turki ayyor,
Shoh sabr etmoqqa ayladi qaror.

Bir kecha jismu jonga tushdi o't,
Ul ikki mehribonga tushdi o't.

Kanizakda mehru vafo ortdi,
Shohni issiq quchog'iga tortdi.

2550 Qiz qal'asin suv bosdi hamon,
Manjaniq otashi yemirdi tamom.

Shohning vujudini chulg'ab alanga,
Dudi ul nozli gulbadanga:

“Ey hayoti jonim gulshani,
Umrinning rohati, ko‘zim ravshani!

Sarv adodir qomatingga,
Oy asir oy malohatingga!

Sendin bir narsani so‘rayman shu payt,
Javobing rost ayla, to‘g‘risini ayt.

2555 Agar rost so‘zlasang, parivashim,
Qaddu qomatingdek o‘nglanur ishim”.

Qiz qalbini olmoq-chun qo‘lga,
Shakar sepdi ul toza gulga.

Dedi: “Zuhro makon tutgandek Tasdis
O‘ltirardi Sulaymon-la Bilqis.¹¹⁰

Bor edi ularning farzandi,
Qo‘l-oyog‘i shol jigarbandi.

Dedi Bilqis: “Ey Xudoga rasul,
Menu sen soppa-sog‘dirmiz butkul.

2560 Nechun farzandimizda bo‘yla hol,
Qo‘li sholdir, oyog‘i ham shol?

Dardiga davo lozim erur,
Istasa, bir iloji topilur.

¹¹⁰ Tasdis – olti burchak. Zuhroning olti sayyora o‘rtasida makon tutgani muhabbat va baxtiorlik belgisi sanalgan.

Jabroil keltirarkan payg'om,
Bu jihatni anga so'yla tamom.

Haq hazratingdin qaytganda boz,
Lavhi mahfuzdin izlasin roz.

Shoyadki bir ilojini topsa,
Chorasoz bo'lib senga aytsa.

2565 Shoyad bolamiz qutulsa ofatdin,
Bahravar bo'lsa salomatdin..."

Sulaymon bu so'zdin bo'lib mamnun,
Yo'l qarab intizor bo'ldi necha kun.

Jabroil keldi oqibat hamon
Arzu dodin anga yetdi bayon.

Jabroil ketdi, keltirdi javob,
Falaklar Xudovandidin savob.

Dedi: "Ikki narsa davo bo'lgay,
Jahon ul ikkidin safo bo'lgay.

2570 Qachon yoring-la yetarsen suhbat,
O'rtada rost so'zlar aytilsin faqat.

Aytganing har so'zing ersa haqu rost,
Bolang xastalikdin topgay xalos.

Sulaymon chorladi hamon Bilqisni,
So'yladi Jabroil so'ylagan so'zni.

Bilqis eshitarkan, g'oyat sevindi,
Dediki, o'g'limiz sog'ayar endi.

Dedi yana: "So'rgil ne istasang to,
Rostini aytamen bahaqqi Xudo!"

2575

Savol aylab shunda Sulaymon rasul,
Dedi: "Ey jamoling ko'zlarimga nur!

Hargiz shu jahonda o'ynab shahvating,
Mendin boshqaga bo'lganmi rag'bating?"

Bilqis dedi: "Ey chehrasi gulshan,
Nur chashmasidin o'zing ravshan!

Go'zal, navqironsen, o'ktam, dilovar,
Podshosen, bosh egar barcha barobar.

So'zing xush, yuzing xush, labingda xanda,
Bazming ravza, o'zing rizvonsen unda.

2580

Mulking beadaddir, oshkoru nihon,
Payg'ambarligingga tan bermish jahon.

Bo'yla ko'rku navqironliging birla,
Podsholigu komronliging birla.

Men nechun o'zgani tutay manzur?
Bilqisga bu kufri qabohatdir!"

Nogiron bola bu so'zni tinglabon,
U tomonga qo'lin cho'zdi hamon.

Dedi: "Ey ona, xalos topdim,
Yo`qotgan qo`limni boz topdim!"

2585

Ko`rdi ko`zi yashnab ul go`zal pari,
Sog`aygan erdi o`g`lining qo`llari.

Dedi: "Ey devu pari peshvosi,
Hunar bo`stonisen, aql daryosi.

Bolang intizordir, gal senga,
Men qo`l berdim, oyoq bergil anga.

Bir savol so`rayman, chekma ranj,
Izmingda bir jahon xazinayu ganj.

Shundoq bo`lsa hamki, ey olamafro`z,
Birovning moliga tikkanmisen ko`z?"

2590

Dedi payg`ambari xudoyparast:
"Biz kabi davlatmand bo`lganmi bir kas?"

Mulku molu xazinam bor muncha,
Miqdori erdin osmongacha.

Shuncha molu mulku davlat bilan, hay,
Kimki huzurimga salomga kelgay.

Qo`liga qaraymen ne keltirdi deb,
Nechuk bir sovg`ani menga ko`rdi ep?"

Qachonki bu so`zlar etdi quloqqa,
Bola sog`lom bo`lib turdi oyoqqa.

2595

Dedi: "Ota, oyog'im soppa-sog',
Rost aytganing davvo bo'ldi mundoq!"

Rost aytili, balo yo'qoldi,
Qo'ldin dard, oyoqdin ofatni oldi.

Kosh bizga ham yuksa shu tavri,
O'q otganda nishonni olsak to'g'ri.

Ey, mehribon yo'q sendin ortiq,
Ne sabab bo'ldiki, mehning sovuq?

Mening jismim kuyib, jonim yonar,
Yiroqdin senga tashlasam nazar.

2600

Senki chun ra'nosen, pari yuzlik,
Qaydin keldi senga mehrsizlik?

Tinglabon sarvi nozanin shu tob,
Savolga haqqu rost berdi javob.

Dedi: "Naslimiz gar asldir, xo'b,
Bir xislati borkim, sinalmish ko'p.

Erga ko'ngil qo'yish ayolga vahim,
Bola tug'ar-da, jon yetar taslim.

Har ayolki har gal tug'ib, o'lgay,
Bas, erga netib ko'ngil bergay?

2605

Orzu deb jon bermoqmi ravo?
Og'uli asalni yemaslar aslo.

Azizdir shu jonim men uchun,
Uni xatarga qo'ygaymen nechun?

Men jondo'stmen, na jonondo'st,
Aybimni ochdim senga archib po'st.

Sufradin yopinchiqni chekdim bot,
Istasang, saqla, istasang, sot.

Sirrimni zarra pinhon etmadim,
Aytdim barini, bekitmadim.

2610 Istardimki, shahriyori jahon
Ayon etsa holin, tutmasa nihon.

Kanizaklarni chun oftobjamol
Suhbati nechun kelur shohga malol?

Uni xushlaganni xushlamas nega?
Avval xush, so'ngra xush kelmas anga.

Charog'dek navozish etib avval.
Boshin kesar sham' kabi bir mahal?

Falakka ko'tarur tutib nuqlu noz,
Keyin haqir aylab, yerga urar boz?"

2615 Shoh dedi: "Ularga chidamam ortiq,
Ki tutgay mchrini mendin darig'!

Ularkim menga chun mehmon bo'ldilar,
Avvalda yaxshi, so'ng yomon bo'ldilar.

Dilni rohatga etdilar oshno,
Ranji xizmatdin qochdilar ammo.

Xotunga hazir bo'l, misli somon,
Shamol qayga sursa, uchar ul tomon.

Xotun zar o'lhagich tarozu magar,
Tariqcha zar ko'rsa, boshini egar.

2620

Anor nor donalar ila to'lur,
Pishgani la'ldiru pishmagani dur.

Xotun uzum, bolasi begunoh,
Xomi yashil, pishig'i yuz qaro.

Xotinning qismati eriga husn,
Hamisha oy ila chiroylidir tun.

Kanizaklarda men ko'rmadim ixlos,
Yasan-tusan erur ishlari, xolos.

Faqat senda ko'rdim halol xizmatni.
Har zamon oshirding unda g'ayratni.

2625

Vasling garchi menga etishmas orzu,
Turolmasmen sendin bir lahza ayru.

Shoh yana keltirdi necha ta'bir,
Valekin go'zalga yctmadi ta'sir.

Otgan o'qi nishonga tegmadi,
Parivash shohga bosh egmadi.

Shoh insofga keltirolmay uni,
Tortar edi mashaqqat yukini.

Suv bo'yida suvga chanqoqdi,
Sabrdin o'zga chorasi yo'qdi.

2630

Jodugar kampirki, uni bir yo'la
Saroydin quvmishdi parichehra.

Eshitdi shohning mushkul holini,
Orzu yo'lida tang ahvolini,

Niholdek bir go'zal oldida shu on
Ojiz qolmishdi shohi pahlavon.

Ajuza dedi: "Bas. fursati keldi,
Parini o'yinga solarmen endi.

Quyoshning beshigin sarob etarmen,
Oy qal'asin buzib, xarob etarmen.

2635

O'q otsalar, boshimni ul egmagay.
Qaddim kamoniga kelib tegmagay..."

Bordi, afsungarona so'z otdi,
Shohni bir chekkaga, xilvatga tortdi.

Tingladi shohi jahonafro'z,
Aytdi ajuzi pandi piromo'z.

Dedi: "Minmoq esang asov otni,
Oldida egarla yuvosh otni.

Yuvosh otingni ikki-uch lahza
Uning ko'z o'ngida silab-siypa.

2640 Roizlar chun asovni rom aylab,¹¹¹
Mingaylar bo'yniga lijom tashlab".

Shohga bu firib xush keldi,
Shu qolipda g'isht quyari bo'ldi.

Sotib oldi bir dilrabo ajab,
Gul yuzli erdi, sho'xu no'shlab.

Murabbiydin olgan edi ta'lim,
Nozu g'amzada o'zi muallim.

Shohga nozu tamanno aylardi,
Yuz usulda o'yinlar o'ynardi.

2645 Iltifot etardi shoh anga,
Mehr izhor etib har goh anga.

May icharkan, asov hamdam edi,
Ehtiyoj chog'i yuvosh mahram edi.

Unga hamdam esa, g'ami oshardi,
Bunga mahram bo'lib, gavhar teshardi.

O'zgardi oqibat qizning holati,
Gavhar teshdirmoqqa oshdi rag'bat.

¹¹¹Roizlar – minilmagan otni minishga o'rgatuvchi.

Garchi g'ashi keldi shoh ravtoriga,
Rashk g'ubori qo'ndi gul ruxsoriga.

2650

Bandalik rohu rasmin tark etmadi,
Bu chiziqdin qilsa nari o'tmadi.

Bu nechuk hol deya etardi gumon,
Kampir tandiridin chiqmishdi to'fon.

Bosiq bo'lib, sabr ayladi qanchalar,
Lek bu yo'lda sabrdin yo'qdi samar.

Bir kecha xilvatda humoyunchehr
Shohga izhor yetib yurakdin mehr.

Dedi: "Ey podshohi farishta nihod,
Davringda yashnadi base dinu dod!"¹¹²

2655

Hamisha rostgo'ysen, rost nazar,
Rostliging menga ham et muyassar.

Garchi har kundin istayurmiz kom,
Avvali tong uning, oxiri shom.

Ko'rmasin kunduzing zavol hargiz,
Tuning visol tuni bo'lsin yolg'iz.

Subhidamda sharbat sunib menga,
Shomda ich deb sirka tutarsen nega?

¹¹²Dod – bu yerda adolat ma'nosida.

2660

Hali ichib ulgurmayin ani,
Tashlarsen sher oyog'iga meni?

G'amu g'ussadin bo'lsin deb ado,
Ko'z o'ngimda tutarsen ajdaho.

Ilonga chaqtirmay meni avval,
O'zing o'ldirganing emasmi afzal?

Bu yo'lga kim seni savor etmish,
Bu o'yinni senga kim o'rgatmish?

Xabar ber, chunki bexabardirmen.
Ucharmen yo'qsa, tezpardirmen.

Xudoyimga qasam, joningga ham
Shu sirdin meni ogoh aylasang,

2665

Guhar ganji qulfini ochgaymen,
Shohim iqboliga sochgaymen".

Shoh qizning qasamin eshitdi,
Ahdu paymoniga e'timod etdi.

Ochdi sir kitobi sahifasini,
Yashirmadi, aytdi hammasini.

Visoling orzusida yondim, dedi,
Jonimga o't tushib, o'rtandim dedi.

Tugadi toqatim, qolmadi qaror,
Uchdi boshdin hushim, ketdi ixtiyor.

2670

Kampir kelib, dardimga etdi davo,
Jonim anga ayladi maylu havo.

Makru hiyladin saboq berdi,
Barchasi chin emas, o'yin erdi.

Zora rashk otashi seni yoqsa,
Andin yuraging bir oz muloyim tortsa,

Suvni isitguvchi olovdir har dam,
O't yoqmasa, yumshamas temir ham.

Bemoru xastamen ko'yingda sening,
Visolingdir doru-davoyim mening.

2675

Muhabbatingdin erdi dilda o't,
Kampir kelib, aroga soldi dud.

Rost turding qarshimda shamsimon.
Kampir ham, tutun ham ketdi hamon.

Quyoshim hamaldin yuz ochdi shod,
Bardul-ajuzni etarmidim yod?¹¹³

Shoh ochdi boz durri mahzanin,
Noz etib tingladi nozanin.

Parivash ko'rdi, hol bu erdi,
Sarvi savsan bo'yga yo'l berdi.

¹¹³Bardul-ajuz – qishning so'nggi oyi sovug'i.

2680

Bulbul g'uncha uzra qo'ndi, bas,
Gul ochildi, bulbul bo'ldi mast.

To'ti ko'rdi, sufrada shakkar mo'l,
Ayladi shakkarafshonlik ul.

Baliqni otdi suvga tomon,
Xurmoni botirdi sutga hamon.

Shirin erdi lutfu ehsoni,
Yana shirin ayladi xurmoni.

Shoh naqshin siypab atlas parchanin?
Zar qulfin ochdi sandiqchanning.

2685

Ganjina ko'rdi zar bilan to'la,
Atrofin o'radi zebu zar ila.

Sariqlik shodligi shavqi ham andin,
Za'faron halvoning zavqi ham andin.

Za'faron demakim, ofiyat unda,
Uni yeganlarning yuzida xanda.

Sham' sariq shu'ladin niqob tortmish,
Shu rangdin Muso ham baho topmish.

Zar sariqdir, moyayi tarab,
Sariq gul azizdir ul sabab...

2690

Shahbonu dostonin tamom etdi,
Shoh quchdi parini, uyquga ketdi.

Shoh Bahrom dushanba kuni yashil gumbazli qasrda taxtga
o'ltirgani va uchinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinlagani

Kun endi dushanba edi, ongoh
Yashil chodir tikdi boshiga shoh.

Har yonda yondi yashil charog',
Yashil chiroy ochib, yashnadi bog'.

Shoh gunbaz ostida taxt qurdi,
Ko'ngilni zavqu shavqqa topshirdi.

Ul yashillik uzra zumurradvor
Bog'i anjumandin erdi bargi bahor.

2695

Shoh solib sarvisanobarga nazar,
Shirin dudoqdin istadi shakar.

Chun ado etmishdi pari namoz,
Yuzlandi, Sulaymonga ochdi roz.

Dedi: "Ey shu jonim adoying sening,
Jumla jonlar bo'lsin fidoying sening!"

Xonayi davlatdir shu xirgohing,
Ostonu toju taxtdir dargohing!

Tojga sarbalandlik boshingdin,
Baxt o'rgilib, ketolmas qoshingdin.

2700

Gavharing mamlakat iqtiga toj,
Hama olam, shohim, senga muhtoj", -

Deb duo qildi ul parichehra,
Lab ochdi ajib afsonaga so'ngra.

Afsona

Dedi: "Rumda yashardi bir kamol,
Xubu xushdil, andoqki mum ila bol.

Olamda ersa nechakim hunar,
Barida erdi sohibi samar.

Tiynatida asl xiradmandlik,
Maylida erdi pokpayvandlikk.

2705 Mardum izzu ehtirom etardi,
Bushri parhezlar atardi.

Yo'lda ohista yurguvchi zot,
Baland-pastga bo'lib ul ehtiyot.

Bir kuni yo'lida bo'lib paydo,
Chovut soldi ishq ahliga nogoh.

Yo'l uzra ko'rdi bir sohibjamol,
Qaro bulut ichra to'lin oy misol.

Bushmi ko'rmasdin ketardi go'zal,
Yel niqobin ko'tardi bir mahal.

2710 El fitnaga rahnamun bo'ldi,
Oy bulut ostidin chiqib keldi.

Bushr yurar yo'lida tosh qotdi,
Bir o'q keldiyu bag'riga botdi.

Surat ko`rdi, ul karashmayi mast
Yuz ming tavbaga berardi shikast.

Gul xirmani, qaddi sarv yanglig`,
Yuzi tazarov qoni birla yuvuq.

Noz-g`amzasi schrkor erdi chun,
Etardi yuz ming oshiqni tutqun.

2715 Labi gul bargidek muattar erdi,
Gul bargi uzra shakar erdi.

Ko`zi nargis kabi uyquli, xumor,
Fitnasi uyqusiz erdi, hushyor.

Qaro zulfi aro chehrasi chunon,
Lochin qanoti ostida qushsimon.

Xoli zulfidin anbarafshonroq,
Ko`zi xolidin nomusulmonroq.

Zulfiyu xoli oldida shu tob
Ko`ngil berolmasdi toqatu tob.

2720 Bushr beixtiyor oh chekdi qaqshab,
Sunnati qilingan bolaga o`xshab.

Parivash eshitib, hayratda qoldi,
Oshiqib burqasin boshiga soldi.

Qadamin tezlatdi, qochdi uyiga,
Birovning qonini oldi bo`yniga.

Bushr boqib uning ortidin to'g'ri,
Ko'rdiki, uyini talamish o'g'ri...

Dedi: "Noravodir izidin borsam,
Sabr etsam, qani sabru chidam?"

2725 Har mushkulga chora – sabr etmoqlik,
Undan nari o'tish esa, axmoqlik.

Shahvat yo'ldin urib, yemirsa sabr,
Erkakmen, g'am chekib o'lmasmen, axir!

Tarki shahvat nishoni din bo'lgay,
Parhezkorlik so'ngra chin bo'lgay.

Yaxshisi, tadorik ko'rib tez,
Baytulmuqaddasga bursam yuz,

Xudoyim arzu dodimga etar,
Mushkulimni o'zi oson etar..."

2730 Bordi, tadorigin aylab o'ng,
Ziyoratgoh sari yurdi so'ng.

Yetdi, yuragida umidu bim,¹¹⁴
Etdi o'zni Xudovandga taslim.

To shayton qutqusidin qutqargay,
Boshidin fitnani nari surgay.

Sajdalar qildi yerga bosh urib.
Qaytdi ziyoratgohdin pok bo'lib.

¹¹⁴ Bim – qo'rquv.

Yo'lida erdi bir kishi hamroh,
Zohirda xayrxoh, vale badxoh.

2735

Aybjo'y erdi ul, xato izlardi,
Har so'zdin ming yomon ma'no izlardi.

Bushr har to'g'rida so'zlashdi bir oz,
Har so'zga etardi achchiq e'tiroz.

Undoq emas, bundoq derdi Bushrga,
Nega bu yolg'onni olursen tilga?

Bushr shunda tamom jim qoldi, xomush,
Go'yo aylamishdi uni faromush.

Shu payt so'rab qoldi noming nima deb,
Chaqirgaymen, dedi, ismingni aytib.

2740

Javob aytab dedi: "Nomim Bushr,
Ne nomda chaqirsang menga qabul".

Dedi: "Bushr, odamiysen yomon,
Men Maliho, olam ahliga imom.

Har neki bor osmonu zamiy ichra,¹¹⁵
Ne asror ahli odamiy ichra,

Aqlim kamolidin butkul bilurmen,
Ne halol, ne harom, ogoh erurmen.

Bir tanim afzaldir o'n ikki tandin,
Bir fanim ustundir o'n ikki fandin.

¹¹⁵ Zamiy – zamin.

2745

Dashtu daryo, tog'u o'rmonu bulut,
Shu falak ostida har neki mavjud.

Birma-bir bilurmen barini, illo,
U qayoqdin kelmish, bu qaydin paydo.

Shu falak ichrakim sir-asror talay,
Bilurmen barini ilkim tegizmay.

Atrof-tevarakda ne xavf, ne xatar,
Ko'rarmen bir bora solganda nazar.

Qay bir podsholikka etishgay zavol,
Aytarmen kam emas, ellik yil avval.

2750

Ketsa qut-baraka bir dona dondin,
Bir yil avval xabar bergaymen ondin.

Tomir tutib, so'ngra tashxis qo'yib rost,
Tanni haroratdin yetarmen xalos.

Bir afsun-la o'tni na'l aylagaymen,
Kahraboni gavhar, la'l aylagaymen.

Tosh iksirimdin guhar bo'lgay,
Tuproq olsam, kaftimda zar bo'lgay.

Ufursam, nafasim sehr etib hamon.
Kandir ipni aylar chipor ilon.

2755

Koni ganj yaratmish har joyda Xudoy,
Men uni ochguvchi, tilsimkushoy.

Ne savol so'rsalar osmon, zamindan,
Xabar bergaymen undanu bundan.

Jahonda kam emasdir donishobod,¹¹⁶
Hech biri ko'rmamish men kabi ustod".

U maqtanib tag'in, lof urdi qancha,
Bushr tiyra tortib, zerikdi ancha.

Tog' ortidin bulut qalqdi qaro,
Maliho ko'z tashlab bulutga nogoh.

2760 Dedi: "Bulut nechun qarodir mundoq,
Boshqasi qaromas, sut kabi oppoq?"

Bushr dedi: "Bu hukmi yazdoniy,
Yaratgandin qazoyi osmoniy".

Maliho dedi: "Qo'y, bahona etma,
O'q ersa, nishon borligin unutma.

Qaro bulut tutundin oziqdir,
Bu nuqta aqlga muvofiqdir.

Bulutki, sut kabi oppoq, beg'ubor,
Mijozida suv bor, rutubat bor".

2765 Shu payt qo'zg'alib, sabo esdi,
Qarang yana bulfuzul ne dedi:

"Aytgil saboni qo'zg'atgan nima?
Ho'kiz yo eshshakdek sukut aylama".

¹¹⁶ Donishobod – maktab, ilmgoh.

Bushr dedi: "Bu ham qazoyi Xudo,
Xudo amr etmasa, qo'zg'almas sabo".

Maliho dedi: "Hikmat sori cho'z qo'l,
Aytganing kampirning cho'pchagidir ul.

El-sabo havodin tug'ilar har on,
Erning bug'i uni eldirar har yon".

2770

Baland toqqa boqib dedi: "Ne sabab
Boshqalardin ketmish cho'qqi balandlab?"

Bushr dedi: "Sabab Eziddir beshak,
Birin past etmish, birini yuksak".

Dedi: "Dadil bilan so'zlasang-chi, hay,
Naqshni qalamga boylarsen tokay?"

Bulutdin sharroslab yerga yetar sel,
Tog'u toshni buzib, vayron etar sel.

Cho'qqikim yuksalib turgay balandda,
Selning ofatidin yiroqdir unda".

2775

Bushr qichqirdi: "Lofu qof urma ko'p!
Xudoning hukmiga shak keltirma ko'p!

O'ylamaki, sirdan yiroqdirmen,
Ilmda sendin yaxshiroqdirmen!

Bilimdonlar "men" deb dam urmaslar,
Yo'lni xayol ila supurmaslar.

Biz parda ichra yo'lni bilmasmiz,
O'qirmiz tashqi naqshini yolg'iz.

Yanglish qadamda ijtihod yo'qdir,
Yanglish o'qishga e'timod yo'qdir.

2780 Qachonkim pardani qazo surgay,
Xatokor xato o'yin ko'rgay.

Kibru havoga to'ldirib ko'ngilni,
Odam bu daraxtga cho'zmasin qo'lni".

Gar Bushr uqdirdi necha ul,
Bulfuzul bo'lib qoldi bulfuzul.¹¹⁷

Necha kun yurdilar yana hamroh,
Vaysaqiligin ul qo'ymadi aslo.

Issiq biyobonda tashna qolib,
Uyqusizlikdin boshlar aylanib,

2785 Yugurdilar chekib zoru nafir.¹¹⁸
Yaxshi bir manzilga yetdilar oxir.

Bir daraxt erdi, yashil butoq,
Balandu bag'ri keng, seryaproq.

Ostida ko'katlar harir sifat,
Baxsh etardi ko'zlarga rohat.

¹¹⁷ Bulfuzul – behuda gapiruvchi vaysaqi.

¹¹⁸ Nafir – faryod.

Koʻrdilar yana, xum edi, safol,
Ichida limmo-lim obi zilol.

Bulfuzul koʻrarkan safol xumni,
Ichida lim toʻla shirin suvni.

2790 Dedi Bushrga: “Ey xujasta rafiq,
Javobing ne boʻlur, soʻyla, ne tariyq.

Bu safolin xumni bu erda qumga,
To ogʻziga qadar koʻmmishlar nega?

Atrofi togʻ emas, dashtu biyobon,
Chashma yo quduqdin koʻrinmas nishon?”

Bushr dedi: “Tashna insonlarga chun
Etmishlar gʻolibo xayr-ehson uchun.

Qolmagay deb safol sinib-netib,
Tuproqqa koʻmmishlar ehtiyot etib”.

2795 Dedi: “Javobing aqlga ermas xush,
Har neki soʻylarsen, xato, yanglish.

Atrof suvsiz biyobon ersa,
Birovga suv tashirmi kimsa?

Qanchalar yugurib, izlama asru,¹¹⁹
Bu sahroda topolmaysan suv.

¹¹⁹ Asru – juda koʻp, haddin ortiq.

Bu maskan hayvonlar jamlog'idir,
Sayyod, ovchilar ovlog'idir.

Bu joyga suv to'la xum ko'mishlar,
Ovni jalb etmoqqa urinmishlar.

2800

To alqoru marol, ohuyu go'r¹²⁰
Biyobon aro yeb luqmayi sho'r.

Tashnalik azobin chekkaylar,
Shu xum sori shitob etgaylar.

Sayyod bir panada o'ltirur,
Qo'lida kamoni shay turur.

Ohu suvga ezilganda, shu tob
Urar uni, so'ngra aylar kabob.

Tugunlarni shundoq yech, ey dali,
Eshitganlar desin senga: balli!"

2805

Bushr dedi: "Ey ogohi jahon,
Har kimda bir aqida bor, nihon.

Aqidaki, biz nihon etgaymiz,
Boshqalarni chun gumon etgaymiz.

So'z aysang, yaxshi niyat birla ayt,
Yomonlik keltirar yomon niyat".

So'ngra suv bo'yida sufra yoyib,
Non yedilar, suv ichdilar to'yib.

¹²⁰ Go'r – bu yerda qulon ma'nosida.



Zilol suvdin topdilar chun qoniq,
Shirin erdi, safo erdi, tiniq.

2810

Maliho Bushrga qichqirdi: "Tur!
Borgil-da, bir chekkada o'ltir.

Men endi o'zni xumga solgaymen,
Cho'milib, beg'ubor bo'lgaymen.

Jiqqa terga botib, tani sho'rmen,
Boshdi-oyoqqacha kirmen.

To tanim chirkini to'kib suvga,
Pok-pokiza bo'lib tushay yo'lga.

Tosh otib, xumni ham sindirgum,
Ovlarni ovchidin qutqargum".

2815

Bushr dedi unga: "Hay, shoshma,
Bu xumdin o'zni tiy, yondoshma!

Suvi bo'yla tozadir, chuchuk,
Kiringni unga to'kkaysen nechuk?

Har kimki suv ichsa, shukr degay,
Ichgan suviga tupurmagay.

Oynaga sirka surmaslar,
Obi zilolga loy urmaslar.

Ki insonlar gahi kelib bunda,
Qondirsin chanqog'in issiqda".

2820

Lek vaysaqi tinglamadi ani,
Yechinib, yalang'och etdi tanni.

Kiyim-boshin yechib, qo'ydi qumga,
Ko'zini yumdi, sakradi xumga.

Xum emasdi, chuqur choh erdi ul,
Tubigacha bor erdi ancha yo'l.

Ko'rdi ajalga o'tru kelganin,
Donoligi qutqarnadi jonin.

Suv yutib, suvga ichi to'ldi,
Oqibat cho'kdi, g'arq bo'ldi.

2825

Bushr yonib shunda ichi-toshi,
Keldi, suvga to'kdi ko'z yoshi.

Dedi: "Bu haromzodayi xom
Etdi suvga salomimni harom.

Kir bosgan tani qaro erdi,
Obi zilolni bulg'atar endi.

Zilolni suvni bulg'atgani kam,
Sindirmoqchi erdi xumni ham.

Bu yomonlik kelgay yomondin, hay,
Poku xiradmanddin kelmagay.

2830

Bo'lmasin kimsaning bo'yla yo'ldoshi,
Bo'yla nokasning cho'kkani yaxshi!"

Xum boshiga bordi bilgali aniq,
Cho'kkanmi yo cho'kmaganmi rafiq.

Yotardi ul jondin ayrilib,
Xumning bir chetiga bosh qo'yib.

Taajubda qoldi, ro'y bermish andoq,
So'ng daraxtdin kesdi bir butoq.

Yulib, yaproqlardin aritdi,
Silliqlab baayni nayzadek ctdi.

2835 Sayyohlar dengizni o'lchagan misol
Tayog'ini xumga botirdi alhol,

Xum emas. xum osti choh edi chuqur,
Devorlari g'ishtdin terilgandi ul.

Choh uzra xum bosilmishdi atay,
Hayvonlarni ehtiyot aylagay.

Chiqardi murdani suvdin shu tob,
Eltib, tuproqqa topshirdi shitob.

Qabri uzra tuproq uydi, tosh,
O'ltirdi yonida g'ib bosh.

2840 Dedi: "Ey vaysaqi, so'zing qani?
Tugun yechar juvoldo'zing qani?"

Hayvonu devu odamiy, pari,
Barini der eding men rahbari.

Derding, g'aybga otar bo'lsam kamand,
Asrorini ochar charxi baland.

Qayga ketdi ul o'n ikki fanning,
Erkagu ayolni band etganing?

Nelar bo'lgusidir, ogohmen undan.
Bilarmen der eding oldindan.

2845 Nega sen ko'rmading, ey ogoh,
Ro'parangda oshkor erdi-ku choh.

O'shal suv ustida qurib suhbat,
Aytmishdi necha bir hikoyat.

Aytdik necha bobu necha faslini,
Lekin aytolmadik ishning aslini.

O'zingni garchi suvli xumga otding,
Aslda suv emas, otashga botding.

Lekin xum naqshi erdi o'zgacha,
Menu sening hisobimizdin necha.

2850 To falak rishtaga tugun solmas,
Kelib, sarrishtani kishi olmas.

Garchi bu nuqtada baso aytdik,
Ikkimiz ham uni xato aytdik.

Sen cho'kding, men tirikmen haytovur,
Sen yetmading, men yetdim shukur.

Sen hayvonlarga qo'ydingsh tuzoq,
O'shal to'rga o'zing tushding biroq.

Men yaxshilik istab ularga hamon,
Yaxshiligim bois qoldim omon".

2855 Shu so'zni aytib, o'rnidin turdi,
Uning lash-lushini axtardi.

Topdi ko'ylagi, to'n-jomasini,
Misriy yaktagi, amomasini.¹²¹

Tugunchak bor edi, bog'ichin echdi,
Ichidin bir hamyon tuproqqa tushdi.

Ming misriy tanga erdi unda chun,
Zarb etilmish erdi ko'p yillar burun.

Bir zum boqib, tamosho ayladi,
Eltib, o'z tuguniga joyladi.

2860 Dedi: "Shart shuki, to'n-jomasini,
Zaru ziynatini, amomasini.

Asrab-avaylab ehtiyot etgum,
Odamini topib, topshirgum.

So'rab-surishtiray makonini,
Makoni, ahli xonadonini.

Yordamim tegmadi unga har qalay,
Omonatiga xiyonat etmay.

¹²¹ Amoma – salla, dastor.

Gar kirdikorin etsam uning,
Tushar ko'rguligi boshimga mening".

2865 Shundoq deb tugunni qo'liga oldi,
Yaydoq dasht oralab tikka yo'l soldi.

Yo'l bosdi jadallab, yugurdi-yeldi,
Sahrocin shaharga yetib keldi.

Hordig'ini yozdi uyda bir muddat,
Yeb-ichib yayradi, uxladi rohat.

So'ng ko'rsatib dastorni elga ul,
So'rdi kimning amomasi bul?

Bir kishi tanib, aytdi manzilin,
Ayon etdi uning borar yo'lin.

2870 Dedi: "Falon guzar, falon xona,
Baland bir qasrdir, shohona.

Eshigin qoq anga etgan ko'yi,
Gumon etmagil, uy uning uyi.

Bushr olib to'n, amomayu zar,
Borib, ul manzildin topdi xabar.

Qoqdi darvozani, bir gul sanam
Ochdi qasr eshigin shu dam.

Dedi: "Ne hojating bor, ayt, ayo,
Qo'limdin kelsa, etgaymen bajo".

2875

Dedi: "Uy bekası kerak menga,
Bisot bor qo'lda, topshiray anga.

Ichkari kirmak gar ravodir, xos,
Kiray, to necha so'z degaymen rost.

Ki Malihoyi osmonfarhang
Zamondin ne lutf ko'rdi, ne rang".

Ayol boshlab kirdi, sahni saroy
Chetida mehmonga hozirladi joy.

Yuzini bekitdi tortib niqob,
Dedi: "Ayt so'zingni, har ne savob".

2880

Bushr bor qissani aytdi tamom,
Tingladi g'izoli gulandom.

Aytdi uning ham suhbat bo'lganin,
Har hunar bobida so'z qilganin.

Haddin oshib o'zni bilmasdek,
Da'volar qilganin badmastdek.

Har narsadin bo'lib badgumon,
Bilmayin ne yaxshi, ne yomon,

Birovlarga choh qazib, keyin
O'shal chohga o'zi yiqilganin.

2885

So'ngra jazavaga tushib butkul,
Bir quduqqa g'arq bo'lganin ul.

So'yladi har neki ko'rganin hama,
Andin eshitganin so'yladi yana.

Dedi: "U g'arq bo'ldi, uzaysin umring,
Unga tuproq, senga joy bo'lsin uying.

Jasadini suv yuvmishdi pok,
Topshirdim tuproqqa, qabul etdi xok

Har ne bisoti bor edi, yig'dim,
Yig'ib birin-birin tugun qildim".

2890 Deb to'nu zarni oldiga qo'ydi,
Ruhida yengillik, safo tuydi.

Ayol erdi ayoli aqlu adab,
O'qidi ul varaqni harfma-harf.

Parishon bo'ldi bir zamon, tindi,
Ko'zidin to'kdi yosh, xo'rsindi.

Dedi Bushrga: "Ey humoyunroy,
Seni yaxshi qilib yaratmish Xudoy!

Halolzodasen, ming ofarin,
Poku ozodasen, ming ofarin!

2895 Kim etgay bo'yla javonmardlik,
Ki etding benavoning haqqiga mardlik?

Yigitlik emas ul, kechmay nafsidin,
Asal o'g'irlagay bolarisidin.

Yigitlik uldirki, nafsiga uchmas,
Siymu zar tuzog'iga tushmas.

Maliho tuproqni makon tutmish,
Joni jahannamga borib yetmish.

Sen deding: "Ul shumoyoq edi",
Rost deding, ming bora shundoq edi.

2900

Ishi erdi base sitamkorlik,
Behayoligu mardumozorlik.

Erkak-ayolga javr etib chunon,
Jazosin olmish ul zolim hamon.

Juhuddek joni ichqaro erdi,
Kunushtdin chiqqan ajdaho erdi.¹²²

Yillarki chekdim andin ranj-alam,
Ul etmagan yomonlik qoldi kam.

Men u bilan yostiqaqa bosh qo'yib,
U boshimga uydirmalar uyib.

2905

Bulut erdim, soyabon har chog',
U boshimda chiqardi chaqmoq.

Xudo daf aylamish uni boshimdin,
Mehnatu g'avg'osi ketmish qoshimdin.

¹²² Kunusht – yabudiylar ibodatxonasi.

Yaxshimi, yomonmi, yo'qoldi, bas,
O'lgaming ortidin yomon deyilmas.

Har tugul dunyodin uchdi qadami,
Yetdi ikkimizga qovushmoq dami.

Oqibatli ersan, sen bilan zinhor,
Oila qurishga ixtiyorim bor.

2910 Menda molu mulk bor, husnu jamol.
Topilgaymu mendek jufti halol?

Nikohni amr etmish bizga Xudo,
Chorasin ayla, rasmin et ado.

Jufting bo'lishga o'zni ko'ndirdim,
Ki andoq javonmardliging ko'rdim.

Sen-da bo'yla irodat etsang, hay,
Turib yoningda xizimating etay.

Xullas, bo'yla hasbi holim bor,
Davlatim, husnu jamolim bor".

2915 Debon ul yuzidin chekdi niqob,
Ko'rindi, chehrakim, edi oftob.

Bushr uning jamolini ko'rdi,
Ohu ko'zi, zulfuxolini ko'rdi,

O'shal parivash erdikim, ul kun
Bushmi aylamishdi chun maytun.

Faryod chckib, ayrildi hushdin ul,
Parivashga hamon qul bo'ldi, qul!

Ko'rdi parivash, boshiga bordi,
Atr hidlatdi, holdin qutqardi.

2920 Ki hushdin ayrilganga etdi hush,
Xijolatlig'aro chekdi tovush.

Dedi: "Ishqingda yondim becomon,
Meni devona deb etma gumon.

Jin ko'rgan yiqilur, aftoda,
Men pari ko'rdim, ey parizoda!

Ishqim bugun ermas, ey mahvashim,
Meni ko'pdin yoqar bu otashim.

Ki falon kun, falon tor yo'lda
Niqobing yechilmishdi elda.

2925 Men seni ko'rdimu abas bo'ldim,
Vasling mayin ichmay, mast bo'ldim.

Yondim ishqi nihoningda sening,
Kuydim mehri jahoningda sening.

Bir nafas ketmading yodimdin,
Kimsa ogoh emas arzu dodimdin.

Toqatim toq bo'ldi, Ka'baga bordim,
Bordimu Xudoga yolbordim.

Xudoyim o'z fazlu rahmati ila,
Ayladi shu kunni bizga vasila.

2930 Ko'z tikmadim birovning moliga,
Jamoliga, ahli ayoliga.

Tangri o'zi mulku jamolim berdi,
Haromdaninas, mana, halolim berdi".

Xotin uning royu rag'batin bildi,
Bir erdi rag'batini, o'n bo'ldi.

Bushr erkalab parivashni,
Chiqib, hamon yurishtirdi ishni.

Chun sharti nikohni shay etdi,
Ne'mat topdi, shukri hay etdi.

2935 Pariga termulib, ado erdi,
Yomon ko'zdin haq asrasin, derdi.

Juhuddin xalos ayladi shohni,
Kusufdin asradi go'zal mohni.¹²³

Yuvdi to'nidin za'faron gardin,
Gulsavsan undi shanbaliddin.¹²⁴

Jannatiylar kabi yurarkan yashnab,
Yashil kiydi hurilarga o'xshab.

¹²³ Kusuf – oy tutilishi.

¹²⁴ Shanbalid – yovvoyi za'far gul.

Yashil libos erur sariqdin afzal,
Sarvinoz yashil kiysa, na go'zal!

2940 Yashil rang – ekinlar osoyishi,
Farishta, malaklar oroyishi.

Jon yaxshilik ila gulshan erur,
Ko'z yaxshilik bois ravshan erur.

Ko'katlarda nuqul yashil ohang,
Navqironlik belgisidir bu rang...”

Shahbonu qissasin aytib, tugatdi,
Shoh uni erkalab, bag'riga tortdi...

**Shoh Bahrom seshanba kuni qizil gumbazli qasrda taxtga
o'ltirgani va to'rtinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinglagani**

Qish fasli erdi, chun kunduzi ham
Tiramoq tunidek bir tutam.¹²⁵

2945 Erdi dushanbaning crtasi,
Seshanba – haftaning o'rtasi.

Kun bahramay edi, rang bahromiy,
Har ikkisiga shoh hamnamiy.

Kiyib qizil uzra qizil kiyim,
Qizil gunbazga shoh yugurdi keyin.

¹²⁵Tiramoh – shamsiy taqvimning to'rtinchi oyi, 22 iyundan 22 iyulgacha bo'lgan muddat.

Qizil yuzli saqlobiy bonu,¹²⁶
Rangda olov, latofatda suv,

Hozir edi xizmatga shu mahal,
Quyoshga bosh egsa, oy go'zal.

2950 Tun bayrog'in ko'tardi baland,
Kunduzning chodiri yirtildi undan.

Shoh olmayuz sanamdin shu kez,
Afsona istadi nishotangez.¹²⁷

Nozanin shoh sari boqib masrur,
Aqiq dudog'idin to'kdi dur.

Ki "Ey falak ostoni dargohing,
Oftob ul charog'i xirgohing!

Gavharsen ul gavhardanam aziz,
So'zing har ne shirin so'zdin laziz!

2955 Gardingga yetolmas biror kimsa,
Ko'r bo'lsin ko'z seni ko'rmasa..."

Deb duosi yetdi poyoniga,
Gavharni topshirdi gavhar koniga.

¹²⁶Saqlobiy bonu – slavyan, rus qizi.

¹²⁷Nishotangez – ko'ngilga xursandlik bag'ishlovchi.

Afsona

Dedi: "Rus viloyatida bir zamon,
Shahar bor edi, yosh kelindek jonon.

Podshosi edi imoratsoz,
Qizi – bo'stonida sarvinoz.

Dilfirib erdi, nozi joduband,
Gulruxu qaddi-qomati baland.

2960 Yuzida oy edi yoshirin,
Shirin labi shakardanam shirin.

Zuhro edi, Mushtariy shaydo,
Shakkaru sham' edi unga ado.

Shakar tungi ko'rib og'zini bir dam,¹²⁸
Torligiga havas etardi har dam.

Mushk zulfin ko'rarga zor edi,
Gul rayhoni oldida xor erdi.

Qaddi mavzun edi chun sarvi bog',
Yuzi ravshan edi chun sham'u charog'.

2965 Chehrasi gulgun bahordin toza,
Tal'ati naqshu nigordin toza.

Nargis ko'zin havas etar erdi,
Nasrin nozin havas etar erdi.

¹²⁸Shakar tungi – tor og'izli shakar idishli

Gul suvi yo'lining tarovatida,
Gul o'zi kamarband xizmatida.

Husnu latofati uzra oyjamol
Qo'li gul san'atkor edi, barkamol.

Ilm o'rganishda jonu dildan,
Ustozu bilimdon edi chindan.

2970 Ne nayrang jahonda yuz bersa, hamon
Bilardi, andin ermasdi nihon.

Niqob etmishdi zulfın ro'yiga,
Er tashvishin olmasdi bo'yniga.

Baski yerdi davru davron ichra toq,
Nechuk yer ila aylasin ittifoq?

Ovoza tarqadi jahonga mashhur,
Ki jannat bog'idin kelgan emish hur,

Oy ila oftobning avlodi ermish,
Zuhro Atoruddin unga sut bermish.

2975 Uni bir ko'rishga oshib ishtiyoq,
Shovur-shivir bo'lib ketdi hamma yoq.

Birovlar zo'r ila, birov zar ila
Izlarda ko'rmoqqa uni vasila.

Yigitlar yo'lida tursa ham qator,
Ularga qayrilib boqmasdi dildor.

Otasi ojizdi, ne chora qilsin?
Yuzlarcha harifga nechuk bas kelsin?

Xilvatni xushlagan ul pari. gulgun,
Ko'rdi kuyovlarning qo'lidir uzun.

2980

Bir maskan tanladi yuksalmish tog'da,
Yerdin osmongacha bo'lgan uzoqda.

Buyurdi, bir qal'a qurdilar hamon.
Go'yo tog'din o'sib chiqqan tog'simon.

So'ngra otasiga yuzlandi pari,
Ijizat so'radi yo'lga tushgali.

Otasi mehribon erdi bag'oyat,
Istar-istamasdin berdi ijizat.

Asali yiroqda bo'lsa mabodo,
Bezovta qilmagay arilar aslo.

2985

Qal'a ichida gar nihon ersa ganj,
Etmagay o'g'ridin posbonga ranj.

Yetib manziliga pari, dilorom,
Necha bir ishlarni etdi saranjom.

Qal'a eshigini tambalab tayin,
Gavhari yaktodek o'ltirdi keyin.

Kechdi osoyishta kun ila tuni,
Qal'a go'zali deb atashdi uni.

O'g'ri bu qal'aga kirishga ojiz,
Temir qal'a edi chun Ro'yindoz.¹²⁹

2990 Shu qal'ada yashar kumush bonu,
Bo'y lasin ko'rmamish hech bonu.

Kelguvchilar so'lu sog'in to'sib,
Oshiqlar ishtiyog'in to'sib,

Barcha ishda o'zi hunarpesha,
Chorasoz edi, chobuk andisha.¹³⁰

Falakoshno edi, yulduzshunos,
Tab'i aytar edi aylab qiyos.

Tabiat asrori uning ayoni,
Ruhoniy ilmlar bilimdoni.

2995 Ho'lu quruqdin nelar ungay,
Nechuk suv isib, olov so'ngay?

Odamiylarni ne etar mardum,
Anjumanga ne baxsh etar anjum?

Har bilimni shior aylar edi,
Insonlarga uni yor aylar edi.

Bilim kerak, g'ayrat kerak, derdi,
Suratda ayol, aslida erdi.

¹²⁹Ro'yindoz – Marog'a hokimi Ko'rga Arslonning qarargohi.

¹³⁰Chobuk andisha – tez fikrovchi.

Kelib, makon tutib, toqat ila
Ko'nglini uzdi xalqdin bir yo'la.

3000

So'ng qal'a yo'lida tizib yakkash,
Tilsimlar tikladi necha mahvash.

Yasalmishdi toshu temirdin paykar,
Qo'lida hamisha shay edi xanjar.

Kim bu yo'lga qo'ysa nogoh qadam,
Jonidin ayrilar edi shu dam.

Qal'a darvozasi osmoniy edi.
Ko'zlarga ko'rinmas, nihoniy edi.

Muhandis qidirsam ham bir oy,
Izlab topolmasdi uni hoynahoy.

3005

Ul paripaykar, shirin dudoq
Chiniy naqqoshlarga berardi saboq.

Qalamga amr etsa naqsh ayla deb chun,
Suvga solar edi sadafdin tugun.

Qalamin yuritsa ul turrayi hur,
Soyaga naqshlar chekar edi nur.

Shu burjda toparkan shahribandlik,
Burj topdi andin bahramandlik.

Bir kuni kilik olib, yig'ib diqqatin,
Chizdi harirga ul o'z suratini.

3010

Qachonki chizdi, adoga yetkazdi,
Surat uzra shu so'zlarni yozdi:

“Kimda ersa mayli-havoyim mening,
Ki chuchun qal'adir joyim mening.

Nurga parvonadek bo'lmasin dilso'z,
Kelsin, demasin yiroqdin so'z.

Mard topgay biz tomon yo'l-yo'riq,
Nomardga bu qal'ada ish yo'q.

Har kimsaga bu nigor kerakdir,
Joni anga ming hazor kerakdir.

3015

Himmat kamarin belga boylasin,
To'rt shartga ul rioya aylasin.

Avvalin shart shundoq bo'lgusi,
Yaxshi nomi bo'lsin, obro'si.

Ikkinchi shartim, yo'l yurib davom,
Ochsin yo'lda tilsimlarni tamom.

Uchinchi shartim, yo'l bosib uzun,
Yechib barcha tilsimlardin tugun,

Qal'a darvozasin topib, ko'rsatsin,
Ichkariga kirib, meni uchratsin.

To'rtinchi shart, bajo etsa hamon,
Yo'l ochilur menga shahar tomon.

Otam dargohiga borgaymen,
Unda necha savol so'rgaymen.

Javobim ololsam, o'shalkim sazo,
Men shartimga etgaymen vafo,

Mening crim bo'lur o'shal yigit,
Men so'zimda turgaymen sobit.

Shartlarimni ado etolmasa ul,
O'z qonini o'zi bo'yniga olur.

3025 Har kimki bu shartim ado etgay,
Kimiyoyi saodatga yetgay.

Kimki anglamasa bu so'z nechuk,
Ulug' bo'lsa hamki sanalur kichik".

Bu so'zlarni varaqqa mashq etdi,
Chaqirdi xodimin, ilkiga tutdi.

Dediki, "Kel, bu varaqni ol,
Tabaq ustidin qopqoqni ol!

Shahar darvozasiga elt buni,
Peshtoqi uzra toj ayla uni.

3030 Shaharlikmi yo lashkariy har kas
Menga er bo'lishni etsa havas,

Yozga shartlarimga amal qilsin,
Qal'a begi bo'lsin yo o'lsin!"

Hudaychi varaqni olib jo'nadi,
Shaharga ovoza qilib, jo'nadi.

Shahar darvozasiga ildi jadal,
Toki oshiqqlar aylasin nazar.

Kimda rag'bat esa, ranj cheksin,
Qonini o'z qo'li bilan to'ksin.

3035

Chun har taxtgiru tojvar
Eshitdi, bu gapdin topdi xabar.

Umidvor bo'lib bu hadisi lofdin,
Mardum yopirilib keldi atrofдин.

Har kimsa pesh aylab yiglitligini,
Barbod berdi bunda tirikligini.

Har kimki bu yo'lga qo'ydi qadam,
O'ziga dushmanlik etdi shu dam.

Hech kimsaning kelmadi omadi,
Qal'a tilsimin ochlmadi.

3040

Har kimsaki bir chorasin topdi,
Sehru fusun kesdi, chorani chopdi.

Bir joyda tilsim ochdilar shaksiz,
Lek boshqa joyda qoldilar ojiz.

Yuz berib bexudligu berohlik,
Oxirda hosil erdi rasvolik.

Bemurodlik chun muqarrar bo'ldi,
Ne yigitlar boshdin ayrildi.

Bu yo'lda bir kimsa topmadi kom,
Barcha yo'llar yopiq erdi tamom.

3045

Har boshki qal'ada kesilgaydi,
Shahar darvozasiga osilgaydi.

Andoq bo'ldi darvozayi qal'a,
Boshida kalla ustida kalla.

Ko'rarsiz dunyoga boqib magar,
Shaharda bezangay darvozakor.

Ul pariroy etib chunon shiddat,
Shaharga berdi kalladin ziynat.

Yetolmay eshigi ko'lankasiga,
Necha boshlar ketdi surunkasiga.

3050

Bir yigit bor edi pok, ozoda,
Asli nasli shohu shahzoda.

Ziyraku zo'rmandi mardona er,
Sahroda goh ohu ovlar, goh sher.

Chiqdi shahardin etgali shikor,
Gul-gul ochilsam derdi chun bahor.

Shahar darvozasida xat ko'rdi,
Atrofida ming shisha zahr erdi.

Surat ko'rdi ohu ko'z, labi yoqut,
Suratni solgay erdi jonga o't.

3055 Zebu jamoli erdi onchunon,
Sabru bardoshi sovrildi hamon.

Ming ofarin, o'shal sohir qalam
Chekmish sahfga andoq bir raqam!

O'sha surat atrofida tutash
Osilmishdi kesilgan necha bosh.

Dedi: "Nahang og'zidadir yoqut,
Tashlab qochsam, qochishga joyim yo'q.

Bu ishq nomasini kechar bo'lsam ul,
Sabru toqatim bitar butkul.

3060 Bu havas ustun bardoshimdin,
Bosh ketar, bu havas ketmas boshimdin.

Atlam o'ramda surati zebo,
Ilonli ganj yo tikonli xurmo.

Garchi kesilmish shuncha kallalar,
Bir kimsa ko'rmamish bir samar.

Mening boshim kesilsa, ne sud,
Tuproq cdi, bo'lgay tuproqolud.¹³¹

¹³¹ Ma'lumot yo'q.

Qo'limni bu ipdin uzmasam agar,
Unga bosh tikmagim muqarrar.

3065 Yo'q desam, jonimni unga bermayin,
Nechuk jon tarkidin so'yarlarmen keyin?

Magar bu atlasni parilar
Ushshoq ahliga boylamishlar.

Sehrgarlik aylamaguncha, bas,
Parining sehrini sindirib bo'lmas.

To parivash tilini boylamam,
Bu ishni joyidin qo'zg'atib bilmam.

Chorasini ko'ray, qo'yib o'yni,
Bo'ri og'zidin qutqazay qo'yni.

3070 Har kishi ishga zo'r berar ortiq,
Ishida ul ziyon ko'rar qattiq.

Ko'tohnazar ersa, begumon,
Ishida naf emas, ko'rgay ziyon.

Sozingni jahon kuyida chal,
Sust boshlab, so'ngra avjiddin ol.

Dilimdin xotirim xarobdir ko'p,
Jigarim dilimdin kabobdir ko'p.

Bu ko'ngilni nechuk shod aylayin,
Bu xotir birla ne yod aylayin?"

3075

Shu so'zni aytdiyu bosh egdi ul,
Xo'rsindi, sovuq bir chekdi ul.

Ko'rdi, oqib ko'zidin yoshi,
Tig' erdi, qonli tosta boshi.

Ul havaski, erdi dilda nihon,
Hech kimsa bermadi andin nishon.

Kunu tun o'rtanardi uzluksiz,
Na tuni tun, na kuni kunduz.

Har sahar orzuda yongaydi,
Shahar darvozasi tomon borgaydi,

3080

Ko'rardi paykari nasrinni,
Go'ri Farhodu qasri Shirinni.

Ul tugunga solib yuz ming g'arov,
Sarrishtani topolmadi birov.

Yuz ming bosh bo'ldi rishtaga bezak,
Bo'lmadi sarrishtadin darak.

Har tarafga yugurdi ul chandon,
Tugun yechishga topmadi imkon.

Kibru havoni bir taraf surdi,
Chora izlab, har yonga bosh urdi.

3085

Bosh urib, chorasoz izladi,
Horidi, charchadi, boz izladi.

Xabar topdi bir xiradmanddin,
Devbandu farishtpayvanddin.

Har tulporga urgan edi lijom,
Har donishni bilgan edi tamom.

Hama yopiq eshiklarni ochgan,
Hama yuksak dovonlardin oshgan.

Chun javonmard ul, jahoni hunar
Ahlidin eshitdi andoq bir xabar.

3090 Bas, simurg' erdi ul tog' da tek,
Tog' ma-tog' uchib bordi qushdek.

Ko'rdi, emasdi gulzor ichra,
Qayda deng, xarob bir g'or ichra.

Etagiga yopishib shu mahal,
Xizmatiga qattiq boyladi kamar.

Jonida erdi o'rtanib, yonish,
Chun Xizrdin dars oldi, donish.

Ul chashmadin bahra topdi base,
Sirga oshno bo'ldi har nafase.

3095 Pir baland tog' dagi tal' atdin,
Xalqqa yetgan ziyonu zahmatdin.

Yo'ldagi tilsimdin, sehrli toshdin,
Minglarcha kesilgan begunoh boshdin.

O'tgan faylasuflardin aylab bayon,
Biror nuqtani etmadi nihon.

Faylasuf har ne sarhisob ayladi,
Barini battalab unga so'yladi.

Cun bo'ldi tadbirkor, chorashunos,
Shaylanib, ortiga qaytdi boz.

3100 Necha kunni rohatda o'tkazdi,
Chorayu tadbir rejasin tuzdi.

Yo'lda kelmasin deb mashaqqat og'ir,
Har ne lozim esa, ayladi hozir.

Yulduzlardin so'rdi tayin soat,
Toki kelgay deb yorug' omad.

Fikrida surati, qiyosi erdi,
Andin har tilsimning tadbirin ko'rdi.

Yana talab aylab, o'zni qistadi,
Karomat ahlidin madad istadi.

3105 To'nini bo'yadi qizilga, xun deb,
Bu zulmu tazallum, javri gardun deb.

Qon daryosiga chun g'arq bo'ldi zud,
To'ni ham, ko'zi ham erdi xunolud.

Oradin ko'tardi orzusini,
Bo'htonchilar so'zi, qutqusini.

Dedi: "O'zim-chunmas bunda turgaymen,
Yuz ming shahidlarning qonin so'rgaymen!"

Yo boshlardin chanbar etgum judo,
Yo boshimni men etgam fido!"

3110

Bong urdi, na'rasi osmonga uchdi,
Qo'lda qilich bilan maydonga tushdi.

Har kimki eshitdi, asar topdi,
Xuntalab ahdidin xabar topdi.

Ayladi himmatdin madadkorlik,
Aylasin deb omadi anga yorlik.

Xalq himmatiyu royi ravshani
Sovut bo'ldi anga, chulg'andi tani.

So'ngra shohning huzuriga bordi,
Ijozat so'radi, yolbordi.

3115

So'ngra qal'a tomonga oldi yo'l,
Chorayi tadbirga urdi qo'l.

So'ngra tilsimga yaqinlashdi,
Afsun o'qidi, sehr sochdi.

Hama nayranglarin urib. buzdi,
Hama payvandlarin tutib, uzdi.

Necha tilsim edi yo'l uzra chun,
Yig'ib, quduqqa otdi barchasin.

Barchasini chiqardi yo'qqa,
Shamshirlarni uloqtirdi toqqa.

3120

Qal'a devoriga yondashdi ul,
Yog'och oldi qo'lga, qoqdi dovul.

Dovul sasi har yon qanot yozdi,
U hamon devor ostini qazdi.

Dovuldin soldi andoq ovoza,
Qo'rindi tuynukdin darvoza.

Xabar tarqaldi har yonga to,
Shahbonu bo'ldi gapdin ogoh.

Dedi: "Ey yo'lchi, ko'ngling xush bo'lsin,
Davlating baxtingga bosh bo'lsin!"

3125

Sehr ila tilsim rishtasin chopding.
Ganjina eshigin hamon topding.

Shahar soriga endi bo'l ravon,
Kut necha kun meni sabr aylabon.

To otam dargohiga borgaymen,
Seni sinov etib ko'rgaymen.

So'rgaymen to'rt nihon narsani,
Javobing qoniqtirsa meni,

Umr bo'yi bo'lay sevar yoring,
Suyukli dilbaring, vafodoring".

3130

Yigit ko'rdiki, omad yor erdi,
Jilovni burdi, ortiga yurdi.

Shahar darvozasi ustida qator
Tizilgan boshlarga etdi e'tibor.

Ularni birma-bir yerga tushirdi,
Dafn aylamakni xalqqa buyurdi.

Mardum aytib sha'niga ofarin,
Shahid ketganlarni etdilar dafn.

Katta-kichik hama olqishladi,
Mutriblar soz chalib, navo boshladi.

3135

Yigitning boshiga sochqi sochdilar,
Eshik, darichalarni lang ochdilar.

Ont ichdilar hama birin-birin,
Agar shu nikohga bermasa izn,

Shohning ahvolini taboh etgaymiz,
Shu bahodirmi shoh etgaymiz.

U boshlarni kezib, etdi nomardlik.
Bu qutqardi bizni, ayladi mardlik...

Bu yoqda ul pariysi nozanin
Xursand edi yigit a'molidin.

3140

Tun cho'kib, socharkan mushki qaro,
To'lin oy yuz ochganda ko'k aro,

Kelib, taxti ravonga o'ltirdi,
Oy unga yo'lda rahnamo erdi.

Yetib, shoh qasriga qo'ydi qadam,
Qasr shukuh topdi, sharofat ham.

Atosi ko'rib shod edi, mamnun,
Qiz andin yashirmadi holin.

Har neki ko'rdi, yaxshidir, yomon,
Atoga arz ayladi hamon.

3145

Ulki necha suvoriy keldilar,
Choh qazib, so'ng unga yiqildilar.

Mening ismim aytib keldi anchasi,
Boshidin ayrilib qoldi qanchasi.

Eng oxirda keldi malikzoda,
Men uni xush ko'rdim shu dunyoda.

U keldi, tadbiru chora ayladi,
Tilsimlarni pora-pora ayladi.

Qal'aga yo'l ocholdi jadal,
Shartlarga birma-bir ayladi amal.

3150

To'rt shartdin uchini ado etdi,
To'rtinchi ne bo'lur, ko'rarmiz endi...

Shoh so'rdi: "Ul to'rtinchi nima?
Yaxshilarda shart bo'lgay birgina".

Qiz dedi: "So'rgum to'rt mushkul savol,
Rahnamoyim bo'lsin baxtu iqbol.

Javobin gar to'g'ri berolsa ul,
Boshiga toj mustajob bo'lur.

Gar yanglish so'ylasa so'roqda,
Chodirin tiksin boshqa yoqda.

3155

Vojib ulki, ertalab, saboh
Muzayyan taxtiga o'ltirarkan shoh,

Chaqirsin uni mehmon aylabon,
Men parda ortida turgum nihon.

So'rgum necha savoli sarbasta,
U javob aylasin ohista".

Shoh dedi: "Balli, aytganing ravo,
Ne maqsad etsang, bizga muddao".

Shuning-la so'zni sanjob etdilar,
Tun aro tinch, osuda yotdilar.

3160

Subhidam ul charxi minorane
Sochdi jahonga yoqut ohang.

Majlis tuzdi shoh, majlisi kayon,
Baxt erdi eshigida posbon.

Bo'ldi barcha ahli a'yon hozir,
Rostgo'yu rostkoru nozir.

Shoh shahzodani da'vat aylabon,
Boshi uzra sochqi sochdi hamon.

Zarrin sufra yozildi qatma-qat,
Sufraga sig'masdi nozu ne'mat.

3165 Ko'zin quvontirardi barchasi,
Suframas, orzular sufrasi!

Sufrada ne ajab taomlar yerdi,
Kishi ne istasa, shuni yerdi.

Yeyildi osh, ichildi ichkulik,
Ruhlar baland erdi, tanlar tetik.

Shoh buyurdi, endi shay turgaylar,
Xolis tilloga mahak urgaylar.

So'ng turib, o'zni davradin uzdi,
O'z o'miga mehmonni o'tqazdi.

3170 Qizi birlan o'ltirdi yuzma-yuz,
To ko'rgay ne aylar ohu ko'z.

Tiroz sham'i kabi ul nozanin
Parda ortidin boshladi o'yin.

Qulog'ida ikki gavhar erdi,
Olib, uni xodimga topshirdi.

Dedi: "Buni mehmonga elt shitob,
Bergil anga, keltir menga javob".

Xodim hamon mehmonga eltdi,
Ikki gavharni ilkiga tutdi.

3175

Yigit ularni kaftiga olib,
Qiymatin chamalab, tayin qilib,

Yonidin uch gavhar olib chunon,
Gavharlar ustiga qo'ydi hamon.

Va xodim qo'liga tutdi uni,
Dedi: "Shahbonuga yetkaz buni".

Besh gavharni ko'rib shirin dildor,
Tosh qo'yib o'lchadi, ne vazni bor?

Ularning ko'pu kamligin ko'rdi,
Tosh ostiga olib, raso tuydi.

3180

Dur ustiga shakar sepdi keyin,
Ikkisini qorishtirdi tayin.

Mehmonga jo'natdi kimyosini,
Topsin bu nuqtaning ma'nosini.

Mehmon sut talab etdi bir jom,
Qorishma ustiga quydi tamom.

Ol, dedi, xodim olib, yeldi,
Keltirib shahbonuga berdi.

Bonu sutni ichib, huzur qildi.
Qolganin ezib, xamir qildi.

3185

Tarozida tortdi, vazni bu gal
Ko'pu kammas, teng edi tugal.

Bonu barmog'idin uzuk oldi,
Uzatdi, mehmonni yo'lga soldi.

Yigit oldi, uzatarkan kaniz.
Barmog'iga taqdi, etdi aziz.

Bir durdona berdi, noyob, sha'n,
Shamchirog' erdi, shu'lasi ravshan.

Kaniz keltirib tutdi ra'noga,
Durri yaktoni la'li yaktoga.

3190

Shahbonu oldi, termulib turdi,
Unga juft durdona axtardi.

Topdi durdona, erdi teppa-teng,
Shabchirog' go'yo, qavmidin uning.

Bir ipga chizdi har ikkisini,
Farq etolmasdi nazar ikkisini.

Xodim durni daryoga topshirdi,
Xurshidni Surayyoga topshirdi.

Kishi ko'z tikib, ajrim etolmasdi,
Biridin birin ajratolmasdi.

3195

Birdek edi ikki durri xushob,
Ikkisida birdek tobishu tob.

Yigit ko'k munchoq so'rdi, xolos,
Bul ikkisiga ermasdi mos.

Munchoqni dur ustiga qo'ydi,
Berdi xodimga, orziqish tuydi.

Shahbonu dur ko'rib munchoq ila,
O'pdi munchoqni kula-kula.

Ikkisiga mehr ila boqdi,
Uni qo'l, buni qulog'iga taqdi.

3200 Atosiga dedi: "Ochdi baxtim gul,
To'yu nikoh fursati keldi ul.

Ko'rgil, ota, baxtimni yor etdim,
Shundoq yorni men ixtiyor etdim.

Yor topdi ul ham men barobarida,
Yor yo'q anga diyoru kishvarida.

Garchi biz donomiz, donodo'st,
Bizning bilim ostu uning donishi ust".

Atosin sochib anga mehri azim,
Dedi: "Ey mening farishta qizim!

3205 Har nechaki kechdi savolu javob,
Ko'rdim, pardali erdi, zeri niqob.¹³²

¹³² Ma'lumot yo'q.

Ul hadislariki, yoshirin erdi,
Ma'nisin birma-bir ayt endi".

Keldi shunda so'z tuti guftordin,
Ramz pardasin chekdi asrordin.

Dedi: "Avvalki chun ishorat etdim,
Ikki sirg'amni olib, anga tutdim.

O'shal ikki lo'liyi nob ila
Umr ikki kunlik, dedim, o'yla,

3210

Ul qo'shib ularga uch yoqut,
Dedi: "Besh kun bo'lsa ham, o'tgay zud".

Men durga keyin shakar qo'shdim,
Ularni ezdim, qorishtirdim.

Dedim: "Shahvat ila omuxta umr,
Qorishiqdir, misli shakkar ila dur.

Qancha fusun etma, qancha kimiyo,
Ularni ajratib bo'lmagay aslo!"

Ul hamon qorishiq uzra sut soldi,
Shakar erib bitdi, faqat dur qoldi.

3215

Dedikim, ularga sut solsa agar,
Ayrilur bir-birdin durru shakar...

Men shakar yeb uning sog'arida,
Sut ichdim uning barobarida.

So'ng uzuk uzatdim unga, go'zal,
Nikohga roziligim erdi o'shal.

Ul gavhar yubordi, asl yoqut,
Dediki, topilmas bunga juft.

Qo'shib gavhariga gavhar yulduzim,
Dedim: "Jufti haloling men o'zim".

3220 Dedi qo'sh gavharga tushib qo'zi,
Jahonda topilmas uchinchisi.

Ular ustiga qo'zmunchoq qo'ydi.
Yomon ko'zlardin asrasin, dedi.

Men o'pdim o'shal ko'zmunchog'ini,
Ko'nghimda tuydim ishtiyoqini.

Munchog'i mehri siynamda mening,
Mo'hri ganji xazinamda mening.

Ochib unga besh rozi pinhoni,
Besh karra bong urdim sultoniy".

3225 Shoh ko'rdi, asov ot rom bo'lmish,
Qamchi urmak anga behuda ish.

To'y qildi, nikoh shartin shayladi,
Har neki rasmu odatin ayladi.

Lablarga sharbatu shakar tutdi,
Zuhroni Suhaylga nikoh etdi.

Bazm tuzdi, o'ylakim bihisht aro,
Ki unga bihisht aylamish oro.

Yasatdi har yonni, jilo berdi,
Kelinni o'tqizib, o'zi turdi.

3230 Ikki yoshni bir-birga topshirib,
O'zi ketdi andin xilvat urib.

La'l izlagan oxir konga yetdi,
Jon chekib, oqibat jonga yetdi.

Goh yuzin o'pard, goh labini,
Goh norin tishlardi, goh g'abg'abini.¹³³

Olmos dur sari yo'lin topdi,
Lochin tazarv siynasiga yotdi.

Mo'hrasin yor dastida ko'rdi,
Mehrini ko'zi mastida ko'rdi.

3225 Nozi ado aylab parivash ul,
Yuzidek to'nini etdi qizil.

Birinchi kun yuz berdi bo'yla hol,
Oqlikka qizildin tushdi xol.

So'ng qizil qutildi qarolikdin,
Ziynat topdi dilrabolikdin.

¹³³ G'ag'ab – tomoq osti.

Qizil rangdin yetishdi unga kom.
Qizil to'ali shoh deb qozondi nom.

Qizil rang husndir, bezakdir.
Qizil gavhar bahosi yuksakdir.

3240 Qizil gugurdir oltin laqabi,
Qizil to'n kiyishdir matlabi.

Qon magar taningda ravon o'shal,
Qizildi, hayoti jon o'shal.

Yaxshi-yomon bo'lur insonlar nasli,
Qizil yuzli erur yaxshilar asli.

Qizil gul bog'da sulton bo'lmagay,
Gar qizildin nishon bo'lmagay...

Hikoyatin tugatdi shahbonu,
Qizil gul atr etdi havoni.

3245 Atrof chun gulafshon erdi ul.
Bahrom yuzi qizardi gul-gul.

Qizil gulga qo'lin daroz etdi.
Quchdi uni, so'ng uyquga ketdi...

Shoh Bahrom chorshanba kuni ko'k gumbazli qasrda taxtga
o'ltirgani va beshinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinglagani

Chorshanba kun tushib tong shu'lasi,
Firuzarang bo'ldi ko'k gumbazi.

Shoh Bahrom shu rangga ko'ngil boylab,
Firuzarang to'n kiydi bir ajab.

Firuzga gumbaz sori yurdi so'ng,
Kun qisqa, qissa erdi uzun.

3250 Tun zulfi niqobin chekdi qaro,
Ahli a'yonidin qutuldi shoh.

Istadi, bonuyi fasonasaroy¹³⁴
Kelsin, dedi, ochsin qarshimda chiroy.

Ishqbozlik ne, aylasin ayon.
Dilnavozlikdin so'ylasin doston...

G'unchadin gul ochdi sarvi baland,
To'kdi gul bargi uzra shakkar, qand.

Dedi: "Ey charx bandafarmoning,
Baxt yulduzi ko'kda ofarinxonning!

3255 Meni mendek yana minglab kaniz,
Qarshingda yer o'pib bo'ldik aziz.

¹³⁴Fasonasaroy – afsona aytuvchi.

Xush emasdir zilol yashmayi no'sh,
Oldida ochsa, do'kon sirkafurush.

Shoh amri bandaga vojibdir,
So'ylarmen, shohim etsalar sabr...

Afsona

Misr mulkida bir sohib chiroy,
Ismi Mohon erdi, chehrasi oy.

Yusufi misriy erdi ul zebo,
Qaro xoli etardi ming yag'mo.

3260 Hama xeshu aqrabo, qardron,
Boqib husniga erdilar shodon.

Necha kun shu falak ostida nuqul,
Nag'mayu navoga bo'lib mashg'ul.

Hama o'shal barno, xujasta charog'
Kelsin deb yasatardi xonayu bog'.

Bir kun bir davlatmand, zamon komroni
Mehmonga chaqirdi Mohonni.

Ajab bo'ston edi, latif, ko'rkam,
Do'stlar latifroq erdi undan ham.

3265 Tunga qadar baso aysh surdilar,
May no'sh etib, meva erdilar.

Har lahza etib navbati jom,
Har lahza muhayyo erdi yangi taom.

Kecha ko'tarmishdi mushkin alamni,
Kumush uzra chekmishdi qalamini.

Ular surishardi kayfu safo,
Qo'llarda bodayu lablarda navo.

Yayrashardi bog'da farah etib,
Base xurramlanib, base aysh etib.

3270 To'lin oy erdi osmonafruz,
Uning shu'lasidin tun erdi kunduz.

Sharob Mohon tanin qizdirdi, yoqdi,
U dam oyga, dam suvga boqdi.

Bog' sahnini sayr etib bir dam,
Xurmozor sori qo'ydi qadam.

Ko'rdi, yiroqda bir kishi erdi,
Men oshnoying deb ovoz berdi.

Tanidi, erdi ul do'stu hamol,¹³⁵
Tijorat etarda sherikmol.

3275 So'rdi: "Nechuk kelding bu manzilga,
Yoningda xizmatkor-quling yo'q nega?"

Dedi: "Olis yo'ldin yetdim bu yoqqa,
Sabrim yo'q, oshiqdim seni ko'rmoqqa.

¹³⁵Hamol – ulfat.

Foyda ko'rdim savdoda beqiyos,
Har necha ofarin desang, oz.

Darvoza bekildi shu pallada,
Shaharga kirolmay, qoldim dalada.

Tashqi karvonsaroyga molimni
Joylabon, uyingdin izladim seni.

3280 Xoja mehmonda deb aytishdi, bas,
Keldim, chun ketmog'im qiyinmas.

Men bilan shaharga borsayding hamon,
Bor ishni etardik ikov saranjom.

Foydaning yarmini qorong'u kecha
Bojdin yashirardik imkon boricha".

Mohonning yuragi depsindi shu dam,
Molu sarvat deya bo'lmishdi xurram.

Bog' eshigin ochib chiqishdi darrov,
Bir kimsa ko'rmadi, bilmadi birovi.

3285 Yo'l bosdilar tunda el kabi,
Necha masofadin oshib sel kabi.

Sherigi oldinda yugurib shu on,
U yesa orqada gard edi, to'zon.

Uzundan uzoqqa cho'zildi yo'l,
Qadamlar ostida ezildi yo'l.

Mohon derdi: "Nil bizdin yiroqmas,
Bir milcha qolgandir manzilga, bas.

To'rt farsang yo'lni yurib o'tdik,
Doira xatidin nari ketdik".

3290

Yana derdi: "Shirakayf, mastmen,
Yo'l hisobiga qodir ermasmen.

Ulki yo'lda rahbar do'stu yordir,
Yo'lni bilguvchidir, hushyordir".

Xullas, borishardi shu tob
Biri ohista, boshqasi shitob.

Orqadagi orqada qolsa gar,
Oldindagi yur derdi jadal.

Yo'lda andoq etdilar parvoz,
Kutmaganda qichqirdi xo'roz.

3300

Qanot silkib subhidam qushi,
Tun kechdi, yoyildi tong kumushi.

Diydayi mardumi xayolparast
Xayolbozlikdin bo'ldi xalos.

Sherigi yo'qoldi nogahon,
Mohon qoldi yo'l uzra hayron.

Mastligu charchoqdin ufladi,
Bir joyga tashladi o'zni, uxladi.

Shamdek ko'z yoshlarin oqizdi-da,
Yarim kungacha yotdi uyquda.

3305

Quyosh qizdirib, yoqdi boshin.
Alam kuydirardi ichu toshin.

Yo'lim toparmanmi deb oyo,
To'rt tarafga tashladi nigoh.

Gul izlab, topmadi yantoqdin o'zga,
Ko'nglida alam-dog'din o'zga.

Manzili bir o'ngir, g'or edi hamon,
Ilonlari naq ajdahosimon.

Garchi oyoqda oz madorasi,
Yurishdin o'zga yo'qdi chorasi.

3310

Qadam tashlardi, yo'l havosi yo'q,
Yo'l bosardi, rahnamosi yo'q.

Tun shohi joy oldi sepoyasidin,
Qo'rqardi boqib ul o'z soyasidin.

Tun qaro pardasin yozib har yon.
Oq libosini yechdi osmon.

G'or oldida hushsiz yiqildi, oh,
Ilon erdi nazdida har giyoh.

Devoxonada yotardi chun behush,
Nogoh qulog'iga etdi tovush.

3315

Ko'z ochib, ko'rdi yo'lda shu dam,
Bir erkak, bir ayol erdilar hamdam.

Yelkalarda yuk erdi shu pastda,
Yo'l bosib kelishardi ohista.

Erkak Mohonni ko'rgani zamon
Ayolni qoldirib, keldi hamon.

Ovoz berib dediki, hoy, kimsan?
Nechun bu makonda maskunsan?

Dedi: "Bir g'aribmen, yo'q komim,
Mohoni Go'shujor erur nomim.

3320

So'rdi: "Nechun kelding bu yoqqa, hoy,
Chun xarobotxonadir bu joy?

Devlar makonidir bu ko'pu kam,
Dod chekar dastidin arslon ham".

Dedi: "Lillohu fililloh, ey mard,
Mardlik qo'lini cho'z, himmating ko'rsat.

Ki men bunda andoq aftodamen,
Dev emas, odamiyodamen.

Kecha oldimda erdi dasturxon,
Iram bog'ida men aziz mehmon.

3325

Birov kelib dedi: hamolingmen,
Ulfating, sherikmolingmen.

Bihishtimni keyin xarob aylab,
Yo`qoldi. menga chun azob aylab.

Menga va`dasi edi yorlik,
Yo g`alat qildi, yo g`alatkorlik.

Yaxshilik qil menga, tutgil qo`lim,
Adashdim yo`l bosib, ko`rsat yo`lim”.

Kishi dediki, ey yigit, dumbul,
O`limingga bir baxya qolmish ul.

3330 Dev cdi ko`rganing, dema insoniy,
Nomi Hoyili biyoboniy.

Necha yuz jonlarni adashtirdi,
Necha jonlarga o`t qalashtirdi.

Menu bu ayol – do`st-yoringmiz,
Tun aro nigohdoringmiz.

Xotirjam bo`l, aroga kir bu dam,
Yo`l bosgil biz bilan qadam-qadam”.

Mohon aroga kirdi hamon,
Mil-mil bosdilar ravon.

3335 To tonggacha birov so`z qotmadi,
Yurdilar toki tong otmadi.

Bir mahal bir yoqdin qichqirdi xo`roz,
Tong ufuqqa yoydi zarrin palos.

Ul ikovlon ko`rinmay qoldilar.
Nogahon ko`zdin yo`qoldilar.

Yana Mohon oyoqdin qolib,
Yiqildi bir joyga charchab, horib.

Kun quyoshdin ro`shnolik berdi,
Tuproq tundin guvohlik berdi.

3340 Holi tang, tog`ma-tog` yurdi Mohon,
Tog` dema, sheru qoplonga makon.

Toqati toq, sudralib yurdi,
Yemishi nadomatu dard erdi.

Giyohlar ildizi, urug`in yig`ib,
Qanoat qilardi non o`mida yeb.

Turmoqqa tobu toqati yo`q edi.
Yurmoqqa dag`i rag`bati yo`q edi.

Tungacha har taraf qadam qo`ydi,
Jonidin, jahondinam to`ydi.

3345 Jahon kunduzi yuziga tortdi qaro,
Yo`lchi to`xtadi, tindi zulmat aro.

Hamon bir g`orga kirib yotdi,
Yuzni yo`lovchilardin berkitdi.

Nogoh ot tuyog`i sasin tuydi,
Chiqib boqdi, yo`lda suvoriydi.

O'zi minib manglayi qashqa otni,
Yetaklab kelardi boshqa otni.

Yaqinlab keldi va ko'rdi shu lahza,
Toshga suyangacha turar bir kimsa.

3350 Dedi: "Hoy, kimdirsen. jinmisan, inson.
Nechun bu joyni tutmishsen makon?"

Kimliging ayon et, yo'qsa shu zum
Boshingni taningdin judo aylagum!"

Qo'rquvdin titradi Mohonning tani.
Kirishdi holini bayon etgani.

Dediki, ey yo'lovchi, xushxirom,
Sarguzashtim eshit, aytarmen tamom.

Nelarni boshiga solmishdi taqdir,
So'yladi, yo'lovchi tingladi bir-bir.

3355 Mohon qissasini andoq tinglabon.
Hayrat barmog'ini tingladi shu on.

Dedi so'ng: "Men o'qirmen lo havi,
Ki ikki bor senga ko'z tikmish ajal.

Erkak-ayol deding, shayton ular,
Odamiydin yo'ldin urguvchilar.

Odamiyni yiqib, to'karlar qon,
Qocharlar xo'roz qichqirgan zamon.

Ayoli Xilodir, erkagi G'ilo,
Qilmishlari nuqul dardu balo.

3360

Shukur qil, sog' qolding haytovur,
Jinsi inson esang, o'mingdan tur!

Otga min, jilov tort, ey odamiy,
Har yaxshi-yomondin zaboning tiy.

Izimdin yeldek otni sur, hayda,
Dilingda Xudoyingni yod ayla..."

Ojizu bechora tark ayladi g'or,
Ot minib, yo'lga bo'ldi savor.

Onchunon ot surib, yo'l soldi,
Har safar el orqada qoldi.

3365

Uzun-uzun yo'l bosib ketdilar,
Xatarli tog'lardin oshib o'tdilar.

Ortda qoldi tog'lar, baland, so'ngsiz,
Paydo bo'ldi dasht kaftdek tekis.

Har tarafdin taralardi sado,
Barbat nolasiyu savti navo.

Bir yoqdin sas: biz taraf et xirom!
Bir yoqdin hayqiriq: sipqar jom!

Sahroda yo'q edi sabzayu gul,
G'ul uzra g'ul edi, g'ud uzra g'ul.¹³⁶

¹³⁶ G'ul – devu shayton.

3370

Devlarning dastidin qolib baloga,
Sahro toqqa bo'zlardi, tog' sahroga.

Mingashib minglarcha devu shayton,
Dara, dasht oralab solardi suron.

Shamol bo'lib, tuproq sochardi bari,
Qaro erdi afti-basharalari.

O'shal joyga yetarkan, tikka
Hayyo-huy ovozlari yuksaldi ko'kka.

Barisi qars urib, raqs etardi,
Shovqin-suron boshni gangitardi.

3375

Valvala ortar erdi har zamon,
Lahza-lahza battar erdi suron.

Bir soatcha kechdi, shu palla
Uzoqdin ko'rindi ming mash'ala.

Ko'rindi muncha shaxs daf'atan,
Jussalari bahaybatu baland.

Qalin lablari zanjijona qaro,
Hama qatronqabovu qirkuloh.¹³⁷

Hama xartumli erdiyu shoxdor,
Filu ho'kiz topmish bir joyda qaror.

¹³⁷ To'nlari ham, qalpoqlari ham qora edi.

3380

Qo'llarda mash'ala yonar edi, bas,
Hama badbashara, xunuk, badmast.

Og'izdin olov purkardi bari,
Yelka silkib, qo'shiq aytardi bari.

Gum-gum childirma chaldilar so'ngra,
Dunyoni o'yinga soldilar so'ngra.

Qarolar suroni ko'pirdi toshdi,
Mohon mingan ot ham o'yinga tushdi.

Mohon oti sari tashladi nazar,
Oyoqlari qanot chiqarmishdi, par.

3385

Ostida mehnatu balo ko'rdi,
Ot emas, bir ajdaho ko'rdi.

To'rt oyoqli, ikki qanotli erdi,
Yetti boshli, ajdar sifotli erdi...

Falak chun bizni chirmamish o'rab,
Yetti boshli ajdar emasmi, ajab?

Mohon bardosh berib ajdar o'yiniga,
Yopishib olmishdi uning bo'yniga.

Ostida ul devi ajdarsimon.
O'yin ko'rsatardi yangi har zamon.

3390

Oyog'ini yerga urardi gohi,
Egilardi, bukilardi gohi.

Mohon uning ustida shu asno
Selda oqqan xashakdek go`yo.

Goh u yon. goh bu yonga silkinib,
Toliqdi, xastayu ado bo`lib.

Bas kelolmasdi ul badmastga,
Goh balandga chiqar, goh tushar pastga.

Koptokdek uchardi goh joyidin,
Boshi joy olardi goh poyidin.

3395 Schru jodu etishdi unga boz,
Toki nogoh qichqirmaguncha xo`roz.

Mohon shu dam botib jiqqa terga,
Ajdaho ustidin yiqildi yerga.

Nishon qolmadi suronu otashdin,
Qaro qozonlar tindi qaynashdin.

Yana ojiz tani tuproqqa botdi,
Boshi gir aylandi, hushin yo`qotdi.

Yotdi shu alpozda hushdin ketib,
Xastadek yoxud jon taslim etib.

3400 Yotdi quyosh qizdirmaguncha to,
Na o`zdin, na jahondin ogoh.

Harorat oshganda ayni tush,
Tani qizib, boshiga yetdi hush.

Ko'z ochib, oyoqqa zo'rg'a turolди,
Dam o'ngga, dam so'lga nazar soldi.

Atrofida ko'rdi biyobonni,
Biyobon erdikim, yo'q poyoni.

Qum erdi hammayoq, qum erdi ortiq,
Qon singari qizil, do'zaxdek issiq.

3405 Bosh kessalar, shaylab o'qar xunga,
Charm yozib, qum to'karlar unga.

Biyobon talabgori xun edi,
Ostida charm, ustida qum edi.

Mohon zo'r berib ikki ko'ziga,
Sabru toqat ila keldi o'ziga.

Netdi yirtqichlar oshiyonidin,
Yo'l izlab dasht har tomonidin,

Yugurardi tutundek betinim,
Zahrolud havodin qalbida vahim.

3410 Yugurardi, unga taraf yo'q,
Unga yetolmasdi otilsa o'q.

Qosh qorayib, qanotin yozdi shom,
Biyobon orqada qoldi tanom.

Sevindi bir yashil bo'ston ko'rib,
Sharqiroq suv, obi ravon ko'rib.

Suv ichib, yuvinib, ochdi chiroy,
Yotib uxlamoqqa izladi joy.

Derdi: "Kosh uxlasaydim toshsimon,
Tunlari xotirim bo'lur parishon.

3415 Oshubi savdodir mizojimda,¹³⁸
Havo quruq, yakkamen yo'lda.

Vasvasa xayollar kosh bo'lmas erdi,
Xayolbozlik xotirimni ezdi.

Yotib uxlay endi rohat aro,
Iloyo, uyqumda bosmasin qaro..."

Manzil osha yana yo'l yurdi,
Yotishga oromgoh qidirdi.

Yetdi bir joyga, tinch kanor edi,
Unda uzun lahim bor edi.

3420 Laxim oxirida uzun quduq,
Ichida soya, o'zga narsa yo'q.

Oyog'i quduq tubiga etdi,
Qush oshiyonidek makon tutdi.

Bu joyning bexatarligin tuyib,
Uxladi ul tuproqqa bosh qo'yib.

¹³⁸ Savdo – malxulyo (melanxoliya) kasalligi, quruq havoda kuchayarmish.

Bir fursat uxladi, yana uyg'oq,
Bosh ostin tuzatdi yig'ib tuproq.

3425

Bolish yasar ekan tuproqdin,
Sezdi, nur tushardi alla qayoqdin.

Quduqqa qilcha nur tushardi, yorug',
Tol soyasida sumanbar yanglig'.

Boshin har yon burib, boqib o'ngu so'l,
Izladi, yorug'lik qaydin kelar ul?

Tuynuk ochilmishdi xiyla balanddin,
Osmon oy shu'lasin sochardi andin.

Ko'rdi, oy dema, favvorayi nur,
Falakdin zaminga durdek sochilur.

3430

Panjap, timog'ini zud ishga soldi,
O'sha tor tuynukdin kengayta oldi.

Chunon kengaytdiki, surib toshin,
Tashqariga chiqara oldi boshin.

Boshin chiqarib, bog'-gulshan ko'rdi,
Bir nurli chaman, latifu ravshan ko'rdi.

Jahd etib, raxnani kengaytib ul,
Tashqariga ololdi o'zni butkul.

Bog' dema, erdi ul bog'i bihisht,
Iram uning oldida ne emish?

3435

Ravzagoh erdi, husnu tob unda,
Sarvu shamshod behisob unda.

Daraxtlar qomati bukilmishdi,
Shoxlari mevadin egilmishdi.

Mevalarki, turfa, beandoza,
Jon andin tozayu u jondek toza.

Olmalar la'lrang jom yanglig',
Anorlar qadah erdilar, aqiq.

Behilar atrini taratganda,
Pistalar labidin uchib xanda,

3440

Shaftoli butog'i bo'liq erdi,
Mevasi qirmizu sariq erdi.

Xalifa luqmasi mo'zga so'ylab roz,¹³⁹
Xurmodin uch bo'sa olardi ro'y-rost.

Shakaramrudda chun shakar kulgu,
Unnob butoqda – shoda inju.

Anjirda asal, bodomda mag'z,
Boqsang, ko'ngilda qo'zg'alur havas.

Uzum – tok boshida dol kuloh,
Sharbatga to'lmishdir oqu qaro.

¹³⁹ Xalifa luqmasi, mo'z – issiq o'lkalarda o'sadigan mevalar.

3445

Har joyda norinju har yonda turunj,
Mevalar butoqlarda g'uj-g'uj.

Bo'stonda ranglardin ne nayrang,
Qovunlar turfa-turfa, rango-rang.

Har yoqda olmayu jiydayu nor,
Unnob o'xshab novot toti bor,

Chun Mohon kirib, bihisht kezdi,
O'zni do'zax go'shadin xalos sezdi.

Sarxil mevalarga boqib hayron,
Uzib, necha birlarin edi chandon.

3450

Uchdi bog'da nogoh bir ovoz,
"Tuting o'g'rini!" degan ayuhannos.

Keksa chol g'azabga to'lib shu chog',
Ko'rindi, qo'lida uzun tayoq.

Dedi: "Ey meva o'g'risi, kimsen?
Nega so'roqsiz boqqa kirmishsen?"

Necha yildirki, shu yurak dog'im,
Tunlari o'g'ri qiyraturo bog'im!

Kimsen? Kimning zotidin asling?
Isming ne? Qaysi qavmdin nasling?"

3455

Mohon eshitdi chun, oh chekdi,
Bordi, chol oldida boshin egdi.

Dedi: "Bir g'aribmen, devona,
O'z yurtidin adashgan, begona.

G'aribni et mashaqqatdin xalos,
To degaylar noming g'aribnavoz.

Uzrxohlik ila anglatdi hol,
Bildi, dilnavozlik ayladi chol.

Qo'ldagi tayog'in uloqtirdi.
O'ltir deb o'zi ham o'ltirdi.

3460 Dedi: "Nelar kechdi boshingdin, ayt,
Nelar ko'rding nazdingda shu payt?

Yomonlardin ne jafo ko'rding?
Bexiradlardin ne balo ko'rding?

Baski pir etdi chun dildorlik,
Moxon ayladi xushguftorlik.

Sarguzashtin aytib, etdi ayon,
Ne balolar ko'rganin qildi bayon.

Kelib mehnat uza mehnat anga,
Har kecha yetdi ne shiddat anga.

3465 Va oxirda noumid bo'lganin,
Qalbi qayg'u-alamga to'lganin.

Va nihoyat ul chohu ul charog'
Bois nechuk muyassar bo'ldi bog'.

Birin-birin so'yladi qissasin,
Yashimnadi bir zarra hissasin.

Tingladi kekxa, ma'yus tortdi,
Mog'onga maylu rag'bati ortdi.

Dedi: "Nasibing yetdi ezgudin,
Qutulding ranj ila qo'rquvding.

3470 U pastkash xaylidin xalos bo'lding,
Yetib chun ganjxonaga kelding".

Ko'rdi Mohon, chol rafiqu yor erdi,
Mehribon erdiyu madadkor erdi.

So'rdi: "Ne ul makoni mardumxor,
Qaysi zamindiru qaysi diyor?"

Tunov kun ko'rsatdi qiyomat menga,
Kelmamishdi mundoq bir ofat menga.

Otash urib, dimog'im kuydirdi,
Kuydirib, jonimdin to'ydirdi.

3475 Dev ko'rib, hushimni tark etdim,
Qo'rquv bosib, shu holga yetdim.

Ko'rdim qarshimda minglab devmakon,
Har birida ming devu shayton.

U tortib, bu qulatardi nuqul,
Devu dad erdi, ne kasofat ul.

Qorong'ulikka yorug'lik kalit,
Qarolikda oqlikdandir umid.

Men qaro uzra chun qaro ko'rdim,
Qarolikdin o'zni ado ko'rdim.

3480 Qoldim shu chorasiz boshim ila,
Og'zim qurab, ko'zda yoshim ila.

Goh ko'zim dastidin yig'ladim,
Goh ko'zlarim silab-siypadim.

Qadam tashlab, yo'l bosardim to,
Dam "lohavl"u dam "bismilloh".

Mushkulotimga Xudo berdi najot,
Zulmatim bag'ridin obi hayot.

Bog' uchratdim bihishtga o'xshash,
Bog'boni bog'idin ham dilkash.

3485 Kecha vahimdin yetib jonimga,
Bu oqshom yetishdim komimga".

Pir dedi: "Ey g'amdin bo'lib ozod,
Najot harimida topgan najot!

Biyobonki, cho'zilmish ul taraf,
Devlar makonidir, dasht, bealaf.

Va ul biyobon ahli zanjisor,¹⁴⁰
Devi mardumdirlar, mardumxor.

¹⁴⁰ Zanjisor – zanjiyga o'xshash.

Avvaliga firib bergaylar,
Qo'rqitib so'ngra sindirgaylar.

3490 Rost so'ylab, etgaylar shum o'yin,
Yo'l boshlab, chohga otgaylar keyin.

Mehrlari g'azabga rahbardir,
Dev degan bo'yla firibgardir.

Odamiy borki, devdanam o'tgay,
Odamiylikni chohga irg'itgay.

Bu shaytonlarni shum dema yakka,
Ablah bo'lib, kulgaylar ablahga.

Yolg'onga rostni to'n etgaylar,
Zaharga asal qo'shib, tutgaylar.

3495 Yolg'onning kimga etgay madadi?
Rostlikdir hukmnamoyi abadiy!

Rostlikdin baqoga kalit kelgay,
Sehr etsang, mo'jizadin umid kelgay.

Soddadil emish gavhari toshing,
Xayolga chulg'anibdir chun boshing.

Xayolbozlik yetgach maromiga,
Soddadillarni tortar domiga.

Qo'rquving senga turktoz etmish,¹⁴¹
Xayoling sehru jilvasoz etmish.

¹⁴¹ Turktoz – hujum.

3500

Keyin hama hujumga o'tmishlar,
Yo'ling adashtirib, yo'qotmishlar.

Diling gar ustuvor bo'lsaydi ul,
Bo'lmasdi xotiring xayolga qul.

Joning qutuldi devxonadin, xush et,
Qo'y quyqani, toza may no'sh et.

Onang bu oqshom yangidin tug'di,
So'ng Ezid seni menga topshirdi.

Bihishtoso bu bog'nikim ko'rding,
Mashaqqatlar chekib men o'stirdim.

3505

Mehnatim tufayli chunon yashnar,
Har guli buni e'tirof aylar.

Mevalarki, turfa, alvondin,
Har daraxtki ayru bo'standin.

Mevasi gar gahi kam bo'lgay,
Bir shahar andin muhtasham bo'lgay.

Izmimda yana saroyu ombordir,
Gavharu ganjim unda xarvordir.

Hama narsam boru yo'q farzandim,
Suyanchim, yurakka payvandim.

3510

Ko'riboq kimliging angladim,
Seni farzandlikka tanladim.

Rozi bo'lsang, degaymen o'g'lonim,
Tutashur har lahza nomingga nomim.

Shu bog'u chamanda yurgaysen,
Nozu ne'mat gashtin surgaysen.

Istasang, bir go'zal, mahliqoni
Kelin qilib keltiray hamoni.

Ikkingizga boqib, murodga yetay,
Har neki tilarsiz, muhayyo etay.

3515 Gar so'zinga rozi bo'lsang, shu on
Qo'lingni ber, qil ahdu paymon".

Mohon dedi: "Bu so'zni kim demish?
Tikan sarvga barobarmi emish?"

Yetarmen jon deya farzandlik,
Qulga nasib etding xudovandlik.¹⁴²

Shod bo'lkim, aylading shodon,
Sen ila xonumonim obodon!"

Qo'lini Mohon qo'lga boyladi pir,
Ont ichib, ahdu paymon ayladi pir.

3520 Dedi: "Tur!" mehmon o'rnidan turdi,
Uni o'ng tomonga olib yurdi.

Borgoh ko'rsatdi, muhtasham, baland,
Muzayyan erdi zebu ziynat bilan.

¹⁴² Xudovandlik – xo'jayinlik ma'nosida.

Ayvoni erdi yam-yashil dilkash,
Gumbazi o'ylakim falakka tutash.

Devoru sahni erdi marmardin,
Naqshi firuza, simu zardin.

Sahni keng erdiyu tepasi tor,
Shox yoymishdi sarvu tolu chinor.

3525 Dargohning berk eshigi bor edi,
Kamarini osmon o'par edi.

Kayoniy ul ayvon oldida og'och,
Sarvinoz o'sardi yozib quloch.

Shox ustida shox mingashgan edi,
Butoqlar yergacha qalashgan edi.

Va unda silliq taxtadin necha,
Baland bir taxt yasamishdi xo'ja.

Gilamlar to'shalmish, yashnab har yog'i,
Yumshoq edi, go'yo daraxt yaprog'i.

3530 Pir dedi: "Och qolib, istasang taom,
Adashtirma, shu yerga kel mudom.

Bunda sufra osiq, ostida ko'za,
Shirin nonu zilol suv, pokiza.

Men borib, tadorik aylayin,
Senga deb oromgoh shaylayin.

Kelishim kut, sabru bardosh qil,
Shu balanddin pastga tushmagil.

Birov kimsan deya etsa xitob,
Unga sukut ila ayla javob.

3535 Kimsaning shirin so'ziga uchma,
Tush, desa, aldanib, pastga tushma.

Men kelsam-da, sinchiklab ko'r yuzim.
Yaqinlashmoqqa so'ngra ber izn.

O'rtada ahdu paymondir magar,
Suhbatimiz kechdi shirin-shakar.

Shu bog' – bog'ing, xona – xonang erur,
Oshiyonam oshiyonang erur.

Shu kech yomon ko'zdin turolsang yiroq,
Boshqa kechalarda chekmaysan firoq".

3540 Pir pandu nasihat aylab shu dam,
Yana bir bor ichdirdi qasam.

Qayishdin narvoni bor edi.
O'shandin balandga chiqar edi.

Pir dedi: "Tortib ol, yerda yotmasin,
To birov senga daxl etmasin.

Bu kecha ilonni etolsang kamar,
Xazina topgaysen erta tong-sahar.

Garchi halvoyimiz eding tunda,
Za'faroni – ertagi kunda.

3545 Shuni aytib, yo'lga bo'ldi ravon,
Mehmonga joy hozirlashga hamon.

Mohon ham tepaga chiqib shu oni,
Erdin tortib oldi qayish karvonni.

Chiqib, baland taxt uzra o'ltirdi,
Pastu balandliklar poyida erdi.

Shu go'zal maskanda omad erdi yor.
Shamol har tarafdin sochardi ufor.

Tugik dasturxonni so'ngra ochib ul,
Yupqa nonu saryog' etdi tanovul.

3550 Taxti erdi chu rumiy oroyish,
Topdi chiniy zamindin osoyish.

Yetdi sandalu kofur atri ortiq
Ranji savdodin dilin forig'.

Yonboshlab, boqqa ko'z soldi shu dam,
Yiroqdin ko'rindi yigirma sham.

Kelinchaklar qo'llarda sham erdi,
Mohon ularga termulib turdi.

O'n yetti sulton ochmish tal'atin.
Olib oying o'n yetti xislatin.

3555

Har biri oroyishi zar aylab,
Yuzni gul, labni shakar aylab,

Bog'suffaga yetdilar shu chog',
Qo'llarda sham, o'zlari charog'.

Bazmgoh xusravona tuzdilar,
Ne'mat to'ldirib sufra yozdilar.

Sham oldida sham yonardi bot,
Yuzma-yuz erdi zavqu nishot.

Bir pariroy' edi ularga rahbar,
Dur shoda marjon ichra gavhar.

3560

Kelib, to'rga chiqib o'ltirdi ul,
O'zgalarga ishorat berdi ul.

Hama qushlardek chekdilar navo,
Qushlar hamon tark etdilar havo.

Oldilar sochib navo sehrini,
Yerda Mohon, ko'kda oy sabrini.

Raqs etdilar davrada charx urib,
Har lahza yer tepib, qars urib.

Yel esib, atru ufor sochdi,
Kumushdek siynalarni ochdi.

3565

Oppoq, kumush siynalarni ko'rib
Mohon turardi zoru muztarab.

Istardi ul dag'i dil xushlasa,
Daraxtdin o'zni yerga tashlasa.

Etsa parilar birla rohatga,
Qiyomatsiz kirs a jannatga.

Lekin pir aytganin aylar edi yod,
To'xta, deb sabriga berardi sabot.

Lekin ul parilar olishmasdi tin,
Har lahza ko'rsatib yangi bir o'yin.

3570 Fusun ko'rsatib chun husn uzra,
Xontaxtalarga yozdilar sufra.

Suv, olov ko'rganamish taomlar
Mushkin gulob ila limmo-lim jomlar.

Sho'rvosida za'faron, shakar erdi,
Anor sharbati ham afzal erdi.

Qo'zichoqlar shirmastu bulg'oriy,
Toza baliq, qush edi shikoriy.

Shirin patir nonlar kofur kabi oq,
Pari siynasidek nafas va yumshoq.

3575 Halvolar necha tur va parvarda qand,
Har nechuk mehmonni etardi xursand.

Mazali kulchalar oshar ming son din,
Parvarish topmishdi moyu rayhondin.

Bo`ylakim dasturxon yozdilar,
Dasturxon demakim, jahon yozdilar.

Go`zallar shohi bir go`zalga dedi:
"Toqimiz istarki, juft bo`lsin endi.

Ud atrin tuyarmen sandaldin hamon,
Yugur o`shal udu sandal tomon.

3580 Ud yopinib, atriga burkanmish,
Sandalga bosh qo`yib, sandaliy ermish.

Qaro udu sariq sandaldin necha
Bizga bir hid baxsh aylamish kecha.

Atri oldi boshimizdin hush,
Qo`shilsa unga xislati, na xush!

Tanishdir bizga dami, nafasi,
Chun daraxt ustida ortar havasi.

Chaqir, pastga tushsin, noz etmasin.
Kelib, xayolimiz-la o`ynasin.

3585 Gar kelmasa, degil, kutar sufra,
Mehr ko`rsaturniz mehr uzra.

Kelmasa mehmon, bizda odat shul,
Bir kimsa sufraga uzatmas qo`l.

Kel, degil, iltijo et, yolbor,
Yetmasin suframizni intizor".

Bordi sandal og'ochga nozanin,
Labi aqiq edi, so'zi mayin.

Bulbulday sayrabon salom berdi,
Kutgani daraxtdin tushib keldi.

3590 Mehmon edi raqs etmoqqa mohir,
O'yin o'ynameqqa hamon hozir.

Nozanin ortidin ergashdi hamon,
Chu andin kutardi dardiga darmon.

Yoshlik olovida yonib butkul,
Yod etmadi pining o'giting ul.

Yoshlik qoni jo'sh urgan zahot
Keksalar pandini aylarmidi yod?

Ishq sharmu hayoni tuproqqa qordi,
Mohon oy yuzlining yoniga bordi.

3595 Oy yuzli qo'zg'oldi ko'rib Mohonni,
Ta'zim-la qutladi aziz mehmonni.

O'tqizdi xos kursiga shu tob,
Biri shakar tutdi, biri gulob.

Bir dasturxondin so'ng taom yedi,
Ki mehmondo'stlik sharti shul edi.

Ko'rsatib unga mehru ixlos,
Tutdi dilbar navolayi xos.¹⁴³

¹⁴³ Navolayi xos – tansiq taomlar.

Yeb-ichish yetib haddiga tug'al,
Yoqut jomu bodaga yetishdi gal.

3600

Ketma-ket sipqarib mayi xurmo,
O'rtadin ketdi sharmu hayo.

Boda sharmu hayoni chun surdi,
Mohon mehri go'zalga jo'sh urdi.

Parivash erdi gul ochmish bahor,
Oldida hech edi yuz ming nigor.

Ajab nozik badandi ul dilbar,
Borlig'i oppoq sut edi, shakar.

Yanog'i olma, dilpisand erdi,
Dudog'i ul gulobu qand erdi.

3605

Gul erdi, tegrasi orasta bog',
Nur erdi, o'zi sham'u charog'.

Oy shu'lasin sochib zarra-zarra,
Mohon mehri oshardi ming karra.

Goh silardi yuzi tal'atin,
Goh so'rardi labi sharbatin.

Nihoyat quchdi lo'abati Chinni,
Guli sarbargu sarvi siyminni.

Labin labi yoqutga qo'ydi ul,
Yoqut muhrin aqiqqa qo'ydi ul.

3610

Labidin necha bo'salar oldi,
O'pib, ko'zlariga nazar soldi.

Ko'rdi, ifrit edi, ko'zlari lo'q,
Xudo g'azabidin yaralmish maxluq.

Dev erdi, go'r og'iz, qilich dandon,
Ajdaho erdi, ko'rmamish inson.

Ajdaho dema, ahraman erdi,
Yerdin osmongacha dahan erdi.

Bukri erdi, nauzubilloh, chunon,
Beli misli bukilgan kamon.

3615

Qaddi yoy erdiyu yuzi xarchang,¹⁴⁴
Badbo'yi ketardi ming farsang.

Burni – xumdon tandirin ko'rasi,
Og'zi – bo'yoqchilar tog'orasi.

Lab ochsa, ochilur komi nahang,
Quchog'ida mehmonning holi tang.

Yuzi-ko'zdin oshkoru nihon
O'pardı mehmonni, derdi hamon,

Ki, "Ey changalimga tushib boshing,
Tishim ko'zingdin oqizur yoshing!

3620

Menga changal urding, dandon ham,
Quchib, lab o'pding, zanaxdon ham.

¹⁴⁴ Xarchang – saraton, qisqichbaqa.

Changalu tishimga boq, tig'u sinon,¹⁴⁵
Changalu tish chunindir, na chunon.

Ul zamon rag'bating erdi durust,
Ne bo'ldi, bu zamon rag'bating sust?

Lab o'shal labdir, ol bo'salar,
Yuz o'shal yuzdir, uzma nazar.

Olma soqiy qo'lidin bodani.
Baloga giriftor aylar seni.

3625 Tor ko'chadin ijara olma, hay,
Mirshabi o'g'ridir, talon etgay.

Eslagil, senda ne havo erdi,
Olursen loyig'ing jazo endi.

Bermasam loyiq jazoying bot,
Mayli, avvalgidck bo'lay parizod".

Deb yana ta'nayu dashnom so'ylar edi,
Va zulmu taaddiy aylar edi.

Mohon yig'lardi oh-voh urib,
Oy o'mida och ajdaho ko'rib.

3630 Kumush boldir to'ng'iz tuyuq bo'lmish,
Ho'kiz ko'zli ho'kiz oyoq bo'lmish.¹⁴⁶

¹⁴⁵ Sinon – nayza.

¹⁴⁶ Ho'kiz ko'zli – mumtoz adabiyotda shahlo ko'zli ma'nosini anglatgan.

Ajdahodin chekarkan jabru sitam,
Mohon ishtoniga qo'ydi shu dam,

Vahmidin boladek qichqirdi shu on,
Tug'ayotgan ayoldek chekdi fig'on.

Lek qaro qobon olmasdi tin,
Yog'dirardi o't-olov bo'sasin.

To ul qadarki, tong yuz ochdi,
Xo'roz qichqirdiyu dev qochdi.

3635 Jahon otib pardayi zulmatni,
O'rtadin ko'tardi xayolotni.

Ul sopolgavharu la'lnamoy
Ketdilar bari, bo'm-bo'sh qoldi joy.

Yotdi Mohon tuproqqa botgancha,
Kunduz yoyilib, tushga yetguncha.

Quyosh tanin qizdirib shu ora,
Hushiga keldi zo'rg'a bechora.

Ko'zini ochdi, ko'rdi, ne emish?
Do'zax kelib, g'oyib erdi bihisht.

3640 Ul binoki, asli xayol erdi,
Turfa uldirki, turfa hol erdi.

Bog' o'rnida tikanzor ko'rdi ul,
Sufra o'rnida mozor ko'rdi ul.

Sarvu shamshodi xoru xas hamon,
Mevasi chumoli, novdasi ilon.

Qush qanotlariyu echki oyoqlari
Losh erdi, chirib-bijg'igan bari.

Nayu changu rubobu zamzama –
Jonivorlar ustuxoni hama!

3645 Gavhardin muzayyan pardalarki ul,
Oshlanmagan teri erdi butkul.

Hovuzlarki, ko'z yoshidek zilol,
Axlal to'la ko'lmak erdi zavol.

Ulki emishdi, boqiy erdi,
Ulki, jur'arez soqiy erdi.

Ulki, qolmishdi rohatlardin,
Yiring edi jarohatlardin.

Ulki, rayhon edi yo'lda davom,
Hojatxonadin erdi tamom...

3650 Mohon yana hayronu lol erdi,
Kuyib, astag'furilloh derdi.

Na yurishga oyog'ida mador,
Na qolishga qalbida qaror.

Derdi: "Ajab, nechuk ishdir bu,
Ne qilmish, ne qidirmishdir bu?"

Kecha ko'rmishdim bog'u bo'ston,
Bugun ko'rganlarim go'riston!

Gul ko'rsatib, aslida xor mundoq,
Hosili bog'i ro'zgor mundoq?

3655 Bexabarmiz, nechuk navo bo'lgay,
Oy suratida ajdaho bo'lgay.

Ko'rarsen, pardani ko'tarsang goh,
Ablahlar o'yin ko'rsatar nogoh.

Yana rumiyu chiniy o'rvida
Ko'rarsen zarjiylarni unda.

Qon surilgan ul teriki, albat,
Zohiri gul esa, botini axlat.

Ul teri hammomdin chiqar bo'lsa,
Gulxaniyni xushlamas hech kimsa.

3660 Bilimdon ilonmuhra olmish,
Muhramas, ilonga kuni qolmish.

Bir bexabar kezib ishq vohasin,
Ud novdasin topmish mushk nofasin".

Badxohlardin xalos bo'ldi Mohon,
Men ham hikoyatin etdim tamom.

Yaxshi niyatlarin oldinga oldi,
Tavbalar ayladi, nazrlar qildi.

Xudoga yolhordi pok ko'ngil ila,
Ko'zidin qon to'kib. yig'lab bir yo'la,

3665

Yetishdi musaffo suvli buloqqa,
Yuvindi, yuzini bosdi tuproqqa.

Bosh urib zaminga, sajdalar qildi,
Bekaslar kasiga nolalar qildi.

Ki, "Ey berguvchi, menga ber omad,
Ey ko'rsatguvchi, yo'lim ko'rsat!

Yo'lim och, to yo'limni ko'rgaymen,
Ko'rsatganing tomonga yurgaymen.

Yo'l uzra muztaribmen, tanho,
Sendin o'zga yo'q menga rahnamo!"

3670

Xudoga yalindi, oh urdi,
Oh urib, tuproqqa yuzin surdi.

Boshini ko'tarib, ko'rdi shu lahza,
Erdi boshida nuroniy kimsa.

Bahor faslidek yashil to'nlik,
Qizil yuzliyu chehrasi nurlik.

So'rdi: "Kimsen, xo'ja, niyating nedir?
Qimmatli gavharsen, himmating nedir?"

Dedi: "Xizrmən, ey xudoyparast,
Najoting bergaymen shu nafas!

3675

Yaxshi niyat qilding, ul niyating
Baxsh etar senga mulku davlating.

Qo'lingni menga ber, mehr sochgil,
Ko'zingni yumgilu yana ochgil".

Mohon Xizrda chun sabot ko'rdi,
Tashna erdi, obi hayot ko'rdi.

Qo'l berdi, arodin nafas kechdi,
Ko'zini yumdiyu yana ochdi.

O'zini ko'rdi ul anuv joyda,
Boshda dev uchramishdi. shu joyda.

3680

Ochib bog' eshigin, yurdi shitob,
Ortda qoldi o'shal mulki xarob.

Ko'rdi, do'st-yorlari edi xomush,
Bari motamda erdi, azraqpo'sh.¹⁴⁷

Har neki boshidin kechdi davom,
Birma-bir so'yladi, aytdi tamom.

Do'stlar uni o'ldi deb bilmishlar,
Shu bois to'ni azraq kiyimishlar.

Mohon do'stlarga mehr tuydi,
Ularga muvofiq ko'k kiydi.

¹⁴⁷ Azraqpo'sh – ko'k kiyimli.

3685

Ko'k rangdin u ham qaror topdi,
Falak rangidek ro'zgor topdi.

Ko'k, moviy ulki, osmoni baland
Yaxshiroq rang topmamish undan.

Kishi hamrangi osmon bo'lur,
Oftobi sufra uzra non bo'lur.

Guli azraqki, chun hisob etgay,
Rizqini nuri oftob etgay.

Qay tarafgaki quyosh yo'l olur,
Guli azraq unga nazar solur.

3690

Lojaram, har gulki azraq, bas,
Derlar uni hindu oftobparast".

Qissani chun tugatdi ul zebo,
Mehr-la og'ushiga oldi shoh.

**Shoh Bahrom payshanba kuni sandalrang gumbazli qasrda
taxtga o'ltirgani va oltinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinglagani**

Payshanba erdi kun mahbub,
Saodatdin Mushtariyga mansub.

Chun subhidam berdi ko'kka chiroy,
Ud yoqdi unga xoki sandalsoy.

Bas, zamin erdi sandalfom,¹⁴⁸
Sandaliy etdi shoh jomayu jom.

3695 Ko'ksaroydin chiqib shahriyor,
Sandaliy saroyda tutdi qaror.

May uzatdi anga Chin dilbari,
Obi kavsar tutdi huri, pari.

To kechgacha may no'sh ayladi,
May sipqarib, ko'nglin xush ayladi.

Surmarang muhitning sadafi ko'rkam
Durlarin nahang komiga sotgan dam.

Shoh dedi: "Ey chiniy shahbonu,
Ko'nglimiz gardu g'uborin yuv!"

3700 Chin guli chehradin chin ochdi,
Labidin so'z emas, shakar sochdi.

Dedi: "Ey jahonga jondirsən,
Shohsen, shohi jahondirsən!"

Sahroda qancha zarra qum yesa,
Tog'da toshu daryoda suv yesa,

Umring shuncha bo'lsin baxtga yor.
Umru baxtingga bo'l sazovor.

¹⁴⁸ Sandalfom – sandal rangli.

Ey o'zing nuri baxt berguvchi,
Podshosen. saltanat berguvchi.

3705

Men shu fikru andishaga to'la,
Bo'yla siniq, tugik til ila.

Oldimda chun guli rayhoni,
Nechuk etgaymen gulafshoni?

Lekin shohim nishoti jon istar,
Kulgu uzra za'faron istar.

Bas, endi sahifa ochgaymen,
Quvonch uzra xanda sochgaymen.

Shoyadki shohga manzur bo'lgay,
Aytganim ko'ngliga xush kelgay".

3710

Duo aylab so'ng paripaykar,
Shoh ilkidin oldi bo'salar...

Afsona

O'z shahridin chiqib ikovlon,
O'zga shaharga bo'ldilar ravon.

Har yigitning shu dam yelkasida
Yo'l ozuqasi erdi xaltasida.

Birining nomi Xayr, birining Sharr,
Har kimning fe'li ismiga o'xshar.

Ikki-uch kun yo'l bosdilar shundoq,
Yo'lda yo'l ozuqasin har chog'.

3715

Xayr yeb, Sharr yemasdi butkul,
Bu hosil o'rib, don ekardi ul.

Yo'l yurib, zahmat chekib jonga.
Etdilar bir dashtu biyobonga.

Issiq erdi, esib bodi samum.
Harorat etardi temirni mum.

Sharr bilardi, dasht suvsoq edi,
Suv taqchilu yo'l uzoq edi.

Mashkni suvga ul to'ldiribon,
Xaltasida tutar edi nihon.

3720

Xayr o'ylardi yo'lda suv bor deb,
Suv izlab chekmasmiz ozor deb.

Otash biyobonda kunu tun demay,
Ikovlon yo'l bosardilar tinmay.

Oradan shu yo'sin bir hafta o'tdi,
Xayr bechoraning suvi bitdi.

Sharr bekitib suvni pushmon emasdi,
Xayrga bu haqda bir so'z demasdi.

Xayr ko'rdiki ul badgavhar
Xaltada suvi bor, yashirin tutar.

3725

Vaqtivaqti bilan andin nihoniy
Simirar, o'ylakim mayi rayhoniy.

Xayrni yoqsa-da otash harorat,
Tishni tishga bosar, etardi toqat.

Bir yutum suvga ul ko'z tutardi,
Tashnalik dastidin qon yutardi.

Tashnaligi ortib, haddiga yetdi,
Uni bir choraga majbur etdi.

Bir juft la'li shahvori bor edi,
Olovrang va suvdek beg'ubor edi.

3730

Sharr oldiga qo'ydi ul gavharni,
Dedikmi, ol buni, ayagil meni.

O'ldim tashnalikdin, bergil najot,
Yo baxsh ayla suving, yoki sot.

Suvga sol shu ikki gavharni, siyla,
Obi ziloling-la navozish ayla...

Sharr unutmish edi insofi Haqni,
Nomiga muvofiq ochdi varaqni.

Ki, toshdin suv chiqargum dema,
Meni aldamoqqa umid aylama.

3755

Tang ahvolda berib gavharingni,
Shaharda qaytarib olarsen uni.

Odamiyzoda deb meni tutma kam,
Magar hiylakormen shaytondanam.

Ko'rmading hali chorasozligim,
Muhrang-la etgan huqqabozligim.

Ko'rganmen minglarcha makru firib,
Ezganmen barini boshiga urib.

Senga suv sotmasmen, sotsam agarda,
To'karsen obro'yim so'ngra shaharda.

3740 Agar olar bo'lsam shu gavharing,
Qaytarib olursen berganing.

Ber menga ul gavhar, injuni,
To qaytarib ololmagil uni.

Xayr deddi: "Ne gavhar erdi, ayt,
Ki qo'lingga tutgaymen shu payt?"

Sharr deddi: "Gavhari basirdir ul,
Har nechuk gavhardin azizdir ul.

Ikki ko'zing sot menga, ey rafiq,
Yo'qsa, suvdin umid etma ortiq.

3745 Xayr deddi: "Xudodin qo'rq hamon,
Olov olib, suv berarni inson?"

Suv bermoq xayrli odatdir,
Suv deb ko'z o'yimoq qabohatdir!

Ko'zlarimdin ayrilsam agar,
Menga yuz chashmadin ne samar?

Ko'z olib, suv bergaymu kishi,
Zarga suv ermasmi mardning ishi?

Gavharim ol, yana bor bisotim,
Dalolatnoma deb bergaymen xatim.

3750 Xudoning oldida icharmen qasam,
Bu oldi-berdidin bo'lurmen xursand.

Ko'zlarimga tegma, yomonlik etma,
Suvni deb beomonlik etma!"

Sharr dedikim, fasonadir bu,
Tashnaga mos bahonadir bu.

Ko'zni ber, gavharingdin ne sud,
Ko'z o'mini bosgaymu yoqut?..

Xayr arosat ichra qoldi tek,
Ko'z yoshlarin oqizdi ul suvdek.

3755 Ko'rdi, tashnalikdin o'lur shaksiz,
Shirin joni edi unga aziz.

Jonu tani suv so'rardi shu dam,
Tashnaga qayda ul sabru chidam?

Dedi: "Turgil, tig'u tos keltir,
Suv keltir tashnaga, tez keltir.

Diydayi otashim o'yib chindan,
So'ndir bu otashim suv birlan!"

Dediki, chun bo'lib men taslim,
So'nggida bir qonib suv ichgum...

3760 Sharr hozirlab tig' ila tos,
Yetdi Xayr boshiga etib parvoz.

Va ikki ko'ziga tig' urdi,
Ikki ravshan charog'in so'ndirdi.

Nargisin botirib qonlarga to,
Gavharin tojdin etdi judo.

Tashnaning ko'zlarin o'ygach, hamon
Suv bermadi, bo'ldi yo'lga ravon.

Sho'rlikning to'n, bisotin ham oldi,
Ko'zi o'yiqlik yo'l uzra qoldi.

3765 Manzildin zud yiroqlab ketdi Sharr,
O'z holidin Xayr erdi bexabar.

Qorishib yotardi qonu tuproqqa,
Yaxshiki, ko'zi yo'q erdi ko'rmoqqa.

Kurdlar oqsoqoli bor edi, oqil,
Molini bo'ridin qo'riqlardi ul.

Chorvasi mo'l edi, yulduzmisol,
Hech kimsada yo'q edi muncha mol.

Yetti-sakkiz qaroli xizmatda,
Boshqalar qashshoq, u davlatda.

3770

Cho'lma-cho'l, tog'ma-tog' yurardi faqat,
Biyoboniy cdi, biyobongard.

Moliga o't-alaf izlab yurardi,
Yaxshi yaylovlarni ko'zlab yurardi.

Har qayda suv ersa, o't-giyoh,
Ikki hafta yetardi manzilgoh.

Taqchil tortar esa giyoh ila suv,
Boshqa bir yaylovga surardi suruv.

Ul qazodin ikki kun avval
Chodirin bunda tikmishdi bu gal.

3775

Kurdning qizi bor erdi, guljamol,
Lo'batl turkchashmu hinduxol.

Sarv erdi yashnagan chamanda,
Nozaning erdi, nozxanda.

Sochi etagin o'pib har dam,
Bo'yniga oy solmishdi kamand.

Zulfi binafsha yanglig' bog' aro,
Edi qarg'a qanotidek qaro.

G'amzasidin afsun nafas-nafas,
Zamona ahlini aylamishdi mast.

3780

Mardum sehridin bobuliy erdi,
Ko'ngil berganlar bobuliy erdi.

Tun qaro xolidin fusun olmish,
Oy yuzi schridin husn olmish.

Og'zi pista kabi shakkarshikan,
Bo'saga yo'l bermasdi tor dahan.

O'shal qiz nur sochib nigohidin,
Suv olgali chiqdi xirgohidin.

Yo'l bo'yida bir suvloq bor edi,
Suvi muzdek buloq bor edi.

3785 Qiz ko'zasin suvga to'ldirdi,
Ketishga chog'lanib, qadam urdi.

Qulog'iga yetdi shunda nola,
Birov ko'kka yetardi havola.

Nola uchgan tomonga qiz yurdi,
Tuproqqa qorishgan yigitni ko'rdi.

Qo'lu oyog'ini siltab nuqul,
Xudoga tazarru aytar edi ul.

Achinib, yigitning qoshiga bordi,
Mazlum, bechoraning boshiga bordi.

3790 Dedi: "Xudo haqi, ayt kimliging,
Bu kunni boshingga kim soldi sening?".

Kim seni bu yanglig' bo'yadi qonga,
Bo'yla xanjar chekdi bechora jonga?".

Xayr dedi: "Ey farishtayi falak,
Gar parizodasen, gar malak!

Ishim ajab o'yindir, fuzun,
Hikoyatim uzundanam uzun.

O'ldim tashnalikdin, rahm etgil,
Tashnaga shu onda suv tutgil.

3795

Suv bermasang, jon berarmen bot,
Bir qatra suvingdin topgum najot!"

Nozanin suv tutib, najot berdi,
O'likka obi hayot berdi.

Tashnalik birla shunchalar yondi,
Ichganicha ichib, suvga qondi.

Pajmurda jismiga jon tushdi andin,
Charog'i diydasi yorishdi andin.

Ko'zni garchi kovlamishdi ag'yor,
Asramishdi uni Parvardigor.

3800

Garchi ko'z oqin qirmishdi yovuz,
Qorachig'i salomat erdi hanuz.

Keyin bor kuchini etib safarbar,
Xaymi oyoqqa turg'izdi dilbar.

Ko'zini boyladi ehtiyot aylab,
Uyiga boshladi so'ngra yetaklab.

Yigitki erdi chun xasta, ado,
Bo'ldi xirgohiga qadar hamroh.

Qachonki ul ostonaga yetdi,
Xayr qo'lin xizmatkorga tutdi.

3805 Dedi: "Ohista yur, ziyon etma,
Uyimizga boshla, ranjitma".

Onasi oldiga borib dildor,
Sarguzashtin etdi anga izhor.

Onasi so'rdi: "Nechun rahm etmading,
O'zing kelding, uni keltirmading?"

Dardiga bir davo aylar edik,
Rohatin bajo aylar edik".

Qiz dedi: "Uyga keltirdim shu on,
Har neki yordamingni et hamon".

3810 Chokarki, qo'lidin tutib erdi,
Yetaklab, yotoqqa keltirdi.

O'tqizib, sufra yozdilar anga,
Sho'rvoyu kabob tizdilar anga.

Tinkasi qurigan edi, sho'rlik
Etdi necha dam taomxo'rlik.

Kurd ota shomda uyiga qaytib,
Yeb-ichmoq istadi rohat etib.

Uyda g'ayriodatiy hol ko'rdi,
Ranjidi, qoshini chimirdi.

3815 Yotardi birov behush ahvolda,
Magar jon bergudek g'arib holda.

Dedi: "Kimdir bu xastayu nochor?
Ne bois muncha ranjiru abgor?"

Birov sarguzashtin bilmasdi,
Tafsilotin bayon etolmasdi.

Faqat dedilarki, o'ymishlar ko'zin,
Sahroda qoldirib ketmishlar o'zin.

Kurd bildi, ul g'arib, dili dog'liq,
Ne bois erdi chun ko'zi bog'liq.

3820 Dedi: "Anuv daraxt bor-ku, sershox,
Keltiring andin necha yaproq.

Siqib, yaproq suvin suzgaymiz,
Ozurda ko'zlarga tomizgaymiz.

Ul sharbat chun sifatga molik,
Baxsh etar ko'zga ro'shnolik.

Jarohat bo'lsa hamki har yoqdin,
Davo topmay ul ikki yaproqdin".

Keyin tushuntirdi daraxt qayda,
Dedi: "Buloq oqib turgan joyda.

3825

Shart keksa daraxt quchib elni,
Ochar atri nasimi ko'ngilni.

Tanasidin o'sib ikki butoq,
Ayridir, bir-biridin yiroq.

Bir butoq yaprog'i chun hullayi hur,
Notavon ko'zlarga bag'ishlaydi nur.

Boshqa shox bargi chun obi hayot,
Quyanchiq kasalga bergay najot".

Kurd qizi eshitib buni shu dam,
Tadbirga kirishdi daf'atan.

3830

Otasiga yuzlanib, dorini to
Hozir aylang deb etdi iltijo.

Kurd qizning iltijosini ko'rdi,
O'shal nodir daraxt tomon yurdi.

Tanlab, saylab terdi yaproqlar,
No'shdori erdi xastaga ular.

So'ng keltirib qizga berdi barin.
Qiz ezdi kesib birin-birin.

Suvin olib, so'ng dokadin suzdi,
Ozurda ko'zlarga tomizdi.

3835

Yana doru surib, boyladi ko'zni,
Xasta bir dam tark etdi o'zni.

Keyin erkin tin oldi, ufladi,
Boshin yostiqa qo'ydi uxladi.

Besh kun boshi bog'liq yotdi u,
Besh kun tomizdilar ko'ziga doru.

Beshinchi kun bo'ldi darddin xalos,
Doru tomizmakni etdilar bas.

Ko'rmas ko'zlar chun sihat topdi,
Parvardigordin marhamat topdi.

3840 Ko'z ochib, olamga soldi nazar,
Go'yo ikki nargis yuz ochdi sahar.

Xayr shukronaga burdi so'zin,
Tegirmon ho'kizning ochdilar ko'zin.¹⁴⁹

Ahli xona shodiyona etib,
Ko'ngil ochdilar yuz berkitib.

Kurd qizidin etib mehribonlik,
Xasta darddin topdi omonlik.

Nargis ko'zin ochdi sarvi baland,
Gavhar qutichasin tark etdi band.

3845 Mehrin oshirdi ul parizoda,
Xush keldi jamoli sarvi ozoda.

¹⁴⁹ Tegirmonga qo'shiganda ho'kizning ko'zini boylashgan.

Xayr ham mehri jonligi bois,
Mehribon bo'ldi mehribonligi bois.

Garchi yuzin ko'rmamishdi tamom,
Ko'rkam edi etganda ul xiom.

Shirin kalomini eshitmishdi,
Qo'li ham qo'liga tegmishdi.

Anga etmishdi o'zni chun dilband,
Ul ham anga ko'nglini payvand.

3850 Xayr ul keksaga har sahar,
Xizmat etmoqqa boyladi kamar.

Tuyalarga qilardi posbonlik,
Qo'ylarga aylab qo'ychibonlik.

Suruvni bo'ridin asrar edi,
Shu bois barchaga afzal edi.

Xullas, u ishni oson ayladi,
Chol e'timodin unga boyladi.

Kun-kundin mehri, rag'batl ortib,
Ayladi xonumoniga sohib.

3855 Xayr tark etarkan ranju firoq.
Sarguzashtiga oshdi ishtiyoq.

So'rdilar sharhu holini uning,
Kimdan deb zahmu zavolini uning.

Xayr Sharning qilmishlarin aytdi,
Har neki etmishdi, barin aytdi.

Gavhar berib, suv olmoqchi bo'lganin,
Tashnalikdin go'yoki o'lganin.

Sharr ko'z gavhariga tig' solganin,
Boshqa gavharni ham tilganin.

3860 Bu gavharni o'yib, tilib u gavharni,
Sahroda tashlab ketganin ani.

So'yladi birma-bir cholga Xayr,
Chol yerga bosh urib chun pari dayr,

Dedi: "Ajab, ul tunbodi ajal
Yashnagan gulga bermamish xalal!"

Chun bildilar ul farishtasirisht
Shuncha azob chekmish. ranju koyish.

Xayrning ayon bo'ldi siyrati,
Ular oldida oshdi hurmati.

3865 Parivash ko'rsatib himmatin,
Birovga bermasdi xizmatin.

Yuz bekitib, salom berardi ul,
Suv tutib, taom berardi ul.

Xayr sevardi mehribonini,
Chunki andin topmishdi jonini.

Xayr uning ishqida dil yoqib,
Yurardi molu tevasin boqib.

Derdi gohi: "Ko'nglini ul dilband
Men faqirga yetarmidi payvand?"

3870 Shunday qizkim, jamolu ham kamol,
Kishi olgaymu bexazinayu mol?

Men eshigida erman nonini,
Nechuk orzu etay rayhonini?

Undan ko'ra, yetmay o'zimga xatar,
Xayr deb yo'lga tushganim afzal".

Shu o'y-andishada hafta o'tdi,
Xayr shom chog'i sahrodin qaytdi.

Ko'nglida qiz ishq i birla ranj,
Gado erdi, go'yo poyida ganj.

3875 Tashna erdi, oldida obi zilol,
Avvalgidin yuz bora tashnahol.

Tun qo'ynida egib yana boshin,
Yuzlaridin oqizdi ko'z yoshin.

Kurdga yuzlandi: "ey g'aribnavoz,
Bu g'aribdin chekding necha noz.

Nuri chashmimni ul o'zing berding,
Dilu jonim butkul o'zing berding.

Eshingga kelganda kim edim,
Dasturxonning ne'matin ko'p yedim.

3880 Dog'ing yaxshidir manglay ajinimdin,
Shukring afzaldir ofarinimdin.

Boq, izla shu ichu toshimni ul,
Qonimdin sufrang hidi kelur.

Yo'q majol ortiq cho'zmoqqa dast,
Istasang, jonimni berurmen, bas.

Hay, bundan ortiq kim mehmon etar?
Tuzdan jigarga bormidir samar?

Shunchakim menga nonu tuz berding,
Haqqini, bilmam, nechuk qaytargum?

3885 Bersa menga fazliding Haqqim,
Qaytargum nonu tuzing haqqin.

Garchi sog'inib chekarman g'am,
Bo'lmas endi uyga qaytmasam.

Chun viloyatimdin yiroq tushdim,
Ishu kifoyatimdin yiroq tushdim.

Izn ber, misli qushdaymen,
Erta tongda yo'lga tushgaymen.

Garchi sendin ko'p yiroq ketgum,
Eshiging fazliding yod etgum.

3890

Ko'zim sen bois chashmayi nur,
Ko'nglimda mehri himmating bo'lur.

Himmatingni bezavol ayla,
Har ne yeb-ichdim, halol ayla..."

So'zini tugatdi, etdi sukut,
Go'yoki kurd uyiga tushdi o't.

Kurd yig'ladi, uchdi shu zahot
O'ngu so'ldin fig'onu faryod.

Kurd yig'ladi, bas, kurdzoda ham,
Ko'z yoshidin yuzlar bo'ldi nam.

3895

Yig'lay-yig'lay sukutga botdilar,
Suv yerdilar, endi muz qotdilar.

Kurd oxir ko'tardi boshini,
Uyni xoli aylab, to'kib ko'z yoshini.

Dedi Xayrga: "Ey aziz o'g'lon,
Oqilu xoksoru mehribon.

Shahringga borursen tilab yorlik,
Chekarsen unda xorligu zorlik.

Ne'matu nozu ado bunda,
Har necki istarsen, izmingda.

3900

Asl erlar o'ylamay yurmaslar,
Do'stlarni dushmanga bermaslar.

Bir qizimdin o'zga azizim yo'q,
Molim bor, davlatim, anisim yo'q.

Bir qizki, mehribon, himmatdo'st,
Uni yomon deb aytmak nodurust.

Garchi mushk nofa ichra nihon,
Atridin mastdir ahli jahon.

Gar bizgayu qizga ko'ngil bersang,
Jonimizdanam azizdirsan.

3905 Xo'p desang, men-da aytamen tikka,
Qabul etgum seni kuyovlikka.

Nechakim menda molu hol crur,
Barchasi bir yo'la sening bo'lur.

Men yoningizda bo'lurmen to,
Etmaguncha naqdi umringa ado".

Xayr bu so'zni tingladi, bildi,
Bosh egib, cholga sajdalar qildi.

So'z aytib xurramlik aro necha,
Base shodlikda yotdilar barcha.

3910 Tong Horunsifat boylab kamar,
Qush qo'ng'iroqdek chekdi nolalar.

Chun erdi sohibi humoyunbaxt,
Sultoni mashriq maskan tutdi taxt.

Kurd uyg'onib, murodiga yetdi,
Nikoh rasmini bajo etdi.

Nikoh ul aslida payvanddir,
Yetishguvchi hosila farzanddir.

Kurd Xayrga berdi ra'noni,
Atorudga topshirdi Zuhroni.

3915 Tashna o'lik topdi obi hayot,
Gulg'unchaga etdi nuri najot.

Soqiy ilkiga jom olib zardin.
Sharbat tutdi obi kavsardin.

Avvali sufra suvi erdi,
So'ngra tiriklik suvin berdi.

Shodmon yashadilar ikovlon ham,
Turmush to'q, bir narsa emasdi kam.

Oyu yillardin kechdilar base,
Yaxshi yeb, yaxshi ichdilar base.

3920 Kurd ularga bisotu borini,
Topshirdi har ne miqdorini.

Shundoq bo'ldiki, xonumonu rama,¹⁵⁰
Xayr ixtiyoriga o'tdi hama.

¹⁵⁰ Rama – suruv.

Xayr deb ul yaylov, kumush buloqqa,
Bir kuni ko'chdilar o'zga o'tloqqa.

Xayr kelib o'shal darmon daraxtning,
Ko'ziga nur bergan jonon daraxtning.

Ikki butog'idin yaproqlar uzdi,
Xaltasin yaproqqa to'lg'izdi.

3925 Biri erdi quyanchiqqa davo,
Biri ko'z dardiga erdi shifo.

Buni bilguvchi o'zi yolg'iz,
Churq etib birovga ochmadi og'iz.

Shaharga borganda eshitdi nogoh,
Shoh qizi sar'ga ermish muftalo.¹⁵¹

Garchi necha doru davo etmishlar,
Bari zoye emish, bari besamar.

Necha bir tabiblar har yoqdin,
Sa'y etmishlar kelib yaqin-yiroqdin.

3930 Qizga davoyi rost etmoqqa,
Dev changalidin xalos etmoqqa.

Podsho shart qo'ymish: "Chora topsa kim,
Xastalikdin qutulsa qizim,

¹⁵¹ Sar' – quyanchiq kasali, epilepsiya.

Uni kuyov-farzand etarmen,
A'yonl arjumand etarmen.

Kimki qizim jamolin ko'rib,
Chora topolmasa lof urib.

Ayta bersin bu dunyoga vido,
Boshini aylagum tandin judo".

3935 Dardga davo topolmay bo'ylakim,
Tuproqqa qorishmish necha bir hakim.

Shaharlikdir yoki musofir g'arib,
Boshidin ayrilmish minglab tabib.

Bu gap hamma yoqqa bo'lib ovoza,
Odamlar nafsiga ergashib toza.

Pesh etib hoziqi hakimlik nomin,
O'z umriga bo'lishardi zomin.

Xayr bu gaplarni eshitib endi,
Qiz dardiga davo aylagum, dedi.

3940 Shohga xabar berib, ey saxo koni,
Bu yo'ldin supurgum, dedi, tikonni.

Shohim, mendin faqat yaxshi muddao,
Aslida Tangridir berguvchi shifo.

Bu yo'lda tamahdin yiroqmen butun,
Etarmen Tangrining rizosi uchun.

To ishimni o'nglab Xudoyim o'zi,
Xastaga sihatin aylasin ro'zi...

Shoh dediki, kelsin huzurimizga,
Kimligini oshkor aylasin bizga.

3945 Xayr kelib shohga yukundi hamon.
Shoh boqib so'radi: "Ey yaxshi inson,

Isming nima? "Dedi: "Ismim Xayr,
Yulduzim saodat ila etar sayr".

Shoh ko'rib bu nomda yaxshi fol,
Dedi: "Ey xiradmandi chorasigol,¹⁵²

Davosin izla, ranju zahmat chek,
Oqibat xayrli bo'lsin nomingdek".

Keyin shoh mahramiga amr etdi,
Mahram uni qiz huzuriga eltdi.

3950 Xayr ko'rdi paykari oftobjamol,
Sarv xastalikdin bo'lmishdi tol.

Yarador sher kabi yonardi ko'zi,
Na tunda uyqu, na orom kunduzi.

Necha yaproq, qutlug' daraxtdin darmon
Yonida erdi, olib ezdi hamon.

¹⁵² Chorasigol – chora izlovchi.

Suvini suzdi dokadin necha qat,
Xush keldi xastaga bu shirin sharbat.

Xush ko'rib icharkan uni dilorom,
Vujudiga nurdek taraldi orom.

3955 Qutuldi savdodin, valvala bitdi,
Yostiqqa bosh qo'ydi, uyquga ketdi.

Xayr ko'rdikim, ul yashnagan bahor
Jonidin yiroqdir endi gard-g'ubor.

Tark sanamning xilvat saroyin,
Shodlanib ko'ngli har daqiqa sayin.

Parichehra uch kun uxladi shundoq,
O'zidin, magar shu dunyodin yiroq.

Uchinchi kun asta bosh ko'tardi ul,
Suygan taomlarin etdi tanovul.

3960 Bu xushxabar kelib yetishgan asno
Yugurdi qizining saroyiga shoh.

Ko'rdi, chehrasida aqlu hush, tamiz,
Saroyda taxt uzra o'ltirardi qiz.

Tuproq bosh urib, dedi dilxush:
"Hamisha yor bo'lsin senga aqlu hush!"

Ne zamon ofiyat topding, ne payt?
Xastalikdin butkul qutuldingmi, ayt?"

Shahbonu bosh egib nazokat bilan
Shukur deb otasin shod etdi, xursand.

3965 Shoh saroydin shahdam odamlar otib,
Chiqdi, g'ami bitib, quvonchi ortib.

Qiz mahram-la shohga yo'lladi payg'om,
Payg'omida erdi shundoq kalom:

“Eshitganmen. ayondir bu jihat,
Podsholarda qat'iy bo'lur ahd.

Ko'rdim, boshlar kesilgan asno,
Podsho o'z ahdiga ayladi vafo.

Tojga loyiq bosh oldida ham
Halol bo'lsin biz ichgan qasam.

3970 Gahi ahdga tig' aylar iloj,
Tushmasin deb boshdin tilla toj.

Bir boshni toj ila etmoq-chun baland,
Yuz boshga tig' urilar ba'zan.

Ulki berdi xastalikdin najot,
Jismu jonim topdi andin hayot.

Jahonda o'zga mayli holim yo'q,
Undan o'zga jufti halolim yo'q.

Yaxshidir unga marhabo etsak,
Ahdimizga sidqu vafo etsak”.

3975

Shoh tinglab, chun andisha ayladi,
Ahdga vafo etmog'in o'yladi.

Amr etdi, Xayrni axtarib so'ngra
Topdilar banogoh yo'l uzra.

Topdilar gavhari yombuni,
Shohga ro'baro' etdilar uni.

Shoh dedi: "Nechun, ey faxri jahon,
Tutarsen baxtingdin o'zni nihon?"

Bir mamlakat qiymatidin ortiq
To'nib yechib, etdi unga tortiq.

3980

Yana qancha ziynatu zar berdi,
Oltin kamar, duru guhar berdi.

Chodirlar tikildi atrofda anvo,
Shahriylar shaharga berdilar oro.

Kelin tom boshidin boqib ko'rdi,
Kuyov barno yigit, oy erdi.

Epchilu sarvqomatu zeboro'y,
Navqironu xushmo'ylov, mushkinmo'y.

Qiz rozi edi, rozi padar,
Xayr kuyov bo'ldi, ko'r bo'lsin Sharr.

3985

Sulton xazinaga qo'l urdi,
Muhr erdi eshigida, sindirdi.

Shodlanib, ayshu rohat aylardi,
Yaxshilik taronasin kuylardi.

Bor erdi shohning vaziri, dono,
Madadkor erdi xalqqa doimo.

Qizi bor erdi dilrabo, go'zal,
Oqbadan, lolarux, labi asal.

Ko'z og'riq dardini chekardi qiz,
Ko'z og'riq etnishdi ko'zin ojiz.

3990 Vazir shohdin ijozat so'rdi ul,
Ki baxsh etsin Xayr ko'zlarga nur.

Yana avvalgidek edi shartu roy,
Muolaja etdi, tuzaldi oy.

Uylandi, bag'riga bosdi dilbarni,
Gavharni ko'r, teshdi uch gavharni.

Atrofida erdi uch go'zal yulduz,
Toji Kisro yana, taxti Kaykovus.

Vazir qizi bilan o'ltirardi goh,
Ne istasa, erdi hamon muhayyo.

3995 Goh shoh qizi ila yostiqdosh edi,
Magar oy ersa ul, bu quyosh edi.

Goh kurd qizi bilan ochardi ko'ngil,
Uch nard o'yinda ham g'olib edi ul.

Xayrga bo'ylakim kulib boqdi baxt,
Ki podsho bo'ldi, sohibi toju taxt.

Mulku shahr andin e'tibor topdi,
Podsholik unda chun qaror topdi.

Bog' sari yurdi bir kuni shodon,
Aysh etgali unda shodu xandon.

4000 Ko'rdi bir payt, hamrohi bo'lgan Sharr
Bir juhud-la muloqot aylar.

Juhudga buyurdi, bu kimsani
Keltir boqqa, huzuringa meni.

O'zi boqqa kirib, xush o'ltirdi,
Kurd oldinda qilich shaylab turdi.

Sharr kirdi beparvo bir mahal,
Yer o'pdi, Xayrdin bexabar.

Xayr dedi: "Nedir noming sening,
Qoningga tashnadir joning sening!"

4005 Dedi: "Nomim Mubashshir Safariy,
Har ishda komilmen, ustod, hunariy.

Xayr dedi: "Asl nomingni ayt,
Qoning-la yuv yuzingni, murtad!"

Dedi: "Bundan o'zga yo'q menda nom,
Xoh qilich ko'rsat, xohi jom".

Xayr dedi: "Ey haromzodayi xas,
Qoning hammaga haloldir, bas.

Xalqning sharrisin, noming Sharr,
Siyrating nomingdanam battar.

4010 Sen emasmi ming azobga qo'rgan,
Suv uchun tashnaning ko'zin o'rgan?

Yetmaganday, oshirding jafosin,
Suv bermay, o'marding ashyosin.

Ko'z gavharin, kamar gavharin olding,
Bas, jonu jigarga o't solding.

Men o'shal tashnamen, ey guharburda,¹⁵³
Mening baxtim tirik, sening murda!

Meni sen o'ldirding, asradi Tangrim,
Baxtlidir Xudoni panoh bilsa kim.

4015 Xudoyim panoh bo'ldi, davlat berdi,
Togju taxt, mulku saltanat berdi.

Voy, sening joningga, ey safol,
Endi mendin qutulmog'ing mahol!"

Sharr boqib Xayrga, tanibon,
O'zini yerga otdi hamon.

¹⁵³Guharburda – gavhar o'g'risi.

Dedi: "Zinhor garchi sitam qildim,
Yomonlikni demaki men qildim.

Qara, o'shal osmoni chobuksayr
Mening nomimni Sharr demish, seni Xayr.

4020

Gar senga etibmen yomon amal,
Mening nomimga munosib o'shal.

Sen ham et menga etganing,
Nomingga munosib bo'lsin sening.

Xayr diqqat-la tinglabon buni.
O'ldirmoq, fikridin qaytdi uni.

Sharr xavfu xatardin qutulib, xursand,
Qanotlanib yo'lga tushdi shu dam.

Vale kurd hamon ortidin borib,
Boshini shart uzdi shamshir urib.

4025

Dedi: "Xayr etmadi qarshilik,
Sen Sharsen, kelmas sendin yaxshilik".

Titkilab tanin topdi juft guhar,
Kamarga joylamishdi hiylagar.

Keltirib, xayrga etdi niyoz,
Ki guharga guhar qo'shilsin boz.

Xayr o'pib, oldiga qo'ydi shu on,
Gavhariyni gavhar-la siylabon.

Qo'lin ko'zlariga surib, dedi ul:
"Bu ikki guhar sharofatingdandir.

4030 Ul ikki guhar menga arzondir,
Bul ikki nuri osmondir..."

Yetdi yaxshilikdin Xayrga nom,
Ishi xalqqa yaxshilik erdi tamom.

Davlat har joydaki rahbar bo'lgay,
Tikan xurmo, qoyatosh zar bo'lgay.

Saodat taxtiga o'ltirdi, bas.
Temir kumush bo'ldi, namat atlas.

Adolatga berdi ustuvorlik,
Siyosatga azmu qarorlik.

4035 Barglarki ul daraxtdin erdi,
Unga orom, rohat keltirdi.

Ba'zan bir o'y kelib boshiga,
Borardi ul daraxt qoshiga.

Yam-yashil butoqlar ostida turib,
Berardi ularga salomu durud.

Yetardi sandaliy havo qadriga,
To'nini tutardi sandal atriga.

Sandal yig'ib, suyar edi doim,
Sandaliy to'n kiyar edi doim.¹⁵⁴

¹⁵⁴ Sandaliy to'n – sandal rangli to'n.

4040

Sandalda rohati ravon bo'lgay,
Atrida nishoni jon bo'lgay.

Sandal yetgay boshog'riqdin xalos,
Yurakka ham, jigarga ham e'zoz...

Tirki chiniy hikoyatin chunon
Shirin til ila ayladi bayon.

Shoh quchib, rohati jon etdi,
Yomon ko'zlardin nihon etdi.

**Shoh Bahrom Juma kuni oq gumbazli qasrda taxtga
o'ltirgani va yettinchi iqlim podshosi qizidan afsona
tinglagani**

Jahon juma kuni sabuhiy tobdin,
Uyini oq saroy etdi oftobdin.

4045

Shoh tongda uyqudin shod turdi,
Oq kiyinib, oppoq qasrga yurdi.

Zuhro makon tutib beshinchi iqlim,
Endi beshinchi bor bo'lmishdi taslim.

Zanjiylar Xo'tanni bosmaguncha to,¹⁵⁵
Ayshu tarab etdi oq qasrda shoh.

Kecha falakparvard surmasi bilan
Oy, yulduzlar ko'zin yetarkan ravshan.

¹⁵⁵ Kun ustiga tun yopirilmaguncha...

Shoh ul jon ofati, oppoq sanamdin,
Qaro tunni munavvar aylagandin.

4050

Istadi, to ko'ngilni yayratgay,
Sadoyi arg'anun yangratgay.

Ul nozanin, dilnavozu dilbar
Aytdi Bahromga ofarinlar.

Davlating ziyoda bo'lsin deb yana,
Duolar aylabon o'shal jonona,

Dedi: "Shoh istadi mendin hikoyat,
Aytarmen, ko'nliga xush kelsa shoyad".

Afsona

Onam ajib ayol, xushchaqchoq edi,
Bo'ri kampir emas, qo'zichoq edi.

4055

Aytmishdi: badavlat qarindoshimiz
Uyida bir kuni mehmon edik biz.

Dasturxon orasta etilmish edi,
Anvoyi taomlar tortilmish edi.

Qo'ziyu qush ila Iroq sho'rvasi,
Patir ila yupqa nonning sarasi,

Halvolarkim, yo'q ularga nom,
Mag'zida oz-ozdin pistayu bodom.

Mevalarkim, latif, sertabassum,
Sipahondin olma, Raydin uzum.

4060

Anorlar dema, yoqut dona-dona.
Anorsiynalarga to'lmishdi xona.

Xullaski, yeyilib, ichilib rohat,
Mayxo'rlikka dag'i yetishdi navbat.

Kechdi hazil-huzul, qahqah kulgular,
Keyin menu mendek fasonago'ylar.

Har kim sarguzashtin bayon ayladi,
Gohi juft, gohi toq ayon ayladi.

Lab ochdi davrada nogoh bir go'zal,
Asalda sut edi, sutda asal.

4065

Dilfirib erdi, so'zida sehru sir,
Qushni, baliqni ham etardi asir.

Aqiq lablaridin dur sochdi. inju,
Ishq shevasin aytib, to'lib-toshdi u.

Dedi: "Bor edi bir shirinso'z yigit,
Suxandonlarga ham berardi o'git.

Masihdek bilimdon edi, donishmand.
Yusufdek etardi majlisni ravshan.

Har ilmdin ogoh, xabardor edi,
Toatu taqvosi dag'i bor edi.

4070

Bog'i bor edi, chun bog'i Iram,
Atrofini bog'lar o'ramish ko'rkam.

Tuprog'i xush edi, atru anbarin,
Bihisht mevasidek mevasi shirin.

Anor donasida yashardi ko'ngil,
Tikonsiz o'sardi butoqlarda gul.

Gohida bir tikon uchrasa lekin,
To'sarda bo'stonni yomon ko'zlardan.

Sarvlar ostida suv ravon edi,
Suv bo'ylari tutash gulrayhon edi.

4075 Qushlar sayrashidin uchardi navo,
Arg'anun boylamishdi andin havo.

Sarvnozlar misoli koshona,
Shoxida qumri qushlar sayrona.

Sarvlar ostida yashnab gul-chechak,
Safosidin yayrar edi yurak.

To'rt tarayi devor edi sidirg'a,
To'rt devor ustida dag'i to'rt muhra.

Binolar baland oyga payvast edi,
Yomon ko'zlar unga yetolmas edi.

4080 Ajab bir bog' edi, jannatmisol u,
Insonlar ko'rishni etardi orzu.

Yigit har haftada kelib bir bor,
Sayr etardi, kezib bog'u gulzor.

Sarv parvarishlab, suman ekardi,¹⁵⁶
Sabza rayhonlarga jonni tikardi.

Nargisning ilkidin bo'shatardi jom,
Binafshaga aytib nasrindin salom.

Bog'ni bir soatcha aylanar edi,
So'ng uyga qaytishga shaylanar edi.

4085 Bir kuni sayr aylamoqqa to,
Bog' sari yo'l oldi yigit nogoh.

Ko'rdi, bog' eshigi bekikdi shu on,
Bog'da soz jaranglar, uyquda bog'bon.

Bog'ni to'ldirmishdi sado, xushovoz,
Bari jon rohati erdi, dilnavoz.

Daraxtlar raqs etardi, chayqalib,
Mevalar jon berardi jon olib.

Chun savtu sadoni eshitdi,
Oshiq edi yigit, yaqosin yirtdi.

4090 Sabri chidamasdi ortga qaytmoqqa,
Kaliti yo'q edi kirgali boqqa.

Eshikni qoqdi, bo'lmadi javob,
Sarv raqs etar, gulda nozu itob.

¹⁵⁶ Suman – yosuman, oq gul.

Bog'ning atrofidin aylandi,
Kirishga hech imkon yo'q edi.

Necha axtarmasin, topmadi yo'l,
Bog' devori ostin kovladi ul.

Kirdi ichkari ko'z yugurtmoqqa,
To yurib, har tarafni ko'rmoqqa.

4095

Bog' sayrin chun bahona qilib,
Bilgali, kimdir ul tarona qilib,

Shovqin-suron solur bu ahvolda,
Bog' ne holdayu bog'bon ne holda?

Necha gulchehrayu dilafruz
Ochmishdilar bog' sahnida yuz.

Ikki sumansiyna, nozanin shu on
Turardilar eshik oldida posbon.

Toki gard ko'rmasin parilar yuzi,
Tushmasin ularga nomahram ko'zi.

4100

Devor teshigidin yigit kirgan dam,
Kimsan, deb yo'lini to'sdilar ildam.

Urdilar, zaxmu ziyon ayladilar,
O'g'ri deb qo'l-oyog'in boyladilar.

Yigit bandi bo'ldi shu muddatdin,
Boylanib qo'l-oyog'i to'hmatdin.

Shapaloq tortdilar, urdilar musht
Va tahdid aylab, chekdilar tovush.

Ki, "Ey shu boqqa yetmakka ziyon
Kirmishsen, bexabardir bog'bon!

4105

Birovning bog'iga o'g'ri kirsa ul,
Bog'bun uni urmog'i shart erur.

Biz kaltak tushirdik senga bir oz
Va qo'l-oyog'ing bog'ladi, xolos.

Sen, ey devorteshar, kim erding,
Nega eshik qolib, teshikdin kirding?"

Yigit dedi: "Shu bog' – bog'im mening,
Yongan charog' – charog'im mening!

Kirmay sher og'zidek kengish eshikdin,
Nega tulki kabi kirdim teshikdin?

4110

Kishi o'z mulkiga o'zi sohib erur,
Anga yer ustimi, ostidin kirur..."

Parivashlar yana dam urdilar,
Bog'ning necha nishonin so'rdilar.

Javob berdi, aytgani erdi rost,
Qahr o'rmini oldi mehri noz.

Ishondilar, bog' sohibi ul,
Mehrga to'ldi har ikki ko'ngil.

Navqiron yigitdan o'rgilsin quling,
Uni ko'rgan ayoldin yuv qo'ling!

4115 Yarashmoqni chun ravo ko'rdilar,
Yigitni do'stu oshno ko'rdilar.

Yechdilar qo'l-oyog'idin tugun,
Silab-siypab, o'pdilar tag'in.

Uzrlar so'rdilar yana bisyor,
Yakdil erdilar ikki dildor.

Uzr-la dushman ham do'st bo'lur,
Andin bog' raxnasi tiklanur.

Raxnaga ul tikan bosdilar,
O'g'rilar yo'lini to'sdilar.

4120 O'ltirdilar yigit oldida so'ng,
Qissalar aytib, aylab guring.

Bog'da gul ochmishdi so'lim bahor,
Bog' sohibi sog' bo'lsin, baxtiyor!

Dedilar: "Sen jononlar mehmoni,
Oy yuzli mehribonlar mehmoni!

Har qiz-juvon shaharlikdir ul,
Seni bir ko'rishni istar nuqul.

Hama jam bo'lib, husni bog'dirlar,
Bedud sham, naqshi bedog'dirlar.

4125

Senga yurakdin uzrimiz aytdik,
Tuproqni chashmimiz uza chekdik.

Turgil, biz bilan ayla xirom,
Yo'lingda intizor necha dilorom.

Har go'zalki, dilingni band aylar,
Mehring tushib, uni pisand aylar,

Kirmoqqa shay erur xonangga ul,
Bosh qo'yar ostonangga ul..."

Bu so'zlar yigitga keldi xush,
Qo'zg'oldi, shahvati urdi jo'sh.

4130

Garchi tabiatan porso edi.
Vale shahvatga ham oshno edi.

Erligi aldadi insonligini,
Ayol jozibasi jazb etdi uni.

Kumush tanli nozaninlarga hamdam,
Tushib yo'lga, shahdam qo'ydi qadam.

Borarkan ul tomon, yugurdi, chopdi,
Yetib ul yerga dil qarorin topdi.

Oldida bir qasr bo'ldi namoyon,
Yonboshida erdi munaqqash ayvon.

4135

Yigit eshik yopdi ichkari kirib,
Go'zallar qaytishdi ortga yuz burib.

Ayvon bir chetida bor edi tuy nuk,
Andin taralardi jilo, yorug'lik.

Tuynukdin ko'z tashlab, ko'rdi shu on,
Zilol chashma edi, obi ravon.

Yana-da yaqindin tashlab nazar,
Gulsoqiylar ko'rdi, anor siynalar.

Ravshan charog' bo'lib yonardi hama,
Sharbat bo'lib yerga tomardi hama.

4140 Har go'zal jon ofati magar,
Tabassum etsa, to'kilur shakar.

Ajdaho erdi go'yo ganj uzra,
Turunj erdi ul noranj uzra.

Nor siynalar ko'rdi, olma zanaxdon.
Nomlari muz uzra yozilmish hamon.

Ravzagohda ajab bo'ston edi,
Bir chetida chaman sarviston edi.

Hovuz yasalmishdi marmardin tamom,
Havzi kavsar edi unga g'ulom.

4145 Suvi ko'z yoshidek zilol qatra-qatra,
Baliqlari sitam ko'rmamish sira.

Hovuz atrofida o'sar yayrab,
Sarvsanu nargisu suman yashnab.

Keldilar ul parivashlar xurram,
Hovuzda baliq ko'rdilar, oy ham.¹⁵⁷

Quyosh haroratidin toliqib,
Sarin suvga intiqib boqib,

Yuzdin niqoblarni yechdilar,
To'nu ko'ylakdin ham kechdilar.

4150 Misoli dur yanglig' tushdilar suvga,
Injular qo'shildi injuga.

Oy agar suvga shu'lasin sochur,
Baliqlar tirqirab har yon qochur.

Sanamlar hovuzda suzib oy misol,
Yigit hayrat ichra boqar edi lol.

Bir muddat suv ichra javlon urdilar,
Yosuman gulidek yashnab kuldilar.

Suvda qo'l ushlab suzdilar shodon,
Noru noranjlarin qayiq aylabon.

4155 Qay biri qo'rqitib, o'yin boshlardi,
Ilon deb sochini yozib tashlardi.

Besutunlar sutun ko'tardi baland,
O'ldirib Farhodni tesha bilan.

¹⁵⁷ Ya'ni, o'z akslarini ko'rdilar

Shirinning qasriga sut oqsa har gal,
Ana shu hovuzdin oqardi har gal.

Boqib, beqarordi yigit bechora,
Madadkori yo'q erdi, ne chora?

Tashna edi, mast edi chindan,
Suv ko'rib, icholmasdi undan.

4160 Yangi oy ko'rgan sar'iydek nuqul,¹⁵⁸
Goh sakrar, goh o'ltirardi ul.

Goh bir sarvqomatga boqib,
Qomat ne, qiyomatga boqib,

Tomirida qoni urardi jo'sh,
Yigitli yana etardi xurush.

O'g'ridek bir chetda turib pinhon,
Ahvoli ne edi shu topda, ayon.

Istardi raxnadin qushin uchirsa,
Ilonin dag'i teshikdin tushirsa.

4165 Jazm etmadi bunga iloni lek,
Sababi judayam tor edi teshik.

Go'zallar bir-birin suvda quvdilar,
Chamanda gul kabi yuzni yuvdilar.

¹⁵⁸ Sar'iy – quyanchiq kasaliga uchragan kishi.

Kiydilar osmonrang kiyimlarni,
Oyga yetkazdilar kulgularni.

Bor erdi o'rtada gulfarangiy,
U rumiy erdi, boshqalar zangiy.

Arzir g'abg'abidin quyosh nur olsa,
Labin tishlamamish hali bir kimsa.

4170 Hamzasi erdi misli o'q-paykon,
Xandasi erdi shakkarafshon.¹⁵⁹

Ajab bir sarvinoz edi dildor,
Nor ichra suv, suv ichra erdi nor.

Ishvasi ming ko'ngilga firib,
Ko'rgan kimsa qutulgay jon berib.

Doston so'ylamoqqa boshlasa, bas,
Ishq hushyor, aql erdi mast.

Yigitda bo'yla hol edi, tuyg'u,
Go'yoki otash o'ngida hindu.

4175 Zohidda erdi bo'yla hayronlik,
Ajab kofirligu musulmonlik!

Bir soat so'ng ul parivash hama,
Ki paxta ichra otash hama,

¹⁵⁹ Shakkarafshon – shakar sochuvchi

Xo'tan ohularidek noz etib,
Balki ohularga noz o'rgatib,

Keldilar shakar sohib durga,
Burkanib atlasu harirlarga.

Yigit ovloqda erdi, ko'rdilar,
Dadil boqib, holini so'rdilar.

4180

Dedilarki, biz hama hurnajod,
Qay birimiz-la ko'ngling bo'lgay shod?

Ish anga o'ng kelmishdi shu payti,
Kimga ko'ngli ketganin aytdi.

Ul aytib tugatmay, yugurdilar,
Ohumas, sheri mast erdi ular.

Ul parizodani ne sozish ila,
Soz chalib, ne lutfu navozish ila.

Keltirdilarki, hech gumon yo'q edi,
Gumon etguvchiga omon yo'q edi.

4185

Turfani turfaga etdilar payvast,
Eshikni ortidin berkitdilar bas.

Yigit ko'rdiki, yor edi hamdam.
Yor hamdam esa, yurishgay ish ham.

Ul changnavoz yurakdin urgan edi,
Ishni ham ul yurishtirgan edi.

So'ylamishdilar yigit qissasini,
Parivashga ishqiyu andishasini.

Parivashki, tanlamishdi ul,
Unga ko'rmasdanoq bermishdi ko'ngil.

4190 Ko'rdi yigitki, chun dilovar edi,
Temiri kumush, kumushi zar edi.

Yigitda yo'q edi sabru qaror,
Savol-javobni etdi ixtiyor.

Dedi: "Noming nima?" Dedi: "Baxt",
Dedi: "Turar joying?" Dedi: "Taxt".

Dedi: "Asling nedur?" Dedi: "Nur",
Dedi: "Yomon ko'zlar?" Dedi: "Yiroqdur".

Dedi: "Pardang ne parda?" Dedi: "Soz",
Dedi: "Shevang ne sheva?" Dedi: "Noz".

4195 Dedi: "Bir bo'sa olsam?" Dedi: "Ol",
Dedi: "Vaqt yetarmu?" Dedi: "Bemalol".

Dedi: "Og'ush etsam?" Dedi: "Et",
Dedi: "Murodga etsam?" Dedi: "Et"...

Xohish haddi adosiga yetdi,
O'rtadin sharmu hayo ketdi.

Yigit sanamning zulfini silab,
Tortdi quchog'iga so'ng erkalab.

Oldi dudog'idin bo'salar necha,
Birdan o'nga, o'ndan yuzgacha.

4200 Bo'salardin osharkan shiddati
Olovlandi tanda harorati.

Istadi istagin qondirsa,
Obi hayot muhrini sindirsa.

Bas, qulon ustiga sakradi sher,
Qilar ishin qilmoq bo'ldi er.

Joygoh cho'kib ammo shu palla,
G'ishtlar ko'chib, ochildi raxna.

Ayvon yiqildi chun topib shikast,
Yaxshilar ishi yomon tugamas.

4205 Oshiq-ma'shuqqa ranj-alam yetdi,
Biri u yon, biri buyon ketdi.

Ko'rmasin deb birov bizni shu chog',
Imoratgohdin kettidilar yiroq.

Yigit bir go'shaga borib ildam,
Tutdi xilvat, chekdi dardu alam.

Kanizak sanamlar ila o'ttirib,
Qoshlarini chatdi anduhga to'lib.

So'ng ohang-la aytmoqqa rozini,
Qo'lga oldi yana chang sozini.

4210

Sozidin nola paydo ayladi,
Eshitgan jonni shaydo ayladi.

Dedi: "Sozimdin uchsini nalam zud,
Jumla oshiq'larga salomu durud.

Oshiq ulki, ishqdin xastadir,
Sog' bo'lsa ham ko'ngli shikastadir.

Ishqimni yashirgum qachongacha?
Aytarmen uni bong urib baland.

Ishqu mastlik oldi qarorim, hay,
Mast oshiqda sabr qachon bo'lgay?

4215

Ishq ahliga nasibadir oh,
Oshiqqa tavba etmak gunoh.

Ishq ila tavba oshno ermas,
Oshiq'larga tavba ravo ermas.

Oshiqqa hech erur ul jonu tan,
Shamshiru nayzang unga ne pisand?"

Turki chiniyki ohang ayladi,
Hasbi holini andoq so'yladi.

Go'zallarkim buni eshitdilar,
Zavqqa to'lib, ko'ngil xush etdilar.

4220

Bildilar yel esib, kezarkan bog',
Ziyon ko'rmish andin ikki charog'.

Yusufi ovorani izlabon,
Topdilar, Zulayhodek hamon.

Etagidin tutib mahkam, tag'in,
Dedilar: ayt ishning haqiqatin.

Yig'lab sharh ayladi, bildilar,
Ishga chora-tadbir qildilar.

Dedilar: "Bu kecha bunda qolgaymiz,
Sening ishingga chora qilgaymiz.

4225 Qo'ymasmiz bahona etib bir ro'y,
Xonangga qadam bossa birov.

Ul oyki, sen husni maftuni,
Darhol og'ushingga ol uni.

Kunduz ravshani oshkor qilur,
Kecha qorong'usi parda erur".

Shu gapni aytib, bo'ldilar ravon,
O'zga sanamlar-lar sayr aylabon.

Kecha olamga yukin ortdi,
Bartos mo'ynasidek qaro tortdi.¹⁶⁰

4230 Quyosh kunduzga mix edi, so'ndi,
Tun ming mixli sovutga burkandi.

¹⁶⁰ Bartos – turkiy qavm nomi.ovchilikda mo'ynachilikda mashhur bo'lishgan.

Sanamlar keldilar vafo aylab,
Go'zalni go'zalga ravo aylab.

Sarvi tashna zilolga yetishdi,
Oftob oyjamolga yetishdi.

Xona xoliyu yana shundoq yor,
Yigit aylarmidi sabru qaror?

Qarshisida erdi gulandom.
Qoni jo'sh urdi, istadi kom.

4235 Bu yog'ini aytmak ravo ermas,
Senga so'yladim, nauzubillohu, bas.

Istadi la'l teshsa, dur teshilsa,
Juft bo'lgali tavqu toq qo'shilsa.

Yovvoyi mushuk boqib daraxtdin
Qush ko'rdi, pastda qo'ymish erdi in.

Otildi qushgayu tushdi zaminga,
Zarb etdi ikki nozaninga.

Ikkisi o'midin sakradi hamon,
Ko'ngildin zavq ketdi, oyoqdin darmon.

4240 Yolg'iz orzu bo'lib yana kom qoldi,
Pishayotgan taom chalaxom qoldi.

Sanam boz sanamlar yoniga ketdi,
O'zi birlan yana sozini eltdi.

Chang sozini tag'in yangratdi takror,
Ki arg'uvon yashnab, gul ochdi bahor.

Sarvinoz qaddini ko'tardi baland,
Gul kulib tutdi huqqayi qand.

Bulbul kelib, gul shoxiga qo'ndi,
Aysh bozori avjiga mindi.

4245 Bog'bon bog'in mutarro ayladi,
Shoh kelib, tamosho ayladi.

Jomi may ko'rib, ichmoq bo'ldi ul,
Tosh tushib, sindirdi jomini chil-chil...

Ey toroj aylading har ne borimni,
Sensiz sira o'nglamam korimni.

Garchi sen-la xijolatdir ishim,
Sensiz arimas boshdin tashvishim..."

Tingladilar bu pardayi sozni,
Bildilar parda ostida rozni.

4250 Yana har tarafga chopdilar,
Yigitni axtarib, topdilar.

Yotardi u, chekka bir yo'l uzra
Maskani – ovloq bir hujra.

Jonu jismi siniq, parishonhol,
Boshida sarvu shamshod, majnuntol.

Xom tadbirdin har lahza g'am yutib,
Savsan yoridin yaxshilik kutib...

Boz so'rdilar, sirrin ayon etdi,
Birma-bir aytdi, bayon etdi.

4255

Kirishdilar tadbiri koriga,
Toki yor yetishgay yoriga.

Yana yor sari yo'l ochdilar,
Yana suvni tuproqqa sochdilar.

Keldi ul parivash dostonsoz,
Yoriga mehribonlik aylab boz.

Yigit ko'rdiyu ilkidin tutdi,
Uni loyiq go'shaga eltdi.

Tutashgan erdi necha bir daraxt,
Tepasida qurilmish erdi taxt.

4260

O'shal taxt ostida hozirladi joy,
Toki unda rohatda bo'lsin oy.

So'ng parini quchog'iga tortdi,
Quchib, ko'ngil ishtiyog'i ortdi.

Yuzi oy, sochi sunbul erdi ul,
Somoniy bog'idin gul erdi ul.

Og'ushiga olib, quvondi qandoq,
Sarv ila gul tutashdilar shundoq.

Ikki dil, ikki jon andoq tutashdi,
Oyoq ishlamadi, qo'l ishga tushdi.

4265

Yigitning toshi xonagir bo'lib,
Bor bisoti garovpazir bo'lib,

Tushdi bir qal'aning qasdiga,
Suv to'kmoq bo'ldi otash ustiga...

Bir sichqon yashardi in qurib baland,
Necha qovoq ko'rdi shoxga osilgan.

Sakradi, butoqlar tinchini buzdi.
Tishi bilan qovoq bandini uzdi.

Oshqovoq nog'ora erdi go'yo,
Tushib nog'oradek berdi sado.

4270

Taraldi bongi atrofga necha mil,
Go'yo chalinmishdi tabli raxil.¹⁶¹

Tag'in tushdi qovoq, gumburladi u,
Arslon panjasidin qutuldi ohu.

Yigit o'yladiki, keldi shasht ila,
Marshab nog'ora, muhtasib tosh ila.

Kafshini ham kiymay, yo'lga tushdi zud,
Yana alamidin burqiradi dud.

¹⁶¹ Tabli raxil – ko'chish nog'orasi.

Ul parivash dag'i qo'rquvga tushdi,
Borib, dugonalar ila qovushdi.

4275

Bir muddat nihon tutdi rozini.
Keyin qo'lga oldi yana sozini.

Dedi: "Aytmishlar buni necha bor,
Yetishmoq istadi yoriga yor.

Istadi ul orzusiga yetsa,
Anga yor visoli nasib etsa.

Chiroy ochsa yor qo'ynida, hay,
Sarv og'ushida qizil gulday.

O'psa siynavu zanaxdonin,
Olma, anoru guli rayhonin.

4280

Qo'l cho'zib, necha bir tugun yechsa.
Va ul ganjina eshigin ochsa.

Novotga shahdu shakkarin to'ksa,
Unnobga lola qonini cheksa.

Vale yuz berdi fitna g'avg'osi,
Hech bo'ldi yorning ul tamannosi.

Parvona nurdin ayru chekdi firoq,
Tashna hayot suvidin qoldi yiroq.

Eyki, hama zarbing g'irromlik,
Zarbani to'g'ri u odamdek.

4285

Menga egri pardani ko'rding ep,
Rost pardadin kechmasmen seni deb..."

Shu g'azalni aytarkan, necha damsoz
Turdilar bo'lgali yana hamroz.

Yigitni axtarib, yana chopdilar,
Uni bir go'shada yolg'iz topdilar.

G'am-alamga botib, yonib, oh urib,
Yotardi ko'ksini tuproqqa berib.

Navozishlar aylab necha yorlikdin,
Ko'tardilar uni xoru zorlikdin.

4290

Hol so'rdilar, hikoyat ayladi,
Ahvalidin shikoyat ayladi.

Chorasozlar o'nglab ahvolini,
Haydadilar tushkun xayolini.

Ko'ngilning band-bastin ochdilar,
Bedilga dildan berdilar xabar.

Ki bu ishda g'amdin yiroq bo'lgil,
Mehribondin mehribonroq bo'lgil.

Oshiyon qur oshiyon uzra,
Ofat yaqin kelmasin sira.

4295

Biz yiroqdin qo'riqlarmiz seni,
Balodin yiroq saqlarmiz seni...

So'ng yana yurdilar, yeldilar,
Gulruxsor oldiga keldilar.

To yana turktozlik aylagay,
Yigitga dilnavozlik aylagay.

Bordi, yorning aritdi g'amin,
Yigit quchdi boz yori hamdamin.

Zulfini siladi, ilkin tutdi to,
Bir go'sha izladi o'shal bog' aro.

4300

Bir chekkada joy bo'ldi manzur,
Yosuman xirmanu gumbazi nur.

Atrofida edi baland devor,
Oldida daraxtzor, adog'ida g'or.

Yigit ko'z solib, xushladi ani,
Shu yerda qurdi ul maskanni.

Yosumanni yulib, otdi bir yon.
Yorini boshladi to'shakka hamon.

Ishq olovlandi, uyat ketdi,
Yor siynasin o'pib, entikdi.

4305

Xirmani gulni oldi og'ushga,
Shakar bodomga bo'ldi og'ushta.

Mil surmadonga kirmayin hali,
O'yin ko'rsatdi gumbazi dali.¹⁶²

¹⁶² Asliyatda gumbazi ko'z – bukri falak.

G'or yonboshida necha to'kilar
Jam bo'lib, ovga hozir erdilar.

Banogoh bo'ldi paydo bir bo'ri,
Andoqkim, tulki zotining sho'ri.

U qonxo'r baloni ko'rgan zamon
Tulkilar qochmoqqa tushdi hamon.

4310 Bo'ri ham ularning izidan tushdi,
Yo'llari oshiqlar ustidan tushdi.

Jon uzib chopardi ularning bari,
Oldinda tulkilar, orqada bo'ri.

O'tdilar oshiqlar maskani osha,
Bir lashkar kelgandek bo'ldi u go'sha.

Yigit bu savdodin dovdirab, shoshdi,
Tuproqqa belanib u joydin qochdi.

Yuragida alam, bag'rida firoq,
Istardi shu bog'ni tark etsa tezroq.

4315 Go'zallar ko'rdilar uni shu holda,
Nozaninni topib ne ahvolda.

Uni ikki yoqdin tutdilar mahkam,
Ikki nahang aro dur erdi sanam.

Dedilar: "Sendanmu bu makru fanlig',
Shundoq husning-la ahramanlig'?"

Xor etding yigitni, navqironlikni,
O'ldirding bir yo'la mehribonlikni!

G'aribga muncha aylading qiyin,
Hech kimsa aylamas andoq o'yin.

4320 Shu kecha bo'lgay deb raho qilding,
So'ng mundoq makru kimiyo qilding!"

Qiz qasamlar ichib, aylardi arz,
Vale rost gapni kimsa tinglamas.

Yigit chiqib ovloqdin shu kez,
Ko'rdi, sham erdi o'rtada qiz.

Bo'g'inlardi alam, firoqdin,
Shapaloq erdi ikki yoqdin.

Yigit dedi: "Tiyng qo'lni zinhor,
Bermang ul bechoraga ozor.

4325 Uning pok gavhari gunohdin pok,
Har gunohga sababchidir xok.

Jahonda nechakim cholokdir, bari
Pokiza zotlarning quli, chokari.¹⁶³

Bizning ishimizni ul amri azal
Xatodin forig' aylamish, bexalal.

¹⁶³ Cholok – epchil; chokar – xizmatkor.

Ul halolkim erdi yo'limizda naqd,
Ofatni ofat-la andoq yuvdi Haq.

Baxtimizga o'zi porsolik berar,
Yomon qilg'ulikdin raholik berar.

4330 Toki devu dad maqsadga etmagay,
Pok inson nopok ishni etmagay.

Kimsaki haromga dildoda erur,
Pok emas ul, haromzoda erur.

Bu qiz poku parichehradir, bas,
Mard unga yomonlik aylamas.

Kimning chin insonligi bordir,
Mardligi, mehribonligi bordir.

Yo'lingda chun ismat ersa, safo,
Ne joiz senga aylamak gunoh?

4335 Yomon ko'zdin etsa daraxtga asar,
Uning mevasini yemaslar.

Yuz hayvon ko'z tiksa beomon,
Bo'lmasmi andin holimiz yomon?

Ne ish bo'ldi, arzu bayon etmasmen,
Har nechuk borimga ziyon etmasmen.

Tavbalar qildim oshkoru nihon,
Xudoyim tavbamni qabul et debon.

4340

Agar ajal fursatim bersa,
Ovga chiqsamu omadim kelsa,

Shu go'zalni jufti halol etgum,
Xizmatin boru barkamol etgum".

Ko'rdi parivashlar, ne kelur andin,
Xudoga bandadir, qo'rqar Xudodin.

Bosh qo'ydilar uning oldida yerga,
Ofarin aytib pok aqidalarga.

Yaxshilik urug'i erur unda jam,
Xudoyim asrasin, ko'rmasin sitam.

Ey baso ranjlarki, ranj edi butkul.
Aslida ranj emas, rohat erdi ul.

4345

Ey baso dardlarki, oshkor edi,
Hama jondorular unda bor edi.

Tog' ortidin chiqib nur chambari,
Jahondin yomon ko'zni surdi nari.

Subhidam etishib, misli o'rgimchak,
Yerning sutuniga o'radi ipak.

Yel keldi kaftida yoqib charog',
Shaharga yo'l oldi bog'bon shu chog'.

Yigit tug' ko'tarib sultonlikdin,
Qutuldi bandafarmonlikdin.

4350

Yigit ishq o'tida yonib chunon,
Yuragi qozondek qaynardi har on.

Shaharda etdi ul vafodorlik,
Qildi maqsudiga talabgorlik.

O'shal oyga yana kamand soldi,
Mahrin berib, nikohiga oldi.

Durri maknunni tizdi marjonga,
Yetishdi oxir ofati jonga...

Baliqdin qushgacha solsang nazar,
Barchada shu havodir sarbasar.

4355

Yigit davlat topdi, obi zilol,
Har dam ichar ersa, unga halol.

Chashma topdi quyoshdek porloq,
Sumandek sofdiru kumushdek oq.

Ravshandir oqligi sabab kunduz,
Oy oqligidin jahonafruz.

Hama rang oluda bo'yoqdir,¹⁶⁴
Faqat oq rang hamisha oqdir.

Har ne oludadir, noqisdir, ajab,
Poklikka oq deya qo'yimishlar laqab.

¹⁶⁴ Oluda – qorishiq.

4360

Har safar ibodat etsang Tangriga,
Oq libos kiymoqlik sunnatdir senga”.

Sumansiyna tugatdi chun suxan,
Shoh uni bag’riga tortdi da’atan.

Har kecha aylab chun nozu nishot,
Bahrom gumbazlarni sayr etdi shod.

Ki gumbazsoz falak mehr sochdi,
Anga yetti gumbaz eshigin ochdi...

**Chin hoqoni ikkinchi bor qo’shin tortganidan Bahromning
xabar topgani**

Yondashgan chog’i Mushtariy, Zuhul,
Quyosh hutdin chiqib, kirdi hamal.

4365

Maysalar gurkirab najot topdi,
Chashmayi obi hayot topdi.

Har chashma go’yo nahri Nil bo’ldi,
Har sabil misli salsabil bo’ldi.¹⁶⁵

Mushku anbar taraldi tuproqdin,
Muattar yellar esdi har yoqdin.

Keldi navro’z havosidin shanlik,
Quyoshdin koinotga ravshanlik.

¹⁶⁵ Sabil – bu yerda yo’l ma’nosida. Salsabil – jannatda bir chashma.

Navro'z nasimi ufurib goh,
Yetdi rayhonlarga jonni fido.

4370

Ko'katlarga kirdi bahor rangi.
Oyinadin ketdi qish zangi.

Sahar g'unchaga shabnam qo'ndirdi,
Harorat qahratonni sindirdi.

Tog'da qorlar erib bo'ldi suv,
Irmoqlarga berdi shonu shukuh.

Sabza safo berib ko'zlarga ul,
Chiroy baxsh etdi olamga gul.

Nargisning uyquli ko'zlarin ko'ring,
Uyqusin uchirdi barcha ko'zlarning.

4375

Subhiy sabo esib, har yonga yetdi,
Binafsha bargini muattar etdi.

Sarv to'shab soyadin quroq,
Shamshodning sochiga soldi taroq.

Ko'zlarin ishqalab nilufar ham
Imorat tikladi suv ichra shinam.

Yashil novdalarda g'uncha ochildi,
Lola yaprog'idek har yon sochildi.

Savsangul nargis tojidan mast,
Kaftida zarrin jomdir shu nafas.

4380

Muattar hidlarga to'lgan bahor
Chechaklarni sohib, aylar nisor.

Sariq gul yosh to'kib yig'lar-da,
Za'faron yeb, yana etar xanda.

Bahor gulga berib obi hayot,
Shaqoyiqqa berar qondin barot.¹⁶⁶

Yaprog'ini gavhar etib go'yo,
Nasrin savsanga surmish to'tiyo.

O'rib uzun sochlarin marzango'sh¹⁶⁷
Daylamoso etib ko'ksiga solmish.

4385

Ham yaproq, ham giyoh miqroziy,¹⁶⁸
Ikkisi ham qaychiga rozi.

Mushkin tarovatin sunbul sanam
Qaranfulga qarab sochar shu dam.

Gulxayri berar ado etib ahdin,
Yosumanga valiahdlik xatin.

Sesanbarda ko'r oftob tobishin,
Charx chayonining eritar nishin.

G'uncha bo'tako'zga aylar noz,
Qumri filquloqqa so'ylar roz.¹⁶⁹

¹⁶⁶ Shaqoyiq – lolaning bir turi.

¹⁶⁷ Marzango'sh – ra'no gulning bir turi.

¹⁶⁸ Miqroziy – qaychilasa bo'ladigan.

¹⁶⁹ Bo'tako'z, filquloq – gul, giyohlar.

4390

Oq atirgul uforidir xush,
Yor qulog'ida sirg'adir, kumush.

Atirto! daraxtdir udnishon,
Goh kofur, goh mushk taratur har yon.

Arg'uvonu suman yashnatib manzil,
Bayroq ko'tarmishlar oqu qizil.

Gul kamar boylamish shohlikka shu chog',
Tarafdorlik qilur yel ila tuproq.

Tun bo'yi bong urar bulbuli go'yo,
Xo'roz sahar bongin urmaguncha to.

4395

Qizil gul yam-yashil maydonda yashnab,
Besh karta bong urar sultonga o'xshab.

Sarv uzra qumri qushlar ovozi,
Go'yo rud sozining jarangosi.

Qumrilar nolasi ucharkan sahar,
Uni kakliklar kulgusi kesar.

Durroj ekinzorni sayr aylabon,
Jannat abyotidin aylar bayon.

Zandbof ilkida bihishtnomayi "Zand"
Tun aro aytur necha bir suxan.

4400

Bulbul sayray berib, ne ko'rgilik,
Ingichka tortmish tor kabi sho'rlik.

Bog' naqshband lavhidek obod,
Tirik jon borki, unda zavqu nishot.

Shundoq kun edi, shoh Bahrom
Majlis tuzib, unda tutdi maqom.

Yetti gumbazdin afzal aylarak,
Qasr tiklamishdi misli falak.

Chopar kelib, topolmadi ko'zlab,
Yetti buyuk gumbazni izlab.

4405 Kirdi yangi qasrga, chun bihisht
Orasta erdi ul ham kengish.

Shohga ofarinlar aytdi daroz,
Ofarin aytib, ado etdi namoz.

Dedi: "Boz nigorxonayi Chin
Lashkari kelib, tutdi ro'yi zamin.

Tahdid solib kelar shohga Fag'fur,
Ahdu paymonini unutmish manfur.

Chiniylarda ahdga vafo bo'lmas,
Tilda asal, dilda zahardir, bas.

4410 Qilichlari talabgori xun,
Jayxunga kelishdi tortib qo'shin.

Sel toshib, qoplamish sahroni,
Nahanglar kezar ul daryoni.

Shoh biror chorasin ko'rmasa gar,
Chiniylar qonimiz ichgaylar".

Shoh bo'ldi bo'ylakim fitnadin ogoh,
Yoprilib kelardi boshiga balo.

Oldinroq, bo'yniga ilinmasdin dom,
Mayxo'rlikni qo'ydi, tark etdi jom.

4415

O'yladi, chorayi tadorik qilib,
G'animni maydonda aylasin mag'lub.

Yolg'iz ganju sipoh erdi panoh
G'alabaga eltgay ganju sipoh!

Sipohin izladi, hech ko'rmadi,
Ganjinaga bordi, ganj ko'rmadi.

Ko'rdiki, ganj yo'q ganjxonada,
Ham siloh, ham sipoh parokanda.

Tishsiz arslondek qoldi notavon,
Toj – zanjiru mamlakat – zindon.

4420

Bir kimsa shohga vazir erdi,
Xudodin qo'rqmagan, razil erdi.

Ismini Rostravshan derdi xos,
Va lekin emasdi ravshanu rost.

Rostu ravshani lof erdi faqat,
Rosti – qing'irlik, ravshani – zulmat.

Yaxshi nomdin tuyib ko'nglida g'urur,
O'shal nomga begona erdi ul.

Avval Nasriy vazirligi paytda,
Xudodin qo'rquv bor edi davlatda.

4425

Rostravshan vazoratni oldi,
Rostligu ravshanlik o'ldi.

Shoh aylarkan mudom ayshu noz,
Vazir zulm dastin etdi daroz.

Makr etardi fitna qo'zg'atib,
Kuni o'tardi molu mulk yig'ib.

Shohning noibini aldar edi,
Zar berib, firib aylar edi.

Derdi: "Xalq orzutilab bo'lmish,
Sho'xu gustohu beadab bo'lmish.

4430

Bo'ldilar to'kin nonu oshlik,
Etarlar har yerda beboshlik.

Loyiq jazosin bermasak hamon,
Yomon ko'zdin yurtga yetgay ziyon.

Insonlar pastu badguhardirlar,
Yusuf deb bo'ridin batardirlar.

Bo'riga bo'ribosar qo'ying,
Qachongacha bo'lgay tulki o'yin?

Xokiylar chun avlodi zamiy,
Hayvondirlar, suratda odamiy.

4435 Hayvonlar vafo ne, bilmaslar,
Tig' chekmasang, nazarga ilmaslar.

O'qigansiz g'amzada jonlardin,
Siyovush ne ko'rdi hayvonlardin?

Jamshidni ular chohga otdilar,
Doroni ular dorga tortdilar.

Molu bisot yig'mishlar rosa,
Suv aynigay bir joyda ko'r tursa.

Gar tuproqdin loyqalanir suv,
Tag'in tuproq ila toza bo'lur suv.

4440 Shoh mast ersa, yov bo'lur hushyor,
Mirshab uxlasa, o'g'ri bedor.

Podshoki ul siyosat aylamas,
Podsholigi bo'lur zoye, abas.

Gar siyosat aylarsa sulton,
Devu dushman qochurlar begumon.

Raiyat dev erur, angla sirin,
Qo'yib bersang, bilmas bosar-tusarin.

Jahd aylakim, bo'lsin siyosating,
Sinmasin to andin rayosating.

4445

Oshnomen deb chalmasen seni kas,
O'zingni, shamshiringni bil, bas.

Shoh bizga suyanib mayxo'rlik etar,
Menda qalam, menda qilich bor, yetar.

Sendin qahr bo'lsin, mendin tadbir,
Kimki ol desam, ol, ayla asir.

Sarvatlidin sarvatu molin ol,
Fiqaming qonin to'k, qiynoqqa sol.

Yaxshi-yomon bari hukming haloli,
Yomonning joniyu yaxshining moli.

4450

Xalqni zoru haqir aylasang, shaksiz,
Bo'lursen, shu xalq oldida aziz.

Gar raiyat zabunu xor bo'lgay,
Mulku davlating barqaror bo'lgay".

Shoh noibi etib sarmastlik,
Ayladi zolim ila hamdastlik.

Zolimning aytganin aylab ado,
Yetardi mardumga jabru jafu.

Keldi xorligu zorlik omadi,
Inson degulik kishi qolmadi.

4455

Sitamkorlik etdi shungacha to,
Kelardilaru etardilar yag'mo.

Shahru qishloqda qichqiriq edi,
"Olho-ol!" edi, o'zga so'z yo'q edi.

Mamlakatda yuz berdi bo'yla hol,
Bir kimsada qolmadi mulku mol.

Barini Rostravshan shiddat etib,
Oldi, tashidi rishvat etib.

Zaru gavharu g'ulomu kaniz
Qolmadi bir kimsada hargiz.

4460

Mamlakat yo'liqdi adolikka,
Davlatmand tushdi gadolikka.

Xonadorlar bo'ldi xonavayron,
O'z uyin tark etib zoru sarson.

Xalqu lashkar jon chekib faqat
Kezardilar tog'u tosh, cho'lu dasht.

Qishloqlarda qolmamish mol, ekin,
Faqat suv, havo erdi tekin.

Mamlakat xarobu xalq xomush,
Shoh xazinası edi bo'm-bo'sh.

4465

Yolg'iz vazirda edi molu ganj,
O'zgarlar hosili tashvishu ranj.

Shohda gar zarurati jang edi,
Ganju lashkari yo'q, holi tang edi.

Munhiylardin soʻrdi birma-bir chorlab,¹⁷⁰
Andoq zalolatga ne erdi sabab?

Mustabid vazirdin qoʻrquvi bois
Bir kimsa haq soʻzga ochmadi ogʻiz.

Yolgʻon, uydirmaga nuqul berdi zeb,
Anuv faqir boʻldi, manuv qochdi deb.

4470 Koʻngilga bir taskin, yupanch qolmadi,
Xazinada bir zarra ganj qolmadi.

Kasbu kor etgali mol yoʻq, iloj yoʻq,
Hosil yoʻq, sababli boju xiroj yoʻq.

Shoh shafqat etsalar, kelur mavsum,
Yana ish-amalga qaytadi mardum...

Shohni bu sabablar qoniqtirmadi,
Jang qilgum yov bilan deb dam urmadi.

Falak yomonlikni etarkan pasha,
Chandon oʻyga botib, qildi andisha.

4475 Ishni oʻnglamoqqa axtarmadi yoʻl,
Zamonaga boqib ish tutmadi ul...

¹⁷⁰ Munhiy – xabar yetkazuvchi, ogoh etuvchi.

Shoh Bahrom cho'pondan nasihat eshitgani

Shohning ahvoli tang bo'lib, dushvor,
Chiqdi otlanib ul etmoqqa shikor.

Ov ovlab bir qadar ko'ngli yozildi,
So'ng otning jilovin orqaga burdi.

Ko'ngli botganidin g'amu firoqqa,
Rag'batini oshganda ov ovlamoqqa.

Ovga chiqmishdi ul g'amin quvgali,
Bag'ri qonini qon ila yuvgali.

4480 Ko'ngli istaganicha shikor ayladi,
Qayg'uning qo'l-oyog'in boyladi.

Ovlab arslonu qoplonu qobon,
Uyga qaytmoqlikni o'yladi sulton.

Ot surib kechdi ne dala-tuzdin,
Tashnalik qiynardi shu boisdin,

Atrof-tevarakdin suv izladi,
Topmadi, nechakim ko'zladi.

Nogoh tutun ko'rdi ajdardek qaro,
Burqirab yetardi oyga to.

4485 Tog' uzra tog' bo'lib yuksalar edi,
Yuksalib, falakka bosh urar edi.

Dedi: "Qayda dud ersa, otash bor,
O't yonida suv ham bo'lmog'i darkor".

O'shal tutun sari yurdi daf'atan,
Tikilmish bir chodir ko'rdi baland.

Bir suruv qo'y sal nari yoqda,
Yayrab o'tlar edi o'tloqda.

Bir it osilmishdi daraxtga shu dam,
Boylanib qo'l-oyog'i mahkam.

4490 Shoh chodir oldiga ot surib bordi,
Tong kabi nuroniy bir cholni ko'rdi.

Chol mehmonni ko'rib, turib oyoqqa,
O'zini shayladi xizmat etmoqqa.

Mehmonni tavozi ila kutdi,
Otining jilovidin tutdi.

Xush kelibsan deya salom berdi,
Ehtiyotlab otdin tushirdi.

Har ne boridin tizib hamon,
Mehmon oldiga yozdi dasturxon.

4495 Dedi: "Dasturxon yozdimki, bas,
Sendek mehmonga munosibmas.

Shahru manzil bizdin yiro'qdir,
G'aribona suframni tut ma'zur".

Shoh boqib g'arib dasturxonga,
Suv ichdi, qo'l cho'zmadi nonga.

Dedi: "Non yegandim boya, rahmat,
Bir narsa so'raymen, javobin ayt.

Gunohi ne edi anuv itni,
Bo'ridek osibsen badbaxtni?"

4500 Chol dedi: "Ey mehmon, barno yigit,
Bunda ne kechganin aytaman, eshit.

Bu ko'ppak posbonim edi suruvga,
Qo'ylarni ishonib qo'ygandim unga.

Vafodor edi menga, sodiq edi,
Har nechuk ta'rifdin ortiq edi.

Yaqin yo'latmasdi o'g'rini,
Qoniga bo'yardi bo'rini.

Yurardi molim muhofaza etib,
Erkalardim uni cho'ponim deb.

4505 Tishi, panjasi to'kardi xun,
Temir bilagim erdi kunu tun.

Gar shaharga tomon tutsam yo'l,
Suruv unga qolar edi butkul.

Shaharga ushlanib qolganim kezi,
Suruvni qo'raga haydardi o'zi.

Necha yillar yatoqdorlik etdi,¹⁷¹
Rost yurib, rostkorlik etdi.

¹⁷¹ Yatoqdorlik – poyloqchilik, posbonlik.

4510

To bir kuni tashvishlanib necha,
Suruvni men sanamaguncha.

Sanadim, yetti bosh erdi kam,
Sanoqda adashdim deb magaram,

Hafta o'tgach, yana sanoq etdim,
Kam chiqdi, birovg'a aytmadim.

Kechalar uxlamay poyladim garchand,
Kelmadi, ro'baro' bo'lmadi dushman.

Itim mendin yuz bor hushyor edi,
Poyloqchi it degancha bor edi.

Suruvni sanadim yana bir bor,
Avvalgidek kam chiqdi takror.

4515

Yotdim necha tunlar g'am yebon,
Suruvda qo'ylarim kam debon.

Qo'ylarim kamayib borardi,
Quyoshda muz kabi erib borardi.

Ish borib oxiri shungacha yetdi,
Qolgan qo'yim bari zakotga ketdi.

Molimdan ayrilib, g'amga to'ldim men,
Suruv egasinas, cho'pon bo'ldim men.

O'shal g'am bo'lgancha bo'ldirdi meni,
Jigarimni yoqdi, o'ldirdi meni.

4520

Dedim: "Menga yomon ko'z tegmish,
Qo'yimni qiyratgan ne yirtqich emish?"

Itim bo'ribosar, misli sher erdi,
Kim yondashib, uning pinjiga kirdi?

Bir kuni suv bo'yida uxlardim,
Uyg'onib, g'am ichra uflardim.

Boshimni bir yog'ochga qo'yib,
Bexavotir uxlagandim to'yib.

Ko'rdim, bir urg'ochi bo'ri paydo
Bo'lib, ko'ppagimga suygandi nogoh.

4525

Bir nima deb g'udrandi sekin,
It aylandi uning atrofidin.

Suykanib, o'zicha u ham so'z qotdi,
Goh dumi, goh qulog'in o'ynatdi.

Keyin urg'ochining ustiga uchdi,
Qulog'idin tishlab, belidan quchdi.

Nafsini qondirgach, yotdi kelib,
Ovoz chiqarmadi, qotdi tosh bo'lib.

Bo'ri itimga chun berib pora,
Xizmat haqqin undirdi yuz bora.

4530

Sovlig'im bor edi qo'y degulik,
Suruvga bosh edi, dumbasi yirik.

Bo'ri o'shal qo'yga chovut soldi,
Yiqitdi, oyoq ostiga oldi.

Bir nafasda edi, bitirdi uni,
Shu bo'ldi rishvatli ishning yakuni.

Mal'un it nafsini qondirmoq uchun
Suruvni bo'riga bermishdi butun.

Shahvat deb shu nuqtaga etmishdi,
Qo'y berib, ishqbozlik etmishdi.

4535 Necha muddat uni kuzatdim,
Ne xayolga borib, gumon etdim.

Va nihoyat tutdim bo'ri bilan,
Oyoq-qo'llarini boylashim shundan.

U pastkashlik qildi, shaytonlik.
Bandaga ravodir bandafarmonlik.

Endi itmas, bo'ridir butkul,
Qo'ylarimning qassobidir ul.

Omonatga xiyonat ayladi,
Soqchi bo'lib, jinoyat ayladi.

4540 Osdim, osig'liq turar muncha,
To tanidin jon chiqmaguncha.

Gar kishi gunohga jazo bermas,
Hech kim unga ofarin demas".

Shoh tinglab bu sirri savdoni,
O'ziga dars oldi pinhoni.

Hikoyat ramz erdi tamom, bildi,
Xayr deb shaharga yo'l oldi.

Dedi: "O'rgatdi shu cho'poni pir,
Ne ermish shohligu ne ermish tadbir.

4545 Cho'pon qissasidin hissa keldi shu:
Men cho'ponmen, raiyatim suruv.

Vazirga aylabon himoyatimni,
Topshirganmen anga raiyatimni.

Ishda tamal sust ersa har na,
Ishongan odaming solur raxna.

Vazirdin so'rgaymen, bersin javob,
Nechun bugun mamlakat xarob?"

Shaharga qaytdi va shu ondin,
Mahbuslarni bo'shatdi zindondin.

4550 Ular nomasiga solgan edi ko'z,
Ko'z o'ngida tundek qoraydi kunduz.

Ko'rdi minglab majruh, shikasta, siniq,
Nomlari nomada yozilmish aniq.

Yana har nomada shundoq bitilmish:
"Shoh qatl buyurmish, vazir avf etmish".

Shohni har gal shundoq aylamish badnom,
O'ziga munosib ko'rmish yaxshi nom.

Shoh bildiki, vazir chunon aylar,
Uy o'g'risi uyni talon aylar.

4555 Suruvni bo'riga topshirgan itday,
Mamlakatni xarob etmish atay.

Itlik tabiatin it etar ayon,
Boshda hurib, so'ngra solgay talon.

Yaxshisi, vazirning shashtin etib sust,
O'n kuncha zindonband etganim durust.

Uni mansabida qoldirsam magar,
Mardum unga qarshi bora olmaslar.

Hukmu hashamatdin aylasam yiroq,
Qorong'u tunda nur ko'rinur porloq".

Shoh Bahrom vazirni so'roq qilgani

4560 Saboh ufuqda yuz ochdi lolagun.
Qaro choyshabini yig'ib oldi tun.

Subhidam yalang'och shashiri ila
Oyni o'z qoniga qordi baralla.

Chodirini ko'kka yuksaltdi Bahrom,
Buyurdi kelsin deb xosu avom.

A'yonlar kirib birin-ketin.
Shoh oldida saf chekishdi keyin.

Rosravshan dag'i eshikdin kirdi,
Kekkayib sadrgoh tomon yurdi.

4565 Shoh unga g'azabli otdi nigoh,
Bir hayqiriq ila o'ldirdi go'yo.

Dedi: "Ey mulkni xarob etgan,
Ravnaq-rivojini sarob etgan.

Ganjingni gavharga qording-da,
Ganjimni etding parokanda.

Sipohdin kesib nonu yarog' mutloq,
Na non qoldi sipohda, na yarog'.

Zaxmu ziyon etding menga qanchalar,
Qo'lingni botirding qonga qanchalar!

4570 Raiyatdin, aylab rasmi xiroj,
Goh kamar talab etding, goh toj.

Haqqi ne'matni etmading yod,
Senda insof yo'q, sharmu uyat!

Har kimsada bordir dinu iymon,
Kufri ne'mat dinsizlikdin yomon.

Ne'mat haqqin bilganga shak yo'q,
Ne'mat anga berilgan ortiq.

Xizimatingdin ne bahramandlik,
Na rostlik senda, na ravshanlik.

4575

Lashkaru ganjga yetkazding ranj,
Na lashkar qoldi bizga, na ganj.

O'yladingki, sharobxo'rlik etib,
Yotarmen bunda uyquga botib.

Sen ahli a'yonni g'amga qording,
Davlatmandlar oyog'in sindirding.

Tuproq boshigakim magar Bahrom
Shamshirin unutsa olganda jom.

Mayu soz-la o'zni unutgan asno
Men g'ofil emasdim falakdin aslo".

4580

Keyin necha chanbar keltirib, barin
Bo'yniga soldilar birin-birin.

Shoh buyurdi, sazoyi aylabon,
Eltsinlar bihishtdin do'zax tomon.

Sallasini kamand ayladilar,
Shu yo'sin zindonband ayladilar.

Oyog'ida kunda, qo'lida zanjir,
Endi mahbus edi, emasdi vazir.

Shoh andoq shikanja ayladi garchi,
Qanoat qilmadi, jo'natdi jarchi.

4585

To shaharga chiqib jar solsin kushod,
Jafokashlarga shoh aylar arzu dod.

Sipohu fuqaro oyoqqa turib,
Keldilar shoh dargohiga bosh urib.

Shoh buyurdi, zindoniylar dag'i
Kelishsin, ne emish yurak dog'i.

Ne emish gunohi, bayon etsin,
Begunohligiga nishon etsin.

Zindoniylar yo'llarda saf tortib,
Keldilar ming kishidin ortiq.

4590 Shoh yetti jafokashni tanlab,
Hol-ahvolin so'rdi bittalab.

So'rdi: "Aybu gunohingni ayt,
Qaydansen, manzilgohingni ayt?"

Birinchi mazlunning shikoyati

Avvalin mazlum dedi: "Ey Bahrom,
Dushmaning bo'lib dushmankom.

Rostravshan o'shal jabr qildi,
Qiy nab, birodarimni o'ldirdi.

Taladi, bor bisotini oldi,
Molu hol, minar otini oldi.

4595 Mardum uning dardini tuydilar,
Yaxshi yigit edi deb kuydilar.

Zolinga yog'dirdim dashnom, nafir,
Meni shunda tutqun etdi vazir.

Dedi: "Birodaring dushman edi,
Sen ham bizga dushmansan endi".

G'uriy shotiriga etdi ishorat,
Uyimni bir pasda ayladi g'orat.

Har neki borimni taladi, oldi,
Qo'l-oyog'imga kishan soldi.

4600

Birodarim ketdi bag'ri dog'liq,
Men bunda qo'l-oyog'im bog'liq.

Zindonda yotdim necha yillar,
Shohim shoyad adolat qilsalar?"

Bo'ylakim shohga so'yladi mazlum,
Bo'ldi vazir qilmishi ma'lum.

Vazirki ne o'marmish erdi,
Barin olib, mazlumga berdi.

Ozod ayladi, dilxush etdi,
Mazlum shodu mamnun uyiga ketdi.

Ikkinchi mazlum shikoyati

4605

Ikkinchi mazlum duo aylab daroz,
Yer o'pib dedi: "Ey shohi bandanavoz,

Bor edi ajab chaman bog'im
Unga erdi bor mehru ardog'im.

Jannat edi, xushhavoyu yashil,
Har og'ochda meva shig'il-shig'il.

Kuzda ham go'yo navbahor edi,
Otamdin menga yodgor edi.

Bir kuni dard bo'lib dog'imga,
Keldi u sitangar bog'imga.

4610 Mehmon qildim, qo'ydim mevayu may,
Mehmon atoyi Xudodir, hay.

G'ar neki bog'imda yetishmish xub,
Oldiga to'kdim xush kelibsan deb.

Yeb-ichdi, kuldi, uxladi, tin oldi,
Sharobdin ham o'z hissasini oldi.

Turib, sayri bog' ayladi, bas,
Bog' sayridin bo'ldi mamnun mast.

Dedi: "Menga sotgil bog'ingni,
Men ravshan etay charog'ingni".

4615 Dedim: "Bog' – mening jonimdir,
Nechuk sotgaymen, ayshdonimdir.

Har kimning bir ishqini bor, ajab,
Men yurarmen bog'im ila yashab.

Bog', o'ylakim, seningdir mudom,
Men bog'boning, balki bir g'ulom.

Har gal istar esang, et shitob,
Sayr ayla, meva yeb, ich sharob.

Oshxonamda har neki hozirdur,
Bir gulbadan sufrangga keltirur”.

4620 Dedi: “Cho‘zma, qo‘y oh-voyni,
Bog‘ingni menga sot, bo‘shat bu joyni!”

Ko‘p jahd etdi aylab sho‘ru shar,
Foydasiz erdi menga zo‘ru zar.

Oqibat kiyna mast etdi ani,
To‘hmatu yolg‘onga ko‘ndi meni.

Zo‘ravonlik etib, zalolat ila
Bog‘imni tortib oldi ablah.

Jabru sitamlar etdi menga.
Aytsam, ozor yetar shohimga.

4625 Xullas, zindonga soldi oqibat,
Ikki yilkim, chekarmen uqubat”.

Shoh ul mazlumni-da ayladi shod,
Bog‘u manzil berdi chun Bag‘dod.

Uchinchi mazlum shikoyati

Uchinchi mahbus dedi: “Shohim,
Shafqat aylab, eshitgil ohim!

Banda erdim bozorgoni daryo,¹⁷²
Ro‘zgorimda har ne muhayyo.

¹⁷² Dengiz savdogari.

Daryoga goh-gohda chiqsam-da bir bor,
Foyda ko'rar edim men bisyor.

4630 Bir dono uchradi yo'lda tingladim,
Durning yaxshi-yomonin angladim.

Necha gavhar tushdi qo'limga andoq,
Tongotar gavhari kabi porloq.

Qaytdim uyga ko'nglim quvonch to'la,
Ko'zim ravshan tortib gavhar ila.

Istadim durru gavharim sotsam,
Ayshu rohatimga sarf etsam.

Ul vaziri zolim xabar topmish,
Ki menda shoda marvarid etmish.

4635 Chaqirdi, dedi: sotib olgayman,
Narxini etmadim uncha baland.

To'lov payti kelganda lek makkor,
Turfa bahonalar etdi oshkor.

Men haqim istasam chekib hasrat,
U bahona aylardi faqat.

Kunlar kechaverdi shitob aylab,
U umidvor etardi shirin so'ylab.

Bir kuni chaqirib mehmonga,
Xuniylar ila soldi zindonga.

4640

Bo'ynimga to'hmatu gunoh yukladi,
Boshimga necha mojaro yukladi.

Bir shoda durru gavharga evaz,
Qo'l-oyog'imga kishan soldi maraz.

Ul mening gavharimga chang soldi,
O'tanib oh chekish menga qoldi.

Gavharim yonib uning bosh ustida,
Men qolib sadafdek choh ostida,

Uch yildirki chun zindonbandmen,
Shoh diydorin ko'rib xursandmen".

4645

Shoh vazir ganjini anga ochdi,
Gavharin berdi, yana zar sochdi.

To'rtinchi mazlum shikoyati

To'rtinchi shaxs qaltirab ortiq,
Dedi: "Ey ming maqtovga loyiq!

Mutribmen, oshig'u g'arib bir jon,
Barbat chalarmen chun obi ravon.

Sevgilim bor edi, ajab guloyin,
Nozanin erdi ul, ofati Chin.

Nuri oyni etardi ravshan,
Yuzi yorug' kunduz edi, shan.

4850

Gulruxsor, g'unchadahani erdi,
Kulgusi shakkarshikan erdi.

Husni erdi bahordanam zebo,
Xonayu bog'da ul guli ra'no.

Etagiga tushar edi sochi,
Erdi ko'zu ko'nglim quvonchi.

Sotib olgandim xarj etib pul,
Jonim valine'mati erdi ul.

Sochilardi yursa har sori
Zulfi toridir mushki motori.

4655 Mendin o'rganib tarannumi soz,
Bo'lmishdi sozanda, dilnavoz.

Ikkimiz bo'lib chun hamxona,
Ul sham edi, men unga parvona.

Men oshiq, ul tunlarimda charog',
Men shod, ul gulshani bog'.

Rostu ravshan edi ul mahliqo,
Rostravshan etdi andin judo.

Shamni eltib yotog'ida yoqdi,
Parvonani firog'ida yoqdi.

4660 Hijronida kuydim men kun-tuni,
Yo'l izladim qutqarmoqqa uni.

Meni zindonband etdi ajdaho.
Dedi: devonaga zanjir ravo.

Anga asira bo'ldi ul sanam,
Men chekib zindonda jabru sitam.

To'rt yilki qulligu asirlikda,
Yotibmen bo'ylakim haqirlikda”.

Shoh topshirdi anga sevar yorin,
Yana molu ashyo sazovorin.

4665 Kelinga mahr berdi, jihoz.
Ikkisini etdi banddin xalos.

Beshinchi mazlum shikoyati

Beshinchi shaxs dedi: “Ey shohu darvesh,
Yuksak koshonangga falak bo'lsin esh!

Men falon rasadgoh raisi erdim,
Har lahza shohingga tasanno derdim.

Mashg'ulotim – yurtga husnu orolik.
Odatim – elga vafodorlik.

Xudoyim qo'llabon, davlati shoh
Bermishdi, molu mulk, ne'matu joh.

4670 Omon bo'lsin deya shohi Sharq
Etardim dunyoni quvonchga g'arq.

Yo'l yursam, shohimni duo aylardim,
Xayr etib, tasadduqi shoh aylardim.

Shahru ko'y erdim chaman mendin,
Ahli donish bahramand mendin.

Mamlakatda dilafruz edim,
Ne jonlarga risqi ro'z edim.

Yo'qsillarga berib dinor, diram,
Bevalar to'q edi, yetimlar ham.

4675 Har kim zar istasa, berardim anga,
Yiqilganlar suyanardi menga.

Darmonda qolganga tushib qasdım,
Oyoqqa turmaguncha qo'ymasdim.

Har neki kelsa ahli dehqondin
Uni ayamasdim mehmondin.

Xarj etardim, ko'zlamasdim sud,
Xalq rozi erdiyu Xudo xushnud...

Chun vazirga bu gap borib yetdi,
U zulm qozonin qaynatdi.

4680 Qo'ymadi, joh-jalolim oldi.
Taladi, mulku molim oldi.

Dedi: "Bu mol mehnatingdanmas,
Yetgan ehsoning ulardin past.

O'q yoqib, iksir etgandirsən?
Yoki xarvor ganj topgandirsən?

Ulushim ber menga, hamon olgum,
Yo'qsa, boshingga jafo solgum".

Shunday deb jabru jafo etdi,
Bor bisotimdin mosuvo etdi.

4685 Alal-oqibat dardmand ayladi,
Keyin tutdi, zindonband ayladi.

Besh yildirki, men zindon aro
Yotibmen oilamdin ayro”.

Shoh buyurdi, ozod aylab hamon,
Berdilar molu mulkini tamom.

Oltinchi mazlum shikoyati

Navbat endi oltinchiga yetdi,
Ul dardini chun bayon yetdi.

Avval shoh duosida aytib so‘z,
Dedi: “Ey mehringdin xalqqa rizqi ro‘z!

4690 Menki bir kurdzoda askarmen,
Bobolarim naslidin gavharmen.

Sipohlar sipohimen, baland,
Otam ham shohga xizmat aylagan.

Shohim dushmanlarin solib yo‘lga,
Quvgaymen shamshirim olib qo‘lga.

Shoh burda nonimni minnatidin,
Bergandi lutf etib ne‘matidin.

Non uchun shukrona so‘ylar edim,
Shohimga posbonlik aylar edim.

4695

Vazir kelib, dargohdin haydadi,
Meni mashaqqatga g'arq ayladi.

Bandadirmen, mulku molim yo'q,
Maoshindin bo'lsak manolim yo'q.¹⁷³

Necha bor yolbordim arz etib,
Insof ayla, dedim, dodimga etib.

Umid qildim, adolat aylar deb,
Meni o'z ishimga tayinlar deb.

Dedim: "Bechoramen, dod etgil,
Rizqimni devondin kushod etgil.

4700

Vazir hayqirdi: "O'chir uningni!
Chora top, o'zing ko'r kuningni!

Shohga yetmas kimsadin ranju alam,
Ehtiyoj yo'q navkar tutmoqqa ham.

Dushman eshigiga kelolmas magar,
Hojat bormi etmoqqa jang-jadal?

Ishlaganga ish bor har joyda,
Mehnat qil, sog'lig'ingga foyda.

Yegulik noning yo'qsa, solma dod,
Otingni, qurol-aslahangni sot".

¹⁷³ Manol – boylik ma'nosida.

4705

Dedim: "Shaytonni quv, balodin qo'rq,
Mening holimga boq, Xudodin qo'rq.

Noinsoflik etib, o'yin o'ynama,
Mashaqqatga qolganni qiynama.

Sen tunda yotarsen podshodek,
Men tutarmen qo'lda shamshir ila tik.

Sen mulk so'rarsen, ilkingda qalam,
Men qo'lda shamshir-la qo'yarmen qadam.

Sen sipoh qonini to'karsen ortiq,
Men shoh dushmaniga urarmen tig'.

4710

Shoh amriga o'zni musallam tut.
Yo'qsa, shoh fitrokin tutarmen zud".

G'azabga mindi ul so'zim eshitib,
Men bechoraga bir bo'hton bitib,

Dedi: "Nodonlarcha urma dam,
Kesakmasmanki suvdi qo'rqsam!

Gohi g'animplarga qilarsen taqlid,
Gohida shohimga etarsen tahdid.

Shohni har narsadin etarmen ogoh,
Xatimsiz bo'lmagay oqu qaro.

4715

Shohlar boshi oyog'im ostida,
Hukmim barcha hukmlar ustida.

Boshda yalinmasayding menga,
Loshing yedirardim itlarga”.

Shuni aytib, meni kishanga soldi,
Otim, yarog’imni qo’limdin oldi.

Yana bir bor qo’lin botirdi qonga,
Zulm aylab, haydadi meni zindonga.

Qariyb olti yilki, balki ziyod
Zindondamen, chekib jabru bedod”.

4720 Shoh kiydirdi anga xil’ati xos,
Omon bo’lsin shohi bandanavoz!

Lutfini marhamat sari burdi,
Mulkini ikki karra orttirdi.

Yettinchi mazlumning shikoyati

Yettinchi shaxski so’zga lab ochdi,
Shoh sha’niga duo, shakar sochdi.

Dedi: “Jahondin qo’l yuvganmen, bas,
Yo’lchi zohiddirmen, xudoyparast.

Ravshan nazarlimen, o’ylaki sham,
Yonarmen, atrofim yoritarmen ham.

4725 Jahoniy oqibat ko’ringach menga,
Etak silkkandirmen jahonga.

Hama xo’rduxobdin bebahrdirmen,
Qoyimullayl, soimuddahrdirmen.¹⁷⁴

¹⁷⁴ Tunlari toat-ibodat etib. doimiy ro’zadormen.

Kunduzi yemakka suvu nonim yo'q,
Kechasi yotishga xonumonim yo'q.

Toat-ibodatdir mudom tashvishim,
Xudoyparastlikdin o'zga yo'q ishim.

Har kimsani ko'rsam, istarmen rizo,
Har kimni yod etsam, aylarmen duo...

4730

Meni huzuriga chorladi vazir,
Bordim, joy ko'rsatdi ko'z tikib mag'rur.

Dedi: "Sendin yomon gumonim bor,
Azob bermoqqa chun imkonim bor.

Dedim: "Ey sandiy, gumoning ne?
Bu qahru itob aylagoning ne?"

Dedi: "Qo'rqamen yomon duoyingdin,
O'lim kelmasmu deb Xudoyingdin?"

Yomon fe'ling tufayli meni
Duoyi bad etarsen har kuni.

4735

Men ul duoyingdin hazar etarmen,
O'q bo'lib nishonga tegsa, netarmen?

Duoying o't bo'lib yonmasdin avval,
Sharori boshimga yog'masdin avval.

Qo'llaring boylarmen duodin to'sib,
Zanjirband etarmen bo'yningga osib.

Qo'ymadi to ishni ado qilmadi,
Qanchalar g'am chekdim, parvo qilmadi.

Shu yo'sinda zahmat chekdim yetti yil,
Ikki oyog'imda kishan erdi zil.

4740 Qo'l-oyog'imga gar soldi kishan,
Men ko'kni titratdim ohim bilan.

Gar qo'limni to'sdi duo, toatdin,
Men ilkini kesdim mulku davlatdin.

Gar meni qal'ada etdi ul zindon,
Men uning qal'asin ayladim vayron.

Xudoyim yetkazdi meni shohimga,
Andoq javob bo'ldi nola, ohimga".

Shoh bag'riga bosdi zohidni,
Sheri kofirkushu mujohidni.

4745 Dedi: "Xudodin qo'rqishi rost hamon,
Boshqa har ne demish yolg'ondir tamom.

Duoni chun daf etolmaslar,
Hukmi zohidni rad etolmaslar.

Ul vazirki qabohat aylardi,
O'zini duoyi bad aylardi.

Duoyi bad etib haddiga bu dam,
Boshin uzdi tandin, dastorin ham.

Vazirda mulk, bisot ne ersa ul,
Shoh zohidga dedi: "Seniki butkul!"

4750

Zohid baridin yuz burdi.
Qo'zg'aldi, shamoldek charx urdi.

Dedi: "Bulardin ozodmen. ko'rdim.
Yaxshirog'i berki, yaxshisin berdim".

Savti sozsiz raqs etib, alqissa,
G'oyib bo'ldi, ko'rmadi bir kimsa.

Yo'lehilar ul zamon chunon erdilar,
Ahli zamin dema, osmon erdilar.

Ul guruh gar odamnasabdirlar,
Shaytonlar odamlaqabdirlar.

4755

Bir yetuk may to'ldirguncha jom,
Sarflanur minglab g'o'rayi xom.

Yetuk uldirki, bo'yla xomlardin
O'zni yiroq tutgay bormas yaqin.

Shoh Bahrom zolim vazirni qatl etgani

Chang bosgan gilam erdi er, qo'zg'aldi,
Namiqqan tuprog'in quyoshga soldi.

Shoh xokiy g'ishtxona sahnida yotib,¹⁷⁵
Namiqqan g'isht edi g'am chekib ortiq.

¹⁷⁵ Xokiy g'ishtxona – dunyo.

Yo'l izlardi, chora-tadbir topib bot,
Gulni tikanlardin aylasa ozod.

4760

Jahon jafosiga nazar etmishdi,
Adlu muruvvatni hunar etmishdi.

Vazir qilmishini yod etib har gal,
Xijolat chekardi, derdi: alhazar!

Tunlari xijolatdin uxlay olmasdi,
Ko'ngli dard chekardi, chekay olmasdi.

Yer tutdi chun safo guldonini,
Quyosh ekdi unga rayhonini.

Shoh cdi yetishgan rayhon ul,
Tashnalar uzra sochdi rayhon gul.

4765

Amr etdi, taxti bor qursinlar,
Borgoh oldida dor qursinlar.

Jamoat jam bo'lib, shoh o'tirdi,
Qo'lda qilich-la ahli xos turdi.

O'tirdi yurt ulug'larin dag'i,
Yuksaldi boz adolatning tug'i.

Xaloyiq seldek oqib har yoqdin,
Yig'ildi sahro din, vohadin, tog'din.

Ul jafopeshakim edi vazir,
Keltirdilar, qo'l-oyog'ida zanjir.

4770

Keyin dor ostiga ravona bo'ldi,
Sharmsorlik bilan o'g'ridek o'ldi.

Shoh dedi: "Kim boshin ko'tarsa g'oz,
Zamon aylar uni boshidin xalos.

Yomonlik bila eslanur nomi,
Yomonlarning yomondir anjomi.¹⁷⁶

Zolim zulm etarkan elga,
Adolatpeshalar tiqar go'rga.

O'ylamaki, adl beyor erur,
Yeru ko'kda adolat bor erur.

4775

Kimsaki mardumga sitam aylar,
O'zi oyog'iga kishan boylar".

Shohkim bo'yla adlu dod etdi,
Itu bo'ri, cho'ponni yod etdi.

Chorladi cho'ponni, shohlik berdi,
Baxt berdi osoyishu shodlik berdi.

Yurtni mushaqqatdin forig' etdi ul,
Bermadi zo'ravon, zulmkorga yo'l.

Yetgach andoq yaxshi chorayu tadbir,
Temiri zar bo'ldi, palosi harir.

4780

Lashkaru ganj kelib har yoqdin,
U daryodin kechdi, bu oshdi tog'din.

¹⁷⁶ Anjom – bu yerda oxir, oqibat ma'nosida.

Chin hoqoni Bahromdin uzr so'ragani

Chun hoqonga yetib bordi xabar,
Chekindi ortiga, bitdi dardisar.

Elchi yo'llab, uzr tiladi, bas,
Shohning rizoyisiz olmadi nafas.

Dedi: "Shoh o'ldirgan ul ko'mamak,
Koni ofat edi, fitnaga tirak.

Necha noma yo'llab, meni chorladi,
Necha muddat makru firib ayladi.

4785 Necha firib ila avrab nuqul,
Yo'lga soldi men soddadilni ul.

Dedi: Xazinada zar mo'l, yo'l ravon,
Xatimni o'qigach, yo'lga tush hamon.

Shohning mastlik ila ayanchdir holi,
Yuzini yuvmoqqa yetmas majoli.

Xizimatingga kamar boyladim chindan,
Sendin qilich ersa, bosh kesish mendan".

Xabar topdim shohning ishidin necha,
Emasdi ul vazir aytganicha.

4790 Jang-jadalmi, tinchlik ayyomidir yo,
Shoh zarur chorani etgay ado.

Men hamon qulingmen, ul halqakashmen,¹⁷⁷
O'zim Chindanmenu senga habashmen.

Qizim kanizaki xonang erur,
Tojim xoki ostonang erur".

Shoh sha'niga tosh otib tinmayin,
Har nechakim yozmishdi ul lain,

Yig'ib, hoqon a'yoniga berdi,
Eltib buni shohga bergil. dedi.

4795 Shoh o'qigach nelar yozmishdi shum,
Ayon bo'ldi shumning niyati, mash'um.

G'azabi o't oldi, shunga barobar
Yaratganga aytdi shukronalar.

Keyin ishga azmu qaror etdi,
Davlat ishlarini ustuvor etdi.

Adl paykari shoh nazdida behad
Oqu qarolikda ko'rsatdi ibrat.

Shohki uning jamoliga yetdi,
Yetti paykarin fido etdi.

4800 Uzdi o'zga xayollar ildizin,
Sevdi faqat adolat yulduzin.

¹⁷⁷ Halqakashmen – amringga hozirmen.

Bahrom ishining oxiri, uning bir g'orga kirib,
ko'zdin g'oyib bo'lgani

Ul shoda gavharkim to'lib nurga,¹⁷⁸
Dunyo qulog'ini to'ldirdi durga.

Dedi: "Yetti gumbazdin mayu jom
Sado berdi, eshitdi Bahrom.

Aql shunda idrok gumbazidin
Xabar berdi anga o'zgasidin.

Ki, yarashmas senga bu gumbazi xok,
Yiroq tur andin, o'zni etma halok!"

4805 Shohning aql gumbazi jo'sh urdi,
Fusunu fasonadin yuz burdi.

Ko'rdiki, bu gumbaz, charxi ofoq
Hama gumbazlarni etar tuproq.

Dunyoga yetti gumbazin qoldirdi,
O'zga gumbaz sari yo'l oldi.

Gumbazki, fano etolmagay past,
To qiyomat yotar unda mast.

Chorladi, yetti mo'bad keldi,
Har biriga bir gumbazin berdi.

¹⁷⁸ Ul shoda gavharkim – ya'ni, "Yetti go'zal", "Bahromnoma" dostoni.

4810

Va ularga o't urdi nogoh,
Yetti gumbaz bo'ldi otashgoh.

Sarbun oltmishga qo'yib qadam,
Binafshada ko'rindi yosuman.¹⁷⁹

Chin yurakdin bo'ldi Xudoyparast,
Xudparastlikdin ul chekdi dast.

Kechdi toju taxtdin shahriyor,
O'zini ovlashga ayladi qaror.

Sayd etgali chiqdi so'yi sahro,
O'zini ovlash erdi muddao.

4815

Lashkar kezardi cho'lda charx urib,
Har biri go'ru ohu axtarib.¹⁸⁰

Har biri izlabon go'rdin iz,
U go'rga talabgor edi yolg'iz.¹⁸¹

Go'r izladi necha go'r maskanidin,
Ohu ovladi lek o'z tanidin.

Go'ru ohu izlama, bu tuproq sho'r,
Ohusi ohu, go'ridir go'r...

Dasht bag'ridin bir qulon etdi,
Keldiyu Bahrom oldidin o'tdi.

¹⁷⁹ Bahrom oltmishga yetganda sochlari oqardi.

¹⁸⁰ Go'r – qulon.

¹⁸¹ Go'r – bu yerda qabr ma'nosida.

4820

Shoh bildiki, bu farishtasimon
Jannatga yo'l ko'rsatur hamon.

Chun qulon ortidin ot surdi,
Qistab otini qamchi urdi.

Ov ortidin yo'l bosardi shitob,
Biyobon erdi, manzillar xarob.

Yellar o'zolmasdi uchib otidin,
Ikki navkar kelardi ortidin.

Bor edi ul xarobistonda g'or,
Yozda muz quduqdek salqini bor.

4825

Unda tirqish edi toru siqin,
Kimsa o'tolmasdi ul raxnadin.

Qulon ul raxnadin kechdi-o'tdi,
Shoh sher yanglig' ortidin yetdi.

Surdi otini tirqish tomon,
Kirdi, g'or bo'ldi unga oshiyon.

Navkarlari kelib apil-tapil,
G'or og'zida tutdilar manzil.

Na yo'lki, kirib, g'orni titsalar,
Na jur'atki, ovda davom etsalar.

4830

Ko'zni yo'lga tikmishdilar shu on,
Ko'ringaymu deb lashkardin nishon.

Chun arodin talay fursat o'tib,
Har tarafdin lashkar keldi yetib.

Shoh izidin yetib, g'or ko'rdilar,
G'or ichra necha mor ko'rdilar.¹⁸²

Navkarlar so'ylab shohning holidin,
Arz etdilar kechgan ahvolidin.

Ki shikor aylab ot surganin,
Keyin o'zni shu g'orga urganin.

4835 Va g'oyib bo'lganin, alqissa,
Lekin bunga ishonmasdi kimsa.

Hama derdiki, bu g'alat erur,
Qavli nodonu bexirad erur.

Tangriga qasamki, piltan shahriyor,
Shunday bir tirqishga sig'magay zinhor.

Bilmasdilarki, ul fili bo'ston
Tush ko'rmishu yurmish so'yi Hinduston.

Pahlavon bandi bo'lmish tandin.
Kim uni ozod etar banddin?

4840 Shohimizdin ko'rsat deb bir nishon,
Navkarlarni urdilar yomon.

¹⁸² Mor – ilon.

Ularning ohidin taraldi dud,
Faryod chekdilar dardolud.

Nido chekdi: "Shohingiz shunda,
Qayting, shohning ishi bor bunda!"

Necha kimsa ahli kor erdilar,
Shohni izlab, g'orga kirdilar.

Axtardilar, kimsa yo'q edi,
O'rgunchakdin o'zga yo'q edi.

4845 Yuzlarni ko'z yosh-la yuvdilar,
Izlab, o'zni har yon urdilar.

Shohdin bir nishon bermadi g'or,
G'or oldida saf chekdilar qator.

Yig'lab, necha ko'z yosh to'kib ular,
Shohning onasiga berdilar xabar.

Onasi keldi chun chekib faryod,
Shunday o'g'ildin ayrilmish, hayhot!

Onaning boshida ne ko'rgulik,
Jon ila izladi o'g'lini sho'rlik.

4850 Izladi gul, o'mniga yantoq topdi,
Izladi o'g'lin ko'p, kamroq topdi.

Zar to'kdi keyin xirmon-xirmon,
Lashkarlarga qazinglar lahm debon.

Choh qazib, ganjga yo'l topolmadi,
Chohda Yusufni ul topolmadi.

Tuproqlarki, qazdirdi ul ajuz,
Uyum-uyum bo'lib yotmish hanuz.

Bilimdonlarki, andin o'tmishlar,
"G'ori Bahromi go'r" deb aytmishlar.

4855 Qirq kuncha betinim qazdilar zamin,
Shuncha tuproq qazgan yana bormikan?

Qazdilar to chiqmaguncha suv,
Suv ko'rindi, ammo ko'rinmadi u.

Ulki ko'kka eltmishdi raxtini,
Erdin izlamoq mushkul uni.

Yerda suyak qolur, nima bor jonga,
Osmonga mansubi ketar osmonga.

Har jasadkim, zamin oshyonasi,
Tuproq onasi bor uning, qon onasi.

4860 Qon onasi yetar uni e'zoz,
Tuproq ona olur bag'riga boz.

Bahromning bor edi qo'sh onasi,
Tuproq ona edi parvonasi.

Bag'riga bosdi ul, bermadi qaytib,
Chorasozlar olurmu chora etib?

Qon onasi rangini so'ldirdi,
Dardu g'am chekib, o'zin o'ldirdi.

Chun harorat unga asar yetdi,
Qulog'iga hotif sasi yetdi:

4865

“Ey g'aflatda yelib-yugurganlar,
Qush sutini g'aybdin so'rganlar!

Haq bermishdi omonat sizga chun,
Vaqt yetdi, oldi ul omonatin.

O'zgalar omonati deb muncha,
Kuydirma o'zni to o'lguncha.

Ishingga qayt, qolma bozordin,
Qo'lingni tiy ranju ozordin!”

Chun hotifdin yetishdi bu payom,
Ona o'g'lidin umid uzdi tamom.

4870

Qaytdi. hayotiga band bo'ldi,
O'g'lining mashg'ulotiga band bo'ldi.

Vorisga topshirdi mulkni bir yo'la,
Vorisi borlar o'lmagay sira.

Ey Bahromi go'rdin berguvchi xabar,
Bahrom go'rin izla, bormu samar?

Bahromi go'r bizga hamroh emas,
Go'ri Bahrom dag'i paydo emas.

Ko'rding, ul zo'ravon bo'lganda qandoq,
Qulonlar taniga soldi yara, dog'.

4875 Go'r dog'ini ko'rma ish avvalida,
Dog' go'rini ko'r ish oxirida.

Ming go'rni vayron ayla, ey falon,
Borar joying go'r bo'lgay begumon!

Dunyo – ikki eshik orasi magar,
Biridan kirganlar biridan chiqar.

Ey buyurmish uch gaz tuproq senga,
Do'koningda to'rt xum bo'yoq senga.¹⁸³

Har luqmaki, me'da bag'riga olur,
Xilt uni o'z buyog'iga solur.

4880 Boshdin-oyoq seni makon tutmish,
Ana shu to'rt xilt, oriyapo'sh.¹⁸⁴

Netarsen ularga ko'ngil berib,
Bir kuni berarsen qaytarib?

G'oyiblarki, yuzni berkitdilar,
Rangi ro'ylarin ham tark etdilar.

To Qiyomat oyoqqa turmaslar,
Ochib yuzlarin ko'rsatmaslar.

¹⁸³ To'rt xum bo'yoq – inson tani bamisoli xum, unda to'rt moya boylanmish: qon, safro, savdo va balg'am.

¹⁸⁴ Oriyapo'sh – muvaqqat narsaning yopinchiq'i, qobig'i.

Yo'l xavflidir, kecha xatarda,
Mirshab uyqudayu o'g'ri guzarda.

4885

Xoksorlarni to'ydirar tuproq,
Tubanlar tubanga tusharlar mutloq.

Ey seni, qo'li baland, xujasta inson,
Nega ularni deb chekasan fig'on?

Ko'kni qo'l ostingda ko'rmoq esang, tur,
Shu zamindin kechib, falakka bosh ur.

Qayrilib, ortingga boqma hech qachon,
To yiqilmagaysen yerga nogahon.

Osmonda yulduzlar marjondir senga,
Ne emish ul hama, qurbondir senga.

4890

Bosh mashaqqatlarga majol o'zing,
"Tangalusho" yanglig' xayol o'zing.¹⁸⁵

Har biri sendin olur timsol,
Sen nechun ulardin ocharsen fol?

Ular istagan nur ham o'zing,
Ular izlagan dur ham o'zing.

Nuqtaparvar bir xatingdin bo'lak,
Barcha harf daftaringdandir beshak.

¹⁸⁵ "Tangalusho" – rumlik musavvirlar kitobi.

4895

Mavjudotdin murod sensan bil,
Maxluqotlar bari senga dalil.

Yaxshi inson bo'l, yomon bo'lma,
Hayvonlar-la yurib, hayvon bo'lma.

Yaxshi-yomon hisobin et faqat,
Istaging bo'lsin ilmu xirad.

Yo ochlik bilmagan eshikni qoq,
Yo andoq bo'lki bo'lmanish andoq.

Ko'zgaki nur emas, hijob tushgay,
Osmonu malakdin yiroq tushgay.

Falakka ishtiyoqmand ul zamiy,
Malakka mezbon ham odamiy.

4900

Yuzingni bur, ko'ngilni etma g'ash,
Tokay senga tuproq, yel, suv va otash?

Hujrakim, to'rt darichayu devor,
Dilu diydangga ul ermasmi tor?

O'g'rilar ko'yi bu, qo'sh eshikli chun,
Ayyorlar bandedek unda to'rt tugun.

Seni haydab solmaslardin avval,
Yukingni ulovga yukla tugal.

Jon ila yo'lga tush, tan qiltiriqdir,
Yukni kamroq yukla, oting oriqdir.

4905

Insonni dunyoga vido qilur,
Jismida hamon mayli jon bo'lur.

Ulki bilgay nedir jon degani,
Jasadsiz ham yashar uning joni.

Sen o'ylaysanki, ey bahonatalab,
Shu dunyo bordiru boshqa hech gap...

Bu dunyo uzundir, kengish eni,
Xayolimiz oshib o'tolmas uni.

Yiroqlarda necha borliq erur,
Ularga begona zulmatu nur.

4910

Yaratiqlar ko'pdir, bisyordir, faqat
Yaratuvchi bitta, tanhodir abad.

Bu yetti lavh, to'rt tiynatni ham
Ibtidodin bitmish bir qalam.

Yettimas, to'rt yuz bo'lsa-da ul,
Bitta irodaga musallam erur.

Avvalin nuqtayu oxirin pargor
Bitta irodaga bo'ysunar zinhor.

Ikkilikda ko'rinmagay vasli,
Birlikda ko'r, bittadir asli.

4915

Ikkilik ham birlikdin yetdi,
Birlik qolib, ikkilik ketdi.

Bu tuproq qo'rg'onga kelgaydir kishi,
Kelganning muqarrar ketmoqdir ishi.

Ohista yurki, ul hushyor turgusi,
Tutganda sust tutib, zud o'ldurgusi.

Garchi hukm etarkan, zabunkush emas,
Hisobida hech kim faromush emas.

Garchi minglab o'yinlar o'ynarsen,
Qismatdin ortig'in yeyolmagaysen.

4920 Ko'kning muz qoplagan hovuzi bor, chin,
Qachongacha faxr etarsen andin?

Bu havoda gar g'amgin bo'lgaysen.
Tirik bo'l, oxir-oqibat o'lgaysen.

Ulki charxdek olamni sayr etdi,
Oqibat baridin kechib ketdi.

Foniy dunyo uni adamga surdi,
Falak aylantirdi, egib o'ldirdi.

Jahon ne'matlari ko'zing o'ngida,
Ulardin bahra ol tirikligingda.

4925 Bir kun ajal yetib, tahdid aylagach,
Jahondin ketarsen osuda, beranj.

Jonni qutqar ketmasingdin burun,
Uni qutqargaysen o'limdin.

Xor aylab jahonning uyin, esang oz,
Joningni jahondin etarsen xalos.

Ikki narsa yigitga zeb emish,
Biri ko'p saxovat, bir kam yeyish.

Kimki buyuklikka qo'ygay qadam,
Shu ikki narsadin chiqargay nom.

4930

Ko'p yeganlar o'sib, yuksalmish qachon?
Xasislarga himoyat bo'lmish qachon?

Muhtasib darrasi tanga dog' solur,
Xasislik dog'i ul, xasislar olur.

Kimga aqlu xirad yor esa o'sha,
Yaxshilikni afzal bilur hamisha.

Magar xosu avom jahonda chandon,
Ammo hech kimsaga qolmagay jahon.

Nechun bu dunyoga bergaysen ko'ngil,
Hamisha qon ichib, qasdingdadir ul?

4935

Va har imoratkim, jahonda porloq,
Tuproqdir, bosbiga sovursin tuproq!

Falakning domidin o'zingni qutqor,
Ki mingan minbaring emish senga dor.

Dorda tirik qolgum demagil hargiz,
Dordin tirik qolgan Masihdir yolg'iz.

Gar zamin bosh ursa ko'kka bir zamon,
Tuproqlar talpinur o'shanga hamon.

Gar kimsa falakka yetkazsa tojin,
Olsa yetti iqlim boju xirojin,

4940 Bir kuni bosh egib aylabon ta'zim,
Ajalga jonini etadi taslim.

Bu tuproqni xavfu xatarsiz dema,
Ganjini ilonsiz, zaharsiz dema.

Xurmo bormidirki, tikoni yo'qdir?
Mo'hra bormidirki, iloni yo'qdir?

Jahonda yaxshidir, yomondir, yohu,
Og'uda shakar bor, shakarda og'u.

Kishi gar avvalda asal totgay,
So'ngra ari nishin jabrini tortgay.

4945 Dunyo bolariga o'xshaydi juda,
Og'zida asaldir, zahar nishida.

Nuru zulmat ichra eshshak ham biroq
Iso'ning mehridin emasdir yiroq.¹⁸⁶

Kimdir ul, zaminda bunyod etib taxt,
Tuproqqa kirmamish oxir-oqibat?

¹⁸⁶ Bu yerda Iso alayhissalom minib, Baytul muqaddasga kirib borgan eshak nazarda tutilmoqda.

Yo Rab. bandangga ber osonlik,
Keltirma oxirda pushaymonlik.

Nizomiyga karam eshigin och,
Joy ber panohingdin, mehringni soch.

4950 Avvalda yaxshi berding nomin,
Oxirda yaxshi et saranjomin...

Kitob xotimasi va Alouddin Karp Arslonga duo

Nur socharkan bu durru shahvor,
Ganjadin naqd bo'lib rumiykor.¹⁸⁷

Shahanshoh nomiga boyladim uni,
Naqshidin bahramand aylasin meni.

Shohi chiniyqaboyu rumiy toj,
Chinu Rumdin kelur unga xiroj.

Usuli furo "birla topdi u
Baxti lsho'yu royi Baxtisho".¹⁸⁸

4955 Uning huzurida yer o'par osmon,
Borliq tutmish yolg'iz uni deb makon.

Osmon xizmat etib unga kunu tun,
Ikkita non olur xizmati uchun.¹⁸⁹

¹⁸⁷ Rumiykor – rumiyona ishlangan.

¹⁸⁸ lsho'' – Iso alayhissalom, Baxtsho'' – abbosiylar saroyining mashhur tabibi. Baytning ma'nosi: Alouddin Arslon din ahkomlari, shariat qonunlarini qat'iy joriy etib, oliy darajaga yetishdi.

¹⁸⁹ Ikkita non – quyosh va oy.

Muruvvati sochar mushku anbar,
Tuproqdin goh sochilgandek gavhar.

Yerdin to ko'kkacha garchi kir ko'pik,
Sharaf andin kelur, aningdir soflik.

Muhtojlar uchun ul saxovat bahri,
Makkaning qumidin ziyoddir zari.

4960 Tig'i bir zarb ila ushatar toshni,
Olov qoplagandek gurra og'ochni.

Otgan o'qi hatto qilni qirq yorar,
Tog'ning kindigini qonlarga qorar.

Sovuti sindirar saboh nayzasin,
Nayzasi uzar oy zirhi halqasin.

Olti jihati sovutida tugun,
Kamandiga yetti falak tutqun.

Ey Nizomiy umidvor sendin,
Nazmi davroni ro'zgor sendin.

4965 Qadringni shu ahli jahon bilur,
Osmon ham uni onchunon bilur.

Suvda ko'k aksidek yaqinsen, yiroq,
Oyinada quyosh kabi porloq.

Olam ahliga rahnamodirsən,
Ustuvordirsənki, shohdirsən.

Hamamizga malaksen, shohim,
Ustunlikda falaksen, shohim.

Nomingdin izzatu safo topsin deb,
Nomamni nomingga etdim deb.

4970

Gavharning joyi gar erur toj,
Bir kimsa qo'l cho'zib, etgaymu toroj?

Nomam ko'nglingga gar pisand bo'lgay,
Taxtingdek yuksalib, baland bo'lgay.

Tikanning ustiga to'kilsa sharbat,
Tarangubin derlar ahli xirad.

Uzdim ko'ngil bog'im mevasin,
Lazzati sut-asal totidek shirin.

Donasi anjir zavqini berur,
O'rtasida bodom mag'zi bo'lur.

4975

Ahli zohir uchun zohiri go'zal,
Ahli botin uchun botini asal.

Qutisi to'ladir duru gavharga,
So'zlar, iboralar kalitdir unga.

Kim kalit etolsa iboralarni,
O'shal ipga tizar duru gavharni.

Nazmida har neki yaxshidir, yomon,
Ramzu ishoratdir o'sha begumon.

Va har afsonaki, erur yagona,
Ganjxona bil uni. dema afsona.

4980 Har ne qisqa edi, bilib haddini,
Nazmim-la uzaytib, cho'zdim qaddini.

Har ne uzun erdi, haddidin ortiq,
San'atimla uni qisqartdim tortib.

Bo'yladir shoirming shohga sovg'asi,
Yog'li ustuxondek shirindir mag'zi.

Ko'rarsen husni sori solsang nazar,
Naqshi jilvasida necha bir hunar.

Barakasi ziyod, ammo xarji kam,
Har daqiqa ortar yana ganji ham.

4985 Necha nozaninki jonlar qasdida,
G'unchadek turarlar parda ostida.

Bir misrasi zardir, birisi yoqut,
Da'vodin yiroqdir, ma'noga to'liq.

Har neki istadim, ko'ngil qa'ridin
Chiqardim Allohning ikki harfidin.¹⁹⁰

Yetti xazinaning sohibidir chun,
Yetdim oroyishin kengish va uzun.

¹⁹⁰ Ikki harf – kun (bo'l)

G'araz uldirki, bu husnu oroyish
Baxsh etsin ko'zlarga zavqu osoyish.

4990 Kengish bisotimdin nur tarab, ziyo,
Ko'zlar, quloqlarni etdim mahliyo.

Ma'no go'zallarimni ko'rganlar,
Tor nazardin yuzlarni burganlar.

Bilsinlar, har go'zal ganjga kon,
Zulflari ostida zar kalit pinhon.

Har kim ochsa bu konni, zar topgay,
Lojaram dur topgay, guhar topgay.

Menki bir naqqoshi nayqalam,
Xurmo sochar og'ochim damba-dam.

4995 Nayi kilkim yetishtirib gulim,
Atorudga yetkazdi sunbulim.

Sunbulimni sunbulga etdi xos,
Garchi "al qos lo yuhibbul qos".

Qanoatim qal'asidin yaksar
Keltirdim shohga chun ganji guhar.

Joizdir zar yetsa nisor menga,
Sababki, Ro'yindiz qarzdor menga.

Qarzdorlik boisi faqirlikmas,
Ro'yindiz zoru bediram emas.

5000

Temiri toshlarni kesib tugal,
Yuz farsangga sochar olmosu la'l.

Do'st ilkida la'li gar jonajon,
Olmosi dushmanlarga beomon.

Qal'amas, musulmonlik ka'basi,
Ruhoniy yo'lchilarning maqdasi.¹⁹¹

Yerning oltin mixi, markazi ham,
Nomi Ro'yindizdir, mustahkam.

Qofdin to Qofgacha uning ermish,
Zuhroning zirhin ham o'zi yirtmish.

5005

Qasrining eshigi Rahmatog' magar,
Buqubaysdir kulohidin kamar.

Boqiy bo'lsin bu xatti pargor,
Quyoshdek yuksakda tutsin qaror.

Qal'ani chun hisor aylashar,
Nomani qabutarga boylashar.

Kabutar nomani eltar shod,
Valine'matga etar faryod...

Menki shahrbandmen yurtimda,
Yo'lim to'siqdir oldu ortimda.

¹⁹¹ Maqdas – Baytulmuqaddas.

5010

Noma bitib, uchirdim qushni, hay,
Toki uni shahanshohgina eltgay.

Ey falak eshigingda halqabago'sh,
Ham xatopo'shu ham xatoyipo'sh!¹⁹²

Chun davlating menga yorlik etdi,
Ta'bim ko'r, ne sehrkorlik etdi!

Besh yuz to'qson uchda so'zga berib erk,
Yozdim bu asarni pahlavonlardek.

Ramazon oyining xuddi o'n to'rti,
Quyosh botganiga to'rt soat erdi.¹⁹³

5015

Senga qutlug' bo'lsin bu go'zal payvand,
Taxtingda hamisha o'ltir sarbaland.

Bu doston din simir obi hayoting,
Xizrdek abadiy bo'lur hayoting.

Ey jovidon senga mulki obodlik,
Mulka umring yoru umringga shodlik!

Agar ranjimasang va tutsang ma'zur,
Nasihat yo'lida so'zim shul erur:

Bazmlaring go'zal, jo'shqin, serkulgu,
Ul bazmi abadiy deganlari shu.

¹⁹² Xatopo'sh – aybu nuqsonlarni bekituvchi. Xatoyipo'sh – Xitoyning qimmatbaho kiyimlarini kiyuvchi.

¹⁹³ Milodiy 1197 yil, 31 iyul, kechasi soat o'n ikki

5020

Xazinang to'la garchi gavharu ranj,
Rohat shul erurkim. boshqasi ranj.

Yuz yilmas, besh yuz yil kechsa-da xushhol,
Sen yasha, boshqalarga bo'lsin zavol.

Va bu xazinakim, xosi dargohdir,
To dunyo turguncha senga hamrohdir.

Va bu so'z kim, aqlu xiraddin erdi,
Sening duoying-la tugatay endi.

Muzaffar bo'l, omonda bo'lsin boshing,
Falak rikobingda mudom farroshing.

5025

Davlatning boru ziyodat bo'lgay,
Avvalu oxiring saodat bo'lgay.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| So'zboshi | 3 |
| Debocha | 22 |
| Hazrat Payg'ambar (sav) madhi | 27 |
| Hazrati Rasulilloh (sav) me'roji | 30 |
| Podshoh Sa'id Alouddin Karp Arslon haqqiga duo..... | 44 |
| Yer o'pib, aytur | 52 |
| So'z ta'rifi va pandu nasihat | 59 |
| O'g'lim Muhammadga nasihat | 74 |
| Bahrom dostoni ibtidosi..... | 81 |
| Simnor ta'rifi va Xavarnaq qasrining qurilgani | 85 |
| Xavarnaq ta'rifi va Nu'monning g'oyib bo'lgani..... | 92 |
| Bahrom ov qilib, qulonlarga tamg'a bosgani..... | 98 |
| Bahrom bir o'q bilan sher va qulonni qulatgani | 101 |
| Bahrom ajdahoni o'ldirib, xazina topgani | 103 |
| Bahrom Xavariq qasrida yetti go'zal suratini ko'rgani | 110 |
| Bahrom otasi vafotidan xabar topgani | 114 |
| Bahrom Fronga qo'shin tortgani..... | 118 |
| So'z avvali | 119 |
| Eron podshosining Bahromgo'rga maktubi | 122 |
| Bahrom eroniy-larga javob bergani | 127 |
| Bahrom ikki arslon orasidan toj olgani..... | 138 |
| Bahrom otasi o'rninga taxtga o'ltirgani..... | 140 |
| Bahromshohning adolat xutbasi..... | 142 |
| Bahromshohning nechuk podsholik etgani..... | 144 |
| Qahatchilik yuz berganda Bahromning xalqqa mehru muruvvat ko'rsatgani | 148 |
| Bahrom va uning kanizagi dostoni | 153 |
| Kanizak shohni mehmonga chaqirishni Sarhangga maslahat bergani | 161 |
| Sarhang Bahromshohni mehmon etgani..... | 162 |
| Chin hoqoni Bahromshoh ustiga lashkar tortgani..... | 171 |
| Shoh Bahrom sarkardalarni koyigani. | 181 |

| | |
|---|-----|
| Shoh Bahrom yetti iqlim shohlarining qizlarini so'ragani | 189 |
| Shoh Bahrom qishda bazm etgani va yetti gunbaz tiklagani | 191 |
| Yetti gunbaz ta'rifi | 203 |
| Shoh Bahrom shanba kuni qora gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va birinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 205 |
| Afsona | 206 |
| Shoh Bahrom yakshanba kuni sariq gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va ikkinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 253 |
| Afsona | 255 |
| Shoh Bahrom dushanba kuni yashil gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va uchinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 275 |
| Afsona | 276 |
| Shoh Bahrom seshanba kuni qizil gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va to'rtinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 298 |
| Afsona | 300 |
| Shoh Bahrom chorshanba kuni ko'k gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va beshinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 327 |
| Afsona | 328 |
| Shoh Bahrom payshanba kuni sandalrang gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va oltinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani..... | 367 |
| Afsona | 369 |
| Shoh Bahrom juma kuni oq gumbazli qasrda taxtga o'ltirgani va yettinchi iqlim podshosi qizidan afsona tinglagani | 400 |
| Afsona | 401 |
| Chin hoqoni ikkinchi bor qo'shin tortganidan Bahromning xabar topgani | 430 |
| Shoh Bahrom cho'pondan nasihat eshitgani | 441 |

| | |
|--|-----|
| Shoh Bahrom vazirni so'roq qilgani..... | 448 |
| Birinchi mazlumning shikoyati..... | 451 |
| Ikkinchi mazlumning shikoyati | 452 |
| Uchinchi mazlumning shikoyati | 454 |
| To'rtinchi mazlumning shikoyati..... | 456 |
| Beshinchi mazlumning shikoyati..... | 458 |
| Oltinchi mazlumning shikoyati..... | 460 |
| Yettinchi mazlumning shikoyati | 463 |
| Shoh Bahrom zolim vazirni qatl etgani | 466 |
| Chin hoqoni Bahromdan uzr so'ragani..... | 469 |
| Bahrom ishining oxiri, uning bir g'orga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lgani..... | 471 |
| Kitob xotimasi va Alouddin Karp Arslonga duo | 485 |

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Shartli b.t. 31
Adadi 100

